$$D_\gamma(\mathbf{k}, z) = \int \frac{d\mathbf{q}}{\varepsilon_{\mathbf{k},\gamma}(\mathbf{q}) - z}.$$

Функция  $D_\gamma(\mathbf{k}, \cdot)$  непрерывна и строго возрастает на каждой из полуосей  $(-\infty, \varepsilon_{min,\gamma}(\mathbf{k}))$  и  $(\varepsilon_{max,\gamma}(\mathbf{k}), \infty)$ . Непрерывность функции  $D_\gamma(\mathbf{k}, \cdot)$  следует из непрерывности подынтегральной функции, а монотонность вытекает из неравенства  $\frac{\partial D_\gamma}{\partial z}(\mathbf{k}, z) > 0$ . Из монотонности функции  $D_\gamma(\mathbf{k}, \cdot)$  следует существование конечного или бесконечного предела

$$\lim_{z \rightarrow \varepsilon_{min,\gamma}(\mathbf{k})} D_\gamma(\mathbf{k}, z) = D_\gamma(\mathbf{k}, \varepsilon_{min,\gamma}(\mathbf{k})).$$

Если  $\gamma \neq 1$  и  $k_i \neq \pi$ ,  $i = 1, 2, 3$ , то предел конечен.

**Лемма 1.** Число  $z \in \mathbb{C} \setminus [\varepsilon_{min,\gamma}(\mathbf{k}), \varepsilon_{max,\gamma}(\mathbf{k})]$  является собственным значением оператора  $h_{\mu,\gamma}(\mathbf{k})$  тогда и только тогда, когда  $\Delta_{\mu,\gamma}(\mathbf{k}, z) = 0$ .

**Доказательство.** Пусть точка  $z \in \mathbb{C} \setminus [\varepsilon_{min,\gamma}(\mathbf{k}), \varepsilon_{max,\gamma}(\mathbf{k})]$  является собственным значением оператора  $h_{\mu,\gamma}(\mathbf{k})$ ,  $\mathbf{k} \in \mathbb{T}^3$ , и  $0 \neq \psi \in L_2(\mathbb{T}^3)$ -соответствующая собственная функция, т.е.

$$(\varepsilon_{\mathbf{k},\gamma}(\mathbf{q}) - z)\psi(\mathbf{q}) = \mu \int_{\mathbb{T}^3} \psi(\mathbf{t})d\mathbf{t}.$$

Отсюда заключаем, что собственная функция  $\psi(\cdot) \equiv \psi_{\mu,\mathbf{k}}(\cdot)$  имеет вид

$$\psi_{\mu,\mathbf{k}}(\mathbf{q}) = c \cdot \frac{\mu}{\varepsilon_{\mathbf{k},\gamma}(\mathbf{q}) - z}, \quad (1)$$

где  $c \neq 0$  – нормировочный множитель. Проинтегрировав обе части последнего равенства, получим

$$c = \int_{\mathbb{T}^3} \psi_{\mu,\mathbf{k}}(\mathbf{t})d\mathbf{t} = c\mu \int_{\mathbb{T}^3} \frac{d\mathbf{t}}{\varepsilon_{\mathbf{k},\gamma}(\mathbf{t}) - z},$$

таким образом,  $c\Delta_{\mu,\gamma}(\mathbf{k}, z) = 0$ .

Пусть уравнение  $\Delta_{\mu,\gamma}(\mathbf{k}, z) = 0$  имеет решение  $z \in \mathbb{C} \setminus [\varepsilon_{min,\gamma}(\mathbf{k}), \varepsilon_{max,\gamma}(\mathbf{k})]$ ,

тогда для любого  $c \neq 0$  функция  $\psi$ , определенная по формуле (1), принадлежит пространству  $L_2(\mathbb{T}^3)$  и удовлетворяет уравнению  $h_{\mu,\gamma}(\mathbf{k})\psi = z\psi$ .

Отметим, что функция  $D_\gamma(\mathbf{k}, \varepsilon_{\min, \gamma}(\mathbf{k}))$  симметрична относительно перестановки любых двух переменных  $k_i, k_j$ , четна по каждой  $k_i \in [-\pi, \pi]$  и она строго возрастает по каждой  $k_i \in [0, \pi], i = 1, 2, 3$ . При каждом фиксированном  $z \leq 0$  функция  $D_\gamma(\cdot, z)$  строго убывает по каждой  $k_i \in [0, \pi], i = 1, 2, 3$ . При этом имеют места равенства:

$$\min_{\mathbf{k} \in \mathbb{T}^3} D_\gamma(\mathbf{k}, \varepsilon_{\min, \gamma}(\mathbf{k})) = \max_{\mathbf{k} \in \mathbb{T}^3} D_\gamma(\mathbf{k}, 0) = D_\gamma(\mathbf{0}, 0) = \frac{1}{\mu_\gamma}$$

где

$$\mu_\gamma = (1 + \gamma) \left( \int_{\mathbb{T}^3} \frac{d\mathbf{q}}{\varepsilon(\mathbf{q})} \right)^{-1}.$$

**Теорема 1.** Пусть  $\mu > \mu_\gamma$ . Тогда при всех  $\mathbf{k} \in \mathbb{T}^3$  оператор  $h_{\mu, \gamma}(\mathbf{k})$  имеет единственное простое собственное значение  $z_{\mu, \gamma}(\mathbf{k})$ , лежащее ниже существенного спектра.

**Доказательство.** Функция  $D_\gamma(\mathbf{k}, \cdot)$  непрерывна и строго возрастает на каждой из полуосей  $(-\infty, \varepsilon_{\min, \gamma}(\mathbf{k}))$  и  $(\varepsilon_{\max, \gamma}(\mathbf{k}), \infty)$ . Непрерывность функции  $D_\gamma(\mathbf{k}, \cdot)$  следует из непрерывности подынтегральной функции, а монотонность вытекает из неравенства  $\frac{\partial D_\gamma}{\partial z}(\mathbf{k}, z) > 0$ . Из монотонности функции  $D_\gamma(\mathbf{k}, \cdot)$  следует существование конечного или бесконечного предела

$$\lim_{z \rightarrow \varepsilon_{\min, \gamma}(\mathbf{k})} D_\gamma(\mathbf{k}, z) = D_\gamma(\mathbf{k}, \varepsilon_{\min, \gamma}(\mathbf{k})).$$

Из неравенства  $1 < \mu D_\gamma(\mathbf{k}, \varepsilon_{\min, \gamma}(\mathbf{k}))$  заключаем, что функция  $\Delta_{\mu, \gamma}(\mathbf{k}; z)$  имеет единственный простой нуль в интервале  $(-\infty, \varepsilon_{\min, \gamma}(\mathbf{k}))$ . Далее, из леммы 1 вытекает, что оператор  $h_{\mu, \gamma}(\mathbf{k})$  имеет единственное простое собственное значение  $z_{\mu, \gamma}(\mathbf{k}) < \varepsilon_{\min, \gamma}(\mathbf{k})$ .

**Лемма 2.** Собственное значение  $z_{\mu, \gamma}(\mathbf{k}) = z_{\mu, \gamma}(k_1, k_2, k_3)$  симметрично и четно по каждой переменной  $k_i \in [-\pi, \pi], i = 1, 2, 3$ , и строго возрастает по каждой  $k_i \in [0, \pi], i = 1, 2, 3$ . При этом  $z_{\mu, \gamma}(\mathbf{0}) = 0$ .

**Доказательство.** В силу леммы 1 собственное значение  $z_{\mu, \gamma}(k_1, k_2, k_3)$  есть решение уравнения  $\mu D_\gamma(\mathbf{k}, z) = 1$ . Симметричность и четность  $z_{\mu, \gamma}(\mathbf{k})$  следует из симметричности и четности функции  $D_\gamma(\mathbf{k}, z)$ . Докажем возрастание функции  $z_{\mu, \gamma}(k_1, k_2, k_3)$  по  $k_1$  на отрезке  $[0, \pi]$ . Пусть  $k'_1 < k''_1 \in [0, \pi]$  произвольные числа и  $\mu D_\gamma(\mathbf{k}', z') = \mu D_\gamma(\mathbf{k}'', z'') = 1$ , где  $\mathbf{k}' = (k'_1, k_2, k_3), \mathbf{k}'' = (k''_1, k_2, k_3)$ . Функция  $D_\gamma(\cdot, z)$  строго убывает аргумент  $k_1 \in [0, \pi]$ , поэтому  $D_\gamma(\mathbf{k}', z') < D_\gamma(\mathbf{k}'', z') = D_\gamma(\mathbf{k}'', z'')$ . Так как функция  $D_\gamma(\mathbf{k}, \cdot)$  строго возрастает, то имеем  $z' < z''$ , т.е.  $z_{\mu, \gamma}(\mathbf{k}') < z_{\mu, \gamma}(\mathbf{k}'')$ . Отсюда следует, что

$$\min_{\mathbf{k} \in \mathbb{T}^3} z_{\mu, \gamma}(\mathbf{k}) = z_{\mu, \gamma}(\mathbf{0}) = 0.$$

Теперь докажем основной результат этой работы:

**Теорема 2.** Для каждого  $\gamma > 0$  и  $\mu > 3(1 + \gamma)$  справедливы следующие оценки

$$-\mu + 3(1 + \gamma) - \frac{9(1 + \gamma)^2}{\mu} < z_{\mu, \gamma}(\mathbf{0}) \leq z_{\mu, \gamma}(\mathbf{k}) \leq z_{\mu, \gamma}(\boldsymbol{\pi}) < -\mu + 3(1 + \gamma).$$

**Доказательство.** Из утверждения леммы 2 непосредственно вытекает соотношение  $z_{\mu, \gamma}(\mathbf{0}) \leq z_{\mu, \gamma}(\mathbf{k}) \leq z_{\mu, \gamma}(\boldsymbol{\pi})$ . Если мы покажем существование чисел  $z', z'' < 0$  таких, что

$$\Delta_{\mu, \gamma}(\mathbf{0}, z'') > \Delta_{\mu, \gamma}(\mathbf{0}, z_{\mu, \gamma}(\mathbf{0})) = 0 = \Delta_{\mu, \gamma}(\boldsymbol{\pi}, z_{\mu, \gamma}(\boldsymbol{\pi})) > \Delta_{\mu, \gamma}(\boldsymbol{\pi}, z'),$$

тогда из монотонной убываемости функции  $\Delta_{\mu, \gamma}(\mathbf{k}, \cdot)$  на  $(-\infty, \varepsilon_{\min, \gamma}(\mathbf{k}))$  можно заключить, что  $z'' < z_{\mu, \gamma}(\mathbf{0})$  и  $z' > z_{\mu, \gamma}(\boldsymbol{\pi})$ . Для каждого  $z < 0$  имеем

$$\begin{aligned} \Delta_{\mu, \gamma}(\boldsymbol{\pi}, z) &= 1 - \mu \int_{\mathbb{T}^3} \frac{ds}{\varepsilon(\mathbf{s}) + \gamma \varepsilon(\boldsymbol{\pi} - \mathbf{s}) - z} \\ &= 1 - \mu \int_{\mathbb{T}^3} \frac{ds}{3(1 + \gamma) - z - (1 - \gamma)\xi(\mathbf{s})} = \\ &= 1 - \frac{\mu}{3(1 + \gamma) - z} \int_{\mathbb{T}^3} \frac{ds}{1 - \frac{(1 - \gamma)\xi(\mathbf{s})}{3(1 + \gamma) - z}} = \end{aligned}$$

$$= 1 - \frac{\mu}{3(1+\gamma) - z} \int_{\mathbb{T}^3} \left[ 1 + \left( \frac{(1-\gamma)\xi(\mathbf{s})}{3(1+\gamma) - z} \right)^2 + \left( \frac{(1-\gamma)\xi(\mathbf{s})}{3(1+\gamma) - z} \right)^4 + \dots \right] d\mathbf{s}. \quad (2)$$

Здесь мы воспользовались равенством

$$\int_{\mathbb{T}^3} \xi^{2n-1}(\mathbf{s}) d\mathbf{s} = 0, \quad n = 1, 2, \dots$$

Пусть  $z' = -\mu + 3(1+\gamma)$ . Тогда из имеем

$$\Delta_{\mu,\gamma}(\boldsymbol{\pi}, z') < 1 - \frac{\mu}{3(1+\gamma) - z'} \int_{\mathbb{T}^3} d\mathbf{s} = 1 - \frac{\mu}{3(1+\gamma) - z'} = 0.$$

Принимая во внимание, что  $|\xi(\mathbf{s})| \leq 3$  для каждого  $z < 0$  мы получим равенство, аналогичное равенству (2):

$$\Delta_{\mu,\gamma}(\mathbf{0}, z) > 1 - \frac{\mu}{3(1+\gamma) - z} \int_{\mathbb{T}^3} \left[ 1 + \left( \frac{3(1+\gamma)}{3(1+\gamma) - z} \right)^2 + \left( \frac{3(1+\gamma)}{3(1+\gamma) - z} \right)^4 + \dots \right] d\mathbf{s} = 1 - \frac{\mu}{3(1+\gamma) - z} \frac{1}{1 - \left( \frac{3(1+\gamma)}{3(1+\gamma) - z} \right)^2}.$$

Теперь выбирая  $z'' = -\mu + 3(1+\gamma) - \frac{9(1+\gamma)^2}{\mu}$ , получим

$$\Delta_{\mu,\gamma}(\mathbf{0}, z'') > 1 - \frac{\mu}{\mu + \frac{9(1+\gamma)^2}{\mu}} \frac{\left( \mu + \frac{9(1+\gamma)^2}{\mu} \right)^2}{\left( \mu + \frac{9(1+\gamma)^2}{\mu} \right)^2 - 9(1+\gamma)^2} = \frac{\left( \frac{9(1+\gamma)^2}{\mu} \right)^2}{\mu^2 + 9(1+\gamma)^2 + \left( \frac{9(1+\gamma)^2}{\mu} \right)^2} > 0.$$

Теорема 2 доказана.

**Следствие 1.** При всех  $\gamma > 0$  и  $\mu > 3(1+\gamma)$  имеет место неравенство.

$$0 \leq z_{\mu,\gamma}(\boldsymbol{\pi}) - z_{\mu,\gamma}(\mathbf{0}) \leq \frac{9(1+\gamma)^2}{\mu}.$$

Султонов Турсинбой (ТДИУ доценти, фалсафа фанлари номзоди)  
**ТАРАҚҚИЁТ ЖАРАЁНИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТ ВА ИЛМ-ФАННИНГ ЎЗARO  
 АЛОҚАДОРЛИГИ**

**Аннотация.** Ушбу мақолада тараққиёт стратегияси билан bogлиқ бўлган олий таълим тизимида илм-фан ва унга эътибор миллий иқтисодий ва инновацион жиҳатдан ривожлантиришнинг асосий манбалардан бири ҳақидаги ижтимоий-фалсафий фикрлар баён этилган.

**Аннотация.** В данной статье социально-философские мысли о науке и внимание к ней в системе высшего образования, связанные со стратегией развития, являются одним из основных источников технологического и инновационного развития национальной экономики.

**Annotation.** In this article, socio-philosophical thoughts about science and attention to it in the system of higher education, related to the development strategy, are one of the main sources of technological and innovative development of the national economy.

**Калим сўзлар:** олий таълим, илм-фан, инновацион тараққиёт стратегияси, глобал инновацион индекс, миллий тараққиётни белгилувчи фикрлар.

**Ключевые слова:** высшее образование, наука, стратегия инновационного развития, глобальный инновационный индекс, идеи, определяющие национальное развитие.

**Key words:** higher education, science, innovation development strategy, global innovation index, ideas that determine national development.

**Илм** (араб.) илм-фан – ўқиш, ўрганиш ҳамда ҳаётий тажриба асосида орттирилган билим ва малакалар мажмуи, фан. Инсон фаолиятининг жабҳаларидан бири, олам ҳақидаги объектив билимлар олишга, асослашга, тизимлаштиришга йўналтирилган соҳадир. Илм-фан деганда тарихий ривожланувчи билимларга айтилади. Илм ақл нуридир. У инсонларни борликни ҳис қилиш, воқеликни идрок этиш, маънавий ва моддий оламни англашга, тафаккурини шакллантиришга ундайди. У инсонларга бахт келтиради, ёруғликка чорлайди, жаҳолатдан йироқлаштиради. Зиёли инсонлар жамиятнинг етакчилари ҳисобланади. “Илм олиш игна билан кудук қазिश”, деб бежиз таъкидланмайди. Илм чексиз олам, тубсиз кудукдир. Шунинг учун донолар айтадики, “Илм эгарланган отдир – билганга дўст, билмаганга душман”. Илмли инсоннинг сўзи равон, аниқ ва тушунарли бўлади, илмсиз одамда ишончсизлик кучли, нутқида мавҳумлик кўпроқ сезилади.

Немис ёзувчиси Эрих Мария Ремарк шундай деган: илмсизлик инсонни эркин қилади, лекин ғам-ғуссага ҳам ботиради. Мамлакатимиз интеллектual ва технологик салоҳиятини оширишнинг узок муддатли сценарийлари асосида устувор соҳа ва тармоқларни инновацион ривожлантиришнинг келажакдаги моделларини шакллантириш имконини борадиган стратегик режалаштириш тизимини яратиш бўйича Илм-фанни 2030 йилга режалаштириш концепцияси ишлаб чиқилган.

“Дунёда илм-фан соҳасидаги ютуқлар айнан фундаментал тадқиқотлар йўналишида қўлга киритилгани тасодифий эмас. Шунинг учун эндиликда фундаментал фанларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, соҳани иқтидорли ёш кадрлар билан таъминлаш давлатимизнинг муҳим вазифаларидан бири сифатида кун тартибига қўйилмоқда...Эндиги вазифа нафақат илмий тадқиқотлар ва ишланмаларни молиявий қўллаб-қувватлаш, балки уларнинг натижаларини амалиётга татбиқ этишга қаратилган самарали механизмларни яратишдан иборат”.<sup>1</sup>

2020–2023 йилларда республикамизнинг 13 та ҳудудида “Ёшлар технопарки”ни босқичма-босқич ташкил этиш белгиланди. Шунингдек, Навоий ва Бухоро, Самарқанд вилоятларида фаол йигит-қизлар иштирокида Ёшлар академиясининг учрашувлари ўтказилди.

Ёшлар академияси аъзолари сони 1,5 минг нафарга етди. 2020 йилда энг яхши 20 та “Стартап лойиҳалар” танлови эълон қилинди. Вилоятларда 15 нафар лидер танлаб олинди, 40 та тадбир ўтказилди, Ёшлар академиясининг 200 нафарга яқин аъзоларининг иқтисодий билимларини ривожлантириш бўйича маҳорат дарслари уюштириш режалаштирилган. Илм-фан ва технологияларнинг жадал ривожланиши, глобал дунёда рақобатнинг ортиши шароитида ҳар бир давлат ва жа-

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т., “O‘zbekiston”, 2022, 230-бет.



миятнинг бу жараёнда рақобатбардошлиги ёшларнинг интеллектуал ривожига ҳамда уларнинг истеъдоди ва қобилиятларини тўлиқ амалга оширишга эътибор беришга боғлиқ бўлади.

Бугунги кунда олий таълим муассасаларида 800 мингдан ошди талабаларга 32 228 нафар профессор-ўқитувчилар таълим бермоқда. Шундан илмий даражалилар – 12 686 нафар бўлиб, фан доктори (DSc) – 2657, фан номзодлари (PhD) – 10 029 нафарни ташкил этади, яъни бу кўрсаткич 2017 йилга нисбатан 63 фоизга ошган. Ўз навбатида, олий таълим муассасаларининг илмий салоҳияти кўрсаткичи 2017 йилда 31,9 фоизга тенг бўлган бўлса, ҳозирда (2022) 39,3 фоизга етказилди.

ОТМда 2017 йилда диссертациялар ҳимоялари бўйича атиги 23 та илмий кенгашлар фаолият юритган бўлса, 2021 йилда уларнинг сони 172 та бўлди.

2017 йилга нисбатан 2021 йилда фан доктори илмий даражасини олиш учун диссертациялар ҳимоялари икки бараварга (яъни, 122 тадан 244 тага) ва фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун диссертация ҳимоялари деярли олти бараварга (яъни, 221 тадан 1521 тага) ошишига эришилди. 2022 йилда республика олий таълим муассасалари (ОТМ)да жами 5281 нафар докторант таҳсил олмақда (шундан, 4964 нафар PhD), 317 нафар DSc, 5036 нафар мустақил изланувчилар (4545 нафар PhD), 491 нафар DSc.

Докторлик диссертация ҳимоя кўрсаткичи 3,6 баробарга оширилди, илмий даражали педагоглар улуши республика бўйича 39 фоизга етказилди. 2021 йилда Олий ўқув юртларидан кейин таълим қабул квотаси 4 баробарга ортди.

2022 йилда квоталар сони яна қарийб 100 фоизга оширилиб, вазирлик тизимидаги олий ўқув юртларига докторантура учун 1956 та квота (1218 та PhD, 124 та DSc, мақсадли докторантурага 204 та PhD, 10 та DSc) ҳамда стажёр тадқиқотчиликка 292 та квота ажратилди.

Маълумот ўрнида, бугунги кунда олий таълим муассасаларида 3434 нафар докторант (3221 нафар таянч докторант – PhD, 213 нафар докторант – DSc) ва 400 нафар стежёр-тадқиқотчилар илмий тадқиқот фаолияти билан шуғулланмоқда. Ҳозирги кунда 65 та олий таълим муассасаси ва 88 та илмий ташкилотларда (жами 153 та) докторантура фаолияти йўлга қўйилган.

Докторантларга илмий раҳбарлик қилиш сони чегараси (5 нафаргача тадқиқотчига раҳбарлик қилиш) оширилди. Шунингдек, 2021 йил 1 сентябрдан бошлаб стажёр-тадқиқотчилар учун стипендия миқдори (3,913 млн. сўм); таянч докторантлар учун стипендия миқдори (4,420 млн. сўм); докторантлар учун стипендия миқдори (5,647 млн. сўм) этиб белгиланган.

2021 йил 1 декабрь ойи ҳолатига кўра, 1405 та диссертация ишлари, жумладан, 182 та доктори, 1223 та фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ҳимоя қилинди.

Давлат илмий-техник дастурлари доирасида 2021 йил ҳолатига кўра, республика олий таълим муассасаларида умумий маблағи 165 млрд 447 минг сўм бўлган 403 та илмий лойиҳа бажарилди. Шу жумладан, умумий маблағи 21,698 млрд сўм бўлган 59 та фундаментал лойиҳалар, умумий маблағи 94,492 млрд сўм бўлган 193 та амалий лойиҳалар умумий маблағи 42,030 млрд сўм бўлган 101 та инновацион лойиҳалар, умумий маблағи 7,225 млрд сўм бўлган 50 та ёш олимларнинг фундаментал, амалий ва инновацион лойиҳалари бажарилмоқда. 2021 йилда умумий маблағи 72,8 млн. АҚШ доллари бўлган 337 та халқаро илмий-амалий лойиҳа бажарилди. Шунингдек, 27 та олий таълим муассасасида Жаҳон банки кредити доирасида Академик инновациялар фонди маблағлари (4 млн. АҚШ доллари) ҳисобидан 32 та лойиҳа амалга оширилмоқда.

Олий таълим муассасалари 2021 йилда корхона ва ташкилотлар билан умумий маблағи 101,7 млрд.сўм бўлган 3160 та хўжалик шартномалари асосида лойиҳалар бажариб келинмоқда.

2021 йилда 206 та халқаро ва 273 та республика миқёсидаги илмий ва илмий техник тадбирлар режага асосан ўтказилди. Республикада 15 та олий таълим муассасасида 39 та илмий лаборатория мавжуд бўлиб, 183 нафар ходим лаборатория хизматларини кўрсатиб келмоқда.

Бироқ ушбу илмий лабораториянинг фақат 30 фоизи халқаро стандартларга жавоб берадиган лаборатория ускуна ва жиҳозларига эга. Олий таълим муассасаларида илмий фаолият инфратузилмасини такомиллаштириш мақсадида 7 та олий ўқув юртлари оро илмий лабораторияларини ташкил этиш ва босқичма-босқич жиҳозлаш ишлари амалга оширилмоқда. Илмий тадқиқот лаборатория жиҳозлари хариди танловлари натижасига кўра, 2020 йил декабрь ва 2021 йил январь ойларида умумий қиймати 10,3 млн. АҚШ доллари бўлган шартномалар бажарилди. Илмий тадқиқот лаборатория фаолиятини йўлга қўйиш натижасида 35 та олий таълим муассасаси ва 21 та истеъмолчи-ишлаб чиқариш корхоналарининг ҳамкорлиги таъминланди.

Шунингдек, физика фанлари бўйича илмий тадқиқот фаолиятини яна-да ривожлантириш мақсадида ҳудудларда 6 та олий таълим муассасаларо илмий-ўқув марказлари ташкил этилди.

2021 йил декабрь ҳолатига кўра, 1819 та патент (жумладан, 226 та ихтиро, фойдали модель учун патент, 1593 та дастурий маҳсулотлар учун гувоҳнома) олинган.

Ўзбекистоннинг 30 та ОТМ нуфузли халқаро рейтингдан ўрин олди. Олий таълим муассасаларининг нуфузли халқаро рейтингги ҳисобланган “Times Higher Education” ўзининг 2022 йил учун Impact рейтингги (The Impact Rankings 2022) натижаларини эълон қилди. Илк бор Ўзбекистоннинг 30 та олий таълим муассасаси ушбу рейтингдан ўрин олди. Маълумот учун 2021 йилда ушбу рейтингда 10 та олий таълим муассасаси кирган эди. 2021 йили ушбу рейтингда 94 та давлатдан 1000 га яқин олий таълим муассасалари иштирок этган бўлса, 2022 йилда 110 та давлатдан 1500 дан ортиқ таълим муассасалари қатнашди.

Ўзбекистон Миллий университети халқаро рейтингининг ТОП-1000 талигидан жой олди. Ушбу рейтинг 13 йилдан буён дунёнинг 85 та давлатидан 1200 та нуфузли университет 4 та йўналиш бўйича тақсимланган 20 та кўрсаткич бўйича таққослаб келади.<sup>1</sup> Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Марказий Осиёда биринчи олий таълим муассасаси ҳисобланади. Университет бир асрлик фаолияти давомида 100 мингдан ортиқ юқори малакали мутахассисларни тайёрлаб, халқ хўжалигининг барча соҳаларини етук кадрлар билан таъминлашда катта хизмат қилди ва илм-фаннинг турли соҳаларида жаҳон эътирофи этган муваффақиятларга эришиб келмоқда.

Олий таълим муассасаларида Scopus илмий-техник маълумотлар базаси журналларида 3747 та мақола нашр этилди.<sup>2</sup>

Илм-фан фидойиликни талаб этади. Ўз оромидан воз кечиб, янгилик яратишга куч топа билганларни чинакам маънавий етук инсонлар деб аташ мумкинми? Албатта, мумкин. Айниқса, фарзандлар тарбияси, рўзгор юмушларидан ортиб, илмни маҳкам тутган опа-сингилларимиз халқимизнинг бебаҳо хазиналари, десак муболаға бўлмас. Шу боис юртимизда хотин-қизларни илмий фаолиятга кенг жалб қилиш чоралари кўрилаётир. Уларнинг замонавий ахборот-коммуникация технологияларига асосланган дастурий ишланмалар, инновацион ғоялари, ихтирочилик ва рационаторлик фаолияти кўллаб-қувватланмоқда.

Маълумки, бугунги кунда опа-сингилларимиз орасида ўнлаб академик ва профессорлар, фан докторлари ва фан номзодлари, юзлаб истеъдодли тадқиқотчилар бор. Илм-фан билан шуғулланиш, илмий янгилик яратиш – бу игна билан қудук қазिशга баробар.

Зукко ва билимдон хотин-қизларнинг илм-фанга бўлган қизиқиши ва иштиёқини ошириш мақсадида биз бир қанча муҳим чора-тадбирлар белгиладик. Жумладан, келгуси ўқув йилидан бошлаб магистратурада ўқиётган барча қизларнинг контракт пулларини тўлиқ бюджетдан қоплаш учун ҳар йили 200 миллиард сўм маблағ йўналтирилади; докторантура йўналишида хотин-қизлар учун ҳар йили камида 300 тадан мақсадли квота ажратилади.<sup>3</sup> Қайд этилишича, хотин-қизлар учун ажратиладиган грантлар сони келгуси йилларда 3 бараварга оширилиб, 6 мингтага етказилади.

Маълумотларга кўра, ҳозирги кунда юртимизда 3568 нафар олима аёл мавжуд. “Олима” аёллар уюшмаси раиси Р.Х.Муртазаеванинг таъкидлашича, илм-фан билан шуғулланиш социалистик тузумдаги мамлакатларда юқори, 45 фоизини ташкил этади. Дунёнинг 250 мамлакатидан 9 тасида аёлларнинг илм-фандаги муваффақияти юқори эканлиги қайд этилган. Илм-фан билан шуғулланувчи аёллар 28 фоиз бўлса, Ўзбекистонда 39 фоиз аёллар илм-фан билан шуғулланмоқда. Бугунги кунда республикада аёлларидан 6 та академик, 707 та фан доктори, 4780 та фан номзодлари, 449 та (PhD)лар мавжуд. Улар мамлакатимизнинг интеллектуал ресурси ҳисобланади. Қувонарлиси, илмий тадқиқотлар нафақат тиббиёт, иқтисодий-гуманитар фанлар, балки техника ва қишлоқ хўжалиги соҳаларини ҳам қамраб олаётир. Ўз навбатида, бундай опа-сингилларимизнинг изланишлари, янги ишланмалари, инновацион лойиҳалари ҳар томонлама кўллаб-қувватланаётгани уларни янги-янги марралар сари илҳомлантиряпти.<sup>4</sup>

Донишмандлар “Битта қиз болани ўқитсангиз – бутун оилани ўқитган бўласиз”, деб бежиз таъкидламаганлар. Аввало, 2022–2026 йилларга мўлжалланган Хотин-қизлар таълимини қўллаб-қувватлаш миллий дастурини қабул қиламиз. Ушбу ҳужжат доирасида пойтахтда хотин-қизлар

<sup>1</sup> <http://uza.uz/posts/3717.12>

<sup>2</sup> [https://lah.uz\(5073447\)](https://lah.uz(5073447))

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Хотин-қизлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. “Халқ сўзи”, 2022 йил 8 март, 50 (8112).

<sup>4</sup> Эргашхўжаев Ш. Сен қанчалар бахтлисан, аёл! “Халқ сўзи”, 2021 йил 18 август.

учун алоҳида университет ва жойларда унинг техникумларини ташкил этамиз. Барча талаба қизларга таълим контрактларини тўлаш учун 7 йил муддатга фойсиз кредит бериш тартиби жорий қилинади. Ушбу ишларимизнинг манتيқий давоми сифатида илмий изланиш ва кашфиётлар билан юртимиз равнақига катта ҳисса қўшиб келаётган олима аёлларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ишларини янги босқичга кўтарамиз.

Янги бир қизиқарли факт: 2020 йилда яқунланган 1021 илмий лойиҳанинг 204 таси олима аёлларимиз раҳбарлигида бажарилган. Пировардида “Scopus”, “Web of Science” индексацияланган маълумотлар базаларидаги илмий журналларда илмий мақолалар нашр этилган ҳамда 74 та интеллектуал мулк объекти (патентлар) рўйхатга олинган.

Айни пайтда, давлат буюртмаси талабларига мувофиқ, умумий йиллик молиявий ҳажми 45,4 млрд. сўмлик 82 та илмий лойиҳага олима аёлларимиз бош-қош. Эътиборлиси, буларнинг натижа-сида тижоратлаштириш салоҳияти юқори бўлган янги ишланмалар ҳам яратилмоқда.

Рақобат бор жойда ривожланиш бўлади. Бинобарин, муносиб рағбат ҳам изланишларнинг қаноти. “Олима аёллар грантлари” ташаббускор амалий ва инновацион лойиҳалар танлови таъсис этилишига айнан шу омиллар туртки бўлди. Ҳозирги кунда танловга тақдим этилган 214 та лойиҳа белгиланган тартибда экспертизадан ўтказилапти. Бундан ташқари, фаол, ташаббускор ва лойиҳалар муаллифи бўлган олима аёлларимиз Россия, Беларусь, Қозоғистон, Буюк Британия, Япония, Германия, Испания, Туркия, Австрия, Жанубий Корея, Латвия каби давлатларга илмий стажировкаларга юбориш режалаштирилган.

Олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари учун Москва шаҳрида малака ошириш курси ташкил этилмоқда. Тошкент Давлат Иқтисодиёт университети ва Россия Федерациясининг Миллий тадқиқот Ядро университети (НИЯУ МИФИ) ўртасидаги ҳамкорлик алоқалари доирасида 2022 йил 22 майдан 3 июнига қадар Молия ва бухгалтерия ҳисоби факультетининг профессор-ўқитувчилари учун Москва шаҳрида “Бизнес таҳлили” йўналиши бўйича малака ошириш курси ташкил этилди.

Ҳар бир олима аёлнинг ютуғи – бугун жамият учун фойдали. Жумладан, “LOGOS” афазияни тиклашга мўлжалланган ўзбек тилидаги биринчи миллий дастур асосчиси Муниса Расулова 75 млн. сўм миқдоридан грантни қўлга киритди. “Антифриз ГА-39” лойиҳаси асосчиси Мафтуна Турдимуродова эса лойиҳасини ривожлантириш учун 50 млн. сўм грант ютиб олди. Эътиборлиси, бундай қизлар кўпайиб бормоқда. Уларнинг илмий изланишлари эса мамлакатимиз тараққиётига хизмат қилаётир.

Бугун жаҳон миқёсида юртимиз ҳақида сўз кетганда, “Янги Ўзбекистон” ибораси тилга олинмоқда. Бу кейинги йилларда тараққиётнинг мутлақо янги босқичига қадам қўйганимиз, эришаётган залворли ютуқларимиз эътирофидир.

Ўзбекистон ҳудуди Шарқ Ренессансининг йирик марказларидан бири сифатида, айниқса, икки тамаддунни бошдан кечиргани дунёга маълум ва машҳур. Халқимизнинг улуғвор кудрати буюк ватандошларимиз – алгоритм асосчиси Ал-Хоразмий, қомусий олим Ал-Фарғоний, геодезия ва минерология фанлари ривожига улкан ҳисса қўшган Абу Райҳон Беруний, Фарбда “Авиценна” номи билан танилган Ибн Сино, давлат арбоби ва буюк астроном Мирза Улуғбек сингари ўнлаб мутафаккирлар, яъни илм-фан асосчилари қилган кашфиёт ва изланишларда намоён бўлиб турибди. Имом Бухорий, Бурҳониддин Марғинович, Ҳаким ат-Термизий, Маҳмуд Замахшарий, Баҳоуддин Нақшбанд, Алишер Навоий сингари аждодларимиз номи эса нафақат ислом олами, балки жаҳон цивилизацияси тарихига зарҳал ҳарфлар билан битилган.

Шу боис ҳам давлатимиз раҳбари мамлакатимизда илм-фан ва таълим тизими ривожига алоҳида эътибор қаратмоқда. Ўзбекистон Республикасини 2019–2021 йилларда инновацион ривожлантириш стратегиясининг бош мақсадларидан бири инсон капиталини ривожлантирган бўлса, бошқаси 2030 йилгача Глобал инновацион индекс рейтингини бўйича жаҳоннинг 50 та илғор мамлакатини таркибига кириш этиб белгилангани ҳаммамизга яхши маълум.

Илм-фан ривожини – давлат тараққиётининг пойдевори. Шунинг учун соҳага эътибор ҳар қачонгидан юқори. Ўзбекистон Республикаси Глобал инновацион индексда 2015 йилда жаҳоннинг 141 давлати орасида 12-ўринни эгаллаган эди. Ундан кейинги йилларда эса ушбу рейтингга республикамиз киритилмаган. 2020 йил Ўзбекистон инновацион индексига қайтди. Мана шу қайтишнинг ўзи Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислохотларнинг ижобий натижасидир. Ўзбекистоннинг 93-ўринни эгаллаб, рейтингда 30 поғонага юқорилаши ҳозирги пайтда илм-фанга берилаётган эътибор, инновацион ривожланишга қаратилган ресурсларнинг самарасидир.

Нуфузли халқаро ташкилотлар томонидан тузилган Глобал инновацион индекси рейтинги мавжуд бўлиб, унда камида 130–140 давлатнинг шу соҳадаги ютуқлари, ихтироларга берган патентлар, фан-таълимга ажратадиган йиллик маблағлари кўзгудек акс этиб туради. Бу ажабтовур рейтингни, мана, 7 йилдирки, Швейцария бошқариб келмоқда. Ундан кейинги ўринларда эса Швеция, Голландия, АҚШ ва Буюк Британия турибди. Собиқ иттифоқ худудидаги давлатлар орасида энг яхши кўрсаткич 25-ўринни банд қилган Эстония ва 78-ўринни эгаллаган Қозоғистонга тегишли. Ўзбекистон шу рейтингга сўнгги бор 2015 йилда киритилган ва эгаллаган поғонаси 122-ўриндан ошмаган. Фармонда таъкидлаб ўтилганидек, Ўзбекистон 2030 йилгача Глобал инновацион индекс рейтингга бўйича жаҳоннинг 50 та илғор мамлакати таркибига киритишдан иборат.<sup>1</sup> 2022 йил 14 апрелда Халқаро рейтинг ва индекслар билан ишлаш бўйича республика кенгашининг йиғилишида қайд этилганидек, 2021 йил давомида эълон қилинган мамлакатимиз учун устувор бўлган жами 19 та халқаро рейтингда Ўзбекистоннинг ўрни сезиларли акс этиб, 11 тасида давлатимиз позицияси яхшиланди. Хусусан, суверен кредит рейтингларида ижобий тенденциялар кузатилиб, “Эс энд Пи” (“S&P”) халқаро рейтинг агентлиги мамлакатимиз кредит рейтингини “салбий”дан “барқарорга”, (Moody’s) агентлиги эса “барқарор”га ўзгартирди.

Глобал инновациялар индексида Ўзбекистон 2021 йилда 7 поғонага кўтарилиб, 132 та давлат орасида 86-ўринни эгаллади ва тез юқорилаган мамлакатлар топ 10 талигига кирди.<sup>2</sup> Шунингдек, жаҳон мамлакатлари демократияси индексининг 2021 йил якунлари бўйича эълон қилинган рейтингда Ўзбекистон ўз позициясини 5 поғонага яхшилаб, 150-ўринни эгаллаган. “Мерос” жамғармасининг Иқтисодий эркинлик индексида Ўзбекистон 177 та давлат орасида 117-ўринни эгаллаб, 2021 йилга нисбатан 9 поғонага пасайган ва мамлакатимиз иқтисодиёти “асосан, эркин бўлмаган мамлакатлар” гуруҳида қолди.

“Transparency International” Халқаро ташкилотнинг 2021 йил учун коррупцияни қабул қилиш индексида мамлакатимиз ўз ўрнини 6 поғона яхшилаб, 180 та давлат ичида 140-ўринни эгаллади ва сўнгги беш йилда 17 поғона юқорилади. Ташкилот ҳисоботида Ўзбекистон Марказий Осиёда ўрناق бўлаётгани ва сўнгги беш йилда энг барқарор ўсиш кўрсаткичига эришган жаҳондаги 6 та давлатдан бирига айлангани алоҳида таъкидланган. Бунда, биринчидан, ялпи ички маҳсулот атиги 0,21 фоизи илмий тадқиқот ҳамда тажриба-конструкторлик ишларига ажратилган бўлса, 2021 йилга келиб, бу кўрсаткич 4 баравар оширилди, яъни 0,8 фоизга етказилди.<sup>3</sup>

Иккинчидан, Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент Ахборот технологиялари университети 2021 йил охирига бориб, жаҳондаги нуфузли 1000 та университети сафидан ўрин эгаллашини таъминлаш баён этилган.

Кейинги йилларда илм-фанга киритилган инвестициялар, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар базасининг шакллантирилиши, энг муҳими, олимларга яратилаётган шарт-шароитлар ва ижод эркинлиги Глобал инновацион индексидаги ўрнимизни белгилади. Буни келажакда илм-фан ва инновацияларга инвестицияларни жалб қилиш учун бир қадам, деб ҳисоблаш мумкин. Илм-фан соҳаси олдидаги муҳим вазифа – миллий иқтисодиётни технологик ва инновацион жиҳатдан модернизациялаш жараёнларини тўла-тўқис таъминловчи, самарали ва рақобатдош тадқиқот ҳамда ишланмаларни шакллантиришдир.

Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг маълумотларига кўра, илм-фан соҳаларига сарфланаётган жами харажатлар ўтган йиллар мобайнида 14 фоизга ошган. Бу кўрсаткич 2018 йили умумий 528,8 миллиард сўмни ташкил қилган бўлса, 2019 йилга келиб, 603,3 миллиард сўмга кўпайган. Бироқ бугунги кунда илм-фанни молиялаштириш ҳажми ялпи ички маҳсулотга нисбатан 0,2 фоизни ташкил қилиб, йиллар ўзгармай қоляпти. Ушбу кўрсаткич жаҳон бўйича ўртача 1,7 фоизга тенг, хусусан, Хитойда 2008 йилда 1,4 фоиздан 2,14 фоизгача, Корея Республикасида 3,1 фоиздан 4,5 фоизгача ошган.<sup>4</sup>

Бундан ташқари, тармоқлар корхоналари томонидан илмий тадқиқотларга буюртма бериш ва молиялаштиришдаги иштироки пастлиги давлат бюджетига оғир юк бўлиб қолмоқда. Охириги

<sup>1</sup> Худойшукуров З. Инновацион ривожланиш стратегияси мамлакат тараққиётини белгилайди. “Халқ сўзи”, 2018 йил 26 сентябрь.

<sup>2</sup> Мамлакатимизнинг 11 та халқаро рейтинг ва индекслардаги ҳолати яхшиланган. “Халқ сўзи”, 2022 йил 15 апрель.

<sup>3</sup> Худойшукуров З. Шу манба.

<sup>4</sup> Матибоев Т. Бугунги Ўзбекистон – кечаги Ўзбекистон эмас. “Халқ сўзи”, 2020 йил 17 декабрь.

уч йил мобайнида илм-фан соҳасига давлат бюджетидан ажратилган маблағлар 2–3 марта оширилган бўлса-да, бу ўсиш суръати, асосан, илмий фаолият билан шуғулланувчи субъектларнинг ойлик маошлари оширилишига йўналтирилиб, мамлакатда илмий ташкилотларнинг моддий-техника базасини ривожлантиришга етарли маблағлар ажратилмасдан қолаёпти. Шунинг учун кейинги йилларда давлатимиз раҳбарининг бевосита ташаббуси билан илм-фан, таълим ва ишлаб чиқаришни ўзаро боғлайдиган мустаҳкам механизм босқичма-босқич ишлаб чиқилиб, жорий этилмоқда.

Мамлакатимиз ривожланишида илм-фаннинг ролини кучайтиришга қаратилган ислохотлар натижасида 2017–2021 йилларда қатор илмий, таълим ва инновацион ташкилот (тузилма)лар ташкил этилди. 32 та илмий-инновацион тузилмалар (6 та технопарк, 8 та илмий марказ ва 18 та илмий тадқиқот институти) ҳамда 29 та янги олий таълим муассасаси ва уларнинг филиаллари шулар жумласидандир.

Бугун шиддат билан ривожланаётган ҳаётимизда рўй бераётган юксалиш жараёнлари ўзини барча соҳаларда намоён этмоқда. Бинобарин, мустақилликка эришган йилларимизнинг илк даврида биз ўзимизнинг миллий ўзлигимизни англаш, бой тарихий-маънавий ҳамда илмий меросимизнинг асл мазмун-моҳиятини чақиш ва уни рўёбга чиқаришга интилган бўлсак, эндиликда халқимиз жипслашиб, “Миллий тикланишдан – Миллий юксалиш сари” ғоясини собитқадамлик билан амалга оширишга киришди. Бу даврда жамиятимизда ижтимоий тафаккурнинг юксалиш тенденцияси қарор топиши, унга хос ҳам миллий, ҳам умуминсоний қадриятларнинг мужассамлиги эътироф этилмоқда.

Миллий руҳ ва умуминсоний қадриятлар уйғун бўлган ижтимоий тафаккур – мамлакатимиз барқарор ривожланишининг мустаҳкам пойдевориغا айланмоқда. Юртимизда ижтимоий тафаккур даражасининг тобора ўсиши боис, саноат, қишлоқ хўжалиги ва бошқа жабҳаларда меҳнат ҳамда соҳага ёндашув маданияти, масъулияти ўзгарди. Айниқса, фан соҳасига қаратилаётган алоҳида эътиборнинг замирида чуқур маъно бор.

Фан – бу тафаккур бўлиб, қайсики, жамиятдаги барқарорликни таъминлаб берувчи устувор омиллардан бири. Фан ривожланар экан, нафақат иқтисодиёт, балки ижтимоий-маданий соҳа ҳам тараққий этади. Фанга бўлган эътибор инсон тафаккурини ўстириш ва улғайтиришга хизмат қилади. Жамият тафаккури ўсса, маданият ва санъат соҳаси ҳам мана шу талабларга ҳамоҳанг равишда ўсади ва тараққий этади.

Бугунги замон барча соҳалар қаторида илм-фанни ҳам янги босқичга кўтаришни талаб қилмоқда. Зотан, жамият олдида турган долзарб масалаларни илм-фансиз ечиш қийин. Мазкур соҳани ва олимларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш давлатимизнинг устувор вазифаларидандир. Бу борадаги ишлар бугун изчил ва тизимли равишда давом эттирилмоқда.

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 17 февралда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси фаолиятини такомиллаштириш ва рағбатлантириш тўғрисидаги фармонда мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий тараққиётида илм-фаннинг ўрнини яна-да мустаҳкамлаш, академиклар фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, юқори малакали кадрлар тайёрлаш сифатини оширишни рағбатлантириш мақсадида бир қатор муҳим чора-тадбирлар белгиланди.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев янги Ўзбекистон ва Учинчи Ренессансга пойдевор яратиш ҳақида сўз юритар экан, бунда янги тараққиётнинг таркибий қисмлари: иқтисодиёт, таълим-тарбия, илм-фан, тиббиёт билан бирга, маданиятнинг ҳам бугунги тараққиётимиз жараёнидаги алоҳида ўрнини белгилаб берди. Тарихий манбалар шундан далолат берадики, ўзбек давлатчилиги тарихидаги кучли сулолаларнинг муҳим хусусияти – улар юксак инсонпарварлик ва бағрикенглик ғояларида йўғрилган маърифий таълимга таянган. Уларда илм-фан, маданият ва санъат ривожланган, жаҳон илм-фанига беқиёс ҳисса қўшган улуғ алломалар етишиб чиққан. Бунга IX–XII асрларда Ўзбекистон заминида кузатилган биринчи Ренессанс мисолида амин бўлиш мумкин. Хитой файласуфи Конфуций (мил.аввал. 551–479) шундай деган: Агар сен халқингни бир йил боқмоқчи бўлсанг, буғдой эк, ўн йил боқмоқчи бўлсанг, дарахт эк, агар асрлар давомида боқмоқчи бўлсанг, билим, илм эк.

Бу тарихий воқеликнинг вужудга келишида асосий омиллардан бири ҳам ҳукмдорларнинг иқтисодиёт, таълим ва илм-фанни ривожлантириш йўлида олиб борган сиёсати ҳисобланади. Ушбу даврда Марказий Осиё заминида Мусо Хоразмий, Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Сино, Абу Райҳон Беруний, Аҳмад Фарғоний, Имом Бухорий, Имом Термизий, Бурҳониддин Марғинович ва бошқа кўплаб мутафаккирларнинг илм-фанда замонасидан илгарилаб кетишида таълимга бўлган

эътибор, илм ўрганиш учун тарғиб қилинган ғоя туради. Бу жараёнда таълимнинг тизимли йўлга қўйилгани муҳим омиллардан ҳисобланади. Бизнинг ота-боболаримизнинг энг олий мақсади маърифат тарқатиш бўлганлиги боис, улар илм-фанда ўз замонасининг тенгсиз ихтироларини амалга оширган ва бу орқали дунё илм-фани ривожланишига катта ҳисса қўшган.<sup>1</sup> Шу боисдан ҳам янги таҳрирдаги “Таълим тўғрисида”ги қонуннинг 12-моддаси “Олий таълимдан кейинги таълим” деб юритилиб, уни олий таълим ва илмий ташкилотларда олиш мумкинлиги айтилади.

Таянч докторантура фалсафа доктори (Doctor of Philosophy (PhD)) илмий даражасига даъвогар изланувчилар учун ишлаб чиқаришдан ажралган ҳолда ташкил этиладиган олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар ихтисослиги бўйича олий таълимдан кейинги таълим шакли ҳисобланади. Докторантура фан доктори (Doctor of Science (DSc)) илмий даражасига даъвогар изланувчилар учун ишлаб чиқаришдан ажралган ҳолда ташкил этиладиган олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар ихтисослиги бўйича олий таълимдан кейинги таълим шакли ҳисобланади.<sup>2</sup>

Мустақил изланувчилик фалсафа доктори (PhD) ёки фан доктори (DSc) илмий даражаларига даъвогар изланувчилар учун ишлаб чиқаришдан ажралмаган ҳолда ташкил этиладиган олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар ихтисослиги бўйича олий таълимдан кейинги таълим шакли ҳисобланади.

Иқтидорли ёшларни аниқлаш, танлаш, ўқитиш ва тарбиялаш, ёш истеъодларни яна-да қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш, дарсликлар ва ўқув-услугий қўлланмаларни тайёрлаш ҳамда нашр этиш муаммоларини бартараф қилиш ишларини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, шунингдек, умумтаълим муассасалари фаолиятини бошқариш ва ташкил этишнинг махсус тизими – Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Президент, ижод ва ихтисослаштирилган мактабларни ривожлантириш агентлиги тузилди. Университетлар ва институтлар профессор-ўқитувчиларининг хориждаги олий таълим ҳамда илмий тадқиқот масканларида малака ошириш ва амалиёт ўташини таъминлайдиган механизмнинг яратилиши замонавий юқори малакали кадрлар тайёрлаш сифатини оширишга хизмат қилиши, шубҳасиз.

Ривожланган мамлакатларда таълимнинг тўлиқ циклига инвестиция киришига, яъни, бола 3 ёшидан 22 ёшигача бўлган даврда унинг тарбиясига сармоя сарфлашга катта эътибор берилади. Чунки ана шу сармоя жамиятга 15–17 баробар миқдорда фойда келтиради. Бунда эса бу кўрсаткич атиги 4 баробарни ташкил этади. Шу боисдан ҳам давлатимиз раҳбари инсон капиталига эътиборни кучайтириш, бунинг учун барча имкониятларни сафарбар этиш шартлигини алоҳида таъкидладилар. Мурожаатномада инсон капиталини ривожлантиришга алоҳида тўхталиб ўтилди. Ҳақиқатан ҳам, замонавий шароитларда айнан инсон капитали тараққиёти ҳаракатлантирувчи асосий кучга айланмоқда. Ҳозирги замоннинг ўзи инсон капиталига сармоя киритишни тақозо этмоқда. Негаки, бугунги сармоя илгаридек арзон иш учун бор жойга пул тикаётгани йўқ. Сабаби, муддатли илмий-техник тараққиёт малакасииз ишчига эҳтиёжни кескин камайтириб бормоқда.

Бир мисол. Сундар исмли бир йигит бундан 27 йил олдин АҚШнинг Стенфорд университетида ўқиш учун грант ютди. Бироқ Ҳиндистондан у ерга учиб боришига маблағи бўлмади. Шунда отаси ўзининг қарийб бир йиллик маошига тенг пулга унга чипта олиб беради. Йигит умрида биринчи марта самолётга чиқиб, АҚШга учиб кетади. Ўша йигит – Сундар Пичай – 2015 йилда жаҳоннинг энг бой компанияларидан бири ҳисобланган Google ширкатининг директори этиб тайинланди. 2019 йилда унинг йиллик маоши 281 миллион АҚШ долларига тенг бўлган. Отанинг бир пайтлар қилган катта жасорати кун келиб, ўз мевасини берди. Энг мақбул сармоя – бу фарзанд келажагига сарфланган сармоядир!

Агар иктисодий жиҳатдан энг тараққий этган давлатлар тажрибасига назар ташласак, бу юксалиш замирида илм-фанни тубдан ривожлантириш турганлигига гувоҳ бўламиз. Мисол учун, Японияни олайлик. Иккинчи жаҳон урушидан кейин “Кунчиқар юрт” жуда оғир аҳволга тушиб қолганди. Ўша пайтда бу ўлкада асосий эътибор инсоннинг “бошини тўйдириш”, яъни унга кучли билим беришга қаратилди. Натижада илм-фан тараққиётига ажратилган сармоя бугунги кунгача ўзининг ижобий самарасини кўрсатиб келяпти. Бугун илм-фанга қаратилаётган эътибор ҳам узоқни кўра билиш, порлоқ келажак сари ташланган қадамдир.

<sup>1</sup> Маҳмудов Ш. Миллий юксалиш йўлида бор ақл-заковатимиз, куч-ғайратимиз, билим ва тажрибамизни сафарбар этайлик. “Халқ сўзи”, 2020 йил 24 сентябрь.

<sup>2</sup> “Таълим тўғрисида”ги қонун. “Халқ сўзи”, 2020 йил 24 сентябрь.

Шу боисдан ҳам 2020 йил 29 декабрда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Мурожаатномасида фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини яна-да такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эга эканлиги таъкидланади. Бугун жаҳоннинг етакчи институтлари, университетлари, илмий марказлар ва Фанлар академиялари билан илмий ҳамкорликни яна-да мустаҳкамлашни замоннинг ўзи талаб қилмоқда.

Илмий даражага даъвогарлар масаласига доир ўтказилган таҳлилларга кўра, сўнгги уч йилда таянч докторантура ва докторантура битирувчиларининг диссертация иши ҳимояси 54,7 фоизни ташкил этган.

Магистратура илмий фаолиятни давом эттириш бўйича етарлича шарт-шароитлар яратиш муаммоси тўлақонли ечим топмаган. Мамлакат минтақаларидаги таълим муассасаларида илмий фаолият билан шуғулланиш паст даражада қолмоқда. Аксарият диссертация ҳимоялари, яъни. 66 фоизи Тошкент шаҳрига, қолган 34 фоизигина вилоятлар ва Қорақалпоғистон Республикаси ҳиссасига тўғри келган. Илмий фаолият ривожланишига халал бераётган юқоридаги каби ҳолатлардан келиб чиқиб, Олий Мажлис Сенатининг Фан, таълим ва соғлиқни сақлаш масалалари кўмитаси Вазирлар Маҳкамасига тушунтириш бериш талабини қўймоқда.

2020 йилда илк бор математика, кимё-биология ва геология фанларини таълим ва илмнинг устувор йўналиши сифатида белгилаб, уларни комплекс ривожлантириш чоралари кўрилди. Жумладан, 98 та ихтисослашган мактаблар ҳамда Геология фанлари университети ташкил этилди. Ўқув дастурлари тубдан қайта кўриб чиқилди, ўқитувчиларнинг иш ҳақи оширилди.

Мамлакатимизда Қорақалпоғистон Республикасида, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида ихтисослаштирилган давлат умумтаълим муассасалари шаклидаги Президент мактаблари, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги ҳузурида Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Ахборот коммуникация технологиялари йўналишига оид фанларни чуқурлаштириб ўқитишга ихтисослаштирилган мактаб, Инновацион ривожланиш вазирлиги ҳузурида Мирзо Улуғбек номидаги ихтисослаштирилган давлат умумтаълим мактаб-интернати ва Абу Али ибн Сино номидаги Ёш биологлар ва кимёгарлар ихтисослаштирилган мактаб-интернати, Халқ таълими вазирлигининг ҳудудий органлари ҳузурида Абдулла Орипов, Ҳамид Олимжон ва Зулфия, Муҳаммад Юсуф, Ибройим Юсупов, Эркин Воҳидов, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий, Ҳалима Худойбердиева ва Абдулла Қодирий номидаги ижод мактаблари, шунингдек, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузурида Исҳоқхон Ибрат номидаги ижод мактаби ташкил этилди.

Мамлакатимизда рақамли иқтисодиётни шакллантириш, ахборот-коммуникация технологияларини барча соҳаларга кенг татбиқ этиш стратегияси режаларини муваффақиятли амалга ошириш учун юқори малакали мутахассисларни тайёрлашга пухта замин тайёрланмоқда. 2020 йилда – 14 та, 2021 йилда – 82 та, 2022 йилда – 64 та, 2023 йилда эса 45 та ахборот технологиясига ихтисослашган мактабларнинг ташкил этилиши ана шу мақсадларга йўналтирилган.

2030 йилга бориб ўқувчиларнинг таълим даражасини аниқлаш бўйича халқаро дастур (PISA) рейтингда Ўзбекистоннинг жаҳондаги етакчи 30 та мамлакат қаторидан жой эгаллаши мақсад қилиб қўйилган.

**Зохиров Рамиз Турдимуродович (Қашқадарё вилоят ҳокимлиги ҳузуридаги фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари ходимларини малакасини ошириш бўйича ўқув курслари директори, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD); [fzohirov@mail.ru](mailto:fzohirov@mail.ru))**

## **ОИЛА ИНСТИТУТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ИЖТИМОЙ-ДЕМОГРАФИК ОМИЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ**

***Аннотация.** Мақолада оила институтининг шаклланишида таъсир этувчи ижтимоий-демографик омиллар, уларнинг аёл ва эркак ҳаётидаги ўрни, бола туғиш истаги ва серфарзандлик масалалари муҳокама қилинади. Ижтимоий-демографик вазиятнинг жамият ва давлат сиёсати билан боғлиқлиги очиқ берилади.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются социально-демографические факторы, влияющие на формирование семьи, их роль в жизни женщин и мужчин, желание иметь детей и рождаемость. Выявляется связь социально-демографической ситуации с обществом и государственной политикой.*

**Annotation.** The article discusses the socio-demographic factors influencing the formation of the family, their role in the lives of women and men, the desire to have children and fertility. The connection of the socio-demographic situation with society and public policy is revealed.

**Калим сўзлар:** оила, ижтимоий-демографик омил, давлат сиёсати, репродуктив саломатлик, эр ва хотин, фарзанд, демографик моделлар, режалаштириш, оилавий муносабатлар.

**Ключевые слова:** семья, социально-демографический фактор, государственная политика, репродуктивное здоровье, муж и жена, дети, демографические модели, планирование, семейные отношения.

**Key words:** family, socio-demographic, factor, public policy, reproductive health, husband and wife, children, demographic models, planning, family relations.

Оила институти ҳаётига ижтимоий-демографик омилларнинг таъсир этишини исботлашга ҳожат йўқ, чунки оиланинг бош функцияси фарзанд кўриш, янги авлодни шакллантириш, уни жамиятга, халққа ва келажакка хизмат қилишга ҳозирлашдир. Ижтимоий-демографик функцияси туфайли оила билан жамият ўртасида узвий яқинлик, бир-бирини қўллаб-қувватлаш аънанаси шаклланган. Ижтимоий-демографик вазият, омил оила ҳаётида мудом марказий ўринда турган, буни ҳеч ким инкор қилмаган. Лекин ижтимоий-тарихий босқичларда демографик масалаларга ёндашув турлича кечган, ушбу ўзгаришлар ҳар доим ҳам оила институтига ижобий таъсир этавермаган бўлса керак? Бу ўзгаришларни ижтимоий-фалсафий таҳлил қилиш юқоридаги, илмий концептуал аҳамиятга эга, саволларга жавоб ҳамдир.

Ижтимоий-демографик омилларга:

- 1) давлатнинг ижтимоий-демографик сиёсати;
- 2) оилада фарзанд кўриш аънанаси ва истаги;
- 3) репродуктив саломатлик ва фаоллик;
- 4) никоҳ тизими ва тартиблари;
- 5) демографик моделлар киради.

Давлатнинг ижтимоий-демографик сиёсати оила ҳаётида, жамиятдаги ижтимоий-демографик вазиятни нормаллаштириш ёки ривожлантиришда муҳим роль ўйнайди. Давлат ижтимоий-демографик жараёнларга бефарқ қололмайди, у халқнинг, миллатнинг асраб қолиш ва ривожлантириш ижтимоий-демографик вазиятга боғлиқ эканини унутолмайди. Аслида, бундай сиёсат қандай параметрларга асосланишини аниқлаш кийин, чунки ижтимоий-демографик вазиятни, асосан, оила институтлари шакллантиради. Давлат эса бу борада оила институти ҳаётига аралашавермайди. Бироқ шундай вазиятлар юзага келиши мумкинки, давлат, аҳолининг соғломлигини таъминлаш, ички ресурслардан рационал фойдаланиш ва аҳоли сонининг ҳаддан ташқари ошиб кетишини чегаралаш мақсадида демографик ўсишга маълум бир тўсиқлар қўйиши мумкин.

Масалан, ўтган асрнинг 80-йилларидан бошлаб Хитойда оилаларга бир фарзанд кўришга руҳсат берилган. Икки ёки ундан ортиқ фарзанд кўришни истаган оилалар катта солиқ тўлашга мажбур бўлган. Бу тартиб 2019 йили бекор қилинди, бугун Хитой оиласи икки-уч фарзанд кўриши мумкин. Хитойда никоҳга кириш, оила қуриш деярли XX асргача оилалар ихтиёридаги вазифа эди. Қариндошлар ўртасида никоҳ тақиқланган. Хан династияси (II–IV аср) давридан бошлаб табақавий ёндашув, яъни, амалдорлар амалдорлар, ўрта ҳоллар ўрта ҳоллар, камбағаллар камбағаллар билан қуда-андачилик муносабатларини ўрнатишган. Хан династияси ҳукмдорлари мўнгул, манчжур, гунн ва турк қавми ҳукмдорларидан келин излаган.<sup>1</sup>

Ушбу тарихий манбаларда фарзанд кўришни чегаралаш кузатилмайди, аммо конфуцийлик аънаналарига ва талабларига кўра, ота-она ва фарзандлар ўртасида ҳурмат, итоат ва аънаналарга амал қилиш турмуш тарзи сифатида эътироф қилинган. Конфуцийнинг афоризмлари ва фикрлари фарзанд кўришни қутлайди, аммо улар патриархал муносабатлар тарафдоридир.<sup>2</sup>

Аммо статистик манбалар бир фарзандлик оилавий муносабатларнинг мустаҳкамланишига олиб келмаслигини кўрсатади. Масалан, 1987 йили ажрашганлар сони 0,55%ни ташкил этган бўл-

<sup>1</sup> Мильникова Ю.С. Правовое положение женщин в истории средневекового Китая (VII–XIII веков). Санкт-Петербург, Студия НР Принт, 2014, с. 43, 68.

<sup>2</sup> Конфуций. Афоризмы и изречения. Минск, 2012, с. 34, 56, 81.



са, у 2018 йилга келиб, 3,2%га ошган. 2008 йили Хитойда 2,269 миллион ажралиш қайд этилган, 2018 йилга келиб, ушбу рақам 4,461 миллионни ташкил этган.<sup>1</sup>

Ажралишларнинг 11% бир йил оила қурганлар, 26% икки йил, 32% 3 йил, 17% 4 йил 5% 5 йил оила бўлиб яшаганлардан иборат. Ажралишлар ичида “характерлари тўғри келмади”лар 77,5%ни ташкил этади. 2019 йил Хитойда 9,471 миллион никоҳ ва 4,154 миллион ажралиш қайд этилган.<sup>2</sup>

Ажралишлар ичида бепарзандлик ёки фарзандларни боқиш каби сабаблар учрамайди. Демак, агар Хитой тажрибасини таҳлиладан келиб чиқсак, оиланинг бузилишига ижтимоий-демографик омил деярли таъсир этмайди. Фарзанд кўриш истаги оилада асосий мақсад бўлиб қолади. Хитойда “Никоҳ тўғрисида” қонун қабул қилинган, унда ажралишлар ихтиёрий эканлиги қайд этилади. Бироқ ҳукуматнинг ижтимоий-демографик сиёсати оила бирлигини сақлаб қолиш, агар ажралиш рўй берса, фарзандлар ва аёлни моддий таъминлашни эркак томонга юклаш тарафдоридир. Ажралишларнинг 85% эркакнинг уйдаги зўравонлиги туфайлидир. Ажралишга қаратилган турли бюрократик тўсиқлар ўйлаб топилган бўлса-да, ажралишлар сони кўпчилигича қолмоқда. Ҳатто суднинг ажралишни тақиқлаши ҳам учрайди. Давлатнинг ижтимоий-демографик сиёсати қандай йўллар билан бўлса-да, оила бирлигини сақлаб қолишга қаратилган. Бу борада ўйлаб топилган турли тўсиқлар ҳам ана шу сиёсатнинг кўриниши ҳисобланади.

Хитойнинг бу тажрибаси бугун Ўзбекистон, Тожикистон ва Қозоғистонда ҳам татбиқ этилмоқда. Аввалги бир ой ичида кўриладиган суд ишлари энди 6 ойга, ҳатто 1 йилга чўзилиши мумкин. Ижтимоий-демографик сиёсат турли давлатларда турлича бўлса ҳам, улардаги бош мақсад оила институтини сақлаб қолиш, кўпинча, аёл ва фарзандлар манфаатларидан келиб чиқишдир.

БМТ прогнозларига кўра, 2050 йилга бориб, Европа аҳолиси ҳозирги 733 миллиондан 691 миллионга тушади. Дунё аҳолиси 9,1 миллиардга кўпайганда, Европа аҳолиси, айниқса, туб европаликларнинг сони кескин камаяди. Аҳоли сонининг фаол ўсиши Африка, Хитой ва Ҳиндистонда кутилмоқда. 2050 йилга бориб, Хитой аҳолисининг сони 1,42 миллиардга, Ҳиндистон аҳолисининг сони эса 1,61 миллиардга етади.<sup>3</sup>

Европада табиий ўсишининг камайиши Европа Иттифоқини мигрантлар учун алоҳида энгилликлар яратиш сиёсатини қўллашга мажбур қилмоқда. Масалан, 2008 йил 25 сентябрда Брюсселда ЕИга кирувчи 27 давлат адлия ва юстиция вазирлари учрашуви ўтказилди, унда мигрантлар учун зарур шароитларни яратиш беришга қаратилган норматив ҳужжатлар қабул қилишга келишиб олинган. Шу пайтгача, масалан, Германия ортиқча ишчи кучининг келишига тўсқинлик қилувчи ҳужжатлар қабул қилган эди, Брюссель учрашувидан кейин “иммигрантлар интеграцияси”ни қўллаб-қувватловчи ҳужжат қабул қилинади. Аҳоли сонининг табиий ўсиши кескин камайиб кетиши Германияни иммигрантларни чорловчи сиёсат олиб боришга мажбур қилган, чунки унда ҳар бир оилага ўсиш камида 2,1 бўлиши ўрнига 1,37 болани ташкил этган. Мамлакатда аҳоли сонининг оддий ўсишини таъминлаш учун ҳар йили 230 минг иммигрант керак.<sup>4</sup>

Шундай бўлса-да, Германия дунёвий билимга эга, ижтимоий муносабатларга тез киришиб кета оладиган иммигрантларни чорлаш сиёсатини олиб боради. БМТнинг собиқ Бош котиби Кофи Ананнинг таъкидлашича, “нафақат Европа мигрантларга керак, мигрантлар ҳам Европага керак. Германия, Италия, Франция ва Европадаги бошқа давлатлар жамиятларининг кексайиши эрта ё индин иқтисодиётда ва ижтимоий таъминот тизимида коллапсни юзага келтиради. Айниқса, бой ва камбағал давлатлар ўртасидаги турмуш тарзидаги кескин фарқланиш Европага иммигрантлар оқимини кўпайтиради”.<sup>5</sup>

XX асрнинг 60-йилларида Европа камбағал давлатларга моддий ёрдамлар бериш орқали аҳолининг, ҳеч бўлмаганда, ярми турмуш тарзини юксалтиришга эришишга интилган. Бироқ 2015 йилга келиб, аён бўлдики, бу ёндашув тўғри эмас экан, шу боис бой давлатларга иммигрантлар оқими кескин ошган. Европа қочоқлар ва иммигрантлар учун, Кофи Аннан фикрига кўра, очиқ бўлиши керак. Аммо Европа бу борада бадавлат давлат ичида охириги ўринда туради. Иммигрант ва

<sup>1</sup> Непейвода Н. Модификация брачно-семейных отношений и уголовно-правовая ответственность в Китайской Народной Республике. zakon.ru/blog/2020/03/ 23.

<sup>2</sup> Ўша жойда.

<sup>3</sup> google.come/am/s/amp.dw.

<sup>4</sup> Варкентин А. “Немецкая волна”.m.dw.com/ru.

<sup>5</sup> m.dw.com/ru/мигрантам ну.

қочоқларни қабул қилиш бўйича АҚШ етакчилик қилиб келади. Тўғри, Д.Трамп президентлик пайтида Жанубий Америка қитъасидан келувчи мигрантлар сонини камайтиришга ҳаракат қилинди, лекин у керакли натижа бермади. Ижтимоий-демографик сиёсат иммигрантлардаги репродуктив кўпайишдан фойдаланиш, шу тарзда аҳоли ўсишига эришишга қурилган.

Махсус манбаларга кўра, Европа Иттифоқидаги аҳоли сони ўсишининг 89% мигрантларга (1990) тўғри келади.<sup>1</sup> П.Бьюкененнинг фикрича, 2050 йилга бориб, Европа Иттифоқидаги давлатлар аҳолисининг деярли ярми, 50%ни мигрантлар ташкил этади.<sup>2</sup>

Демак, давлатларнинг ижтимоий-демографик сиёсати, аввало, улардаги вазиятдан, аҳоли сонининг табиий ўсиши ёки камайиши, миграция ҳолати, ишчи кучларига бўлган талаблар, қочоқлар каби омиллар билан бевосита боғлиқ бўлиб, Европада у табиий ўсишни сақлашга қаратилган. Осиё қитъасида бундай муаммо кузатилмайди, аксинча, ундаги давлатларда аҳоли сонининг интенсив тарзда ўсаётгани кузатилади.

Оилада фарзанд кўриш истаги алоҳида бир феномендир. Бу, бизнинг фикримизча, инсоннинг ўзидан из, насл, меросхўр қолдириш истагининг бир кўриниши. Киши умр мазмунини фарзанд кўриб, уни тарбиялаб, оёққа қўйиб, унинг ўзига муносиб издош эканига ишонч ҳосил қилишда, деб билади. Аввал бошда, табиий инстинкт сифатида мавжуд бўлган фарзанд кўриш, кейинчалик, онгли мақсадга, умр мазмунига айланади. Ижтимоий-демографик омиллар ичида етакчи ўринда турувчи фарзанд кўриш туйғусидан батамом маҳрум бўлган инсон, жамият учрамайди. Ҳатто ўзи учун яшашни ҳаётини позициясига айлантирган кишилар, индивидуалистлар ҳам ушбу туйғудан мутлақо маҳрум эмас. Демак, фарзанд кўриш туйғуси кишини инсонсевар қилади, уни оилада, жамиятда яшашга ўргатади. Фарзанд кўриш этноснинг ижтимоий бирлик, миллатнинг миллат бўлиб яшаш кафолатидир. Репродуктивлик, демографик барқарорликни таъминлаш, ҳаёт ва умр маъносини фарзандлар етиштириб, уларни вояга етказишда кўриш ўзбек оиласининг олижаноб этноанъаналаридан бири ҳисобланади.

Ижтимоий-демографик омиллар ичига репродуктив саломатлик ва фаоллик ҳам киради. “Репродуктив саломатлик инсон саломатлигининг ажралмас қисми бўлиб, нафақат шахс сифатида аёл учун, балки бутун миллат тақдири учун аҳамиятга молик ҳолатдир. 1994 йилда Қоҳирада бўлиб ўтган БМТнинг Бутунжаҳон хотин-қизлар халқаро конференциясида таъкидланганидек, репродуктив саломатлик бу инсон репродуктив тизими, унинг функцияси ва жараёнлари билан боғлиқ бўлган тўлиқ физиологик, ақлий ва ижтимоий ҳолатдир. Аҳоли ўзини қониқтирадиган ва ҳимояланган жинсий ҳаёт кечиришга ҳақлидир, лекин улар қачон ва нечта фарзандли бўлишлари ўз ихтиёрларида. Мазкур конференция иқтисодий ривожланиш ва демографик жараёнларни барқарорлаштириш бевосита хотин-қизлар ваколатлари, уларнинг ҳақ-ҳуқуқлари эканлиги тўғрисида бир битимга келди”.<sup>3</sup>

Репродуктив саломатликнинг ижтимоий-фалсафий мазмуни миллатнинг соғлом насл қолдириши учун зарур бўлган омиллар фиртил ёшдаги аёлларнинг жисмоний ва маънавий саломатлиги ҳақида қайғуриш, туғилган чақалоқларнинг саломат ўсиши ва камолотини таъминлаш, тиббий хизматларни уюштириш, хотин-қизларни тиббий назоратлардан ўтказиб, уларга турли ёрдамлар кўрсатиш билан боғлиқдир. Шу нуқтаи назардан, репродуктив саломатлик ижтимоий-демографик омиллар тизимига киради.

Репродуктив саломатлик масалаларини ўрганган Р.Арзикулов оилавий этноанъаналаримиз ва этнотажрибаларимиздан келиб чиқиб ёзади:

◆“келин-куёвлар насл-насабининг тозалигига эътибор бериш, куда-андаларнинг ўзаро насл-насабини, қандай касалликлар билан касалланганлигини сўраб-суриштириш;

◆насл-насабнинг тозаланиши 7 пушти ўтгандан кейин содир бўлишини ҳисобга олиб, бегоналашган авлодлар ўзаро турмуш қуриши ва никоҳга рухсат бериш. Шунга кўра, биринчи авлоднинг боласи боласининг боласини неварра, неварасининг боласини чевара, чеварасининг боласини эвара, эварасининг боласини абира, абирасининг боласини кабира, кабирасининг боласини бегона дейишган;

<sup>1</sup> Ўша жойда.

<sup>2</sup> Бьюкенен П. Смерть Запада. Москва, АСТ, 2002, с. 21 – 48.

<sup>3</sup> Арзикулов Р. Репродуктив саломатлик асослари. Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2010, 21-бет.

◆маст қилувчи ичимликларни ичиш ва гиёҳванд моддалар ҳамда тамаки чекишни ман қилиш;

◆никлоҳдан олдинги покланиш даври икки ойгача давом этиб, бу даврда оила қурувчи эркак ва аёл организмлари турли хил нопокликлардан тозаланади. Бунинг учун нопок ҳаракатлардан тийилиш, овқатланишда парҳез сақлаш тавсия этилади;

◆никоҳдан кейинги чилла даври 40 кун давом этиб, бу даврда эр-хотин интим муносабатларда ва меъёрий кун тартибига ҳамда соғлом турмуш тарзи қоидаларига риоя қилиб яшаши соғлом зурриётнинг юзага келишига асос бўлиб хизмат қилади. Эрнинг ўз хотинини олти ойгача ёлғиз ташлаб кетмаслик бўйича мажбурият олиши ҳам жисмоний, ҳам руҳий соғлом фарзанд туғилиши учун кафолатдир”<sup>1</sup>.

Маълум бўладики, репродуктив саломатлик халқ, миллат равнаки, аёлларимизнинг туғиш ва оилавий функцияларини етарли даражада бажариши кафолати ҳисобланади.

Сиёсий регулятив ёки рационал модель туғиш жараёнини, неча фарзандли бўлиш мумкинлигини, оила аъзолари неча кишидан ёки кимлардан иборат бўлиши мумкинлигини режалаштиришни билдиради. Ижтимоий ҳаёт қанчалик рационаллаштирилса ва режалаштирилса, оила институти ҳам ушбу ёндашувларга эргашади. Жинсий яқинликда рационал элементлардан кўра табиий инстинктив истаклар, элементлар устуворлик қилади. Шунинг учун оилани ҳам рационаллаштириш ва режалаштириш мумкинлиги эътирозлар уйғотади.

Лекин биз ўз ҳаётимизни, фаолиятимизни рационаллаштириш ва режалаштириш йўлидан бораётган эканмиз, нима учун уларни оилавий ҳаётга, эр-хотин муносабатларига татбиқ этишимиз мумкин эмас? Этнотажрибалар кўрсатадики, эр-хотин ўртасидаги интим алоқалар ҳар доим ҳам табиий инстинкт талабларига мувофиқ кечавермайди, кўп ҳолларда, улар рационал талабларга мувофиқдир.

Шундай экан, интим алоқаларни рационаллаштириш ва режалаштириш орқали биз оилавий муносабатларни ҳам мақсадга мувофиқлаштирамиз.

**Толибов Абдурауф Нуриддин ўғли (Тошкент Давлат Иқтисодий университетини катта ўқитувчиси; email: [white\\_tiger@mail.ru](mailto:white_tiger@mail.ru))**

### **ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА АРИСТОТЕЛЬ ВА ПЛАТОННИНГ ОИЛА МАСАЛАЛАРИ БЎЙИЧА ҚАРАШЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ**

***Аннотация.** Ушбу мақолада антик давр файласуфларидан энг машхурлари, қизиқарли ва чуқур фикрлар ва гоялари билан фанга катта ҳисса қўшган қадимги даврнинг энг таниқли вакиллари Платон ва Аристотелнинг оила масалалари бўйича назариялари ёритилган. Улар асарларида никоҳ ва оила, одамларнинг турмуш ва оилавий ҳаётининг ижтимоий мотивлари ҳақида сўз юритган. Бугунги кунда, оилавий масалалар тобора кенгроқ ўрганилаётган даврда, икки буюк алломаларнинг ушбу мавзуга доир назария ва қарашларини таҳлил қилиш катта аҳамиятга эга. Бу жамият тараққиётида оила феноменини кенгроқ тушуниш имконини беради.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются теории самых известных философов древности, известных представителей античности, которые внесли большой вклад в науку ин-тересными и глубокими мыслями и идеями Платона и Аристотеля по семейным вопросам. В их произведениях рассказывается о браке и семье, социальных мотивах брачно-семейной жизни людей. Сегодня, когда вопросы семьи изучаются все шире, большое значение имеет анализ теорий и взглядов на эту тему двух великих ученых. Это позволяет шире понять феномен семьи в развитии общества.*

***Annotation.** This article discusses the theories on family issues of the most famous philosophers of antiquity, the most famous representatives of antiquity, who made a great contribution to science with interesting and deep thoughts and ideas of Plato and Aristotle. Their works tell about marriage and family, social motives of people's marriage and family life. Today, when family issues are being studied more and more, it is of great importance to analyze the theories and views on this topic of two great scientists. This allows a wider understanding of the family phenomenon in the development of society.*

***Калим сўзлар:** идеализм, Аристотель, Платон, гендер тенглик, замонавий оила, парирхал оила, оиладаги фазилатлар.*

***Ключевые слова:** идеализм, Аристотель, Платон, гендерное равенство, современная семья,*

<sup>1</sup> Ўша асар. 94-бет.

*патриархальная семья, добродетели в семье.*

**Key words:** *idealism, Aristotle, Plato, gender equality, modern family, patriarchal family, virtues in the family.*

Жамиятнинг ажралмас қисми оила ва никоҳ жуда кўплаб ижтимоий-гуманитар фанлар томонидан ўрганилиб келмоқда. Олимлар томонидан улкан фактик материаллар ва турли хил билимлар шу давргача тўпланиб келмоқда. Файласуфлар, социологларнинг одамларнинг оилавий ҳаёт ҳақидаги ва оиланинг пайдо бўлиши учун асосий шартлари ҳақидаги фикрлари ижтимоий фалсафа, социология ва оилашунослик каби фанларнинг ривожланишига тўртки бўлди. Узоқ вақт давомида файласуфларнинг инсоният наслини кўпайтириш, одамлар ўртасидаги муносабатлар, эркаклар ва аёлларнинг ижтимоий роллари, одамларнинг асосий эҳтиёжлари тўғрисида қарашларини баён қилиниши инсонларнинг энг қадимги шаклланиши – никоҳ ва оиладаги одамлар ҳаётини тушуниш билан боғлиқ ҳисобланади.

Келинг, дастлаб, Шарқда Афлотун, Ғарбда Платон деб аталган файласуфнинг оила масалалари бўйича қарашларини кўриб чиқайлик.

Қадимги файласуф Платон (428–427дан 348–347 милл. аввалги йилларда) Юнонистонда яшаган. Унинг асл исми Аристокл бўлиб, бу унинг жисмоний имкониятлари учун берилган тахаллус ҳисобланиб, «кенг, кенг елкали» деган маънони англатади. У Афинада зодагонлар оиласида учинчи фарзанд бўлиб дунёга келган. Ижтимоий келиб чиқиши туфайли у яхши билим олиш имкониятига эга эди. У кўп саёҳат қилиб, мусиқа, шеърят ва расм чизишни ўрганган. Платон Суқрот<sup>1</sup> билан учрашгандан сўнггина, фақат фалсафани ўрганишни бошлади. У уйланмаган ва болалари бўлмаган. У 40 ёшида академияга асос солган ва у ерда умрининг охиригача дарс берган. Академия, тахминан, 1000 йил давомида мавжуд бўлиб, кўплаб файласуфларни тарбиялаган. Платоннинг деярли барча фалсафий асарлари бизнинг давримизгача етиб келган.

Файласуф идеализмга<sup>2</sup> асосий фалсафий йўналиш сифатида асос солган. Платон патриархал оиланинг бошланғич назариясини ишлаб чиққан ва эркаклар ва аёллар учун ҳуқуқ ва имкониятларнинг тенглиги тўғрисидаги қарашларни илгари сурган мутафаккир ҳисобланади.

Платон ўзининг “Қонунлар” асарида адолатли давлат тузиш оила ва болаларни тарбиялашга боғлиқ эканлиги ҳақида ёзади. Аммо у болалар тарбиясини фақат давлат амалга ошириши керак, деб ҳисоблаган. Шунингдек, “Ҳар бир никоҳ давлат учун фойдали бўлиши керак”, деган фикрдан келиб чиқиб, никоҳ ва оила масалаларини давлатда файласуфлар (ҳукмдор сифатида) бошқариши кераклигини таъкидлаган.

Платоннинг идеал давлат лойиҳасида бутун аҳоли қатламлари 4 синфга бўлинган: файласуфлар, ҳукмдорлар, жангчилар/соқчилар ва ишчилар. Шахснинг қадрлари унинг давлатга хизмати билан белгиланади. Умуман олганда, жамият (давлат) манфаатлари шахс манфаатларидан устун туради, шунинг учун шахс унга бўйсунуши керак. Платоннинг утопик ғояси меҳнат тақсимотига асосланади.<sup>3</sup>

Идеал давлат мавжудлигига асосий таҳдид сифатида файласуф оила институтининг анъанавий вазифалари деб билган. Шунинг учун унинг давлатида алоҳида оила ва хусусий мулк бекор қилинди. Платон никоҳ зарурлигини таъкидлаган. Аммо никоҳ тубдан ўзгариши керак эди. Унинг қарашлари бўйича, барча аёллар барча эркаклар учун умумий бўлиши, уларнинг ҳеч бири билан алоҳида яшамаслиги зарурлиги ғояси ётар эди.

Платон аёллар жамияти ҳақида гапирганига қарамай, улар у учун, авваламбор, эркаклар билан бир хил ҳуқуқ ва мажбуриятларга эга инсонлар эканлиги ва шунга мувофиқ у аёлларнинг ҳам шу тарбия ва таълим олишини исташини ёзади. Платон ўзининг “Давлат” асарида шундай деб ёзган эди: “Бу эр (соқчи)ларнинг барча хотинлари умумий бўлиши керак, токи фарзандлар отаси ким эканлиги, оталар қайси бола фарзанди эканлигини билмасин. ...Энг яхши эркаклар аксарият ҳол-

<sup>1</sup> Сократ (қад. юнон. Σωκράτης, тахминан 469 мил. аввалги йилдан, Афинада – 399 милл. аввалги йилгача) – қадимги юнон файласуфи, унинг таълимотида фалсафада табиатни ва дунёни билишдан одамни ўрганиш муҳимлиги акс этади. <http://ru.wikipedia.org/wiki/Сократ> – дата доступа 4.02.2010.

<sup>2</sup> “Идеализм” атамаси XVIII асрда пайдо бўлган. Уни биринчи бўлиб Лейбниц томонидан Платон фалсафаси ҳақида гапирганда ишлатилган. Идеализмнинг иккита асосий тармоғи мавжуд: объектив идеализм ва субъектив идеализм.

<sup>3</sup> С.Н.Бурова. Социология брака и семьи: история, теоретические основы, персоналии. Белорусский государственный университет, Минск, “Право и экономика”, 2010, с. 55.

ларда энг яхши аёллар билан, энг ёмони, аксинча, энг ёмонлари билан бирлашишлари керак, яхши аёл ва эркакларнинг фарзандлари тарбияланиши, ёмонлариники тарбияланмаслиги керак... Биз урушларни, касалликларни ва бошқаларни ҳисобга олган ҳолда, эркаклар сонини, иложи борича, доимий равишда ушлаб туришни ва давлатимизда улар кўпаймаслиги ёки камаймаслигининг олдини олиш учун бу вазифани ҳукмдорга топширамиз. ...мансаб эгаллаш аёллар учун ҳам, эркаклар учун ҳам бир хил бўлганлиги боис туғилган барча авлодлар зудлик билан махсус тайинланган мансабдор шахсларнинг ихтиёрига ўтишади. ...ота-оналар ёш ва бақувват бўлганларида насл қолдиришлиги керак. ...аёллар йигирма ёшдан то қирқ ёшгача фарзанд дунёга келтирсин, эркаклар эса ривожланган вақтидан то 55 ёшгача фарзанд учун ҳаракат қилишсин...”<sup>1</sup>

Файласуфнинг сўзларига кўра, бола туғилиб, тирик қолиши биланок, уни дарҳол онасидан олиб, узокдаги ҳомийлик уйларига юборишади. У ерга оналар бирма-бир келиб, кимнинг боласи бўлишидан қатъи назар, у ерда бўлган барча болаларни боқишади. Шундай қилиб, на бола онасини билади, на фарзанд онасини. Кейинроқ ўша пайтда никоҳ уюшмасида тўпланганларнинг барчаси 10 ойлик барча болаларнинг оталари ва оналари деб номланади. Натижада, хусусий оила йўқ бўлиб кетади ва унинг ўрнига давлатнинг ўзига ва манфаатларига тўғри келадиган “жамоат оиласи” ривожланади.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, Платоннинг фикрига кўра, қизлар мусиқа, гимнастика, жанг санъати, математика ва бошқаларни ўрганадиган йигитлар сингари тарбияни олишлари ва эркаклар билан бир хил давлат лавозимларини эгаллаши керак. Худди шу тарбия эркаклар ва аёлларни тенг даражада яхши васийларга айлантириши мумкин. Платон эркак ва аёлнинг қобилиятлари ва кучлари ўртасида сифат жиҳатидан кескин фарқ йўқлигига амин эди.

Шу билан бирга, аёллар табиатан эркакларникига қараганда яхши эплайдиган баъзи юмуш (масалан, йигирув ёки пишириш)ларни билиши керак эди. Аммо бундан шу ишларни фақат аёл бажариши керак, деган фикр келиб чиқмайди. Чунки файласуф фикрича, аёллар орасида ошпазликдан кўра кўпроқ файласуф бўлишга қодир бўлганлар ёки жисмоний машқларда эркаклардан устунлик қиладиганлари ҳам бўлади. Шу сабабли барча аёлларни ип йигирувчи ёки ошпазга айлантириш нотўғри бўлганидек, барча эркакларни жангчи ёки файласуфга айлантириш бемаъниликдир. Афлотун таъкидлашича, ҳамма нарса унинг жинсига боғлиқ эмас, балки фақат инсоннинг қобилиятига боғлиқ. Шунинг учун у аёлдан барча касблар ва давлат лавозимларидан эркаклар билан тенг равишда фойдаланиш имкониятини талаб қилади. Ушбу касбларни тақсимлашда у ёки бошқа жинсга мансуб бўлган ягона мезон бўлиши керак эмаслигини уқдиради.

Замонавий илмий тил билан тушунтирилганда, Платон ўзининг ушбу ижтимоий лойиҳасида гендер ёндашувини қўллаганлиги ва гендер тенглигига эътибор қаратганлигини аниқлаш мумкин.

Мутафаккир ўзининг лойиҳаси амалий эмаслигини, бу фақат идеал эканлигини тушунган. Идеал давлатнинг лойиҳаси, анъанавий оилани бекор қилиш, албатта, реалликка мос эмас эди, чунки у инсон табиатига қарши зўравонлик тамойилига асосланган эди. Аммо тан олиш керакки, баъзи ғоялар (масалан, болаларни тарбиялашда ва ҳукумат фаолиятида гендер тенглиги ғоялари), кўплаб давлатларда амалга оширилмоқда.

Платон таълимотида муҳаббат жозибаси мавзуси (эрос) муҳим роль ўйнайди. У жисмоний севгига урғу беради. Чунки бу инсонда билим доирасини сезиларли даражада торайтиради, фақат завқ ва шахват учун интила бошлаган одамнинг дунёқараши ва унинг севгиси объекти у учун асосий нарсага айланади. У муҳаббатини энг муҳими деб ҳисоблаб, қолган ҳамма нарсени унутади. Бу, асосан, муносабатларда қарамликка олиб боради. Платон ишонган муҳаббат фожиаси ҳар доим шундай бўлади: у, кўпинча, асосий нарсени яширади: тана руҳни, шахсни ва унинг гўзаллигини – ҳақиқат ва борлик гўзаллигини яширади.

Платоннинг давлат, жамият, оила ва шахслараро муносабатларни бошқаришдаги қарашлари ўз даврида катта аҳамиятга эга бўлган. Тарихда унинг таълимотини маъқуллаган ва унга қарши мулоҳазалар билдирган файласуфлар жуда кўп бўлган.

Аристотель (Шарқда Арасту деб номланган) ва Платон одамларнинг оилаларга бўлиниши жамият учун фойдалими ёки йўқми, деб баҳслашдилар. Платон ўз “Республика”сида оилани, ҳеч бўлмаганда, ҳукмрон синф вакиллари учун бекор қилиш керак, деган позицияни илгари суради.<sup>2</sup> Бунинг ўрнига, улар ўзларининг бутун эътиборларини давлатга қаратишлари кераклигини айтади.

<sup>1</sup> Платон. Государство. Сочинения. М., 1971, т.3, ч.1, с. 254 – 259.

<sup>2</sup> Gilgun J. (2012). Enduring themes of qualitative family research. Journal of Family Theor Review, 4(2), p. 80–95.

Мисол учун, эркаклар барча аёлларни баҳам кўришади ва болалар туғилганда оналаридан олинади ва давлат болалар боғчаларида тарбияланади, оила аъзоси сифатида эмас, балки ўз синфининг аъзолари сифатида ўсади (Платон баъзида гендер тенглиги элементлари ҳақида бахслашса-да, у, одатда, ўз даврининг гендер ва бошқа ҳокимият иерархиялари ҳақидаги маскулинистик тахминларини илгари сурган). Бу тартиб Платон мутлақо адолатли утопик жамият сифатида кўрган нарсанинг муҳим таркибий қисми эди.<sup>1</sup> Аристотель ўзининг «Сиёсат» асарида Платоннинг оилага қарши аргументларига қатъий рози бўлмаган. Аристотелнинг таъкидлашича, оилалар жамиятнинг асосий ижтимоий бирлиги, чунки улар алоҳида шахсларга ва каттароқ сиёсатга ўзгартирувчи таъсир кўрсатади. Бунинг асосий сабаби, дея тушунтирди у, оила масъулиятни ўргатади ва бу адолатли ва яхши жамият учун зарур бўлган фазилатдир. Жинсий шериклар ва болаларни баҳам кўриш ҳар бирига камроқ ғамхўрлик қилишига олиб келади – бу умумий нарсалар фожиаси ҳақидаги замонавий концепциянинг тимсоли. Аристотель таъкидлаган: “Чунки энг кўп сон учун умумий бўлган нарса унга энг кам ғамхўрлик талаб қилади. Ҳар ким, асосан, ўзини ўйлайди, умумий манфаат ҳақида деярли ўйламайди. Чунки бошқа мулоҳазалардан ташқари, ҳар бир киши ўзи бажариши кутаётган бурчни эътиборсиз қолдиришга мойил бўлади.”<sup>2</sup>

Аристотель фикрича, оила аъзолари меҳрибонлик, сабр-тоқат каби фазилатлари ёки хусусиятларини ўз ичига олади, бу уларни «яхшиликка» олиб борадиган йўллар билан ҳаракат қилишга олиб келади, Аристотель бунинг амалий донолик деб атаган. Аристотелчилар яхшилик ҳақида гапирганда, улар одамларнинг ижтимоий дунё жихатларига (масалан, ота-оналарнинг тўғри роли, оилани нимадан иборат бўлиши кераклиги ёки соғлом оилавий муносабатлар ҳақидаги ғоялар) баҳолашнинг роли ва динамикасига ишора қиладилар. Аристотелнинг ижтимоий назарияси одамлар орзу қилган мақсадларга мурожаат қилади ва одамларнинг ўзларининг тўлиқ потенциалига эришишга интилишларини осонлаштирадиган ёки тўсқинлик қиладиган ижтимоий контекстларни ўрганади. Аристотелизм фазилат ва амалий донолик тушунчаларини (яъни, муайян вазиятларда қандай ҳаракат қилишни билиш) замонавий ижтимоий фанлар назарияси ва тадқиқотларига киритади. Шундай қилиб, бу оила динамикасига хос бўлган қадриятлар ва ахлоқий баҳоларни номлаш ва улар билан курашиш усулидир.<sup>3</sup> Мулоҳазалар ва таҳлиллар кундалик оилавий ҳаётнинг бир қисмидир ва тадқиқот усуллари ва назариялари ижтимоий соҳада фаолият юритувчи олимларга уларни тушуниш ва муҳокама қилиш имконини беради. Шундай қилиб, Аристотелизм ижтимоий фанларни тадқиқ қилиш ва оилаларни ўрганиш учун изчил асосни таъминлайди, бу аниқ фазилатларни, қадриятларни, мақсадларни ва муносабатлардаги «яхшилик»ни ўз ичига олади.

Аристотель ўз асарларида оилавий фазилатлар ҳақида кўп фикрларни ёзиб қолдирган. У қуйидаги фазилатлар оилада мавжуд бўлиши кераклигини таъкидлайди.

Ижодкорлик	Камтарлик	Меҳрибонлик	Мўътадиллик
Кечирим	Адолат	Ўрганишга бўлган муҳаббат	Ростлик
Миннатдорчилик	Севги	Қатъийлик	Тушуниш
Умид	Маънавият	Хушмуомалалик	Истиқболлилик

#### **1-жадвал. Аристотель назарида оилада мавжуд бўлиши керак бўлган фазилатлар.**

Хулоса қилиб айтганда, кўп жамиятларда оила аъзоларининг ҳаётида фазилатларни ривожлантиришга идеал тарзда бағишланган кўп авлод институти сифатида Аристотель назарияси таклиф қилинади. Шу нуқтаи назардан, шахс ва оиланинг соғлом ривожланиши улар мавжуд бўлган донолик ва амалиётлари контекстида содир бўлади, бу эса ваколатни амалга оширишга ва муаммоларни енгишга олиб келади. Бу жараён аъзоларга шахс ва оила эриша оладиган «яхшилик» ҳақидаги тушунчаларига мос келадиган мақсадлар сари ҳаракат қилишда ёрдам беради. Бундан ташқари, оила жамиятнинг илғор институти бўлиши мумкин, чунки оила аъзолари эзгу фазилатларни ривожлантириш атрофида ўзини-ўзи ташкил этиш орқали келажак авлодларни жамиятни ўзгартиришга тайёрланишади. Бу бевосита жамият тараққиётига таъсир қилмасдан қолмайди. Аристотель ва Платоннинг оилавий жараёнлар ва уларнинг самарали таъсири ҳақидаги билимларнинг асосларини замонавий оилавий ҳаётни концепциялаш ва тадқиқ қилишда яхши самара беради.

<sup>1</sup> Todd L. Goodsell, Jason Whiting. An Aristotelian Theory of Family. Article in Journal of Family Theory & Review December 2016, p. 484.

<sup>2</sup> Fowers B.J. (2001). The limits of a technical concept of a good marriage. Exploring the role of virtue in communication skills. Journal of Marital and Family Therapy, 27, p. 327 – 340.

<sup>3</sup> Fife S.T., & Whiting J.B. (2007). Values in family therapy research and practice. An invitation for reflection. Contemporary Family Therapy, 29, p. 71 – 86.

## МИФОЛОГИЗАЦИЯ ЖАРАЁНИ РИВОЖИНИНГ ТАРИХИЙ БОСҚИЧЛАРИ

**Аннотация.** Ушбу мақолада мифологиянинг тарихий илдиэлари ўзига хос нуқтаи назардан очиб берилган. Бундан ташқари, мифологизациянинг фалсафий хусусиятлари талқин қилинган. Шунингдек, мифологизацияни файласуф мазмун ва моҳияти очиб берилган. Яна мифологиянинг антик даврдаги тарихий илдиэлари очиб берилган.

**Аннотация.** В статье предпринимается попытка раскрыть исторические истоки мифологии с иной точки зрения. Кроме того, проводится анализ философских аспектов процесса мифологизации и его исторических истоков в Античности.

**Annotation.** The article attempts to reveal the historical origins of the mythology from a different perspective. Furthermore the analysis of the philosophical aspects of the process of mythologization and its historical origins in Antiquity is also provided.

**Калим сўзлар:** мифология, афсона, уйдирма, бадий тўқима, стимул, аффектив ҳолат, оммавий онг, кундалик онг, онгнинг ахраизацияси, тўғри ҳикоялар, афсона ва маталлар, сохта ҳикоялар.

**Ключевые слова:** мифология, миф, басня, вымысел, раздражитель, аффективное состояние, коллективное сознание, обыденное сознание, архаизация сознания, правдивые истории, мифы и легенды, ложные истории.

**Key words:** mythology, myth, fable, fiction, stimulus, affective state, collective consciousness, everyday consciousness, archaization of the consciousness, true stories, myths and legends, false stories.

**Кириш.** Бугунги кунда дунё олимлари мифларга нисбатан янгича қараш шаклланмоқда. Даставвал, мифга одатий, “афсона”, “уйдирма”, “бадий тўқима” деб ном таъриф берган олимлардан фарқли равишда, бугунги кунда биз мифларни мифлар яратилган даврда инсонлар уларни қандай тушунган бўлса, шундай тушунмоқдамиз. Олдинги мифологик онг ҳукмрон бўлган жамиятларда миф тўғри ҳикоя ва ундан ҳам ортиқроқ ҳодиса ҳисобланган. Чунки у нафақат реалликни акс эттирган, балки воқеликдан ҳам устун турувчи, муқаддас, намунали, андозали ва муҳим аҳамиятга эга нарсани ўзида ифодалаган. Америкалик мифология ва динлар тарихи бўйича тадқиқотчи Мирсеа Элиаде бу борада шундай дейди: “М.а. 565–470 йилларда яшаб ижод қилган қадимги юнон файласуфи Ксенофан Гомер ва Гесиод томонидан Юнон худоларининг илоҳий сифатларини мифологик талқин қилинишини танқид қилган даврдан буён қадимги юнонлар мифдан барча диний ва метафизик қийматни суғуриб олиб ташлай бошлашди. Мифни тушуниш учун бизга унинг одатий – “уйдирма” деган маъноси ёрдам бермайди. Аниқроғи, бизни миф уйдирмага айланган тарих сахнаси ҳам, интеллектуал шароитлар ҳам қизиқтирмайди. Бизни қизиқтирадиган нарса, бу мифнинг баъзи жамиятларда ҳалигача тириклиги, ҳалигача у инсонларни ҳаракатга келтириши, уларнинг хулқ-атвори учун андоза вазифасини бажариши, инсон ҳаётига маъно ва мазмун бахш этиш ҳодисасидир.

**Адабиётлар таҳлили.** Биз бугунги кунда ҳиссиётлар ёки мотив кучлари деб атовчи ходисалар ўша даврлар онгида субъектив, “ички” ва интернал аҳамиятга эга, сифатида тасаввур қилинмаган. Бунга яқиндагина, беш-олти аср олдин эришдик дейиш мумкин. Аксинча, улар уларни юзага келтирган кечинмалар (ходисалар, ходисалар занжири) бир қисми сифатида ўзларини намоён қилган, инсонлар тасаввурида дастлабки шаклга кира бошлаган. Бугунги “стимул” ғояси мазкур тафаккур шаклининг бир қолдиғи дейиш мумкин – стимул – бу объектга субъектда аффектив ҳолат ва хулқ-атвор келтириб чиқариш имконини берувчи ходисадир. Яъни, объект субъектга бирор ишни бажариш ёки бажармаслик бўйича стимул беради, унда стимул уйғотади. Бунда объект стимул орқали субъект устидан ҳукмронлик ва назорат ўрнатади, ҳеч бўлмаса, унинг хатти-ҳаракатларига таъсир кўрсата олади. Тажрибадан олдинги, преэкспериментал онг буни қила олмаган, ва қила олмаган бўлар эди, у объект ва унинг хулқ-атворга таъсирини бир биридан фарқлай олмаган бўлар эди. Жордан Б.Питерсоннинг бу борада қуйидаги фикрлари диққатга сазовор: “Архаик маънодаги илоҳ – бу объект ва объект келтириб чиқарадиган эффект, унинг субъектга таъсирининг жамланмасидир (аниқроғи, илоҳ – бу объектлар синфи ва уларнинг таъсирларидир)”<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Peterson, Jordan. Maps of Meaning. The Architecture of Belief. New York: Routledge. 1999, p. 113.

Энума элишга қайтадиган бўлсак, Месопотамия худолар пантеонидаги иккинчи даражали илоҳлар, жумладан, жуфтликлар Лахму ва Лахаму ҳамда Кишар ва Аншар – Тиамат ва Апсунинг дастлабки жинсий иттифоқи натижасида дунёга келади. Мазкур жуфтликдан иборат дастлабки прекосмогоник уруғ “тартиб” (маскулин тамойил) ва “хаос” (феминин тамойил) қатламларидан иборат ҳисобланади. Бу қатламлар оламнинг ота ва онаси сифатида талқин қилинади ва улар бир бирлари билан “ижодий иттифоққа” бирлашгандир (алоҳида олиб ҳисобланувчи рух ва материя доимо кўшилган ҳолда мавжуд бўлади, масалан, инсонда). Тиамат ва Апсунинг иттифоқи уларнинг болаларини – ибтидоий инстинктлар ёки ҳаётий кучларни юзага келтиради, ва улар ҳам, ўз навбатида, бошқа нисбатан индивидуаллашган мавжудотларни дунёга келтиради. Энума элишнинг ўзида мазкур ҳаётий кучлар батафсил ёритилмаган, балки унда нисбатан умумий масалалар кўтарилган. Лахму ва Лахаму ҳамда Кишар ва Аншар – булар шунчаки тасодифий персонажлар бўлиб, улар драманинг ҳақиқий иштирокчилари – Мардук – эндигина майдонга чиққан индивид-симон худо ва Тиамат – унинг хоин онаси орасидаги курашда воситачи сифатида хизмат қилишади. Шундай экан, Кишар ва Аншар Ануни дунёга келтиради, ва Ану эса “оталарининг ҳукмдори,” “кенг тушунчага эга, ақлли, кучли, бобоси Аншардан ҳам кучлироқ бўлган”, “худолар ва биродарлари орасида тенгсиз бўлган” “отасига ўхшаган э”ни дунёга келтиради.<sup>1</sup>

**Тадқиқот методологияси.** Худоларнинг ердаги мавжудлиги шунчаки уларнинг кўпайишига ва ерда турли тўс-тўполоннинг юзага келишига хизмат қилади. Уларнинг тинимсиз талотўплари ва ҳаракатлари илоҳий ота-оналарини жаҳлини чиқатади, ва “Тиаматнинг ички аъзоларини кўзгатиб юборади”. Оқибатда, Тиамат ва Апсу ўз болаларини “ютиб юборишга” қарор қилишади. Бу кўплаб халқлар мифологиясида учрайдиган ҳодиса бўлиб, у, кейинчалик, Яхве, Нух ҳамда Тошқин ҳақидаги афсоналарда яна қайта такрорланади. Худолар космосни юзага келтиришади ва тинимсиз тарзда уни яксон қилишга интилишади.

Еа ота-оналарининг фитнасидан хабар топади ва Апсуни ўлдиради ва “ўлганнинг устида тепган” қилгандек, Апсунинг жасади устига уй куради (ва киноя учунми, ёки эслаш учунми унинг номини ҳам “Апсу уйи” деб атади). Бу уйга у ўз рафиқаси Дамкинани олиб келади, ва Дамкина тез орада Мардук, афсона қаҳрамонини дунёга келтиради.

Мардук бу афсонада, асосан, онга ўхшатишган. Унинг сезги қобилиятлари одатдагидан юқори даражада, унинг сўзлари бунёдкор ва вайронкор қудратга эга (у сўзлаганда лабларидан олов сачраган. Оловнинг трансформацияловчи қудрати тилга олинган). У қуёш худоси сифатида тасвирланган, ва бу унинг “нур”, “назар”, “ёруғлик”, “уйғониш”, “тонг”, “зулматнинг яксон қилиниши” ва “туннинг маҳв этилиши”ни ўзида акс эттирган.

Миф якунида Мардук Тиамат билан жангга шайланади. Мардук ўз қуроолларини – ўз ёйини, ғўласини ва чақмоқни тайёрлайди. У олов ва қурооллар устаси бўлган, яъни, у номаълум, даҳшатли ва қўрқинчли оламни қулай, самарали ва маълум оламга айлантирувчи технология устаси ҳисобланади. У номаълум ҳудудни боғлаш, унинг ҳаракат соҳасини чеклаш ва уни назоратга олиш қобилиятига эга. У ўзига ёрдам бериш учун шамол ва бўрон чақиради ва шу орқали табиат кучларидан табиатнинг ўзига қарши курашда фойдаланади.

**Муҳокама ва натижалар.** Мисол учун, баъзи ибтидоий қабилалар балиқчилик билан кун кечиришади, чунки афсонавий замонларда бир Ғайритабийий Мавжудот уларга қандай балиқ тутиш ва уни пиширишни ўргатган. Мазкур миф бизга биринчи мартаба амалга оширилган балиқчилик амалиётини ҳикоя қилади, шу билан бирга, ғайриинсоний амалиётни ошкор қилади, уни бажаришни инсонларга ўргатади, ниҳоят, нега мазкур қабиланинг ўз ҳаётини шу тарзда яшаши керак эканлигини тушунтиради.

Бунга мисоллар келтириш осон бўлар эди, лекин юқорида келтирилган мисоллар нега архаик инсон учун мифларнинг бирламчи аҳамиятга эга эканлигини ва афсона ҳамда маталларнинг ундай эмаслигини кўрсатади. Мифлар унга уни шаклланишида ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган, унинг мавжудлигини шакллантирган ибтидоий “ҳикоялар”ни ўргатади ва унинг мавжудлиги билан ва космосдаги леигитим экзистенциал мақоми билан боғлиқ бўлган барча нарса унга тўғридан-тўғри алоқадор бўлади.

Кундалик онгнинг оммавий онг билан алоқаси ҳам диққатга сазовор. Масалан, В.П.Тугаринов фикрича, кундалик онг бу инсонларнинг кундалик фаолият натижасида келиб чиқувчи омма-

<sup>1</sup> Heidel A. (1965). The Babylonian genesis. Chicago. Chicago University Press (Phoenix Books), p. 18.



вий онгидир.<sup>1</sup> Бу каби қараш бир қатор қаршиликларни келтириб чиқаради. Биринчидан, бунда кундалик онг хусусиятлари оммавий онгга ўтказилади, бу эса нотўғри, чунки кундалик онг ҳар бир кишининг ҳаёти давомида у томонидан тўпланган тажриба ва малака таъсирида шаклланади. Кундалик онг воқеликни ўзлаштириш даражасини, оммавий онг эса онгнинг турли даражаларда, масалан, ижтимоий психология даражасида ёки мафкуравий даражада мавжуд бўлиш шаклини – эмпирик, назарий – ўзида ифодалайди. Шундай экан, кундалик онг оммавий онгда мавжуд бўлади, бир пайтнинг ўзида, ижтимоий онгнинг бир даражаси ҳисобланади. И.И.Дубинин ва Л.Г.Гусякова ва кундалик онг деганда воқелик акс этишининг тарихан шаклланган шаклини тушунишади. Конкретлик билан характерланувчи билимларнинг ўзига хос ташкилланиши, ҳақиқий ва ёлғон тасаввурларнинг чалкашиб кетиши, олдиндан маълум ва пайқалган ҳодисалар орасида тасодифий алоқаларнинг ўрнатилиши кабиларни бунга мисол келтириш мумкин. Мазкур таърифга кўра, кундалик онг – бу ижтимоий онг даражасидир ва уни оммавий онг билан айнийлаштириш ҳақиқатга тўғри келмайди.<sup>2</sup>

Қадимги Юнонистон мифлари ва афсоналари“га нисбатан ҳавола сифатида кўрилмоқда. Бу, бизнингча, ўзига хос «миф ҳақидаги мифдир», зеро, ижтимоий муносабатларда бир қатор ижтимоий-маданий жараёнларнинг фаоллаштирилиши натижасида мифогенез бугунги кун ижтимоий онгининг сезиларли оқимига айланади, мифнинг ўзи эса воқеликни ўзлаштиришнинг самарали воситасига айланади. Шубҳасиз, мифологик онгнинг ҳукмрон мавқега эга бўлиши айнан архаик даврнинг асосий хусусияти ҳисобланади.<sup>3</sup>

Кундалик онг таркибига инсоннинг эътиқодлари, мақсадлари, идеаллари ва соғлом ақлга асосланган фикрлари қарашлари киради. Инсонларнинг кундалик онг даражасида кечадиган воқеа-ҳодисаларнинг моҳиятини англаб олиш қобилияти уларнинг ҳаётий тажрибаларига асосланади. Ижобий маънода соғлом фикр “даврнинг кундалик-амалий онги квинтэссенцияси, ижтимоий мазмунлар ўзаги, инсонлар хулқ-атвори тафаккурининг умумий мантигининг акс этиши шаклидир.<sup>4</sup>

Сиёсий, ҳуқуқий, ахлоқий ва бошқа идеаллар ва ғоялар, тасаввурлар ва ҳиссиётлар алоҳида ҳолда инсон фаолиятига таъсир кўрсатмайди, балки уларнинг жамланмаси, яъни, турли ғоя ва тасаввурлар, қарашлар ва ҳиссиётларнинг ўзаро таъсирлашиши натижасида келиб чиққан бирикма инсон фаолиятига таъсир кўрсатади. Бу бирикма, айни пайтда, онг ҳолати сифатида ҳам майдонга чиқади. Жамият онг ҳолатига унда у ёки бу қараш ва тасаввурларнинг ҳукмронлиги ҳосидир. Ҳар бир жамиятнинг онги ҳар бир даврда муайян ғоялар билан тўйинган ҳисобланади, шунинг учун ҳам муайян ўзига хосликларни ўзида акс эттириб, давр руҳини ташкил қилади.

Бугунги жамиятда тобора ўсиб бораётган ремифологизация муаммосини тадқиқ қилиш, бунинг учун турли миф яратилиш кўринишларини таҳлил қилиб чиқиш, уларнинг ижтимоий, психологик ва сиёсий сабабларини, шунингдек, ремифологизатсиянинг характери, миқёси ва мамлакат учун эҳтимолдаги таъсирларини кўриб чиқиш талаб қилинади.

**Хулоса ва таклифлар.** Шундай экан, асосан, содир бўлувчи жараёнларни инкор этмаган ҳолда, аниқлаштирамиз: “оқил инсон”нинг “мифологик инсонга” ўзига хос тарзда айланиши нафақат жамият архаизацияси билан боғлиқ, чунки жамият архаизацияси, қайсидир маънода, барибир, содир бўлиши тайин нарсадир, балки онгнинг ахраизацияси, бошқача қилиб айтганда, тасаввурга ҳам сиғмайдиган технологиялар ривожланиши, жамият аъзоларининг тасаввурларидаги оқшашларни ўрнини тўлдириш мақсадида яратилган кўплаб инсон амалий ва илмий фаолиятига кўмаклашувчи технологияларнинг ривожланиши билан боғлиқ. Айтиш мумкинки, миф ҳалигача тирик ва амал қилиб келаётган жамиятларда маҳаллий аҳоли вакиллари мифларни турли афсоналардан фарқлаши ва улар мифларни “тўғри ҳикоялар”, афсона ва маталларни “сохта ҳикоялар” деб аташади. Маҳаллий аҳоли вакиллари томонидан ҳикояларнинг “чин” ва “сохта”га ажратилиши муҳим аҳамиятга эга. Мифлардаги қатнашувчилар Худолар ёки ғайритабиий мавжудотлар сифатида келади, афсона ва маталлардаги қатнашувчилар эса қаҳрамонлар ёки мўъжизакор жониворлар сифатида келади, лекин уларнинг барчасини бирлаштириб турувчи жиҳат мавжуд: уларнинг барчаси кундалик ҳаётдаги инсонларга ўхшамайди.

<sup>1</sup> Тугаринов В.П. Избранные произведения. М., 1991, с. 67.

<sup>2</sup> Дубинин И.И., Гусякова Л.Г. Динамика обыденного сознания. Минск, 1985, с. 135 – 138.

<sup>3</sup> Райкова О.А. Древнегреческий миф классической эпохи. Дис. ...канд.филос.наук, Томск, ТГПУ, 2012, с. 20.

<sup>4</sup> Кукушкина Е.А., Логунова Л.Б. Мировоззрение, познание, практика. М., 1998, с. 137.

**Axmedova Dildora Bahodirovna (BuxDU doktoranti, f.f.f.d. (PhD); daxmedova77@gmail.com)**  
**SEMANTIK KENGAYTMA TUSHUNCHASI VA UNING TIL KORPUSIDAGI AHAMIYATI**

**Аннотация.** *Ushbu maqolada ma'lum bir so'zni izohlash uchun ochilgan alohida oyna so'zning ma'nosini kengaytirib tavsiflashga xizmat qilishi va u til korpuslarida kengaytma deb atalishi, ular, odatda, universal bo'lib, korpus birliklariga oid mavjud bo'lgan barcha (leksik, morfologik, semantik) ma'lumotlarni qamrab olishi haqida so'z boradi. Shu o'rinda, o'zbek tili korpuslari uchun maxsus semantik kengaytmalar ishlab chiqish haqida qarashlar bayon qilingan.*

**Аннотация.** *В данной статье отдельное окно, открытое для объяснения того или иного слова, служит для расширения и описания значения слова. Оно называется расширением в языковых корпусах, которые вообще универсальны и доступны всем корпусным единицам (лексическим, морфологическим, семантическим). Рассматриваются взгляды на разработку специальных семантических расширений корпуса узбекского языка.*

**Annotation.** *In this article, a separate window to explain that a particular word serves to expand and describe the meaning of the word, and it is called an extension in language corpora, which are generally universal and all available to corpus units (lexical, morphological, semantic). There are views on the development of special semantic extensions for the corpus of the Uzbek language.*


**Калит so'zlar:** *til korpuslari, interfeys, kursor, lemma, teglash, semantik ma'lumot, kengaytma, valentlik, leksik mikrosistemalar, semantik maydon, semantik ma'lumotlar ombori, lingvistik baza.*

**Ключевые слова:** *языковые корпуса, интерфейс, курсор, лемма, тегирование, семантическая информация, расширение, валентность, лексические микросистемы, семантическое поле, семантическая база данных, лингвистическая база данных.*

**Key words:** *language corpora, interface, cursor, lemma, tagging, semantic information, extension, valence, lexical microsystems, semantic field, semantic database, linguistic database.*

Til korpuslarida ma'lum bir birlik haqida maxsus, chuqurroq ma'lumot bilish talab etilsa, korpus imkoniyatiga qarab, kursor so'z yaqiniga keltirilsa, shu so'z haqida turli ma'lumotlar paydo bo'ladi. Bu kabi izohlarning ko'rinishi va xususiyatini quyida ayrim korpuslar misolida tahlilga tortamiz.

Dastlab diqqatimizni til korpuslarining ish interfeysiga qaratamiz (1-rasm). E'tibor qaratilsa, qidiruv natijalari turli ranglarda ko'rsatilgan.



**1-rasm. Rus tili milliy korpusi interfeysi.**

Keyingi rasmga e'tibor qaratilsa, "реальность" so'zi tanlanganda, alohida oyna ochilgan. Bu oynada so'zning turli xususiyatlari haqida ma'lumot keltirilgan (2-rasm). Bu ma'lumotlar sirasida so'zning

lemmasi, grammatik kategoriyalari haqida ma'lumot, asosiy semantik xususiyati, qo'shimcha semantik xususiyati tavsiflangan.

Tavsiflar teg shaklida keltirilgan. So'zning grammatik xususiyatlari "сущ, ж, неод, им, ед" teglari bilan ifodalanib, ot, jenskiy rod, bosh kelishik, birlikda ekanligi haqida axborotni ifodalaydi. Asosiy semantik belgilari sifatida ko'rsatilgan r:abstr, der:a teglari esa ushbu so'zning qaysi semantik maydon va semantik guruhga mansubligini ifodalaydi. Qo'shimcha semantik ma'lumot beruvchi bmark, bdot, last, posred, genderred, numred, casered, animred teglari esa so'zning semantik xususiyatlarini yanada aniqroq ifoda etadi.

Найдено: 20 332 документа, 151 838 вхождений.

Распределение по годам [Статистика](#) [1-граммы](#) [2-граммы](#) [3-граммы](#) [4-граммы](#) [5-граммы](#)

Поискать в других корпусах: [газетном](#), [региональном](#), [диалектном](#), [поэтическом](#), [устном](#), [акцентологическом](#), [мультимедийном](#), [мультитпарке \(русском\)](#), [мультитпарке \(англо-русском\)](#), [параллельно](#)

Страницы: [1](#) [2](#) [3](#) [4](#) [5](#) [6](#) ... [11](#) ... [101](#) ... [500](#) ... [следующая страница](#)

1. коллективный. Форум: 12 часов в день? Не могу согласиться с М. Прохоровым (2010-2011). [омонимия снята] [Все примеры \(1\)](#)

[ЭХО, nick] Настоятельно рекомендую перечитать эту книгу, весьма актуально. [коллективный. Форум: 12 часов в день? Не могу согласиться с М. Прохоровым (2010-2011)] [омонимия снята]

2. коллективный. Форум: Похороните меня за плинтусом. Фильм (2009-2011). [омонимия снята] [Все примеры \(33\)](#)

[Rud, nick] Читал книгу. В 1996 году повесть была опубликована в журнале «Октябрь». [коллективный. Форум: Похороните меня за плинтусом. Фильм (2009-2011)] [омонимия снята]

[Rud, nick] Скажу от себя – фильм смотреть не стоит (смотрел) Фильм – драма. Книга – реальность. В книге реально описаны события, которые вызывают и смех, и слезы, и сожаление. [коллективный. Форум: Похороните меня за плинтусом. Фильм (2009-2011)] [омонимия снята]

[Rud, nick] В книге реально описаны события, которые вызывают и смех, и слезы, и сожаление. [коллективный. Форум: Похороните меня за плинтусом. Фильм (2009-2011)] [омонимия снята]

[SIMBA, nick] Нет, не бред! Книга — потрясающая! Всем советую прочесть! [коллективный. Форум: Похороните меня за плинтусом. Фильм (2009-2011)] [омонимия снята]

[Dr.Bormental, nick] Книга потрясающая, присоединяюсь. Но экранизировать её трудно, К... [коллективный. Форум: Похороните меня за плинтусом. Фильм (2009-2011)] [омонимия снята]

[ZZZ, nick] Мне тоже книга нравится, когда читала некоторые моменты смеялась до слез — грех предаваться унынию, когда есть другие грехи! [коллективный. Форум: Похороните меня за плинтусом. Фильм (2009-2011)] [омонимия снята]

[tsvigor, nick] Отличная книга! !! А еще мне понравился спектакль театра «Балтийский дом» с Игорем Склярком в главной роли. [коллективный. Форум: Похороните меня за плинтусом. Фильм (2009-2011)] [омонимия снята]

[Rud, nick] Павел Санаев — главный персонаж книги (гниющий малец, высасывающий всю кровь у своей бабки). [коллективный. Форум: Похороните меня за плинтусом. Фильм (2009-2011)] [омонимия снята]

[Rud, nick] Книга основана на реальных событиях и посвящена Роману Быкову. [коллективный. Форум: Похороните меня за плинтусом. Фильм (2009-2011)] [омонимия снята]

Лемма	реальность (см. в словаре)	[омонимия снята]
Грамматика	сущ, ж, неод, им, ед	[омонимия снята]
Семантика основная	r:abstr, der:a	[омонимия снята]
Доп. признаки	bmark, bdot, last, posred, genderred, numred, casered, animred	[омонимия снята]

Сообщить об ошибке

## 2-рasm. So'z haqida kengaytirilgan ma'lumot oynasining ko'rinishi.


Yuqorida ko'rsatilganidek, ma'lum bir so'zni izohlash uchun ochilgan alohida oyna so'zning ma'nosini kengaytirib tavsiflaydi. Shu sababdan til korpuslaridagi bunday qismni kengaytma deb atash an'anaga kirgan. Odatda, til korpuslarida bu kabi kengaytmalar universal bo'lib, korpus birliklariga oid mavjud bo'lgan barcha (leksik, morfologik, semantik) ma'lumotlarni qamrab oladi. Biz o'zbek tili korpuslari uchun maxsus semantik kengaytmalar ishlab chiqish ma'qul deb hisoblaymiz.

O'zbek tili korpuslarini ishlab chiqishda jahon tajribasini o'zlashtirish muhim. Shu bilan birga, o'zbek leksikologiyasi va leksikografiyasida erishilgan yutuqlardan unumli foydalanib, korpus imkoniyatlarini oshirish ham ijobiy natija beradi. O'zbek tilida so'z ma'nosi, valentligi, leksik mikrosistemalar, semantik maydon masalalari atroflicha tadqiq etilgan. Shu asosda so'z ma'nosi, semalarini tavsiflash, so'zning qaysi mikro va makrosistemaga mansubligi yoki semantik maydoni xususidagi ma'lumotlarga tayanib, semantik ma'lumotlar bazasi shakllantirish mumkin.

O'zbek tilida holat fe'llari va ularning obligator valentliklari, o'zbek tilida darajalanish, o'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish, jins-tur munosabati, o'zbek tilida lug'aviy graduonimiya, partonimiya, o'zbek tilida o'simlik nomlari leksemalari: tizimi va badiiy qo'llanilishi, o'zbek tilida hayvon nomlarining shaxs tavsifi vazifasida qo'llanilishi, o'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati, o'zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati va boshqa qator masalalar monografik planda tadqiq etilgan bo'lib, bu nazariy umumlashmalar natijalaridan o'zbek tili leksikasining semantik ma'lumotlar bazasini shakllantirishda foydalanish mumkin. Bu kabi semantik ma'lumotlar bazasining mavjudligi korpus interfeysida har so'zning semantik xususiyatlarini ko'rsatib beruvchi oyna – semantik kengaytma ishlab chiqishga zamin hozirlaydi.

O'zbek tili leksik birliklarining semantik ma'lumotlar omborini yaratish uchun nazariy asos vazifasini o'tovchi tadqiqotlar sirasida A.Eshmuminovning o'zbek tili sinonimlar bazasi, G.Begmatovanning o'zbek milliy korpusida idiomalar bazasini yaratishga oid monografik tadqiqotlarini ta'kidlash joiz. Bu kabi qator amalga oshirilgan ishlar, tuzilgan lingvistik bazalar o'zbek tili birliklari uchun semantik kengaytma ishlab chiqishda axborot materiali sifatida manba vazifasini o'taydi.

Semantik kengaytmaning til korpusidagi ahamiyatiga e'tiborimizni qaratamiz. Ma'lumki, kompyuter leksikografiyasi katta hajmli lug'atlar bilan ishlash, tezkor qidiruvni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shunday imkoniyatlardan biri bu giperhavola berish usuli bilan elektron manzildagi axborot manbalarini bir-biri bilan bog'lashdir. Giperhavola ma'lum sahifadagi biror birlik haqida kengroq ma'lumot olish uchun boshqa manbaga o'tish imkonini beruvchi vosita sanaladi. Bu kabi giperhavolalar, odatda, ensiklopedik axborot manbalari sifatida xizmat qiluvchi veb-sahifalarda bo'ladi. Buni vikipediya kabi veb-sahifalarda quyidagi shakllarda ko'rish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Veb-sahifada giperhavolalarning ko'rinishi.

3-rasmga e'tibor qaratilsa, interfeysdagi yozuvlarning qora va ko'k rangda ekanligini ko'rish mumkin. Ko'k rangdagi yozuvlarning ustiga sichqonchani bosganimizda, yangi sahifa ochiladi. Bu sahifa tanlangan so'z haqida batafsil ma'lumot beradi. Ko'pincha, bunday giperhavolali so'zlar shu matndagi kalit so'zlar bo'lib, ular kengroq tavsifni talab qiladi. Demak, vikipediya-dagi giperhavola usuli sahifani sahifaga bog'lash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu sahifalar giperhavola qilishdan oldin veb-sahifalarda mavjud bo'ladi. Shunchaki sahifalar bir-biriga bog'lanadi, xolos. Ammo semantik kengaytma bundan batamom farq qiladi. Semantik kengaytma, odatda, til korpuslariga xos bo'ladi. Ularning asosiy vazifasi korpusda mavjud bo'lgan so'zlar haqida (kengroq) ma'lumot berishdan iborat bo'ladi. Bunday kengaytmalar ishlab chiqish uchun uning tarkibi, ma'lumotni taqdim etish usuli, ma'lumot manbayi, ma'lumotlar ombori (lug'at yoki maxsus tuzilgan bazalar)dan ma'lumotni olish algoritmi ishlab chiqilishi lozim bo'ladi.

Semantik kengaytma ishlab chiqish uchun til korpusi birliklari semantik teglangan yoki ma'lum bir tabiiy til uchun til leksikasining semantik ma'lumotlar bazasi bo'lishi talab qilinadi. Shu o'rinda semantik teg atamasiga to'xtalish joiz. Semantik teg haqida rus korpus lingvistikasida V.Zaxarov, o'zbek tilshunosligida Sh.Hamroyeva, Sh.Gulyamova, A.Eshmuminov, D.Ahmedova ishlarida ayrim qaydlar mavjud.

V.Zaxarovning fikricha, semantik tegning ham, boshqa razmetkalarda bo'lganidek, yagona standart shakli bo'lmasa ham, harf, raqam yoki faqat raqamdan iborat kodlardan foydalaniladi. Birinchi harf yoki raqam umumiy semantik ma'noni, keyingi belgi esa so'z ma'nosini yanada maxsuslashtiruvchi kichik semantik guruhni ifodalaydi. Semantik teg nafaqat so'z, balki ko'plab birikmalarni ham semantik guruhlariga birlashtiradi, bunday paytda turli birikuvdagi bir ma'noni bildiruvchi birikmalar bitta belgi bilan kodlanadi. Idiomatik birlik (ibora) tarkibidagi so'zlar miqdorini bildiruvchi axborot ham razmetkadan joy oladi. Semantik teg korpusdagi so'z ma'nosining ixtisoslashuvi, omonimlik, sinonimlik, ma'noviy guruhga ajratish kabi muammolarni hal qiladi. V.P.Zaxarov, S.Y.Bogdanovalar rus tili milliy korpusini tuzishda semantik razmetkalanishning o'z variantini taklif qiladi. Korpusda har bir so'zga uch xil – so'z razryadi, leksik-semantik tavsif, derivatsion izoh beriladi.

Xulosa sifatida aytish joizki, semantik kengaytma ishlab chiqish uchun semantik teglar tizimi, semantik ma'lumotlar bazasi hamda ularni o'zaro bog'lovchi modullar talab etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Тошкент, “Маънавият”, 2004, 104-бет.
2. Аҳмедова Д. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик-семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дис., Бухоро, 2020, 165-бет.
3. Эшмуминов А.А. Ўзбек тили миллий корпуси синоним сўзлар базасини яратиш асослари. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дис., Термиз, 2019, 140-бет.
4. Бегматова Г. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси, Термиз, 2021, 162-бет.
5. Рахроева Ш.М. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис., Бухоро, 2018, 165-бет.
6. Гулямова Ш.К. Ўзбек тили семантик анализаторини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. доктори (DSc) дис., Тошкент, 2022, 245-бет.
7. Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика. Иркутск, ИГЛУ, 2011, с. 45.

#### Тўлагонова Шаҳноза Абдумажидовна (ТошДШУ докторанти; [tulagonova\\_shahnoza@mail.ru](mailto:tulagonova_shahnoza@mail.ru)) СТЕРЕОТИП БИРЛИКЛАР ВА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ УМУМИЙ ВА ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ

**Аннотация.** Ушбу мақола қадимги туркий битикларнинг услубий хусусиятлари – стереотип бирликлардан бирига бағишланган. Битикларда клишелашган бирликлар учраб туради. Булар дастлаб тавтология, матннинг соддалиги ёки муаллифнинг нўноқлиги сабабли юзага келгандек туюлади. Матнлар мазмун-моҳиятига чуқурроқ кириб борилсагина, уларнинг оддий такрорлар эмаслиги англашлади. Мақолада қадимги туркий битикларда мавжуд стереотип бирликлар фразеологизмлар билан қиёсан тадқиқ этилган.

**Аннотация.** Данная статья посвящена одной из стереотипных единиц – стилистическим особенностям древнетюркской письменности. в древнетюркских надписях есть штампованные единицы. Изначально кажется, что они возникли из-за тавтологии, простоты текста или неточности автора. Только если углубиться в содержание текстов, становится ясно, что это не просто повторения. В статье сравниваются стереотипные единицы, присутствующие в древнетюркских письменах, с фразеологиями.

**Annotation.** This article is dedicated to one of the stereotypical units-stylistic features of ancient Turkic scripts. There are cliched units in scripts. This seems to have been caused by tautology, the simplicity of the text, or the author's mistake. It is clear that the texts are not mere repetitions, as they penetrate deeper into the content. The article compares the stereotypical units present in ancient Turkic texts with phraseologies.

**Калим сўзлар:** қадимги туркий тил, қадимги туркий битиклар, стереотип бирликлар, фразеологизмлар.

**Ключевые слова:** древнетюркский язык, древнетюркская письменность, стереотипные единицы, фразеология.

**Key words:** Ancient Turkic language, ancient Turkic scripts, stereotype units, phraseology.

Стереотип бирликларни тил материали сифатида талқин қилиш керак бўлади, чунки улар ҳам тилнинг лексик, фразеологик бирликлари каби қўллаш учун тайёр ҳолда туради, нутққа барқарор бирлик сифатида олиб кирилади. Қўллаш жараёнида макон ва замон, муаллифларнинг сўз қўллаш маҳорати омиллари стереотип бирликларда турли вариатлиликни юзага келтиради. Бу ўзгаришлар, асосан, улар таркибидаги у ёки бу сўзнинг синонимлари билан алмаштириш ҳамда инверсия (сўз тартибининг ўзгариши) тарзида намоён бўлади.

Маълумки, фразеологик бирликлар – тузилишига кўра сўз бирикмасига, гапга тенг, семантик жиҳатдан бир бутун, умумлашган маъно англатадиган, нутқ жараёнида яратилмай, нутққа тай-

ёр ҳолатда киритиладиган луғавий бирлик. Турғун бирикмаларнинг образли, кўчма маънога эга тури ҳисобланади.<sup>1</sup>

Стереотип бириклар семантик функциясига кўра, фразеологизмларга ўхшаб кетади. Фразеологизмларнинг сўзга муқобиллиги, маъносининг бир сўзга тенглиги хусусияти стереотип бирикларда ҳам барқарор тарзда бўлмаса-да, кузатилади. Масалан, *кўзи тўрт бўлди* фразеологизми *кутмоқ* сўзининг муқобили бўла олади, десак, стереотип бириклардан урушдаги кўшиннинг *yadağin-yalağin käl-* (яёв-яланғоч кел-)ганини *енгилди* сўзига, қаҳрамонларнинг бирор мақсад йўлида *tün udimadim, küntüz olurmadi* (тун ухламадим, кундуз ўтирмадим)ни эса *ҳаловати бўлмади, тинчимадди* сўзларига алмаштириш мумкин. Муайян фразеологизмнинг ўзига муқобил бўлган сўзга нисбатан эмоционал-экспрессив буёқдорлик хусусияти стереотип бириклар учун ҳам хосдир. Фразеологизмшунос олим Б.Йўлдошев ўз диссертациясида фразеологизмларнинг ўзига муқобил сўзга нисбатан эмоционал-экспрессив бўёғи ортиклигини ўзбек тилининг изоҳли луғатлари асосида таҳлилга тортади: «кўзи тўрт бўлди» иборасини олиб кўрайлик. Бу фразеологик бирик изоҳли луғатда «ниҳоятда интизорлик билан кутди» маъносига эга эканлиги қайд қилинган.<sup>2</sup>

Шу жиҳатдан, *енгилди* сўзининг *yadağin-yalağin käl-*; *ҳаловатсизланди* сўзининг *tün udimadi, küntüz olurmadi* стереотиплари олдида «ғариброк» эканлигини англаш қийин эмас. Яъни, экспрессив маъно ифодалаш, маънони образли тушунтириш нуқтаи назаридан стереотип бириклар ҳам сўздан фарқ қилади.

Ш.Раҳматуллаев фразеологизмларни куйидагича тушунтиради: Асли, фразема лексема каби номинатив-сигнификатив бирик, лекин кўп жиҳати билан лексемадан фарқланади. Лексема лисоний бирик сифатида миянинг тил хотираси қисмида рамз сифатида тамғаланган бўлади. Фразема ҳам рамз сифатида тамғаланади. Лексемаларнинг ифода жиҳати, одатда, тил бирикларининг қурилиш ашёси бўлмиш фонема(лар қатори) билан тамғаланса, фраземанинг ифода жиҳати тил бириклари билан тамғаланади.<sup>3</sup>

Бизнингча, фразеологизмларнинг хусусияти ҳақидаги ушбу таъриф маълум маънода стереотип бирикларга ҳам тўғри келади. Хусусан, стереотип бириклар тил бирлиги – лексемалардан таркиб топади ва миянинг тил хотирасида рамз сифатида тамғаланади. *Yadağin-yalağinkäl-* (яёв-яланғоч кел-) бирикмаси *енгилди* маъносини англантишда, қаҳрамонларнинг бирор мақсад йўлида *tün udimadi, küntüz olurmadi* (тун ухламадим, кундуз ўтирмадим) эса *ҳаловатсизланмоқ, тинчини йўқотмоқ* маъносини англатадиган рамзий, бадий-экспрессив ифодадир.

Биз бундай дейиш билан фразеологизм ва стереотип бириклар битта – айна ҳодиса демокчи эмасмиз. Чунки фразеологизмларда кўчма маънони ифодалаш, грамматик жиҳатдан бир гап бўлагига тенг келиш, икки ва ундан ортиқ сўзнинг ўзаро бирикиб, янги семантик маъно шакллантириш каби хусусиятлари ҳам борки, бу стереотип бирикларда учрамайди.

Фразеологизмлар бўйича тадқиқотларда уларнингалоҳида *расмийлашган, таркибининг барқарорлиги, яхлитлигича қўлланиладиган, тайёр ҳолда мавжуд, образли ифодага эгалик, семантик қайта шаклланиш* белгилари мавжудлиги таъкидланади. Шулардан образлилик ва семантик қайта шаклланиш уларнинг етакчи белгилари сифатида қайд этилган.<sup>4</sup>

Биз ҳам санаб ўтилган белгилар асосида стереотип бирикларнинг қуйидаги хусусиятлари билан ажралиб туришини таҳлил қиламиз (фразеологизм билан туташадиган, айна пайтда, ундан фарқланадиган жиҳатлари):

1. Таркибнинг барқарорлиги – қадимги туркий битиклардаги стереотип бириклар ҳам фразеологизмлар сингари барқарор таркибга эга. Масалан, *tün udimadim, küntüz olurmadi* (тун ухламадим, кундуз ўтирмадим) стереотип бирлиги қуйидагича келади: ...*Türük bodun için tün udima-*

<sup>1</sup>Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Т., Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002, 124-бет.

<sup>2</sup>Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек тилида фразеологик бирикларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол.фан.д-ри ... дисс., Т., 1993, 52-бет.

<sup>3</sup>Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилиши тизим сифатида. Т., “Университет”, 2007, 34-бет.

<sup>4</sup>Маматов А. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг шаклланиши масалалари. Филол.фан.номз. ...дисс., 1999, 21-бет.

*dim, küntüz olurmādim* – Турк халқи учун тун ухламадим, кундуз ўтирмадим.<sup>1</sup> Ёки: *Ol sabīn āsīdip, tūn yāmā udusīqīm kālmāz ārti (küntüz yāmā) olursīqīm kālmāz ārti.*<sup>2</sup>

Лекин баъзи ўринларда стереотип бирликлар таркибида ўзгаришлар учраб туради. Бу фразеологизмлар шаклланишидаги иккиламчи транспозицияга ёки индивидуал муаллиф фразеологизмларига ўхшаб кетади.

2. Тайёр ҳолда мавжудлик – стереотип бирликларга ҳам бу хусусият хос. Ушбу бадий тафаккур қолиплари шу тарзда асардан-асарга кўчиб юради. Албатта, айни жараёнда халқ оғзаки ижодининг таъсири катта, чунки бундай ифодаларнинг стереотип бирликка айланиши учун маълум муддат лозим бўлади. Дастлаб, индивидуал муаллиф топилмаси сифатида маълум бир воқеликни ифодалаш учун қўлланган жумла воқеликни оригинал ифодалагани туфайли тил эгалари хотирасига муҳрланиб қолади ва шунга ўхшаш вазиятларда қайта қўлланишга ўтади.

3. Образлилик – мазкур жиҳат стереотип бирликларнинг ҳам етакчи хусусияти. Масалан, *Otča borča käl-* (ўтдай-бўрондай келмоқ) бирикмасидан битигларда урушлардаги жанговар ҳолатни, кўшин шижоатини ифодалашда фойдаланилган. Масалан: *Türgäš bodunuğ uda basdīmiz. Türgäš qağān süsi Bolučuda otča borča kälti, süngüşdimiz* – Тургаш халқини қўққисдан босдик. Тургаш ҳоқон кўшини Бўлучуда ўтдай-бўрондай келди, жанг қилдик.

Аммо семантик қайта шаклланиш стереотип бирликларда учрамайди. Яъни, стереотип бирликларда ҳосила маънолар мавжуд бўлса-да, маъно қайта шаклланмайди. Ўрни келганда фразеологизмларга хос мазкур хусусиятни «енг шимармоқ» бирикмаси ёрдамида куйидагича изоҳлаб кетиш мақсадга мувофиқ: *Енг* ва *шимармоқ* лексемаларининг ўзаро уйғун шаклий-маъновий бирикувидан, лексик маъноларни сақлаган ҳолда боғланиб, «кийимнинг енгини шимариш билан боғлиқ ҳаракат»ни ифодаловчи маъно касб этади. Бу эркин боғланма фразеологизмлаштирилгандан сўнг эса эркин боғланма маъноси бутунлай ўзгариб кетади, яъни, таркибдаги лексемаларга хос бўлмаган «астойдил ишга киришмоқ» маъноси шаклланади.<sup>3</sup>

Тадқиқотларда фразеологизмлар, асосан, эркин боғланмалар билан қиёсан тадқиқ қилинган. Улар орасида юқорида санаб ўтилган белгилардан фақатгина *алоҳида расмийлашган* белгисигина эркин боғланмада мавжуд эканлиги кўрсатилган.<sup>4</sup>

Фразеологизм хусусидаги навбатдаги таърифни кўриб ўтсак: «Турғун бирикмалар эркин бирикмалардан ўз грамматик қурилиши билан эмас, балки таркибидаги сўзларнинг ўзаро муносабатидан келиб чиқувчи семантик-грамматик хусусиятлари билан ажралиб туради...

...контекст мустақил сўзларга ажратилишига қарамай, сўзларнинг турғун бирикмаси ўз бутунлигини сақлаб қолади. Чунки у бир бутун маънони ташувчи сифатида тилда кўпдан бери яшаб келган бўлади».<sup>5</sup>

Таърифдаги у бир бутун маънони ташувчи сифатида тилда кўпдан бери яшаб келган бўлади деган фикрни стереотип бирликларга нисбатан ҳам айтиш мумкин. *Tūn idīmadīm, küntüz olurmādim* стереотипи Алишер Навоийнинг куйидаги байтларига ҳам айрим шаклий ўзгаришлар билан кўчган:

*Kečā tinmak-u kündüz ārām yoq,  
Yetäkdin navā, uyqudīn kām yoq.*<sup>6</sup>

Ёки:

*Kečā-kündüz ne tinmāk, ne tayanmaq,  
Ne bir dam qan yutardīn köñli qanmaq.*<sup>7</sup>

Фразеологик бирликлар таркибининг мунтазам барқарорлиги, семантик жиҳатдан қайта шаклланилиги билан тилнинг бошқа бирликларидан фарқланади. Стереотип бирликларнинг инверсияга учраши, нутқий вазият талаби билан турли вариантларда намоён бўлиши уларни фразеологик бирликлардан фарқлайди.

<sup>1</sup>Содиқов Қ. Эски туркий битиглар. Т., ТошДШИ, 2009, 35-бет.

<sup>2</sup>Ўша асар. 27-бет.

<sup>3</sup>Маматов А. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг шаклланиши масалалари. Филол.фан.номз....дисс., Т., 1999, 25-бет.

<sup>4</sup>Ўша асар. 20-бет.

<sup>5</sup>Раҳматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. Т., “Университет”, 2017, 6-бет.

<sup>6</sup>Алишер Навоий. Садди Искандарий. Мукамал асарлар тўплами. 11 том, Т., “Фан”, 1993, 570-бет.

<sup>7</sup>Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. МАТ, 8 том, Т., “Фан”, 1991, 272-бет.

Тилшуносликда фразеологизмларнинг уч тури ажратилади: фразеологик чатишма, фразеологик бутунлик (бирлашма), фразеологик қўшилма. Ўрганилаётган стереотип бирликлар айнан фразеологик бирлашма турига қиёсан ўрганилди. Чунки айна фраземанинг маъноси унинг таркибидаги сўзлар асосида изоҳланади.

Аҳамият қаратиш керак бўлган яна бир жиҳат шуки, фразеологизмнинг ўзи лексик бирликлар каби стереотип бирлик таркибида келиши мумкин. Масалан: *Tāñri yarliqadūq üčün ālligig āl-sirātmiş, qağānliğig qağānsirātmiş, yağig baz qilmis, tizligig sōkürmis, başliğig yūküntürmis...törüg qazğanip ača barmis*. (Мазмуни: Тангри ёрлиқагани учун эли борни элидан айирган, хокони борни хоконидан айирган, ёвни қарам қилган, тиззаси борни чўктирган, боши борни юкунтирган... хукмронлик қилиб вафот этган (К. 15).

Келтирилган мисол таркибидаги ҳар бир синтактик бирлик *бўйсундирди* маъносини ифодалайди, аммо уларнинг ичида икки компонент ҳозирги кунда мавжуд фразеологизмлар таркибида учрайди:

- 1) *tizligig sōkürmis (tiz чўктирди) – бўйсундирди;*
- 2) *başliğig yūküntürmis (бош эгдирди) – бўйсундирди.*

Стереотип бирликлар айрим тадқиқотларда фразеологизмлар қаторида тилга олинади. Масалан, туркиялик олим Т.Текин бу каби бирликларни *deyim* термини остида бирлаштиради ва қуйидагиларни мисол тариқасида келтиради: *adaq qamšat-; atı küsi yoq bol-; balıqdaqi taşiq-,tağdaqi in-; icrā aşsiz, taşra tonsuz; başliğig yūküntür-, tizligig sōkür-; körür közi körmāz-teğ, bilir biligi bilmāz teg bol-; közi qaşı yablaq bol-; birki bodunuğ ot-sub qıl-; tün udīma-, күntüz olurma-; qizil qanīm tükāt-, qara tārim yügürt-; isig-küçüg bir-; ölü yitü qazğan-;uçā bar-*.

Турк тилшунослигида *deyim* термини кенг маънода қўлланади ва бир нечта тил бирликларини ифода этиб келади. Бинобарин, турк тилшунослигида олимлар орасида иборалар ҳақида ягона фикр мавжуд бўлса-да, ибора луғатлари тузилишида бу ягона фикрга асосланилмайди. Яъни, деярли барча олимлар: «Бир тушунча, бир ҳолатни жозибадор ифода билан ёки ўзига хос бирикма ичида таъкидлаган ва асосий маъноларидан алоҳида маъноси бўлган қолиплаган бирикмаларга фразеологизмлар (*deyim*) дейилади», десалар-да, тузилган барча фразеологик луғатларда иборалар билан бирга, мақоллар, баландпарвоз ифодалар, афоризм ва қўшма сўзларга кенг ўрин берилади.<sup>1</sup>

Умумлаштириб берилган ушбу намуналарда фразеологик бирлик, эвфемизмлар билан бирга стереотип бирликлар ҳам мавжуд.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, стереотип бирликлар, фразеологик бирликлар каби, нутқда қўлланиш учун тайёр ҳолда туради. Айтилоқчи фикрни образли етказа олади, аммо мазкур бирликлар фразеологизмлар каби «бўлинмас» шаклда эмас. Фразеологизмларнинг маъно хусусиятлари ҳам стереотип бирликлардан фарқлидир.

**Садуллаева Нилуфар (DSc, профессор, Таржима назарияси ва қиёсий тилшунослик кафедраси мудири, Ўзбекистон Миллий университети),  
Мафтуна Бахтиёрова Бахтиёровна (Ўзбекистон Миллий университети докторанти;  
[maftunabakhtiyorovna.phd@gmail.com](mailto:maftunabakhtiyorovna.phd@gmail.com))**

## **ТИЛШУНОСЛИҚДА АТОҚЛИ ОТЛАРГА АБСТРАКТ-МАНТИҚИЙ ВА КОНКРЕТ-ТАРИХИЙ НУҚТАИ НАЗАРДАН ЁНДАШУВ**

**Аннотация.** Мақолада тилшуносликда атоқли отларнинг умумназарий муаммоларини тадқиқ этиш соҳасида ечимини кутаётган муаммолар ҳақида фикр юритилади. Жумладан, атоқли отлар билан турдош отлар орасидаги фарқлар машҳур тилшунослар томонидан берилган назарияларга таянган ҳолда кўрсатиб берилади, тилшуносликда атоқли отларга абстракт-мантиқий ва конкрет-тарихий нуқтаи назардан ёндашувнинг вужудга келиши ҳақида маълумот берилади. Мақолада инсон ва нарсаларнинг номи, уларга хос бўлган табиатларидан келиб чиққан ҳолда, айнақса, табиатларидаги муҳим хусусиятларга урғу берилган ҳолда ўзлаштирилади, деган фараз таҳлил қилинади. Демак, кўпгина мамлакатларнинг ҳозирги замондаги маданияти шароитида ҳам атоқли отлар ўз соҳиби учун маълум маънони сақлаб қолган, деган хулосага келинади.

<sup>1</sup>Ҳомидов Х. Турк тилида фразеологизмларнинг юзага келиши, маъно ва грамматик хусусиятлари. Филол. фан. бўйича PhD автореферати, Т., 2018, 12-бет.



**Аннотация.** В статье рассматриваются общетеоретические проблемы в области изучения общих проблем имён собственных в языкознании. В частности, показаны различия между именами собственными и именами нарицательными на основе теорий, данных известными лингвистами, в языкознании сведения о появлении подхода к именам собственным с абстрактно-логической и конкретно-исторической точек зрения. В статье анализируется предположение о том, что имена людей и вещей усваиваются из присущих им натур, особенно с акцентом на важные черты в их натурах. Отсюда делается вывод, что даже в современной культуре многих стран имена собственные сохранили для своего владельца определенное значение.

**Annotation.** The article discusses the general theoretical problems in the field of studying the general problems of proper names in linguistics. In particular, the differences between proper names and common names are shown on the basis of theories given by famous linguists, in linguistics information about the emergence of the approach to proper names from an abstract-logical and concrete-historical point of view. The article analyzes the assumption that the names of people and things are assimilated from their inherent natures, especially with emphasis on important features in their natures. Hence, it is concluded that even in the modern culture of many countries, proper names have retained a certain meaning for their owners.

**Калим сўзлар:** атоқли от, турдош от, ономастика, тимсол, объект, лексика, тилшунослик, семантик мазмун.

**Ключевые слова:** имя собственное, имя нарицательное, ономастика, символ, объект, лексика, языкознание, семантическое значение.

**Key words:** proper name, common name, onomastics, symbol, object, lexics, linguistics, semantic content.

XX асрда атоқли отлар ҳақидаги мантикий йўналишни машҳур инглиз файласуфи ва мантиқшуноси Бертран Рассел (1872–1970) яна-да ривожлантирди. Унинг фикрича, маълум маконда ва замонда атоқли отлар ёрдамида ифодаланувчи маъно турдош отларга нисбатан аниқроқ, илмийроқ характерга эгадир. Бу жиҳатдан атоқли отлар *бу, ўша, ана шу, ана бу* сингари кўрсатиш олошларига жуда яқин туради.<sup>1</sup>

Дания тилшуноси Пауль Кристоферсен атоқли отлар билан турдош отлар орасидаги фарқни уларнинг биринчиси аниқ, конкрет маънони, кейингиси эса мавҳум маънони ифодалашида кўради. Атоқли отлар индивидуалнинг, шахснинг бевосита исми, номи бўлса, турдош отлар билвосита номлардир. Турдош отлар, дастлаб, бутун бир гуруҳ, тўда номини билдиради, кейинчалик, бу ном конкретлашади. Инглиз тилшуноси Алан Гардинернинг “Атоқли отлар назарияси” (1954) номли асари ономастика фанини янги босқичга кўтарди. Ж.Миллинг атоқли отларда маъно йўқлиги ҳақидаги фикрини ривожлантириб, А.Гардинер атоқли отлар ўзига хос номлар бўлиб, предмет, воқеа-ҳодиса ҳақида аниқ, конкрет тасаввурлар йиғиндисини ўзида ифода этади, деган фикрни илгари суради.<sup>2</sup>

Бу жиҳатдан атоқли отлар иккига бўлинади: а) мужассамланувчи, тимсол бўла олувчи атоқли отлар; б) мужассамланмовчи, тимсол бўла оловчи атоқли отлар. Масалан, *Вильям Шекспир, Темза дарёси* каби атоқли отлар мужассамланувчи атоқли отлар гуруҳига киради, чунки улар маълум бир шахс (бу ўринда, буюк драматург) ва географик объект (бу ўринда, дарё) ҳақида умумий, яхлит тасаввур беради. Агар биз оддийгина қилиб *Вильям десак, бу мужассамланмовчи, киши* исми ҳақида умумий тасаввур берувчи атоқли отни билдиради. Мужассамланувчи атоқли отлар тарихий нуктаи назардан бирмунча олдинроқ мавжуд бўлган атоқли отлардир. Масалан, *Амир Темури, Мирзо Улугбек, Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур* каби антропонимлар бу назарияга кўра, мужассамланувчи атоқли отлар гуруҳига киради, чунки улар мамлакатимиз давлатчилиги тарихи, маданиятида жуда катта ўрин тутган машҳур шахслар ҳақидаги тимсолларни ўзида мужассамлаштиради. Ота-оналар ўз болаларини ана шундай машҳур шахсларга ўхшашини орзу қилиб қўйган *Темурбек, Улугбек, Алишер, Бобур* каби антропонимлар эса мужассамланмовчи атоқли отлар сирасига мансубдир.<sup>3</sup>

Таниқли тилшунос М.И.Стеблин-Каменский қадимги исланд адабиёти материаллари асосида ономастик лексикани мужассамланиш нуктаи назаридан ўрганар экан, исланд адабиётида қўл-

<sup>1</sup> Russel B. Shakespeare’s Country. London, “Heinemann”, 2008, p. 67.

<sup>2</sup> Gardner St. The Case of the Eaten Mink. London, “Penguin”, 1985, p. 43.

<sup>3</sup> Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. Самарқанд, 2012, 36-бет.

ланилган ономастик лексикада, умуман, “мужассамланиш” ҳодисаси бўлмаганлигини қайд қилади. Унинг фикрича, ҳар қандай атоқли от муайян денотатни, маънони ифодалаб келган.<sup>1</sup> Ўз вақтида Т. Гоббс томонидан ишлаб чиқилган атоқли отларнинг “мужассамланиш” хусусияти ҳақидаги таълимот, кейинчалик, Г.Лейбниц томонидан яна-да такомиллаштирилган эди. Немис файласуф олими Г.Лейбницнинг фикрига кўра, атоқли отларда конкрет ва мавҳум тафаккур элементлари ифодаланган бўлади. Олимнинг бу фикри атоқли отларни тилда (мулоқотнинг белгили элементлари тизимида) ва нутқда (бу элементларнинг коммуникатив нуктаи назардан қўлланишида) олиб қараш нуктаи назаридан аҳамиятлидир. Ана шундай қарашлар туфайли тилшуносликда атоқли отларга абстракт-мантикий ва конкрет-тарихий нуктаи назардан ёндашув вужудга келди.

Ж.Милль томонидан асосланган атоқли отларда ҳеч қандай маъно элементи йўқ, деган илмий қараш кейинчалик, В.Брэндал, Э.Бойссенсом, Л.Ельмслев каби таниқли тилшунос олимлар томонидан ривожлантирилди. Натижада айрим олимлар, жумладан, Дания тилшуноси Кнуд Тоггею атоқли отлар (жумладан, олмошлар ҳам) семантик мазмунга эга бўлмаганлиги учун ўзаро синонимлардир. Шунга кўра, якка индивид, шахс бир неча исмга, бир неча шахслар эса бир умумий исмга эга бўлиши мумкин, бунга мисол қилиб адашлар ва фамилиядошларни келтириб ўтиш мумкин. Бу фикрга тескари қарашлар ҳам мавжуд, яъни, атоқли отлар, сўз бўлгани учун худди турдош отлар каби хилма-хил хусусиятларга эгадир. Бундай қараш ўз вақтида файласуф-стоиклар томонидан асосланган эди, кейинчалик, XIX асрда Х.Джозеф, Ж.Милль, XX асрда О.Есперсен каби олимлар томонидан ривожлантирилди. Масалан, даниялик олим О.Есперсеннинг таъкидлашича, “атоқли отлар турдош отларга нисбатан кўпроқ хусусиятларга эгадир. Атоқли отлар ўзида жуда кўплаб белги-хусусиятларни коннотация қилади”.<sup>2</sup>

XX асрнинг 60–70-йилларида таниқли рус тилшуноси А.В.Суперанская атоқли отларнинг тилшуносликда (айниқса, чет эл тилшунослигида) ўрганилиш тарихи билан махсус шуғулланиш ҳамда «Атоқли отларнинг умумий назарияси» номли йирик тадқиқотини эълон қилди. Исмлар ўз объекти ҳақида маълум бир ахборотларни бериши мумкин, деган фикрни олға суриш баробарида, профессор А.В.Суперанская ушбу ахборотларнинг уч типини қайд қилиб ўтади: 1) лисоний, яъни, тил бирлиги сифатида улар шахсларни аташга, индивидларни бир-биридан ажратишга хизмат қилади; 2) нутқий, яъни, ушбу ахборот турида сўзловчининг шу исмга муносабати ифодаланади; 3) қомусий, қомусий информация эса антропоним асослаган апеллятив маънога яқинлашади (Назокат исмида нозиклик, ноз семалари доминантлик қилади).<sup>3</sup>

Шундан кейин В.А.Никоновнинг “Исм ва жамият” (1974), А.Карпенконинг “Атоқли ва турдош отларни фарқлашнинг назарий асослари” (1975), А.Д.Зверевнинг “Атоқли ва турдош отлар ҳақида” (1976), И.И.Коваликнинг “Украин тилида атоқли ва турдош отлар” (1977) номли асарлари эълон қилинди; “Атоқли ва турдош отлар” номли алоҳида илмий тўплам нашр этилди (1978). Таниқли олим А.А.Реформатский ўз вақтида атоқли ва турдош отларни қуйидагича фарқлашни таклиф этган эди: атоқли отлар, биринчи навбатда, номинатив функцияга эга, яъни, муайян предметларни, нарса-ҳодисаларни алоҳида номлаш учун хизмат қилади, турдош отлар эса семасиологик, яъни, ифодаловчи функцияни бажаради, улар предмет, воқеа-ҳодисаларни номлаш билан бирга улар ҳақидаги тушунчани ҳам билдиради.<sup>4</sup>

Инсон ва нарсаларнинг номи уларга хос бўлган табиатларидан келиб чиққан ҳолда, айниқса, табиатларидаги муҳим хусусиятларга урғу берилган ҳолда ўзлаштирилади деган фараз кўпгина файласуф ва тилшунос олимларнинг илмий ишларида ўз аксини топди (Лосев. 1990; Лотман. 1971; Топоров. 1989; Флоренский. 2000). Объектнинг моҳиятини англашда номларнинг аҳамиятига алоҳида эътибор қаратган П.Флоренский, жумладан, шундай ёзади: “Ном шундай нозик хилқатки, у орқалигина руҳий моҳият англашилади”. Православ мазҳабига мансуб кўпгина номларнинг бир қатор конкрет тарихий шахслар тақдирига дахлдорлиги хусусида таҳлиллар олиб бориш натижа-сида у берилган номда шахснинг қандай кишилар сирасига мансублиги акс этади, унинг руҳий ва

<sup>1</sup> Стеблин-Каменский М.И. Древнеисландская топономастика как материал к истории имени собственного. Стеблин-Каменский М.И. Спорное в языкознании. Л., “Наука”, 1974, с. 105 – 106.

<sup>2</sup> Russel B. Shakespeare’s Country. London, “Heinemann”, 2008, p. 116.

<sup>3</sup> Суперанская А.В. Структура имени собственного. М., “Наука”, 1969, с. 16.

<sup>4</sup> Реформатский А.А. О сопоставительном методе. Лингвистика и поэтика. М., «Наука», 1987, с. 59.

маънавий моҳиятини аниқлаштириб берувчи онтологик шакли ифодаланади, деган хулосага келади.<sup>1</sup>

Номлаш табиатини тушунишга қаратилган ва кўпгина баҳсларга сабаб бўлган ушбу ёндашув кишиларга туғилган пайтларида эмас, балки ҳаётлари давомида ном берилиши; шунингдек, баъзи эстетик афзалликларни маъқулаш туфайли ёки ўз ички эҳтиёжларидан келиб чиқиб, кишилар ўзлари учун янги ном танлаб олган ҳолатлардагина ўзини оқлар эди. Амалиёт шуни кўрсатдики, янги ном кишини ўзгартиради, аммо бунинг учун одамнинг ўзи ҳам ҳаётидаги янги бурилишларга тайёр бўлиши керак, янги танлаб олинган ном эса инсоннинг ҳаётида янги давр бошланишига туртки бўлади. Номларнинг аҳамияти яна шу билан муҳимки, уларда оилавий ва умумий анъаналар, удумлар мужассамлашган бўлади, улар вақт ва маконда индивидларга қараганда моҳиятан бутунлай реал ва тенгсиз кўламда мавжуддир.

Бу муаммо ҳозирги кунга қадар тилшунослар, файласуфлар ва бошқа фан вакиллари қизиқтириб келмоқда. Масалан, 1978 йилда Краков шаҳрида ўтказилган XIII халқаро Ономастик конгресс “Турдош отлар ва атоқли отлар” муаммосига бағишланган эди. 1984 йилда Лейпциг шаҳрида ўтказилган XV халқаро Ономастик конгресс эса атоқли отларни социолингвистик йўналишда ўрганиш муаммоларини муҳокама қилган эди.<sup>2</sup>

Туркологияда ҳам ономастика масалалари тадқиқига бағишданган қатор ишлар мавжуд. Бу соҳада академик В.В.Радлов, В.А.Гордлевский, Н.А.Баскаков, Ф.Ф.Сатторов, Т.Жонузоқов ва бошқа олимлар самарали иш олиб борганлар. Жумладан, Н.А.Баскаков ҳозирги кунда рус тилида фаол қўлланилаётган юздан ортиқ киши номларининг келиб чиқиши жиҳатидан туркий эканлигини исботлаб берди. Ўзбек тилшунослигида антропонимика масалаларини ўрганиш, уларни илмий тадқиқ қилиш ҳам ўз тарихига эга. Бу соҳада С.Иброҳимов, Э.Бегматов, Р.Кўнғуров, А.Мухторов, Д.Абдурахмонов, Э.Қиличев, Ф.Сатторов ва бошқалар қатор мақола ва монографиялар эълон қилдилар. Бу ўринда биз уларда олға сурилган айрим фикрлар ҳақида тўхталиб ўтамиз. Ўзбек антропонимларининг лисоний хусусиятларини ўрганишга қизиқиш, асосан, 1960-йилларда юзага келди. Дастлаб, Д.Абдурахмоновнинг “Ном кўйиш” мақоласи нашр қилинди.<sup>3</sup>

Сўнгра проф. Ф.Абдуллаев Хоразм шеваларида исмларнинг қисқариш хусусиятларига доир қимматли материалларини эълон қилди ва уни илмий асослади. Мана шу даврда А.Ишаев “Манғит шеvasидаги лақабларга доир”, С.Иброҳимов ва Н.Маматовларнинг “Исм ва фамилияларнинг имло-сига оид”, Ҳ.Бектемировнинг “Номларнинг ўрганилиш тарихидан” каби қатор мақолалари юзага келди. Ўзбек тилшунослигининг кейинги тараққиёт даврида ўзбек антропонимлар системасини монографик тарзда ўрганган олим Ф.Сатторовдир. У ўзининг “Ўзбек исмларининг туркий қатлами” номли номзодлик диссертациясида туркий, жумладан, ўзбек антропонимларининг тарихи масалаларини таҳлил қилади. Муаллиф ўзбек антропонимларининг қадимий намуналари икки манбада сақланиб қолганлигини қайд этади:

- 1) тарихий ёзма обидалар тилида;
- 2) ҳозирги давр антропонимик фондда.

1973 йилда тил фалсафаси бўйича йирик мутахассис Евгений Гродзинскийнинг “Атоқли отлар умумий назариясидан очерк” номли монографияси эълон қилинади. Бу ишда Е.Гродзинский атоқли отларни қуйидаги уч гуруҳга ажратади: а) бир десигнатли (десигнат – сўз оркали ифодаланувчи предмет, ифодаланувчи денотат) ёки идеал атоқли отлар; б) кўп десигнатли атоқли отлар; в) бўш ёки десигнатга эга бўлмаган атоқли отлар (мавжуд бўлмаган предметлар, мифологик тасаввурларни ифода этувчи атоқли отлар). Ж.Милль ва унинг тарафдорлари томонидан олға сурилган атоқли отларда маъно ва коннотация ифодаланмаслиги ҳақидаги назарияга муносабат билдириб, Е.Гродзинский атоқли отлар ҳам бирор предмет, воқеа-ҳодиса ҳақида маъно билдиради, десигнатга эга бўлади, деган фикрни асослашга интилади.<sup>4</sup>

Илмий адабиётларда қайд этиладикки, янги туғилган чақалоққа ном танлаш тасодикий ҳолат эмас, у оилавий ёки диний анъаналарга биноан, ҳар хил маданий факторларга кўра, жойлардаги умумий ономастик тамойиллар, номларда мавжуд стилистик ахборот, лисоний-экспрессив бўёқ-

<sup>1</sup> Лотман Ю.М. Семиясфера. С-Пб., “Искусство”, 2000, с. 40.

<sup>2</sup> Агеева Р.А., Бахьян К.В. Социолингвистический аспект имени собственного (К XV Международному конгрессу по ономастике, 13–17 августа 1984 г., Лейпциг). М., “Наука”, 1984, с. 5 – 12.

<sup>3</sup> Абдурахмонов Д.А. Ном кўйиш. “Фан ва турмуш”, 1960, 6-сон, 36-бет.

<sup>4</sup> Гордлевский В.А. К личной ономастике у османцев. Древности восточные. М., 1913, Т. IV, с. 21.

дорлик ёки шунчаки урф асосида шартланган бўлиши мумкин Демак, кўпгина мамлакатларнинг ҳозирги замондаги маданияти шароитида ҳам атоқли отлар ўз соҳиби учун маълум маънони сақлаб қолган.

Умуман олганда, тилшуносликда атоқли отларнинг умумназарий муаммоларини тадқиқ этиш соҳасида ечимини кутаётган муаммолар жуда кўп. Бу эса келгусида ономастикага доир тадқиқотларни яна-да кучайтиришни талаб қилади. Сўнги пайтларда тилшуносликда тил фақат мулоқот воситаси сифатида эмас, миллатнинг маданий кўрсаткичи сифатида қаралувчи тадқиқотлар ҳам кўплаб олиб борилмоқда. Бу каби тадқиқотлар халқ маданиятининг энг нозик қирралари унинг ўзига хос ва бетакрор бўлган тилида намоён бўлиши тўғрисидаги тасаввурларга асосланади, бундай ёндашувлардан келиб чиқиб, тил нафақат миллатнинг замонавий менталитети, шунингдек, олдинги давр одамларининг дунё, жамият ва ўзлари ҳақидаги фикрларини ҳам таҳлил этишни талаб этади.

Инсоннинг ижтимоий-маданий фаолияти ҳамда маданиятнинг аксиологик муносабатлари орқали ифодаланган тил ва миллий маданият ўртасидаги ўзаро муносабатни акс эттириш замонавий тилшуносликда етакчи ўринлардан бирини эгаллайди. “Миллий маданият категорияларида “маданий код”нинг миллий, маданий кадрларга томон юксалишининг муқобил тарзда изоҳланиши энг қийин маданий-лисоний компетенция ҳисобланади” ва унинг шаклланиши этнолингвистик вазифалар сирасига киради. Ушбу турдаги муаммолардан бири турли этник гуруҳлар вакиллари томонидан исм кўйишдир: “Исм кўйиш – бу янги туғилган чақалоққа шахс мақомини берадиган энг муҳим антропонимик (ижтимоий тилда – бошланғич) ҳаракатдир.

**Bobojonov Sharif (Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti dotsenti)**  
**“YANGI” LEKSEMASINING SEMEMALARI VA UNING IZOHI XUSUSIDA**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola “Yangi” polisemantik leksemasining semasiologik tavsifi va leksikografik talqiniga bag‘ishlangan. Maqolada (yangi) leksemasi shu nuqtayi nazardan o‘rganilib, uning sememasi izohli lug‘atda berilishi va muammosi haqida so‘z boradi.*

***Аннотация.** Данная статья посвящена семасиологическому описанию и лексикографическому толкованию новой полисемантической лексемы. В статье рассматривается (новая) лексема с этой точки зрения, дается ее семантика в толковом словаре и рассматривается проблема.*

***Annotation.** This article is dedicated to the semantic description and lexicographic interpretation of the new polysemantic lexeme. The article (new) lexeme is studied from this point of view, its semema is given in the dictionary and the problem is discussed.*

***Kalit so‘zlar:** yangi, leksikologiya, semasiologiya, izohli lug‘at, leksikografik talqin, leksema, semema.*

***Ключевые слова:** новое, лексикология, семасиология, толковый словарь, лексикографическое толкование, лексема, сема.*

***Key words:** new, lexicology, semantics, glossary, lexicographic interpretation, lexeme, sema.*

Bugungi kungacha leksikologiya sohasida leksemalarning lisoniy mohiyatini ochish borasida birmuncha ishlar amalga oshirildi. Bu so‘zlarning tavsifiy usulda yetarli darajada o‘rganilganligidan kelib chiqqan holda, tilshunosligimiz oldidagi navbatdagi vazifa leksemalarni lison va nutq bo‘linishi nuqtayi nazaridan tahlil etish, ulardagi barqaror jihatlarni aniqlash, so‘zlarning mohiyatiga daxldor deb qarab kelingan sof nutqiy xususiyatlarning lisonga munosabatini belgilash, pirovarida, zamonaviy milliy izohli lug‘atlar uchun material tayyorlashdan iborat ekanligini ko‘rsatadi.

Ma‘lumki, an‘anaviy leksikologik tadqiqotlarda so‘zlarning ma‘noviy tabiati turlicha talqin etiladi. Ba‘zan bir leksemaning har bir nutqiy tovlanishi alohida ma‘noviy mohiyat sifatida tavsiflanadi. Buning natijasi o‘laroq, so‘zning leksikografik talqinida ularning har birini alohida-alohida berish hollari vujudga keladi. Quyida biz (yangi) ko‘p ma‘noli leksemasining semasiologik tavsifini berib, undagi barqaror va o‘tkinchi (lisoniy va nutqiy, umumiy va xususiy) jihatlarni ajratishga va uning leksikografik talqini xususida tavsifa berishga harakat qilamiz.

Yangi leksemasi ba‘zan omonim, ba‘zan ko‘p ma‘noli leksema sifatida qo‘llaniladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida leksemaning 10 ta mustaqil ma‘nosi ajratilgan va izohlangan. Ulardan ikkitasi, ya‘ni, 9-va 10-ravish, qolganlari sifat turkumiga daxldor mohiyatlar sifatida baholanadi:

1. Ilgari bo‘lmagan, yaqindagina paydo bo‘lgan narsa: *Yangi ariq. Yangi devor.*<sup>1</sup>
2. Ilgarigi kishining o‘rniga kelgan, ilgarigidan boshqa: *Yangi direktor.*<sup>2</sup> *Yangi o‘qituvchi.*
3. Birinchi marta ishlayotgan, yaqinda ishlay boshlagan; tajribasiz, xom: *Yangi shofer. Yangi mon-tyor.*

4. Yaqinda turmush qurgan kishilar haqida: *yosh. Yangi kelin.*
5. Shu yili yoki shu mavsumda yetishadigan: shu yilgi. *Yangi kartoshka, Yangi bug‘doy.*<sup>3</sup>
6. O‘tadigan vaqtning o‘rniga keladigan: *Yangi asr. Yangi hafta.*
7. Birinchi marta ko‘rilayotgan, notanish joy: *Yangi joy. Yangi qishloq.*
8. Yaqin o‘tmishga yoki hozirgi zamonga oid: *Yangi tarix. Yangi madaniyat.*
9. Yaqindagina, hozirgina: *Yangi keldi.*
10. Takroran, yangidan, qaytadan, ikkinchi marta: *Yangi hayot bag‘ishlamoq.*

Ko‘rinadiki, aksariyat ma‘noviy ko‘rinishlar ushbu leksemaning qanday birliklar bilan birikayotganligi asosida farqlanadi. 1–8- va 10-ma‘nolar ot turkumiga, 9-ma‘no esa fe‘l turkumiga mansub so‘zlar bilan birikayotganligiga ko‘ra, ular, dastlab, ikki guruhga bo‘linadi. Biz, avval, ulardan birinchisining tadqiqi bilan shug‘ullanamiz.

1-misolda narsa, 2-misolda kishi, 3-misolda xodim, 4-misolda turmush qurgan kishilar, 5-misolda meva, 6-misolda vaqt, 7-misolda joy kabi denotatlarni ifodalovchi so‘zlar bilan birikuvchilar asosida (yangi) so‘zining turli ma‘nolari farqlanadi. Nutqiy ma‘no (XLM)larning barchasi “endigina paydo bo‘lgan” ma‘nosini ifodalaydi va birikuvchilar ularni turlicha modifikatsiya qiladi. Biroq boshqa (ya‘ni, 1–,8-misollardan boshqa) matnlarda bu so‘z predmet yoki predmet tasavvuridagi so‘zlar bilan emas, balki harakat-holat ifodalovchi birliklar bilan nutqqa chiqadi. Demak, bu birikuvlarda (yangi) leksemasining ikki xil zotiy mohiyati ko‘zga tashlanadi. Nutqiy ma‘nolarga diqqat qilaylik: 1. *Yangi dang‘illama imoratlar solib...*<sup>4</sup> (A.Qahhor). 2. *Sattorqul yangi rais bo‘lsa ham...*<sup>5</sup> (A.Qahhor). 3. *Yangi shofyor bo‘lsa.* 4. *Qizini yangi kuyovga topshirib tinchlandi (A.Qodiriy).* 5. *Sho‘rvaga yangi kartoshka solindi.* 6. *Yangi o‘quv yili boshlandi (P.Tursun).* 7. *Yangi joylarga borib qoldi (S.Ahmad).* 8. *Yangi madaniyat saroyi ishga tushdi.* 9. *Po‘latov bosmaxonaga yangi kelgan (A.Qahhor).* 10. *Menga yangi hayot bag‘ishlagansiz (A.Qodiriy).*

1–8-misollarda (yangi) leksemasining turli voqelanishlari “umumiy”, “belgi”, “betaraf”, “yaqinda” mushtarak semalariga ega bo‘lib, birikuvlarning turli-tumanligi bu umumiy belgilarga “soya soladi”, har bir qo‘llashni alohida mohiyatlarning namoyandasidek ko‘rsatadi. Nutqiy qo‘llanishlardagi (yangi) leksemasining mohiyatiga daxldor bo‘lmagan holatlar tajallilari undan aqliy yo‘l bilan chetlatilsa, faqat yuqorida sanalgan semalar qoladi. Farqlar esa birikuvchi unsurlarning zotiga daxldor hodisalar sifatida nazardan soqit qilinadi. Chunki bu birliklarning leksikografik talqiniga diqqat qilinsa, biror ma‘noviy ko‘rinishning o‘ziga xosligi sifatida tavsif etilgan muayyan belgini bemalol boshqa nutqiy ma‘nolarda ham kuzatish mumkin. Masalan, izohli lug‘atda qayd etilgan “ilgarigi kishining o‘rniga kelgan” (2-ma‘noviy alohidalik) tavsifdagi “kishining” unsuri o‘rniga 6-ma‘noviy ko‘rinishdagi “vaqt” yoki 1-ma‘noviy ko‘rinishdagi “joy” unsuri qo‘yilsa, u bemalol ushbu ma‘noviy ko‘rinishlar uchun qo‘llasa mumkin bo‘ladigan tavsif maqomini oladi. Demak, lug‘at izidan borib, ma‘nolar tavsifida shu yo‘l tutiladigan bo‘lsa (yangi), leksemasining boshqa birikuvchilar bilan bog‘lanishlari asosida yangi-yangi ma‘nolarni “kashf qilish” imkoniyati kengligi ko‘zga tashlanadi. Masalan:

11. Endigina tug‘ilgan: *yangi qo‘zichoq.*
12. Hozirgina ko‘ringan: *yangi oy* va hokazo.

Bu ro‘yxatni cheksiz davom ettirish mumkin. Biroq nutqiy hodisalarning cheksizligi, lisoniy hodisalarning cheklanganligi nazarda tutilsa, izohli lug‘atda (yangi) leksemasining nutqiy ko‘rinishlari tavsiflanganligiga amin bo‘lish mumkin. 1–8-ma‘noviy ko‘rinishlar voqelanish qurshovi (sifat+ot) bo‘lib, shuningdek, lug‘aviy shaklga munosabatda ham umumiylikka ega bo‘lsa, boshqacha aytganda, daraja ko‘rsatkichlarini erkin qabul qilsa, 9- va 10-ma‘noviy ko‘rinishlar narsa va hodisalarning atributiv belgisini emas, balki ish-harakatning yuz berish paytini ifodalasa, sifat+fe‘l qolipi asosida nutqqa chiqishi, shuningdek, daraja shakllariga salbiy munosabat umumiylikka egaligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, bu nutqiy ma‘nolar guruhi (endi), (hozir, yaqinda) leksema bilan bir tizimga kira olish imkoniyatiga ega, bu

<sup>1</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 5-jild, Toshkent, O‘zME, 2006, 115-bet.

<sup>2</sup> Shu manba.

<sup>3</sup> Shu manba.

<sup>4</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 5-jild, Toshkent, O‘zME, 2006, 115-bet.

<sup>5</sup> Shu manba.

hodisa ham (yangi) leksemasining mazkur nutqiy ma'no (XLM)lar guruhi asosidagi lisoniy mohiyat sifatidagi nisbiy mustaqilligini ta'minlaydi. Biroq leksemani alohida sememalari asosida payt ravishi va xususiyat sifati tarzida qarash ham e'tirozlidir. Zero, sememalarda ulardagi, "hozirgina", "yaqinda" umumiy bog'lovchi halqaning mavjudligi ularni omonimiya hodisasi sifatida qolishiga monelik qiladi. Yaxshi bo'la, yaxshi o'qiydi gapidagi (yaxshi) leksemasining har ikki bog'lanishdagi ko'rinishi sifat turkumiga xos hodisa sifatida qaralishi lozimligi haqidagi fikr (sist. lek.)ga tayangan holda (yangi) leksemasining har ikki sememasini ham sifat turkumiga daxldor hodisalar sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Demak (yangi), leksema ikki sememali leksema bo'lib, o'zbek tilining izohli lug'atida qayd qilingan ma'nolarni uning cheksiz xususiy ma'noviy ko'rinishlarining bir parchasi. Shu boisdan leksemaning leksikografik talqinida yuqoridagi ikki umumiylik – semema tavsiflansa, birinchidan, lug'at ortiqcha tafsilotlardan xalos bo'ladi, ikkinchidan, leksema mohiyati ochiq-ravshan tushuniladi.

Shunday qilib, biz leksemani izohli lug'atda quyidagicha berishni tavsiya qilgan bo'lar edik.

Yangi-1 ilgari bo'lmagan, yaqinda bunyod etilgan yoki vujudga kelgan, birinchi qurilayotgan (narsa-predmet, hodisa, predmet, tasavvurdagi narsa va kishilarga nisbatan). *Yangi ariq, Yangi zavod. Yangi avtomashina. Yangi direktor. Yangi kuyov. Yangi kartoshka.* Voqelanish qolipi (sifat+ot). Men yangi beli burma sariq chiy duxoba kastumim bilan shalvarimning changini qoqqancha birpas garangsib, alanglab turdim (H.Nazir. "Cho'l havosi").

Yaqindagina, hozirgina (harakat-holatga nisbatan): *Yangi keldi. Yangi shu yerda edi. Yangi paydo bo'ldi. Yangi uxlati.* Voqelanish qolipi (sifat+fe'l). "Notanish bola ketmon uryapti. Yalang'och badani terlab ketganidan oftobda yangi yuvilgan samovardek yaltiraydi" (S.Ahmad).

Bunday yo'l lug'atlarda tartib berish ishini ancha yengillashtiradi va undan foydalanish samaradorligini oshiradi.

**Abduvalieva Xulkaroy Lutfulla kizi (Andijon davlat universiteti, o'qituvchi;**

**email: [abduvalievahulkarov@gmail.com](mailto:abduvalievahulkarov@gmail.com)**

## **LEKSIK MA'NO TASNIFI, SEMANTIK TUZILISHI VA TAHLIL METODLARI MASALASI**

**Annotatsiya.** *Maqolada tilshunoslikning tadqiqot metodi va ish apparati bo'lgan predmet, ya'ni so'zlarning leksik manosi va semantik tuzilishi, shuningdek, uni tadqiq qilish va o'rganish usullari haqida ilmiy ma'lumotlar va fundamental tadqiqotlar natijasi asosida qilingan ba'zi xulosalar keltirilgan.*

**Аннотация.** *В статье представлен метод исследования и предмет, являющийся рабочим аппаратом языкознания, т.е. лексическое значение и семантическая структура слов, а также некоторые выводы, сделанные на основе научных данных и результатов фундаментальных исследований.*

**Annotation.** *The article presents research methods and the subject, which is the working apparatus of linguistics, i.e. the lexical meaning and semantic structure of words, as well as some conclusions made on the basis of scientific data and the results of fundamental research.*

**Kalit so'zlar:** *leksika, tilshunoslik, so'z, sintatik bog'lanish, semantik, bog'lanish, kontekst, ma'no, klassifikatsiya, lingvistika, leksikologiya.*

**Ключевые слова:** *лексика, языкознание, слово, синтаксическая связь, семантическая связь, классификация, лингвистика, лексикология.*

**Key words:** *lexis, linguistics, word, syntactic connection, semantic connection, classification, linguistics, lexicology.*

**Kirish.** Hozirgi vaqtda mamlakatimizda olib borilayotgan keng islohotlar va barcha sohalarda amalga oshirilayotgan amaliy ishlar zamirida mamlakatimiz taraqqiyoti va zamonaviy jamiyat qurish maqsadi yotadi. O'zbek tilining boy imkoniyatlarini ochib berish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir.<sup>1</sup>

**Adabiyotlar sharhi.** Ushbu masalada olimlarning qator tadqiqotlari va fundamental ishlari amalga oshirilgan bo'lib, ular hozirgi til tuzilishi va so'zlarning sistematik tizimini shakllantirib kelgan. Shunga qaramasdan, tilshunoslik sohasida so'zning umumiy tarzida barcha olimlar maqullagan umumiy ta'rifi tuzilmagan. Lingvistikaga oid darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma va tadqiqot ishlarida so'z tushunchasining

<sup>1</sup> Leksik tushunchalar tizimi haqida ma'lumot Parvina Abdumalik qizi Xoliqova Termiz davlat universiteti "Science and Education" Scientific Journal, June 2021, volume 2, Issue 6.

ko'plab ta'riflari mavjud bor:<sup>1</sup> «So'z tilning eng kichik ma'nodor birligi bo'lib, gap tuzish uchun nutqda erkin tiklanish xususiyatiga ega».<sup>2</sup> «So'z tilning eng muhim birligi, chunki so'zda til strukturasi barcha asosiy elementlari birlashadi».<sup>3</sup> «Tildagi ma'noli tovushlardan bo'lak holda ma'no ifodalaydigan tovush so'z deyiladi».<sup>4</sup> «So'z – tovushlar bilan ma'no birligi».<sup>5</sup> «So'z murakkab til hodisalaridan biri bo'lib, til birliklari (morfema, frazeologik birlik) qatorida alohida o'rin tutadi»<sup>6</sup> va hokazo.

Bularning barchasi bir tushuncha, ya'ni so'z tushunchasi ta'rifi hisoblanadi. So'zga berilayotgan turli ta'riflarning xilma-xilligi ushbu tushunchaning tilshunos olimlar orasida yagona teoremasi mavjud emasligidan dalolat beradi. Yuqorida keltirilgan ta'riflarda so'zni so'z bo'lmagan birliklar (morfema, so'z birikmasi, gap va boshqalar)dan farqlashni ta'minlaydigan belgi va xususiyatlar to'liq ko'rsatilmaydi. Ba'zan berilgan ta'rifda aytilgan xususiyatlar so'z termini bilan ataladigan hodisalarga, ko'pincha, muvofiq kelmaydi.<sup>7</sup> So'z tushunchasini mukammal va yagona izchil, ziddiyat va munozarasiz ta'riflashning mushkulligi ayrim soha olimlarini bu mavzuda qayta-qayta qo'l urishga undagan bo'lsa ajab emas. Masalan: A.Meye yozgan asarlarida so'z tushunchasiga nisbatan to'rt xil ta'rif mavjud. Ushbu ta'riflardan biri «Meyening mashhur formulasi» nomi bilan olimlar orasida shuhrat qozongan. J.Maruzoning maxsus lingvistik terminlari lug'atiga kiritiladi. Ushbu ta'rif quyidagicha sharhlanadi: «Muayyan ma'no va muayyan tovushlar kompleksining muayyan grammatik qo'llashga imkon beradigan bog'lanishi (assotsiatsiyasi) so'z deyiladi».<sup>8</sup>

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.** Odatda, leksik ma'noni tahlil qilishda bir predmet yoki belgi, harakatning nomini boshqa bir predmet yoki belgi, harakatga ko'chirish yo'li bilan rivojlanadi.<sup>9</sup> Bu shakldagi ko'chirishning xususiyatini, mavqeyini turli tillarga xos o'zidagi semantik qonuniyatlar belgilab beradi.

Metafora yo'li orqali ko'chirishning asosiy ko'rinishlari quyidagicha:<sup>10</sup>

1. Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga shakliy o'xshashlik asosida ko'chiriladi: *og'iz* (odamning og'zi), *og'iz* (shishaning og'zi); *qo'litiq* (odamning qo'litiqi), *qo'litiq* (dengizdagi qo'litiq); *tish* (odamning tishi), *tish* (arraning tishi); *etak* (kiyimning etagi), *etak* (tog'ning etagi) kabi. Bunday ko'chirish natijasida ba'zan zid ma'no ham tug'ilishi mumkin. Masalan, *bosh* leksemasining birinchi ma'nosidan metafora yo'li bilan ko'chirish asosida ibtido, muqaddima ma'nosi hosil bo'lgan: *maqolaning boshi* kabi.

2. Bir predmet (ba'zan harakat)ga xos belgining nomi boshqa bir predmetdagi belgiga ko'chiriladi: *achchiq* (achchiq qalampir), *achchiq* (achchiq gap); *to'g'ri* (to'g'ri chiziq), *to'g'ri* (to'g'ri gap); *jonli* (jonli tabiat), *jonli* (jonli suhbat); *tez* (tez yur), *tez* (tez odam) kabi.

3. Bir predmetga xos harakatning nomi boshqa bir predmetning harakatiga ko'chiriladi: *savala* (nimani), *savala* (kimni), *cho'k* (cho'kkala), *cho'k* (imoratning cho'kishi), *cho'k* (odamning qariganda cho'kishi); *o'l* (jonlilarda hayotning tugashi), *o'l* (o'simlik palagining so'lishi, qurishi) kabi.

Leksik ma'no tilning taraqqiyoti davomida ham sifat, ham miqdor jihatidan o'zgaradi. Shu asosda leksik ma'nolarni hozirgi leksik ma'no va avvalgi leksik ma'no deb ikkiga guruhlash mumkin. Tilning o'tmish taraqqiyot bosqichiga mansub, hozirgi lug'at boyligi tarkibida qatnashmaydigan leksik ma'no avvalgi leksik ma'no deyiladi. Avvalgi leksik ma'no ikki xil:<sup>11</sup>

1) eski leksik ma'no;

2) etimologik leksik ma'no.

Hozirgi davrda leksik ma'nolar bosh va hosila ma'no, to'g'ri va ko'chma ma'no, nominativ va figural ma'no kabi bir qancha nuqtayi nazardan tasnif qilinadi. Bu tasniflar biri ikkinchisini istisno qilmay-

<sup>1</sup> I.Qo'chqortoyev. So'z ma'nosi va uning valentligi. «Fan», T., 1977, 4 – 5-betlar.

<sup>2</sup> Б.Н.Головин. Введение в языкознание. М., 1973, с. 70.

<sup>3</sup> Ф.Фортунатов. Избранные труды. Т. I, 1956, с. 132.

<sup>4</sup> Л.И.Баранникова. Введение в языкознание. Саратов, 1973, с. 101.

<sup>5</sup> А.А.Потебня. Из записок по русской грамматике. Т. I – II, 1958, с. 13.

<sup>6</sup> U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1965, 122-bet.

<sup>7</sup> Ю.Д.Апресян. Идеи и методы современной структурной лингвистики. М., 1966, с. 15.

<sup>8</sup> И.Е.Аничков. Об определении слова. «Морфологическая структура слов в языках различных типов», М.–Л., 1963, с. 147.

<sup>9</sup> G'ulomova A., Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. T., "O'qituvchi", 1995, 23-bet.

<sup>10</sup> Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy tili. Darslik, Toshkent, "Universitet", 2006, 62 – 70-betlar.

<sup>11</sup> A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akadeemik litsey talabalari uchun darslik, II kitob, T., "Ilm ziyo", 2013, 183-bet; 3.Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2-qism, T., 2004.

di, balki ayni bir hodisaga har xil yondashishni aks ettiradi. Leksik ma'noning yuqorida ko'rsatilgan turlari ko'p ma'noli leksemalar asosida belgilanadi.

Boshqa tomondan, leksik ma'nolar, avvalo, bosh ma'no va hosila ma'no deb farq qilinadi. Boshqa bir leksik ma'noning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan ma'no bosh ma'no deyiladi. Bosh ma'noning taraqqiyoti bilan yuzaga kelgan leksik ma'no hosila ma'no deyiladi. Bir leksemaning leksik ma'nolari tizimidagi birlamchi leksik ma'no to'ng'ich bosh ma'no deyiladi. O'zidan keyingi ma'noning taraqqiy etib chiqishi uchun asos bo'lgan hosila ma'no nisbiy bosh ma'no deyiladi. Masalan, *ochiq leksemasining bosh ma'nosi berklanmagan (yopiq leksemasining antonimi): ochiq eshik, kitobni ochiq qoldir* kabi. Quyidagi ma'nolar shu bosh ma'nodan taraqqiy etib chiqqan hosila ma'nolar:<sup>1</sup>

2) ochiq gapir (tushunarli qilib, aniq, yashirmay);

3) ochiq odam (xushmuomala);

4) ochiq bo'g'in (ovoz tovush bilan tugaydigan).

**Natijalar.** Yuqoridagi tahliliy manbalardan shunday natijalarni olish mumkin:

Turlicha ko'chirishlar natijasida leksik ma'noda ikki xil hodisa yuz beradi:

1) ma'noning hajmi o'zgaradi;

2) ma'noning miqdori o'zgaradi.

Leksik ma'no hajmining o'zgarishi ikki xil natijaga-leksik ma'no hajmining kengayishiga yoki to'rayishiga olib keladi:<sup>2</sup>

1. Leksik ma'no hajmining kengayishi avvallari tor doiradagi voqelikni anglatgan leksemaning, keyinchalik, keng doiradagi voqelikni anglatish uchun xizmat qilishidir. Masalan, *non* leksemasi avvallari bu predmetning tandirda pishiriladigan turinigina anglatgan, hozir esa shu predmetning barcha xillarini anglatadi.

2. Leksik ma'no hajmining torayishi avvallari keng doiradagi voqelikni anglatgan leksema keyinchalik tor doiradagi voqelikni anglatishidir. Masalan, *qishloq* leksemasi aslida qishlaydigan joy ma'nosini anglatgan (qish-qishla-qishloq). Keyinchalik, ko'chmanchilik hayotiga xos lavha yo'qolib, o'troqlashish natijasida yangi, tor hajmli leksik ma'no hosil bo'lgan. Endi *qishloq* leksemasi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan aholi yashaydigan joy ma'nosini anglatadi.

Mavzu bo'yicha tahlil qilingan va ta'kidlangan taraqqiyot yo'llari natijasida leksik ma'noning hajmi emas, balki miqdori o'zgarishi mumkin. Bir leksik ma'no asosida boshqa bir leksik ma'noning yuzaga kelishi, o'z navbatida, ikki xil hodisa-da, ko'p ma'nolilikka yoki omonimiyaga olib keladi (bulardan birinchisi ko'p, albatta). Leksik ma'noning taraqqiyot yo'llariga nazar tashlasak (shular bayon qilingan sahifalarga qarang), metafora yo'li bilan ko'chirish, sinekdoxa yo'li bilan ko'chirish va funksional ko'chirish natijasida ko'p ma'nolilik voqe bo'lishini ko'ramiz (Taraqqiyot ma'no miqdorining o'zgarishiga olib kelsa, albatta), chunki bunda avvalgi va keyingi leksik ma'nolar bir leksemaning ma'nolari sifatida birlashadi.

Leksik ma'nolar nominativ (nomlovchi) ma'no va figural (majoziy) ma'no deb ham farqlanadi (lot. figura – obraz, ko'chirish): qulfning kaliti – nominativ ma'no (ochqich), g'alabaning kaliti – figural ma'no (hal etilish, erishuv yo'li); nordon mevalar – nominativ ma'no, nordon gaplar – figural ma'no (yoqimsiz); terla (ter chiqar) nominativ ma'no, terla (ruhan azoblan, o'sal bo'l) – figural ma'no; qizar (qizil rangga kir) predmetga nisbatan nominativ ma'no, qizar (uyal) kishiga nisbatan figural ma'no va h.k.

Nominativ ma'no – biror narsa, belgi yoki harakatning nomi bo'lib xizmat qiluvchi ma'no. Nominativ ma'no voqelik bilan bevosita bog'lanadi. Bu ma'no figural ma'no, chunki bunday ma'no shu hodisaning nomiga aylangan emas. Bunday ma'no obrazlilik, majoz hosil etish uchun xizmat qiladi. Gul – o'simlik nomi, bevosita voqelik bilan bog'lanadi, gul – sara, noyob ma'nosi figural ma'no bo'lib, voqelik bilan bu leksemaning nominativ ma'nosi orqali bog'lanadi.

Figural ma'no ba'zan xuddi nominativ ma'nodek gavgdalanadi: shu ma'noni anglatuvchi leksema (nominativ ma'no) bo'lmaydi, topilgan izohlar ham biror leksemaning figural ma'nosi bo'lishi mumkin. Masalan, *tuz* leksemasining *gapning tuzi* birikmasidagi ma'nosini qaymoq, *mag'iz* leksemalarining figural ma'nosi orqaligina izohlash mumkin: *gapning mag'izi*, *gapning qaymog'i* kabi. Sinonim bo'la oladigan nominativ ma'no topilmasa ham, yuqoridagicha holatlar figural ma'no deb belgilanadi.

<sup>1</sup> Dadaboyev H. va b. O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. T., 2008, 45-bet.

<sup>2</sup> Umarov E. So'z xususida so'z. "Til va adabiyot ta'limi", 2002, 2-son.



Ko‘rinib turibdiki, leksik ma‘no taraqqiyoti bilan yangi leksik ma‘noning yuzaga kelishida avvalgi leksik ma‘no tarkibidagi sema saqlanadi, tashlanadi, yangi sema bilan almashtiriladi, yangi sema kiritiladi, shu kabi o‘zgartirishlar natijasida yangi leksik ma‘no shakllanadi.

Har qanday sintaktik bog‘lanish asosida semantik bog‘lanish yotadi. Masalan, *Itni qopmaydi deb bo‘lmas, otni tepmaydi deb bo‘lmas* maqolini *Otni qopmaydi deb bo‘lmas, itni tepmaydi deb bo‘lmas* tarzida tuzsak, semantik bog‘lanish talabiga rioya qilmagan bo‘lamiz: *ot qopmaydi, it tepmaydi*.

Sintaktik bog‘lanish ham, semantik bog‘lanish ham, ayni vaqtda, ko‘p ma‘noli leksemaning har bir leksik ma‘nosi bo‘yicha amalga oshadi. O‘zaro sintaktik aloqaga kirishuvchi leksik ma‘nolarning semalar tarkibida birbiriga zid sema bo‘lmasligi lozim, aks holda, bunday leksik ma‘nolarni semantik bog‘lab bo‘lmaydi.

Semantik bog‘lanuvchi ma‘nolar tarkibida umumiy (bir xil) sema bo‘lishi muhim. Bunday umumiy sema bu leksik ma‘nolarning semantik bog‘lanishini 72 va bir-biri uchun yaqin leksik kontekst bo‘lib kelishini ta‘minlaydi. Masalan, *non* va *ye* leksemalarining leksik ma‘nolari tarkibida qattiq holatdagi, ozuqa, *iste‘mol qil* ideografik semalarining mavjudligi bu leksik ma‘nolarning semantik bog‘lanishini ta‘minlaydi. Bunday umumiy sema sintagmema deb yuritiladi (yunoncha syntagma – birlashtirilgan).

1-jadval

Leksik ma‘noning semantik klassifikatsiyasi

	Ideografik semalar	Leksik ma'nolar				
		1	2	3	4	5
1	predmet	+	+	+	+	+
2	modda	+	–	–	[+]	+
3	kristall	+	–	–	–	[+]
4	oq	+	–	–	–	–
5	sho‘r	+	+	–	–	–
6	ovqatga qo‘shiladigan	+	–	–	[+]	–
7a	namagini rostlaydigan	+	[+]	–	–	–
7b	maza kiritadigan	+	–	[+]	–	–
8	tuzli-tuzsizlik darajasi		+	[+]	–	–
9	mazmun, mantiq			+	–	–
10	issiq ovqat				+	–
11	kimyoviy modda					+

**Xulosa va muhokamalar.** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, leksik ma‘nolarning turli guruh-lari va bog‘lanish jihatidan xilma-xil usullari mavjud bo‘lib, zamonaviy tilshunoslikda chuqur o‘rganilib kelmoqda. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, har bir leksik ma‘no o‘z belgilovchi leksik kontekstiga ega. Bog‘lanish usuli va uning semantik tahlilida aslii mazmun nisbiylik kasb etadi.

Avezova Anajon Ko‘paysin qizi (O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika fakulteti 1-kurs magistranti;  
[Avezovaanajon9309@mail.ru](mailto:Avezovaanajon9309@mail.ru))

### O‘ZBEK VA TURK TILSHUNOSLIGIDA ANTROPONIMLAR HAQIDA NAZARIY QARASHLAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jahon tilshunosligi va turkologiyada, xususan, o‘zbek va turk tilshunosligida antroponimlarning tadqiqi haqida fikr yuritiladi. Kishi ismlari haqidagi bir qator olimlarning nazariy qarashlari tahlilga tortilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы изучения антропонимов в мировом языкознании и тюркологии, особенно в узбекском и тюркском языкознании. В статье анализируются теоретические взгляды ряда ученых на человеческие имена.

**Annotation.** This article discusses the study of anthroponyms linguistics of the world and Turkology, especially in Uzbek and Turkish linguistics. The theoretical views of a number of scholars on human names have been analyzed.

**Kalit so‘zlar:** onomastika, antroponim, identifikatsiya.

**Ключевые слова:** ономастика, антропоним, идентификация.

**Key words:** onomastics, anthroponym, identification.

**Kirish.** Antroponimlar har doim jamiyat a'zolari uchun nihoyatda keng ma'no anglatgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasi bolaning ism olish huquqini belgilaydi. Bu huquq bolaning shaxsiy huquqi doirasi hisoblanib, bu orqali bola mualliflik va oila huquqiga ega bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Inson hayotining ajralmas bir qismi bo'lgan antroponimlar jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, odamlarning nomlari xalq tarixining bir qismidir. Ularda xalqlarning turmush tarzi, e'tiqodi, intilishlari, fantaziyasi va badiiy ijodi, tarixiy aloqalari o'z aksini topadi.

**Muhokama va natijalar.** Antroponim onomastika o'rganadigan o'n to'qqiz turdagi atoqli otlardan biridir. Yillar davomida onomastikaga bag'ishlangan barcha tadqiqotlarda antroponimlar haqida ham so'z brogan. Turli tadqiqotlarda antroponimlarning kelib chiqishi sabablari va ularning ma'nolarga oid fikrlar bildirilgan bo'lsa-da, alohida fan sifatida antroponimika onomastikadan 60–70-yillarda ajralib chiqqan. XX asrning 60-yillarigacha esa bir qator muammolar har tomonlama ko'rib chiqilgan.

Rus olimi Mitrishkina antroponimlar haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Antroponimlar urf-odatlar, an'analar va diniy ma'rosimlarning nutqimizdagi aksi sifatida vujudga keldi. Ism nafaqat individual shaxsni nomlash funksiyasiga ega, balki uning madaniyatini to'liq aks ettiradi".<sup>1</sup> Haqiqatdan ham, har bir xalqning urf-odatlari, turmush tarzi, diniy ishonchlari ularning ismlarida namoyon bo'ladi. Kishining ismiga qarab uning qaysi millat vakili ekanligi, qaysi dinga e'tiqod qilishini tahmin qilishimiz mumkin.

Barcha sivilizatsiyalarda hamma odamlarning shaxsiy ismlari bo'lgan. Har bir xalqning nomlari nafaqat uning madaniyati, turmush tarzi, balki ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bilan ham bog'liqdir. Zinin Har qanday nomning ma'lum bir xalq orasida paydo bo'lishi uchun ma'lum madaniy va tarixiy sharoitlar kerak. Shuning uchun ko'plab nomlar tegishli davrning izlarini o'z ichiga oladi.<sup>2</sup> Demak, davrlar o'tishi bilan ismlar o'zgarib boradi, lekin bu ismlarda tarixiy va ijtimoiy jarayonlarning izlari qoladi.

Ma'lumki, antroponim (yunoncha: antropos – antropos+onoma-atoqli ot) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus va boshqalar). Atoqli ot tiplaridan biri. Ma'lum bir tilda mavjud bo'lgan barcha kishi atoqli otlari majmuyi, fondi antroponimiya deb yuritiladi. Antroponimika yoki ismshunoslik esa onomastika (nomshunoslik)ning kishi atoqli otlari (antroponimlar)ning paydo bo'lishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini o'rganuvchi bo'limidir.

Turk filolog olimi Acipayamning quyidagi fikrlari onomastikaning turli tarmoqlarini tushunishga intilishdir: Har bir narsa va hodisa, hatto jonli va jonsiz tabiatga ega bo'lgan tafakkur mahsuloti ham o'z nomiga ega. Hayvonlar o'z ismlari bilan chaqiriladi. O'simliklarning nomlari bor. Tabiatning har bir qismi nomlanadi. Inson bilan birga tug'ilgan bu nom qo'yish hodisasi u bilan birga o'z hayotini davom ettiradi, tarix davomida taraqqiy etib, oddiy ism qo'yish holidan o'tib folklor hodisasiga aylandi".<sup>3</sup>

Turkiy xalqlarning antroponimlar bilan shug'ullanishi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan boshlangan. Ataturk universiteti turkiy tadqiqotlari instituti jurnalida Amanoglu E.K. (2000). "Divanü Lugatit – Türkdaki kişi adları üzerine" nomli maqolasini e'lon qildi va "Devonu lug'otit turk"da keltirilgan 114 ismning 4 tasi ayol ismlari ekanligini ta'kidlaydi, antroponimlarni tahlil qiladi.

Turkiy xalqlar tilidagi atoqli otlarni to'plash va o'rganish ishi O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishidan keyingi davrlarda boshlangan edi. Bu sohada rus turkolog olimlaridan A.Samoylovich, V.Y. Gordlevskiy hamda etnograflar A.Divayev, S.Oldenberq, N.P.Dyirinkova singari tadqiqotchilarning xizmatlari kattadir.<sup>4</sup> Yuqorida sanab o'tilgan rus olimlari turkiy xalqlarning urf-odatlarini o'rganish bilan bir qatorda, an'analarning ajralmas bir bo'lagi bo'lgan chaqoloqqa ism berish jarayonlaridagi turkiy xalqlarga xos bo'lgan urf-odatlarini va ismdagi motivlarni ham tadqiq qilganlar.

1970–1980-yillar davomida turkiy tilli respublikalarning barchasida onomastika tadqiqotlari jonlandi. Turkiy ismlar bo'yicha turkologiyada Qozog'istonda T.Jonuzoqov, Ozorbayjonda A.M.Pashayev, Z.Sadikov, Qirg'izistonda A.A.Baronov, O'zbekistonda E.Begmatov va uning shogirdi G'Sattorov kabi olimlar tadqiqotlar olib bordilar.

O'zbekcha ismlarning lisoniy xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish 1960-yillardan boshlangan.

E.A.Begmatov 1962–1965-yillar davomida o'zbek antroponimiyasi bo'yicha juda boy material to'pladi va antroponimlarning lingvistik, ekstralingvistik xususiyatlari, ismlar, laqablar, taxalluslar, fami-

<sup>1</sup> Митришкина. Бурятская антропонимия. Новосибирск, "Наука", 1987, с. 3.

<sup>2</sup> Зинин С.И. Историческая ономастика. М., 1977, с. 59.

<sup>3</sup> Асраямли Орхан. (1992). "Türk kültüründe "ad koyma folkloru"nun morfolojik ve Fonksiyonel yönlerden incelenmesi. IV. Milletler Arası Türk Halk Kültürü Kongresi Bildiri Kitabı, s. 1–15, Ankara, Ofset Reprint Matbaası.

<sup>4</sup> Саттаров Ф.Х. Ўзбек исмларининг туркий қатлами. Филол. фан.номз...дисс., Т., 1990, 15-бет.

lyyalar, otaismlarning leksikasi, strukturasi, grammatik xususiyatlari bo'yicha qator maqolalar e'lon qildi. Shu asosda bu olim 1965-yilda "O'zbek tili antroponimikasi" degan mavzuda nomzodlik ishini himoya qilgan edi.

E.Begmatovning "Nomlar va odamlar" kitobida ism qo'yish odatlari, ismlarning tarixiy etnografik ma'nolari tushuntiriladi. Shuningdek, hozirgi zamon o'zbek tilida keng qo'llanilayotgan ismlar ro'yxati berilgan. Ushbu kitob ilmiy-ommabop tarzda yozilgan bo'lib, "Ismlar va tilsimlar", "Hurmat va zulmat", "Qizlar qismati", "Davrimiz va ismimiz" kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi. Har bir bo'limdagi nomlar boshqa turkiy xalqlardagi nomlar bilan chog'ishtirilgan.

XX asrning 70-yillarida o'zbek nomshunosligi mustaqil soha sifatida shakllanishi bilan, uning tarkibidagi antroponimika (ismshunoslik)ka oid tadqiqotlar ko'lami ham kengaydi. Shu davrdan boshlab o'zbek antroponimiyasi xilma-xil yo'nalishda o'rganiladigan bo'ldi. G.F.Blagova, A.S.Tolstova, Q.Karimov, E.Begmatov kabi olimlarning tadqiqotlari tarixiy yozma yodgorliklarda qo'llanilgan antroponimlar tahliliga bag'ishlangan bo'lsa, E.Begmatov, R.Qo'ng'urov, A.Jumayev, G'.Sattorov singari olimlarning ilmiy kuzatishlari antroponimlarning yasalishi, o'zlashma antroponimlar strukturasi, ismlarning grammatik va semantik xususiyatlari tahliliga oid edi

Endilikda umuman o'zbek onomastikasini, jumladan, antroponimikani o'rganishda ham boy tajriba to'plangan. Bular antroponimlarni ilmiy tadqiq etishning ham nazariy, ham amaliy muammolariga taalluqlidir.

Turk kishi ismlari bo'yicha bir qator yirik olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Ayni paytda, ko'plab tadqiqotchilar M.Şakir Ülkutaşir va Hamit Zübeyr Koşarsin ta'kidlaganidek, "Türk ism qo'yish an'analarining manbasi, hech shubhasiz, ko'p asrlar oldin turklarning va turk madaniyatining vatani bo'lgan O'rta Osiyodir". Aslida, bu ochiq tarixiy haqiqatdir. Umumiy madaniy boyligimiz bo'lgan dostonlar, xalq hikoyalari, shomon duolari va Oltoy, Yoqut va Bati turklariga oid etnografik, xalq og'zaki ijodiga oid tadqiqotlar buning dalilidir.<sup>1</sup>

Acıpayamlı Orhan (1992). Türk kültüründe "ad koyma folkloru"nun morfolojik ve fonksiyonel yönlerden incelenmesi" nomli tadqiqotida Turkiya madaniyatida ism qo'yish an'anali va ular bilan bog'liq ma'rosimlar, urf-odatlar haqida atroflicha ma'lumotlar beradi. Mehrali Calp o'zining "Kişi adları üzerine dilbilimsel bir çalışma" maqolasida shaxs ismlarining qo'llanilishi ham shaxs, ham jamiyat va davlat boshqaruvi nuqtayi nazaridan muhim vazifani bajarishini ta'kidlab o'tadi va quyidagi fikrlarni bildiradi: 1) ismlar shaxsning o'ziga xosligini beradi va jamiyat madaniyatini himoya qiladi; 2) u davlat boshqaruvining shaxslar bilan munosabatlarini saqlashga xizmat qiladi. Ismning ishlatilishi har bir jamiyatda bo'lgani kabi, turk jamiyatida ham, ijtimoiy, madaniy va huquqiy vazifaga ega. Bir tomondan, odamlarga o'ziga xoslik beradigan va jamiyatning boshqa a'zolari bilan turli xil ijtimoiy va madaniy aloqalarni saqlab qolish imkoniyatini beradi. Bu holat shaxslararo munosabatlarda ham, shaxslar va jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlarda identifikatsiyani ta'minlaydi. Ijtimoiy hayotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar, chalkashliklarning oldi olinadi. Turk tilidagi antroponimlar tizimini chuqur tadqiq qilgan olim, Çelik C. "İsim kültürü ve din" (2005) kitobida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Shaxs ismlari shaxsning madaniy va individual o'ziga xosligini aks ettirishdan tashqari, odamni o'ziga xos qilish orqali chalkashlik va xatoliklarning oldini oladi hamda shaxslararo munosabatlarni tartibga solidi".<sup>2</sup> Ushbu tadqiqotda turkiy nom madaniyatini ijtimoiy-madaniy o'zgarish jarayonida sotsiologik yondashuv va usul bilan tekshirishni maqsad qilingan. Ism madaniyatining tarixiy-ijtimoiy dinamikasi, ism tipologiyasi, nom berish an'anasi, dindorlik va ism munosabati kabi mavzular nazariy asosda muhokama qilingan

**Xulosa.** Inson ismlari bilan dunyo olimlari qiziqqan va tadqiqotlar olib borgan. Xususan, ingliz, fransuz, rus tilshunosligida kishi isimlarining tadqiqi bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Turkologiyada ko'pgina samarali izlanishlar olib borildi va bir qancha masalalar hal qilindi. Bugungi kunda xalqlar orasidagi ijtimoiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi natijasida antroponimlarning qiyosiy tadqiqiga doir amaliy ahamiyatga ega ishlar ko'paymoqda. O'zbek tilshunosligida o'zbek va ingliz, o'zbek va fransuz tillaridagi antroponimlar qiyosiy o'rganilgan. O'zbek kishi isimlarini turk isimlari bilan qiyosiy o'rganish o'z navbatini kutmoqda.

<sup>1</sup> Şakir Ülkutaşir. Türklarda ad verme adatleri. HBH, 1938, 194 – 99-betlar.

<sup>2</sup> Çelik C. (2005). İsim kültürü ve din. Konya, Çizgi Kitabevi.

Курбаниёзов Махсуд Алламбергенович (ҚҚДУ, ф.ф.ф.д. (PhD))  
 XIV АСР ЎЗБЕК АДАБИЁТИ ЖАНРЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ЎЗИГА ХОС  
 ХУСУСИЯТЛАРИ

**Аннотация.** Ушбу мақолада XIV аср ўзбек адабиёти жанрлари шаклланишидаги адабий-эстетик қонуниятлар, ижтимоий-сиёсий, тарихий-маданий шароит тавсифланади. Шунингдек, ўзбек адабиётида насрий жанрларнинг пайдо бўлишида ислом дини билан боғлиқ ҳикоятларнинг юзага келиши омиллари таҳлил қилинади, насрий жанрларни бир-биридан фарқловчи жиҳатлар аниқ далиллар ёрдамида аниқланади.

**Аннотация.** В данной статье описываются литературно-эстетические закономерности, социально-политические и историко-культурные условия формирования жанров узбекской литературы XIV века. Также анализируются факторы, обусловившие появление в узбекской литературе жанров прозы, рассказов, связанных с исламом, и с помощью конкретных доказательств проводится различие жанров прозы друг от друга.

**Annotation.** This article describes the literary and aesthetic patterns, socio-political, historical and cultural conditions for the formation of the genres of Uzbek literature of the 14<sup>th</sup> century. It also analyzes the factors that led to the emergence of genres of prose, stories related to Islam in Uzbek literature, and with the help of specific evidence, a distinction is made between genres of prose from each other.

**Калит сўзлар:** ўзбек адабиёти тарихи, агиография, ҳикоя, ҳикоят, «Қисаси Рабғузий», Олтин Ўрда адабий муҳити.

**Ключевые слова:** история узбекской литературы, агиография, повесть, повествование, «Кисаси Рабғузий», литературная среда Золотой Орды.

**Key words:** history of Uzbek literature, agiography, story, narrative, “Qisasi Rabguziy”, literary environment of the Golden Horde.

Жаҳон адабиётшунослигида Олтин Ўрда адабий муҳитида юзага келган туркий тилдаги илк адабий-тарихий ёдгорликлар, хусусан, агиографик асарларни илмий-назарий асосда тадқиқ этиш ҳамиша долзарб вазифалардан бири ҳисобланган. Пайғамбарларнинг ҳикоялари, шайх-валийлар ҳақида битилган асарларни, наинки, тарихий аспектда ўрганиш ёки шарҳлаш, балки уларнинг ўзбек адабиёти тарихида бадиий асар сифатида тутган мавқеи ва умумжаҳон эстетик тафаккурига таъсирини кўрсатиш, адабий жанрларнинг агиографик мазмундаги адабий меросимиз намуналари таркибидаги роли ва вазифасини аниқлаш долзарб аҳамият касб этади.

«Агиография» термини маъносига эътибор қаратилса, агиографик асарлар фақат христианлик ва ислом даври адабиёти маҳсули эмас, балки бошқа динлар таъсирида юзага келган асарларга ҳам тегишли бўлиб, ҳар бир диний оқим маълум бир ўлкада ўз мавқеини мустаҳкамлаб, омма орасига кириб ёйилиб боради, авлиёларнинг ҳаётига оид ҳар хил нақлларни пайдо қилади, диний-фалсафий оқимлар маданий жараёнга, ижтимоий ҳаётга ўз таъсирини ўтказади. Далил сифатида «Основы духовной культуры» (энциклопедический словарь педагога) луғатидан «Агиография» терминига берилган изоҳнинг қисқача мазмуни билан танишайлик:

«Агиография – авлиёларнинг ҳаёти ҳақидаги қиссалар, муқаддасликнинг илоҳий, маданий, психологик, ижтимоий ва тарихий жиҳатларини ўрганиш билан шуғулланадиган фан... Авлиёларнинг ҳаётига оид воқеалар бадиий асарлар сифатида қаралади, чунки бу асарлар маълум адабий қонунлар бўйича ёзилиб, ўз типологиясига, тузилишига, илгари сурган масалаларига эга».<sup>1</sup> Демак, агиографик асарларни бадиий асарлар сифатида ўрганиш ўзини оқлайди.

Ўзбек адабиётида ва ўзбек ислом манбашунослигида агиографик асарларга кейинги йилларда алоҳида эътибор берилган бошланди. Агиографик манбаларнинг ўзбек адабиётшунослиги ва манбашунослигидаги ўрни ҳақида профессор Н.Комилов, профессор У.Уватов ва тарих фанлари доктори И.Остонақуловларнинг олиб борган тадқиқотлари алоҳида аҳамиятга эга. И.Остонақулов XVIII асрда яшаган Муҳаммад Сиддиқ Рушдийнинг «Тазкират ул-авлиё» асарини махсус тадқиқ этиб, ноёб агиографик асар сифатида илм аҳлига тақдим этди. У агиографик асарларнинг етакчи мақсади ҳақида сўз юритар экан, буюк инсонлар риёзат билан эгаллаган маънавий ҳол ва мақом

<sup>1</sup> <http://cult-lib.ru/doc/dictionary/spiritual-culture/fc/slovar-192-1.htm#zag-26>

орқали инсон нафсини тарбиялашдан иборатлигини алоҳида таъкидлайди.<sup>1</sup> Буюк мутасаввифларнинг агиография жанридаги асарлари ва бу асарларнинг маънавий жараёнга қўшган ҳиссаси ҳақида бошқа кўплаб тадқиқотлар яратилган. Жумладан, Хожа Муҳаммад Порсо (вафоти 1419 йил)нинг «Рисалаи қудсийа» («Муқаддас рисола»), «Фасл ул-хитоб» («Тушунарли нутқ»), «Таҳқиқат» («Ҳақиқатни излаш»), «Силсилаи тариқи ходжаган» («Хожагон тариқати силсиласи») асарлари сингари XIV–XV асрларда Марказий Осиёдаги агиографик асарларнинг мазмуни, мундарижаси ҳақида алоҳида ишлар мавжуд.<sup>2</sup>

Биз XIV аср ўзбек адабиётига нисбатан юқорида «Олтин Ўрда адабиёти» деган номни ишлатдик. Бу ном остидаги адабий ҳодисага қараш XX асрнинг биринчи чорагида пайдо бўлган эди. «Олтин Ўрда адабиёти» терминини ўзбек адабиётшунослигига биринчи бўлиб Миён Бузрук олиб кирган.<sup>3</sup> Аммо Олтин Ўрда адабиётининг ўзига хос жиҳатлари, ўзбек маданияти ва адабиёти тарихида ўйнаган роли, бу давр адабиётининг омиллари проф. Н.Раҳмоновнинг «Ўзбек адабиёти тарихи» қўлланмасида батафсил ёритиб берилган. Н.Раҳмонов бу давр адабиётини қуйидагича таърифлайди: «Олтин Ўрда давлати ўзбек адабиёти ривожига алоҳида босқичга замин ясади. Бу давр адабиёти ўзидан олдинги ва кейинги давр адабиётини, асло, тақрорламаган, аксинча, ўз қиёфасига, мазмун-моҳиятига, мавқеига эга бўлган адабиётдир. Олтин Ўрда давлатидаги ижтимоий, сиёсий ҳаёт маданий ҳаётнинг тубдан янгиланишига, ўзига хослик касб этишига хизмат қилди. Ўрта Осиёдаги маданий ва адабий ҳаёт Олтин Ўрдага кўчди».<sup>4</sup> Олтин Ўрда давлатидаги умумий маданий ҳаёт, исломнинг бу давлатда қабул қилиниши ҳақида Б.Греков ва А.Якубовскийнинг «Олтин Ўрда ва унинг қулаши» номли китобида батафсил маълумот берилган.<sup>5</sup> Албатта, Олтин Ўрдада Беркахон раҳнамолигида исломнинг олиб кирилиши натижасида нафақат маданий, ижтимоий ҳаёт ўзгарди, балки адабий ҳаётда ҳам силжишлар юз бериб, ўзига хослик касб этди. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, Олтин Ўрдада адабий жараённинг юзага келиши учун фақат Ўрта Осиёдаги адабий муҳитнинг ўзигина асос бўлиб қолмади, балки Олтин Ўрданинг Миср мамлуклар давлати, Мўғулистон, Эронда Халокухон асос солган мўғул элхонийлар сулоласи билан алоқалари ҳам сабаб бўлгани эҳтимолдан узоқ эмас. Шунингдек, Жўжининг ўғиллари тақсимлаб олган ўлкаларда Шайбонга (1224–1659) тегишли бўлган ҳудуд бу жиҳатдан алоҳида аҳамиятга эга эди. Бу ҳудуддаги ўзбек деб ном олган қавм у ердан кўчиб, охири Хива ва Бухоро хонлари бўлдилар.<sup>6</sup>

Дашти Қипчоқ, қолаверса, Олтин Ўрда давлатининг йўли Мўғулистон пойтахти Қорақурум шаҳрига Чиғатой улуси орқали ўтгани ва бу ўлкадаги адабий муҳитга таъсир этганини тасаввур қилиш мумкин. Айниқса, исломнинг Олтин Ўрда давлати ҳудудига, шунингдек, мўғул Элхонийлар сулоласига кучли таъсири адабий жараёнга ҳам ўз таъсирини ўтказди. Зотан, Олтин Ўрдада Боту ҳукмронлик қилаётган паллада (1256–1258 йилларда) Эрон тамомила бу давлатга бўйсундирилди. Айни пайтда, Олтин Ўрда Миср мамлуклар давлати билан ҳам дипломатик алоқалар ўрнатган эди. Мана шу сиёсий жараёнлар адабий жараёнга таъсир этмаслиги мумкин эмас эди. Бунинг мисоли сифатида мўғул элхонийлар сулоласида яшаб ижод қилган, айни пайтда, бош вазир ва табиб лавозимида ҳам хизмат қилган Рашидиддин Фазлуллоҳ Ҳамадонийнинг уч жилддан иборат «Жомеъ ут-таворих» асарини келтириш мумкин.<sup>7</sup>

Асарнинг биз учун диққатга сазовор томони шундаки, унинг ҳар учала жилдида Чингизхон ўғилларининг ва набираларининг ҳаётига оид кўплаб ҳикоятлар бор. Айниқса, Угадайхонга оид ҳикоятлар кўп бўлиб, бу ҳукмдорнинг кўп кирралари – ерли аҳолига хайрихоҳ ва шафқатли муно-

<sup>1</sup> Остонакулов И. Муҳаммад Сиддиқ Рушдий «Тазкират ул-авлиё» асарининг шарқ агиографик манбаларини ўрганишдаги аҳамияти. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати, Т., 2014, 5-бет.

<sup>2</sup> Тулибаева Ж.М. Духовная культура народов центральной Азии. Агиографические сочинения, Сборник материалов, «Фундаментальные и инновационные проблемы востоковедного образования и науки», Алматы, 2011, с. 67 – 69.

<sup>3</sup> Миён Бузрук. Ўрта Осиё ва ўзбек адабиёти тарихига умумий қараш. Тошкент, Ўзнашр, 1930, 60–62-бетлар.

<sup>4</sup> Rahmbov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, “Sano-standart”, 2017, 224-bet.

<sup>5</sup> Б.Греков, А.Якубовский. Олтин Ўрда ва унинг қулаши. Ўзбекчага таржима. Т., ЎзССР Ўқув-педагогика нашриёти, 69-бет.

<sup>6</sup> Стэнли Лэнь-Пуль. Мусульманские династии. Москва – Ташкент – Бишкек. Международное издательство «Туркестан», 1996, с. 448.

<sup>7</sup> Рашид-ад-дин. Сборник летописей, том I. Изд. АН СССР, М.–Л., 1952; Рашид-ад-дин. Сборник летописей, том II. Изд. АН СССР, М.–Л., 1960; Рашид-ад-дин. Сборник летописей, том I. Изд. АН СССР, М.–Л., 194-6.

сабати, айна пайтда, ёлгончи, хушомадгўй, ўғри ва талончиларга шафқатсизлиги шу ҳикоятларда аниқ ўз ифодасини топган. Рашидиддин ҳикоятларни келтирар экан, асосан, Угадайхоннинг шахсий фазилатларига диққат қаратади. Зотан, Угадайхон тахт вориси, ҳамма укалари ва чингизийлар унинг амру фармонларига итоат этишлари шарт. Ҳикоятларнинг айримларида Угадайхоннинг ҳукмдорлик фаолияти, хоқон сифатидаги қирралари, давлатни бошқариш жараёнида сарой аъёнларига ва халққа турли муносабатлари тилга олинган бўлса, баъзи ҳикоятларда унинг бағрикенг, инсониятга меҳрибон инсон бўлганига ҳам ишора қилинади. Мана, бир ҳикоят:

*Бир одам хонга форсларнинг бош кийимини олиб келибди. Хон ширакайф экан, уни икки юз балиш пул билан мукофотлабди. Хон аъёнлари ёрлиқ қозонини ўша одамга берибдилар, аммо муҳр қўйишни орқага сураверибдилар. Улар: «Эҳтимол, хон жаноби олийлари сархушликда фармон бериб юборган бўлишлари мумкин», деб хавотирланаётган эканлар. Хон эртаси куни ўша одамни саройда юрганини кўриб қолибди. Хон аъёнлари ўша одамга бериладиган ёрлиқ қозони ҳақида сўзлабдилар. Хон, уч юз балишга ёрлиқ беринглар, деб буюрибди. Аммо хазинадан пул беришни яна орқага сураверибдилар. То пул миқдори олти юз балишга етмагунча, хон ҳар куни юз балишдан қўшаверибди. Охири, хон амирларини ва битикчиларини чақириб, уларга қўйидаги саволни берибди: «Бу оламда бирон нарса абадий қоладими ёки йўқми?» Ҳаммалари бир овоздан «Йўқ!» деб жавоб берибдилар. Шунда хон соҳиб Ялавочга юз буриб, айтибди: «Бу – хато, донги кетган ном ва яхши хотира абадий қолади». Котибларга қараб, айтибди: «Менинг ашаддий душманларим сизларсиз, чунки сизлар мендан яхши ном ва яхши хотира қолишини истамайсизлар. Сизлар ўйладиларингизки, хон сархуш бўлгани учун шунча пулни бериб юборяпти деб. Сизлар эса бу қилингиз билан (мен билан халқ ўртасида) гов яратдингиз, муҳтож одамни ушлаб ўтиравердингиз. Энди бошқаларга намуна бўлсин деб, бирингиз бошқангиздан қилмишларингиз учун қасос олмас экансиз, фойдаси йўқ».<sup>1</sup>*

Шу ўринда, *ҳикоят* ва *ҳикоя* терминларига тўхталиб, уларнинг фарқли жиҳатларини қисқа ёритиш эҳтиёжи борлиги маълум бўлади. Зотан, мумтоз адабиётдаги ҳикоят жанрининг шаклланиш тамойиллари ва жанр сифатидаги ўзига хослиги назарий жиҳатдан ҳали жиддий ишланган эмас.

*Ҳикоят* – кўҳна адабий жанрлардан бири бўлиб, ҳажман кичик, маълум тарихий ёки тўқима қаҳрамоннинг бирон қиррасини баён қилишни мақсад қилиб олган, катта ижтимоий мазмун ифодасига эга бўлган адабий жанрдир. Аксарият ҳолларда ахлоқий-таълимий, ижтимоий мазмундаги воқеалар ҳикоятнинг объекти бўлиб, ўз даврининг маънавий юксалишига хизмат қилади.

*Ҳикоя* кичик эпик жанр бўлиб, қаҳрамоннинг ҳаётидаги битта ёки бир неча воқеа тасвирланади. Баъзан бу жанрда ҳикоячи образи ҳам иштирок этади. Мумтоз адабиётдаги ҳикоятга нисбатан ҳажман катта бўлиб, композицион жиҳатдан воқеаларнинг кенгайтирилган шакли, воқеалар баёни ҳам давомли бўлади, сюжетнинг барча қисмлари амал қилади. Ҳикоя жанри бўйича адабиётшуносликда кўп тадқиқотлар бор.

Олтин Ўрда адабий муҳида яратилган асарлар билан юқорида биз айтиб ўтган ўлкаларда туркий тилда яратилган асарларнинг тилида яқинлик ёки умумийлик шундан далолат беради. Жумладан, XIV асрда Олтин Ўрда ва Миср мамлуклар давлатида яратилган асарларнинг тил хусусиятларига эътибор берилса, бизнинг даъвомизни яққол кўриш мумкин. Олтин Ўрда адабий муҳида яратилган «Қисаси Рабғузий», «Наҳжул-фародис» ва Қутбнинг «Хусрав ва Ширин» асарларининг тил хусусиятлари билан Миср мамлуклар давлатидаги бадий асарларнинг тилидаги, хусусан, Сайфи Саройининг Мисрда яратилган «Гулистони бит-туркий» асари тилидаги яқинлик бу фикримизга далилдир. Қолаверса, бу икки ўлкада яратилган асарларнинг бир лингвистик қонуниятга таянгани ҳам фикримизни исботлайди.

Олтин Ўрда ва Миср мамлуклар давлатида яратилган Қутбнинг «Хусрав ва Ширин», Рабғузийнинг «Қисаси Рабғузий», Маҳмуд Али ибн ас-Саройининг «Наҳжул-фародис», туркий «Тафсир», «Сирож ул-қулуб» каби асарлар туркий тилларнинг «d-z» гуруҳига мансуб. Бу асарларни ана шу умумий туркий тил бирлаштиради. Фақат «Жомеъ ут-таворих» Олтин Ўрдадан ташқарида, форс адабий муҳида яратилган бўлса ҳам, Эроннинг тамомила Олтин Ўрдага бўйсундирилиши натижасида маданий ва сиёсий алоқалар шаклланиши ва адабий жараёнга ҳам маълум даражада таъсир этгани шубҳасиз. Элхонийлар сулоласининг Олтин Ўрдага тобе қилинган даври (1256 – 1258) ва «Жомеъ ут-таворих» Элхонийларнинг Олтин Ўрдага тобе қилингандан кейин ёзилгани

<sup>1</sup> Rahmbov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, “Sano-standart”, 2017, 298-bet.

(1310–1311 йиллар)га эътибор берилса, бу асарнинг Олтин Ўрда адабий муҳитига таъсири бўлганини тасаввур қилиш қийин эмас. Қолаверса, Олтин Ўрда адабий муҳитининг маҳсули бўлган «Қисаси Рабғузий» асарига, жумладан, хикоятларига Абу Исҳоқ Нишопурийнинг «Қисасул анбиё» ва Ваҳоб ибн Мунаббихнинг «Каъб ул-ахбор» асарлари таъсирини ҳам инобатга олсак, академик Н.И.Конрад ҳақли равишда таъкидлаганидай, бегона адабиётга мансуб бирор асар ижодкорнинг эътиборини ўз адабиётига нисбатан кўпроқ жалб қилиши мумкин.<sup>1</sup>

Хуллас, туркий халқларда агиографик асарларнинг илдизи анча қадимий бўлгани маълум. Агиографик асарлар нафақат пайгамбарлар тарихини ёритишни мақсад қилиб қўйди, балки янгича шаклдаги ва мазмундаги адабиётни юзага келтирди.

**Sadullayeva Mohira (assistant, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti)**  
**LUQMON BO‘RIXONNING QISSALARI BADIYATI**

**Аннотация.** *Ushbu maqolada bugungi o‘zbek nasrining ko‘zga ko‘ringan ijodkorlaridan biri Luqmon Bo‘rixon va uning o‘ziga xos uslubi, badiiy mahorati, obraz va xarakter yaratishdagi an’anaviy va novatorona yondashshishi kabi masalalar muallif qalamiga mansub “Sirli muallim” qissasi misolida ochib berildi. Inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabat, qahramon ruhiyati bilan jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat va dunyoqarashlari bir-biriga zid obrazlar, xarakterlar konflikti kabi masalalar asardagi obrazlar misolida tahlilga tortildi. Qissa ifodalangan davrda insonlarning, kasb egalari, o‘qituvchilarning qadr-qimmatiga bo‘lgan munosabat, shuningdek, muhitning buzilgan shunday bir davrida Najot G‘aybulladek najotkorlar asqotishi, bunday jonkuyar insonlarga bashariyat hamma davrda ham muhtojdir shaklidagi xulosalar ifodalangan.*

**Аннотация.** *В данной статье на примере одного произведения раскрыто творчество Лукмана Борихона, одного из видных творцов узбекской прозы, его неповторимый стиль, художественное мастерство, традиционный и новаторский подход к созданию образа и характера, написанного автором книги «Таинственный учитель». На примере героев произведения анализировались такие вопросы, как взаимоотношения человека и общества, конфликт между психикой героя и обществом, персонажи с противоречивыми мировоззрениями, конфликты характеров. В период, в котором представлена история отношения к достоинству людей, профессионалов, учителей, возникает потребность в спасителях, таких, как Наджот Гайбулла, в период, когда нарушена окружающая среда, читатель приходит к выводу о том, что человечеству нужны во все времена такие страстные люди.*

**Annotation.** *In this article, Luqman Borikhon, one of the prominent creators of Uzbek prose, and his unique style, artistic skills, traditional and innovative approach to image and character creation, written by the author “Mysterious Teacher” was revealed on the example of the story. Issues such as the relationship between man and society, the conflict between the psyche of the hero and the society, characters with conflicting worldviews, character conflicts were analyzed using the examples of the characters in the work. In the period in which the story is presented, the attitude towards the dignity of people, professionals, teachers, as well as the need for saviors like Najot Ghaibulla in such a time of disturbed environment and the conclusion that humanity needs such passionate people at all times are expressed.*

**Kalit so‘zlar:** *mazmun, shakl, o‘ziga xoslik, badiiy mahorat, ijodkor uslubi, ijodkor mahorati, qissa, janr, ijodkor dunyoqarashi, ruhiyat tahlili, xarakter, tasvir yo‘sini, ifoda yo‘sini, ma‘no, obraz, so‘z badiiyati, qissachilik, xarakter konlifkti.*

**Ключевые слова:** *содержание, форма, оригинальность, художественное мастерство, творческий стиль, творческое мастерство, рассказ, жанр, творческое мировоззрение, психологический анализ, персонаж, способ изображения, способ выражения, смысл, образ, искусство слова, повествование, конфликт персонажей.*

**Key words:** *content, form, originality, artistic skill, creative style, creative skill, story, genre, creative outlook, psychological analysis, character, way of image, way of expression, meaning, image, word art, storytelling, character conflict.*

Istiqolol sharofati bilan yurtimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi, adabiyotimizda ham bir qator o‘zgarishlar ro‘y berdi. Mazmun va shakldagi yangilanishlardan tashqari, badiiy so‘z, so‘z san’ati, ijod

<sup>1</sup> Конрад Н.И. Избранные труды. Литература и театр. М., “Наука”, 1978, с. 29.

sohasi ham o'ziga xos qirralari bilan namoyon bo'ldi. "Adabiyot – so'z san'ati, azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi.

Shu ma'noda, bugungi o'zbek nasrining ko'zga ko'ringan ijodkorlaridan biri Luqmon Bo'rixon ham o'z uslubiga ega yozuvchi. Davrning muhim qirralarini o'z asarlarida ifoda etib qolmasdan, obraz va xarakter yaratishdagi an'anaviy va novatorona yondashishi adib mahoratini belgilovchi omildir. Qissachilikda sezilarli darajada yutuqlarga erishgan muallifning "Sirli muallim" qissasi keng kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan. Gegel aytganidek, "hayotni badiiy idrok etishda voqelikning mag'zi nasriy asarlar asosini tashkil etadi. Bunda odamlar ruhiyati bilan jamiyat psixologiyasini vobasta, anglash, ko'rsatish va ifodalash adib badiiyatini belgilab beradi".<sup>1</sup>

Buxoriy bundan o'n ikki asr oldin "dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay" degan edi. Hamma zamonlarda ham o'z davrining najotkorlari, ya'ni muallimlari bo'ladi. Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan "Sirli muallim" qissasi qahramoni Najot G'aybulli ham chin ma'noda "Najotkor" edi. Inson va jamiyat o'rtasidagi munosabat, qahramon ruhiyati bilan jamiyat o'rtasidagi ziddiyat va dunyoqarashlari bir-biriga zid obrazlar asarda o'z in'ikosini ko'rsatgan.

"Najot G'aybulli deganlari haqidagi mish-mish bizning tahririyatga ham yetib keldi" tarzida boshlanuvchi qissada o'zining "boshqachaligi" bilan "eski"laridan ajralib turadigan bu muallim go'yo zamon-ga, jamiyatga yordam qo'lini cho'zgan, botqoqdan sudrab chiqish uchun bir najotdek paydo bo'lgan shaxsdek edi. Asar bir jurnalisting o'ylari va "Shunqor Hobilning qutqusiga uchib Umrzoq O'roq haqida ocherk bitish ilinjida o'sha ovloq posyolkaga borib kelgan"idan boshlanadi. Ya'ni, o'sha Umrzoq O'roq o'qigan maktabga borib, u haqida ma'lumot to'plamoqchi bo'ladi. Jurnalist, shunday qilib, mas'ul xodim bilan birgalikda "hayotdek maydonda qo'r to'kib turgan o'quv binosi anchayin ta'mirtalab bo'lsa-da, fayzli va shinamgina ko'rinadi. Imorat peshtoqida issig'-u sovuqdan rangi uniqqan bayroq mag'rur hilpirab turibdi. Hovlidagi daraxt shox-butloqlarida chumchuqlar chug'urlashadi" tarzda tasvirlangan maktabga borishadi.<sup>2</sup> Ularni quloq ochib, o'sha maktabning "qalqoni" bo'lmish maktab direktori muallim Qalqonov kutib oladi.

Asarda maktabning ta'mirtalab bo'lishiga qaramasdan, qandaydir bir fayzli maskan ekanligi ta'kidlanadi. Zero, Behbudiy aytganidek: "Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondirki, maktab – taraqqiyotning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasi".<sup>3</sup> Shuning uchun ham bunday dargohlar muqaddas, nurli bo'ladi. Xullas, mas'ul xodim, jurnalistga byustni ko'rsatmoqchi bo'ladi, ammo unadn nom-nishon yo'q edi. Shu zaylda, "kalla"ni qandaydir bir "qaroqchi" olganini aytadi maktab direktori. Yodgorlikni uchastkadagilar ham topib berishni istamaydilar nozirlar aytgan o'sha "kalla" maktabning faxri edi, ammo ular o'z "kalla"larini bunday "ishlar" bilan og'ritishni istamaydilar.

Jurnalist boshqa masala bo'yicha ma'lumot to'plash uchun yana o'sha maktabga qaytadi. Bu o'sha asardagi "sirli muallim"ning ustidan ochilgan jinoiy ish haqida edi. U mahkamaga boradi va maktabda ishlovchi beshta kishining "tushuntirish xat"larini o'qib chiqadi va guvohi bo'ladiki, bir-birlariga tamomila o'xshamaydigan, qarama-qarshi fikrlarni, xarakterlar ziddiyatini, shuningdek, maktab va undagi muhitni, illatlarni, "Sirli muallim"ga bo'lgan munosabatni va uning o'ziga xos muallimligi, dars o'tish jarayoni, saxovatligi, tavozeligi va boshqa kabilar. O'sha tushuntirish xatlar butun asarning asosiy sujetini tashkil qiladi. Misol uchun, dastavval, maktab direktori Q.Qalqonov tushuntirish xatini yozadi: "Suyagim maktabda qotdi. Yigirma yoshimdan beri muallimlik qilaman. Bolalarning qiy-chuvini eshitib turmasam, boshim og'riydigan bo'lib qolgan. Bir paytlar jomadon ko'tarib o'qishga otlangan chog'im uchuvchilikni orzu qilganman..."<sup>4</sup> Direktorning xatida oltinchi sinf bolalarining qaysidir birisi prokuror, yana qaysinidir mafiya bo'lishni orzu qilayotgani, ammo muallimlikdan hamma hazar qilishi ko'rsatib o'tiladi. Hatto bitta bolaga qandaydir "mafiya" emas, katta muallim bo'lasan, degani uchun direktor bolaning onasidan yaxshigina qarg'ish ham eshitadi. Bu holat hikoya tasvirlangan davrda muallimlarga bo'lgan munosabatning ifodasi edi. "Yo'q, men nolimayman, men yig'lamayman. Allaqanday sintimental kayfiyat bizga yot. Mingta mohigullar ayuhannos solib, shang'illab kelishsa-da, kasbimga bo'lgan mehrimni so'ndirolmaydi. Ha, men o'qituvchiman, muallimman, bu kasbim bilan faxrlanaman! Qolaversa, necha bir mohigullar haqorat deb biladigan, necha bir to'ralar mensimay qaraydigan xizmatda bo'lishning o'zi jasorat-ku?! Lekin quvonchli kunlarimiz ham ko'p. O'qituvchi o'z mehnatining mevasini ko'rganda o'n yoshga yasharadi,

<sup>1</sup> Гегель. Сочинения. М., Худож.лит., 1958, Т., с. 153.

<sup>2</sup> Luqmon Bo'rixon. Titrayotgan tog'. Toshkent, 2018, 205-bet.

<sup>3</sup> M.Behbudiy. Muhtaram yoshlarga murojaat. "Oyna" jurnali, 1914, 41-son, 970 – 972-betlar.

<sup>4</sup> Luqmon Bo'rixon. Shu manba. 208-bet.



balqiydi. «Mehnatning mevasi» deganda, hoynahoy, uch-to‘rt oyda arang qo‘lga yetib keladigan maoshni o‘ylasangiz, adashasiz. Muallim mehnatining mevasi – bu tirishqoq, omadli o‘quvchilar!” Qalqonovning xatida keltirilgan ushbu so‘zlar oddiygina, shunchaki jo‘n iboralar emas, butun bir muallimning dardi, tashvishi, shaxsiyatining ifodasi hamdir. Qalqonov xati mobaynida “sirli” kelgan muallim va uni qanday ishga olganligi haqida so‘zlab beradi. “Haligi Hollivudmi-ey, Gollivudmi-ey, degan joylarning kinoartistlariga o‘xshaydi”gan bu muallim favqulodda burilishlar qilishi bilan hammaning aqlini o‘g‘irlab, shoshirib qo‘yadi. Luqmon Bo‘rixon aynan shu bilan asarda yoritilgan zamon odamlarining yangiliklarni qanday qarshi olishlarini tasvirlab beradi. Qalqonov ishonqiramay muallimni jug‘rofiya fanidan ishga oladi. Lekin direktorning qalbi qandaydir yorishganday bo‘ladi. Chunki bu yosh, chiroyli, oliy ma‘lumotli o‘qituvchi Rayhon muallimadan ancha yaxshi ko‘rinadi.

Direktorga nafaqat, uning ust-boshi, balki ism-familiyasi ham g‘alati ko‘rinadi. Ya‘ni, Najot G‘aybulla hamma qatori familiyalarining oxirida bo‘ladigan -ov, -ev, kabi qo‘shimchalar bo‘lmaydi. Bu o‘ziga xoslik ham asarda qahramonlar tomonidan noodatiy tarzda qabul qilinadi. “Ha, zo‘r kadrli bo‘ldik degan xayolda edim. Najot G‘aybulla bir hafta ichidayoq o‘quvchilarning ko‘ngliga kirdi. O‘qituvchilar jamoasi unga havasmand qarashardi. Yangi muallimni ko‘ringanga maqtab yurardik. Oqibati bunday bo‘lishini qaydan bilibman?!” Qalqonov xati so‘ngida aytilgan ushbu so‘zlar kitobxonni asarga bo‘lgan qiziqishini yanada orttiradi.

Shu zaylda kitobxon turli savollar og‘ushida bo‘layotganda, Ulash agronom-shoirning “tushuntirish xati” fikrlarimizni keskin burilishiga sabab bo‘ladi. “Uzr, «Portveyn» vinosidan qog‘ozga ikki tomchigina tomib ketdi. Meni tanisangiz kerak-a? Shu sovxozning atoqli shoiriman. Yozganlarimning xatosi bo‘lsa, kechiring, rezinka bilan o‘chiring. A, qalay? Hurmatli tergovchi, bir necha kundan beri maktabimizga qatnab yurganingizdan xabarim bor. Tashrifingizning sabablari ham kaminaga ma‘lum. Shu nuqtai nazardan olib qaragam, haqiqat qaror topishiga hissa qo‘shishni o‘z sharaflari burchim deb bilaman. Hoynahoy, kaminaning kamtarin qoralamasi bir guruh muttaham muallimlarning tushuntirish xatlari orasiga qanday tushib qolganiga qiziqayotgan bo‘lsangiz kerak. E, sira so‘ramang, bu ham bir tashvish, yuz gramm oqiga chiqimdor bo‘ldik. Ertalab maktabga keldim-u, Qalqonov muallimga jindek-jindek quyib berib, gapga ovuntirib, yozuv stoli ustiga taxlab qo‘yilgan. Tushuntirish xatlari orasiga o‘zimizni tiqishtirib qo‘ydim. Es-dardi ichkilikda bo‘lgan direktor sezmay qoldi. Ishonchim komilki, bitiklarim sizning muborak qo‘lingizga yetib boradi”. Bu qahramon tilidan aytilgan parchada biz unda ikkiyuzlamachilik, ichkilikbozlik kabi illatlar borligini anglab yetamiz. “Ko‘ylagi ko‘ylakmas bir parcha latta, kesib tashlangan tizzadan shartta, oppoq bilak, oppoq boldirlar, yuraklarga qutqu soldilar...”

Qalqonov bilan uchratib qolgan rus juvoni haqida ta‘riflar ekan, “shoir” shunday qofiya tuzadi va bu bilan maktabdagi muhit, Qalqonovning jirkanch ishlarini, ayrim muallimlarning kirdikorlarini ochishga urinadi: “Qalqonov muallimga o‘xshaganlar esa och qornim tinch qulog‘im qabilida ish yuritadi. Shuning kasridan o‘quv ishlari o‘rta sarson. Ana shunday payt Najot G‘aybullaga o‘xshaganlarning kuni tug‘adi. Jamoa orasiga suqilib kirib bilgan noma‘qulchiligini qiladi. O‘rtoq tergovchi, Qalqonov va uning hamtovoqlari, albatta, sizga o‘zlarini oppoq ko‘rsatib yozib berishlari tayin. Ammo men garantiya berib aytamanki, ishkal ishga shular yuz foiz aybdor”.

Yozuvchi Ulash agronom tilidan aytilgan ushbu so‘zlarni ayrim nosog‘lom insonlar tomonidan muallimlarning sha‘niga, maktabga aytgan noma‘qul ig‘vo demoqchiday bo‘ladi. Quyidagi parchada “Sirli muallim”ning siri ochiladi va o‘z aybiga iqror bo‘ladi: “–Ha, mening diplomim qalbaki, deya gap boshladi u o‘ychan qiyofada – Men bu haqda hech kimga aytolmasdim. Avvalgi ish joyimda vijdonim qiynalib sirimni direktorga ochib qo‘ygandim. Balki meni tushinar degan xayolda edim. Yo‘q, ayuhannos solib ishdan quvib yuborishdi. Lekin men lekin men maktabsiz turolmayman, bolalarsiz yashay olmayman. Bilaman, ishonmaysiz, ammo haqiqat shunday. Bolalar kulgusining jarangidan zavq olaman, ularni ko‘zlari, so‘zlari beg‘ubor. Ilmdan bolalargina hayratlanishadi. Murg‘ak ongiga, o‘y-xayoliga kirib kelgan o‘zgina yangilik ham jajjilarni chinakamiga quvontiradi, chinakamiga hayajonlantiradi. Ularning sevinchiga, hayratiga hayrat qo‘shishdan-da ortiq qanday baxt bor? Bolalarning beg‘ubor qalbida yangidanyangi dunyo ochuvchi ko‘ngliga iml sehrini soluvchi inson – bu muallim. Shu sabab bu qutlug‘ kasb mening eshushimni o‘g‘rilagan. Shu sabab o‘qituvchilar safiga intildim. Afsuski, hech omadim yurishmadi. Uch-to‘rt karra pedinstitut ostonasidan qaytdim. Boshqa soha bo‘yicha o‘qishga majbur bo‘ldim. Lekin, bari, muallimlikning sehrli dunyosi meni chorlayverdi, oxiri, qalbaki diplomga kunim qoldi”. Asar sujetida boshlangan tugunning yechimi, rivojlangan pallasi ham aynan shu qismi edi. Muallimlikni jon dildan yaxshi ko‘radigan, o‘quvchilar hayotida yangilikka intilgan insonning yurak nolasi edi bu, go‘yo.

Asar xotimasida turli xil "tushuntirish xat"larni o'qib chiqqan jurnalistning o'y-u xayollari shunday tasvirlanadi: "Poytaxtga qaytdim. Butun shuurimni g'alati bir kayfiyat chulg'ab olgan edi. Najot G'aybulla qaytadi, deb o'ylardim nafasimni issiqroq qilib. –Hujjatlarini to'g'rilab, albatta, qaytadi. Axir, u bolalarsiz, bolalar shunday muallimsiz yashayolmaydi! –Men avtobus o'rindig'iga yastanib, horg'in ko'z yumdim".

Umuman, qissada ishtirok etayotgan qahramonlarning qarashlari, fikrlari tamomila bir-biriga zid, ular orasida turg'unlik yo'q, ya'ni, yozuvchi qaysidir obrazni salbiy yoki ijobiy qilib ko'rsatishni maqsad qilmagan, balki ularning kamchilik va nuqsonlarini ortirmay hamda kamitmay ifodalaydi. Luqmon Bo'rixonning ushbu qissasi aynan ana shu jihati bilan e'tiborli. Adib asar ifodalangan davrda insonlarning, kasb egalari, o'qituvchilarning qadr-qimmatiga bo'lgan munosabatni tasvirlamoqchi bo'lgan. Muhitning buzilgan shunday bir davrida Najot G'aybulladek najotkorlar asqotishi, vaholanki, bunday jonkuyar insonlar, bashariyatga hamma davrda ham muhtojdir degan mazmunni singdirishga urugandek tuyuladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, keyingi yillar o'zbek adabiyotshunosligida badiiy asarlarni saralash va ularning ijodiy jarayondagi o'rnini belgilashda badiiylik tamoyillariga e'tibor ancha kuchayib bormoqda. Badiiylik ijodkorning voqelikni o'ziga xos tarzda kashf etish, sujet tanlash, obraz yaratish, teran, original fikrlash kabi omillar bilan bog'liq bo'lib, bularning barchasi yozuvchining individual uslubida va iqtidorida namoyon bo'ladi. "Biror badiiy asarning tasvir nozikligini, badiiyati o'ziga xosligini, obrazlar sistemasini to'g'ri tushunmoq, tili jozibasini his etmoq uchun shu asar yaratilgan davr badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni bilish kerak bo'ladi. Chunki chinakam badiiy hodisa o'zi aks ettirgan davrdan ham, o'zi yaratilgan vaqtdan ham uzoqroq yashaydi va zamonga nisbatan turg'unroq, konservativroq bo'ladi". Darhaqiqat, badiiy mukammal yaratilgan asarlar umrboqiy, qadr-qimmatlidir. Shu jihatdan, o'ylaymizki, Luqmon Bo'rixon asarlari ham ana shunday asarlar sirasidan o'rin oladi.

**Shodiyev Sherzod Shomamatovich (Navoiy davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti)  
O'QUVCHILARNING IJODIY KOMPETENSIYALARINI IJODKORLIK MEZONLARI  
ASOSIDA BAHOLASH**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining ijodiy kompetensiyalarini baholash mezonlari tahlili asosida ijodiy kompetensiya adekvatlik va ijodkorlik mezonlari bo'lgan foydalilik, ravonlik, o'ziga xoslikning o'zaro aloqasi orqali statistik nuqtayi nazardan baholanadi.*

***Аннотация.** В данной статье на основе анализа критериев оценки творческой компетентности учеников школы творческая компетентность оценивается с статистической точки зрения как взаимосвязанная система критериев адекватности и креативности таких аспектов, как полезность, беглость, оригинальность.*

***Annotation.** In this article, based on the analysis of the perception of student satisfaction, creative competence is assessed using statistical points of view as an international system for educating adequacy and creativity such as usefulness, fluency, originality.*

***Kalit so'zlar:** kompetentli yondashuv, tayanch kompetensiya, ijodiy kompetensiya, ijodkorlik, adekvatlik, foydalilik, ravonlik, o'ziga xoslik.*

***Ключевые слова:** компетентный подход, базовая компетентность, творческая компетентность, креативность, адекватность, полезность, беглость, оригинальность.*

***Key words:** competency-based approach, basic competence, creative competence, creativity, adequacy, usefulness, fluency, originality.*

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarining rivojlanishi hamda o'zgaruvchan dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik faoliyatida qay darajada qo'llay bilishiga bog'liq. Buning uchun ta'limning maqsadlari o'quvchilar tomonidan o'z-o'zini anglash, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv maqsadlariga erishish yo'llarini tushunish, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlariga qaratilgan bo'lishi lozim.

O'quvchilarning mustaqil hayotdagi turli faoliyat va yo'nalishlardagi muammolarni o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari, shuningdek, o'zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari, shaxsiy xulosalariga asoslanib hal etishi va muammoli vaziyatlarda talab etiladigan faoliyatni maqsadga muvofiq bajarishi davr talabidir. Ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun ta'limda kompetentli yondashuvni tatbiq etish maqsadga muvofiq. Ta'limda kompetentli yondashuv o'quvchilarning ijtimoiy, kommunikativ, informativ va shaxsiy sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchidan bilim, malaka va ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirishni talab etadi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta'limda kompetentli yondashuvni amalga oshirish o'quvchilarda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog'liq. Bunda o'quvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, ijodiy fikrlash va ijodkorlik jamiyatdagi tez o'zgarishlarga moslashish uchun kerak bo'lgan muhim ko'nikmalardan biriga aylanmoqda. Shuning uchun ham ijodiy fikrlash qobiliyatlari deyarli barcha fanlar bo'yicha talab qilinadigan ko'nikmalar deb ta'riflanadi.<sup>1</sup>

I.A.Zimnyaya tomonidan taklif qilinib, S.M.Kolomiyes tomonidan guruhlar shaklida o'zgartirilgan kompetensiyalarning tasnifida ijodiy kompetensiya haqida quyidagi fikrlar bildirilgan:<sup>2</sup>

– muayyan hodisalarning sabablarini aniqlash, berilgan miqdorlarning noma'lum munosabatlarini topish, aniqlangan muammolarga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, noan'anaviy vaziyatlarda tegishli fanlar qonunlarini amaliy qo'llash imkoniyatlarini aniqlash;

<sup>1</sup> Heilman G. and Korte W. The Role of Creativity and Innovation in School Curricula in the European Union. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2010, p. 43.

<sup>2</sup> Коломиец С.М. Творческие компетенции студентов социально-экономических специальностей. Монография, М., изд-во «Перо», 2010, с. 181.

- nostandart vazifalarni, shu jumladan, o‘zlashtirilgan bilim sohasidan tashqarida bo‘lgan muammolarni hal qilish qobiliyati;
- o‘rganilayotgan sohadagi asosiy qarama-qarshiliklarni aniqlash, yangi vazifa va muammolarni qo‘yish qobiliyati.

Pedagog olimlarning fikrlaridan foydalanib, o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyasi tushunchasi aniqlashtirilgandan keyin, o‘quvchilarda ijodiy kompetensiya qanday mezonlar asosida baholanadi, degan savolga javob topishga to‘g‘ri keladi. Ushbu masalani oydinlashtirish maqsadida xorijiy pedagog olimlarning ilmiy ishlariga murojaat qilindi. Tahlil natijalari ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyasini ijodkorlikning ba‘zi bir mezonlari asosida aniqlashtirib olish lozim bo‘ladi. E.P.Torrance ishiga asoslanib,<sup>1</sup> E.A.Silver<sup>2</sup> matematika ta‘limida muammolarni hal qilishda ijodkorlikni kuchaytiruvchi tizimning ta‘rifini aniqlagan va quyidagi tarkibiy qismlarni taklif qilgan: ravonlik – muammoning bir nechta yechimlarini aniqlash, moslashuvchanlik – muammoga qo‘shimcha ravishda yangi yechimlarni yaratish va o‘ziga xoslik muammoning imkon qadar ko‘proq yechimlarini o‘rganish va noyob yangi yechimlarni yaratishdan iborat. R.Leikin<sup>3</sup> ushbu toifani yanada rivojlantirdi va o‘quvchilarning matematik ijodkorligini rivojlantirish uchun bir nechta yechimli vazifalardan foydalanishni taklif qilgan. Muammolarni hal qilishda ijodkorlikni baholash sxemasini ishlab chiqqan, u mos yechimlar soni sifatida ravonlik, yechimlar toifalari sifatida moslashuvchanlik hamda nisbiy va mutlaq jihatlarining kombinatsiyasi sifatida o‘ziga xoslikni keltirib o‘tgan. B.Sriraman<sup>4</sup> esa o‘zining keng qamrovli sharhida ijodkorlikni faqat yangilik va o‘ziga xoslik nuqtayi nazaridan tavsiflagan. R.J.Sternberg va T.Lyubart<sup>5</sup> ijodkorlikni o‘ziga xos, foydali va moslashuvchan deb ta‘riflagan. H.Wessels<sup>6</sup> o‘zining nazariy asoslarida ijodkorlikda foydalilikdan tashqari ravonlik va o‘ziga xoslik mezonlarini ham ko‘rib chiqqan. T.P.Hebert va boshqalar<sup>7</sup> ijodkorlikni baholashning bir nechta sxemalarida mavjud qiyinchiliklar sababli moslashuvchanlik va ravonlik orasidagi kuchli bog‘liqlik borligi tufayli moslashuvchanlikni inobatga olmaslik taklifini kiritgan. R.Leikin hamda R.Reiter-Palmon va boshqalarning ilmiy ishlarida muammoni qo‘yish va hal qilish faoliyatida o‘lchana-digan yangilik yoki o‘ziga xoslik ko‘plab doiralarda ijodkorlikning eng muhim mezoni sifatida tan olingan.

Mazkur tadqiqot ishida yuqorida xorijiy pedagog olimlar tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan ijodkorlikning foydalilik, ravonlik va o‘ziga xoslik mezonlari asosida ijodiy kompetensiyani baholash vazifasi belgilab olingan. Ushbu mezonlarga asoslanib, Karmana tumani 8-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi 6-sinf o‘quvchilarining informatika va axborot texnologiyalari fanidan ijodiy kompetensiyalarini baholash maqsadida tadqiqot o‘tkazilgan.

Tadqiqot ishida quyidagi savollar asos sifatida qabul qilingan:

1. O‘quvchilar fanga oid topshiriqni bajarishda yondashuvlarning adekvatligi asosida tahrirlash va formatlash ko‘nikmalarining qanday darajasiga erishdilar?
2. O‘quvchilar topshiriqni bajarishda ijodkorlikning foydalilik, ravonlik va o‘ziga xoslik mezonlari asosida tahrirlash va formatlash ko‘nikmalarining qanday darajasiga erishdilar?
3. Yondashuvlarning adekvatligi va ijodkorlikning uchta mezoni orasidagi bog‘liqlik nuqtayi nazaridan o‘quvchilarning natijalarini o‘lchash mumkinmi va ular qanday darajaga erishdilar?

Tadqiqot quyidagi metodologiya asosida olib borilgan. Word matn muharririda hujjatlarni tahrirlash va formatlashning barcha bosqichlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijodkorlikning uchta mezoni – foydalilik, ravonlik va o‘ziga xoslik ijodiy kompetensiyani baholashda sifat va miqdoriy tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi.

<sup>1</sup>Torrance E.P. Torrance tests of creative thinking: Norms-technical manual. Research ed., Personnel Press, 1966.

<sup>2</sup>Silver E.A. Fostering creativity through instruction rich in mathematical problem solving and problem posing. ZDM-Mathematics Education, 1997, 3, p. 75 – 80.

<sup>3</sup> Leikin R. Evaluating mathematical creativity. The interplay between multiplicity and insight. Psychological Test and Assessment Modeling, 2013, 55 (4), p. 285 – 400.

<sup>4</sup>Sriraman B. The characteristics of mathematical creativity. ZDM-Mathematics Education, 2009, 41(1–2), p. 13–27.

<sup>5</sup> Sternberg R., Lubart T. The concept of creativity: Prospect and paradigm. A handbook of creativity. Cambridge University Press, 1999, p. 3 – 15.

<sup>6</sup> Wessels H. Levels of mathematical creativity in model-eliciting activities. Journal of Mathematical Modelling and Application, 2014, 1(9), p. 22 – 40.

<sup>7</sup> Hébert T.P., Cramond B., Neumeister K.L., Millar G., Silvian A.F. E. Paul Torrance: His life, accomplishments, and legacy. Research Monograph Series, 2002. Retrieved April 21, 2021, from <https://eric.ed.gov/?id=ED480289>

Ushbu jarayonda ishtirokchilar va yig'iladigan ma'lumotlar to'plami ham aniqlashtirilib olindi. Jumladan, tadqiqot ishtirokchilari Navoiy viloyati Karmana tumani 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi 6-sinfning 103 nafar o'quvchisi bo'lib, ular 12–13 yoshdagi o'quvchilardan iborat. Tadqiqotda 50 nafar qiz va 53 nafar o'g'il bola ishtirok etdi. O'quvchilar 5- va 6-sinflarda informatika va axborot texnologiyalari fanini o'rganishgan. O'quvchilarning barchasi hujjatlarni tahrirlash va formatlash bo'yicha tajriba-sinov ishlarida birinchi marta qatnashdilar. Shuningdek, ular boshqa ijodkorlikka yo'naltirilgan faoliyatda qatnashmaganlar. Tajriba-sinov boshida, ya'ni, o'quvchilar hujjatlarni tahrirlash va formatlash vazifalarini hal qilishdan avval, asosiy ma'lumotlar bo'yicha so'rovnomani to'ldirishdi. Shundan so'ng, ulardan internet tarmog'iga kirmagan va fan o'qituvchisining yordamini olmagan holda, taxminan, 1 soat davomida hujjatlarni tahrirlash va formatlash topshirig'ini individual ravishda bajarishlari topshiriq sifatida berildi. O'quvchilarga berilgan topshiriq 6-sinf Ona tili kitobidan olingan:<sup>1</sup>

Ushbu matndagi g' va o' harflaridan keyin kelgan bo'sh joy (probel) larni so'z mazmuniga muvofiq holda yo'q qilib, edi so'z birikmasi qatnashgan qismni qizilga bo'yab, ning so'z birikmasini ni so'z birikmasi bilan almashtiring.¶

Bir bog' bonning uch o' g' li bor edi. Uchchalasi ham yalqov va dangasa edilar. Bog' bon bir kuni kasal bo'lib yotib qoldi. O' g' illarini chaqirib: "Tokzorning ichiga bir ko' za oltin ko' mib qo' yganman. Mendan keyin o' zingiz kovlab topib, bo' lishib olarsizlar", - dedi va bir necha kundan so' ng vafot etdi. O' g' illari oltin izlab, bog' ni ag' dar to' ntar qilib chiqdilar, lekin hech narsa topa olmadilar. Biroq shu yili mevalari shu darajada serhosil bo' ldiki, cho' ntaklari pulga to' ldi. So' ngra o' g' lonlar angladilarki, oltin yerda emas, mehnatda ekan. (Rivoyat)¶

**1-rasm. Ona tili kitobidan olingan matn.**

Ushbu rasmdagi matnni tahrirlash va formatlash topshirig'i turli yondashuvlarni va bir nechta usullarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli, ijodkorlikni o'rganishda asos sifatida tanlandi. Topshiriqning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'quvchilar har tomonlama tahrirlash va formatlash qobiliyatlari va ijodiy yondashuvlarini namoyon qilishdi. O'quvchilar ushbu topshiriq umumiy o'rta ta'lim maktabi informatika va axborot texnologiyalari fanidan o'tilgan mavzularga o'xshash bo'lganligi uchun oson vazifa deb hisoblashdilar. Umuman olganda, ular bu topshiriqni hal qilishda o'zlarini ishonchli his qilishdilar.

O'quvchilarning ushbu topshiriqni hal qilishlari, dastlab, ularning tahrirlash va formatlash yondashuvining adekvatligi nuqtayi nazaridan tahlil qilindi, keyin esa ijodkorlikning uchta mezoni – foydalilik, ravonlik va o'ziga xoslik asosida baholandi. Adekvatlik va ijodkorlikning uchta mezoni quyidagi tarzda aniqlanildi va qo'llanildi:

Topshiriqni hal qilish uchun tahrirlash va formatlash yondashuvining adekvatligi yondashuvning muvofiqligi hamda to'liqligini hisobga oladi. Bunda topshiriq bitta yondashuv asosida emas, balki bir nechta yondashuvlar asosida hal qilish bilan tavsiflanadi. Yondashuvning to'g'riligiga emas, balki muvofiqligiga baho berildi. Umumiy tahrirlash va formatlash malakasining yuqori-o'rta-past darajasini baholash uchun uch darajali toifalar sxemasidan foydalanildi (1-jadval).

*1-jadval*

**Tahrirlash va formatlash yondashuvlarining yetariligin aks ettiruvchi yuqori-o'rta-past darajalar toifalarini baholashning kvalimetrik tahlili**

Misol		
Daraja	Tavsiflar	Vazifa
Yuqori	Yuqori darajadagi adekvatlik o'quvchi topshiriqni nisbatan tugallasa va muvaffaqiyatli hal qila olsa, belgilanadi.	Yondashuvlar zarur usullarni (masalan, bo'shliqni olib tashlash, kerakli so'zni topib bo'yash va almashtirish) ifodalasa va to'g'ri amalga oshirilsa belgilanadi.
O'rta	O'rta darajadagi adekvatlik o'quvchi topshiriqni hal qilish uchun imkoniyatga ega bo'lsa, lekin to'liq bajara olmasa, belgilanadi.	Yondashuvlar zarur usullarni (masalan, bo'shliqni olib tashlash, kerakli so'zni topib bo'yash va almashtirish) ifodalasa, ammo to'liq amalga oshirilmasa belgilanadi.

<sup>1</sup>Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik. T., "Tasvir", 2017.

	di.	
Past	Past darajadagi adekvatlik o'quvchi topshiriqni hal qilish uchun imkoniyatga ega bo'lsa, lekin bajara olmasa, belgilanadi.	Yondashuvlar zarur usullarni (masalan, bo'shliqni olib tashlash, kerakli so'zni topib bo'yash va almashtirish) hisobga olsa, lekin bajara olmasa, belgilanadi.

Shuningdek, o'quvchilarning ijodiy kompetensiyalarini ijodkorlikning uchta mezonini – foydalilik, ravonlik va o'ziga xoslik nuqtayi nazaridan baholash obyektiv ravishda tahlil qilindi. Tahlillar quyidagi ta'riflarga asoslanadi:

◆Foydalilik mezonini baholashda qo'llagan barcha yondashuvlarning foydaliligi nazarda tutiladi. Foydalilikning past darajasi noto'g'ri yondashuvga, yuqori darajasi esa foydali va umumiy yondashuv qo'llanganda beriladi.

◆Ravonlik mezonini baholashda turli xil yondashuvlarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Ravonlikning past darajasi bitta yondashuvga, yuqori daraja esa turli xil yondashuvlar qo'llanilganda beriladi.

◆O'ziga xoslik mezonini baholashda yondashuvlarning nisbatan noyobligi nazarda tutiladi. O'ziga xoslikning past darajasi ko'p sonli o'quvchi tomonidan aniqlangan yondashuvga va yuqori darajasi kam sonli o'quvchi tomonidan aniqlangan yondashuvga beriladi.

Har bir toifaning tavsifi va o'quvchilarning yondashuvlari 2-jadvalda umumlashtirilgan.

*2-jadval*

**Ijodkorlik mezonlarining yuqori-o'rta-past darajali toifalarini baholashning kvalimetrik tahlili**

Misol			
	Daraja	Tavsiflar	Topshiriq
Foydalilik	Yuqori	Yuqori darajali foydalilik nafaqat ushbu vazifani hal qilish uchun foydali, balki boshqa shunga o'xshash vazifani hal qilish uchun ham umumiy bo'lgan yondashuvlarga beriladi.	Yondashuvlar so'zlarning mazmun-mohiyatiga qarab ular orasidagi bog'lanishlarni aniqlab olish va ularni bog'lash hamda kerakli so'z birikmasini topib, uni tahrirlash va formatlash usullarini o'z ichiga oladi.
	O'rta	O'rta darajali foydalilik vazifani hal qilish mumkin bo'lgan, ammo boshqa o'quvchilar tomonidan qo'llanilmaydigan yondashuvlarga beriladi.	Yondashuvlar so'z birikmasining bog'lanishini hamda formatlashni aniqlaydi yoki turli yo'llar o'rtasidagi munosabatlar muayyan holatlar bilan chegaralanadi.
	Past	Past darajali foydalilik vazifani hal qilish uchun oddiy bo'lgan yondashuvga beriladi.	Yondashuvlar so'z birikmasining bog'lanishi o'rtasidagi to'g'ri munosabatlarni va formatlashni taqdim eta olmaydi.
Ravonlik	Yuqori	Yuqori darajali ravonlik vazifani hal qilish uchun turli usullarni o'z ichiga olgan yondashuvlarga beriladi.	Yondashuvlar so'z birikmasining bog'lanishi hamda formatlashni turli usulda bajarish soniga qarab belgilanadi.
	O'rta	O'rta darajali ravonlik vazifani hal qilish uchun faqat bitta usulni o'z ichiga olgan yondashuvga beriladi.	Yondashuvlar so'z birikmasining bog'lanishi hamda formatlashni bir usulda bajarilsa beriladi.
	Past	Past darajali ravonlik vazifani hal qilish uchun birorta usul to'liq ishlab chiqilmagan yondashuvga beriladi.	Yondashuvda so'z birikmasining bog'lanishi hamda formatlash usuli to'liq ishlab chiqilmagan bo'lsa beriladi.
O'ziga xoslik	Yuqori	Yuqori darajali o'ziga xoslik vazifani hal qilish uchun kam sonli ishtirokchilar tomonidan qo'llanilgan yondashuvga beriladi.	Yondashuvda so'z birikmasining bog'lanishi hamda formatlash usuli o'quvchilarning kichik guruhi tomonidan ishlab chiqilgan holda beriladi.
	O'rta	O'rta darajali o'ziga xoslik vazifani hal qilish uchun nisbatan ko'proq ishtirokchilar tomonidan qo'llanilgan yondashuvga beriladi.	Yondashuvda so'z birikmasining bog'lanishi hamda formatlash usuli o'quvchilarning taxminan 10-30% tomonidan ishlab chiqilsa beriladi.
	Past	Past darajali o'ziga xoslik vazifani hal qilish uchun eng ko'p ishtirokchilar tomonidan qo'llanilgan yondashuvlarga beriladi.	Yondashuvda so'z birikmasining bog'lanishi hamda formatlash usuli o'quvchilarning taxminan 30% dan ortig'i tomonidan ishlab chiqilsa beriladi.

Hujjatni tahrirlash va formatlash topshirig'i uchun, birinchi navbatda, adekvatlik va uchta ijodkorlik mezonini bo'yicha tavsifiy tahlil o'tkazildi. Adekvatlikni nazorat qilish bilan ijodkorlikning uchta mezonini orasidagi korrelatsiyani aniqlash uchun qisman korrelatsiya tahlili o'tkazildi.

Tahrirlash va formatlash yondashuvlarining adekvatligiga asoslangan o'quvchilarning faoliyati natijalari qaraladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, umumiy tahrirlash va formatlash yondashuvlarining adekvatligi yondashuvlarning to'liqligi va maqsadga muvofiqligi asosida baholandi. 3-jadvalda ko'rsatilganidek, 103 nafar o'quvchining, taxminan, 54,4 foizi tahrirlash va formatlash ishlarini hal qilishda adekvat yondashuvlarni, ya'ni to'g'ri yo'llarni ishlab chiqqan.

3-jadval

**Hujjatni tahrirlash va formatlash topshirig'i bo'yicha turli adekvatlik darajasidagi o'quvchilarning samaradorlik ko'rsatkichlari**

Baho darajasi	O'quvchilar soni	Foizda
Past	26	25,2%
O'rta	21	20,4%
Yuqori	56	54,4%

Berilgan topshiriqni bajarish uchun ko'plab o'quvchilar so'z birikmasidagi harflardan keyin keladigan bo'shliqlarni topish va birlashtirish, almashtirilishi kerak bo'lgan so'zlarni topib almashtirish hamda formatlash kerak bo'lgan so'z birikmasini topish kerakligi muhimligini tushunishdi va 54,4% o'quvchi muvaffaqiyatli yondashuvlarni ishlab chiqishga erishdilar. Shuningdek, o'quvchilarning 20,4% ushbu vazifani oddiy usullar bilan bajardilar, 25,2% esa o'z yondashuvlarida aniq tahrirlash va formatlash tartibini taqdim eta olmadilar.

Ushbu jarayonda o'quvchilarning ijodkorlikka asoslangan faoliyati ham aniqlandi. O'quvchilarning ish faoliyati berilgan topshiriq bo'yicha foydalilik, ravonlik va o'ziga xoslik kabi uchta ijodiy mezon bo'yicha tahlil qilindi.

**Foydalilik.** 4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, berilgan topshiriqni bajarishda o'quvchilarning 34,0 foizi yuqori foydalilik, 35,9 foizi o'rtacha foydalilik va 30,1 foizi past foydalilik darajasini ko'rsatdi.

4-jadval

**Berilgan topshiriq bo'yicha turli xil foydalilik darajasidagi o'quvchilarning samaradorlik ko'rsatkichlari**

Baho darajasi	O'quvchilar soni	Foizda
Past	31	30,1%
O'rta	37	35,9%
Yuqori	35	34,0%

**Ravonlik.** 5-jadval shuni ko'rsatadiki, berilgan topshiriqni hal qilishda 15 nafar o'quvchi turli xil yondashuvlarni taqdim etishdi.

5-jadval

**Berilgan topshiriq bo'yicha turli xil ravonlik darajasidagi o'quvchilarning samaradorlik ko'rsatkichlari**

Baho darajasi	O'quvchilar soni	Foizda
Past	28	27,2%
O'rta	60	58,2%
Yuqori	15	14,6%

**O'ziga xoslik.** 6-jadvalda ko'rsatilganidek, o'quvchilarning 74,8% topshiriqni bajarishda past darajada o'ziga xoslikni ko'rsatgan. Chunki topshiriqni bajarishda nisbatan kamroq parametrlar e'tiborga olinishi kerak edi, bu esa usullarning noyobligida namoyon bo'ladi.

6-jadval

**Berilgan topshiriq bo'yicha turli xil o'ziga xoslik darajasidagi o'quvchilarning samaradorlik ko'rsatkichlari**

Baho darajasi	O'quvchilar soni	Foizda
Past	77	74,8%
O'rta	17	16,5%
Yuqori	9	8,7%

Tadqiqot doirasida ijodiy kompetensiyalarni baholashda ijodkorlikning turli mezonlari orasidagi o'zaro bog'liqlik jihatlari ham o'rganildi. Bunda o'quvchilarning hujjatlarni tahrirlash va formatlash yondashuvlarini o'z ichiga olgan ijodkorlikning turli mezonlari orasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi va ijodiy kompetensiyalarning nisbiy tuzilishi haqida tushunchaga ega bo'lindi. Spirmenning korrelatsiya tahlilidan foydalanib, o'quvchilarning tahrirlash va formatlash yondashuvlarining adekvatligi va ijodkorlikning uchta mezonini (ya'ni, foydalilik, ravonlik va o'ziga xoslik) orasidagi munosabatlar bo'yicha faoli-

yati tahlil qilindi. Spirmenning korrelatsion koeffitsiyenti ikki o'zgaruvchi orasida bog'liqlik bor yoki yo'qligini aniqlash imkonini beruvchi o'lchov bo'lib, u

$$r_s = 1 - \frac{6 \cdot \sum_{i=1}^n (x_i - y_i)^2 + T_A + T_B}{n \cdot (n^2 - 1)} = 1 - \frac{6 \cdot \sum_{i=1}^n d_i^2 + T_D}{n \cdot (n^2 - 1)} \quad (1)$$

formula bilan hisoblanadi, bu yerda  $T_A, T_B, T_D, d_i$  miqdorlar qo'yidagi formulalar orqali hisoblanadi:

$$T_A = \frac{1}{12} \sum (A_j^3 - A_j), T_B = \frac{1}{12} \sum (B_j^3 - B_j), T_D = T_A + T_B, d_i = x_i - y_i.$$

Spirmenning rang korrelatsiya koeffitsiyenti kritik qiymati

$$T_{kp} = t_{kp}(\alpha, k) \sqrt{\frac{1-r_s^2}{n-2}} \quad (2)$$

formula bo'yicha hisoblanadi, ushbu formulada  $n$  – tanlanmalar soni;  $r_s$  – Spirmenning darajali korrelatsiya koeffitsiyenti;  $t_{kp}(\alpha; k)$  – ikki tomonlama qiymatdorlik.

Spirmenning nolinci gipotezasi  $H_0$  da: Spirmenning rang korrelatsiyasi bosh koeffitsiyenti tanlanadi, bunda  $r_s = 0$  deb qabul qilinadi. Agarda nolinci gipoteza  $H_0$  qabul qilingan bo'lsa ( $r_s = 0$ ), bu hol A va B alomatlar o'rtasida sezilarli rang korrelatsion aloqalar mavjud emas, deb hisoblanadi (tanlash koeffitsiyenti  $r_s$  ahamiyatli emas), aks holda, alomatlar o'rtasida ahamiyatli rang korrelatsiya aloqasi mavjud bo'ladi (tanlash koeffitsiyenti  $r_s$  ahamiyatli).

Turli alomatlar o'rtasida sifatli aloqalar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash quyidagi qoida bo'yicha olib boriladi:  $\alpha$  qiymatdorlik darajasida Spirmenning nolinci gipotezasi rang korrelatsiyasi bosh koeffitsiyenti  $r_s$  ning nolga tengligini tekshirishda unga raqobatchi bo'lgan  $H_1$  gipoteza uchun ( $r_s \neq 0$ ), Spirmenning kritik nuqtasi (2) formula bo'yicha hisoblanadi:

$$T_{kp} = t_{kp}(\alpha, k) \sqrt{\frac{1-r_s^2}{n-2}},$$

bu yerda  $n$  – tanlanmalar soni;  $r_s$  – Spirmenning rang korrelatsiyasi tanlanma koeffitsiyenti;  $t_{kp}(\alpha; k)$  – ikki tomonlama kritik sohadagi kritik nuqta, u СТЬЮДЕНТning kritik nuqtalar taqsimoti jadvalidan topiladi (12, 6-ilova), ushbu jadvalda qiymatdorlik darajasi  $\alpha$  va erkinlik darajalari soni  $k = n - 2$  bo'yicha bog'liqlik orqali  $t_{kp}(\alpha; k)$  ning qiymatini topish keltirilgan.

Agarda hisoblash natijalariga ko'ra,  $|r_s| < T_{kp}$  tengsizlik o'rinli bo'lsa, nolinci gipotezani rad etishga asos yo'qligini hamda alomatlar o'rtasida sifatli rang korrelatsion aloqalar ahamiyatli emasligini ko'rsatadi. Agarda  $|r_s| > T_{kp}$  bo'lsa, nolinci gipoteza rad etiladi hamda alomatlar o'rtasida sifatli rang korrelatsion aloqalar mavjud bo'ladi.

Quyidagi keltirilgan 7-jadvalda o'quvchilarning ijodiy kompetensiyalarini adekvatlik va ijodkorlik (foydalilik, ravonlik, o'ziga xoslik) mezonlari nuqtayi nazaridan yuqorida keltirilgan Spirmen qoidasi bo'yicha matematik-statistik tahlil etish natijalari keltirilgan. Ushbu jadvalda  $n = 103$ ,  $\alpha = 0,05$  qiymatdorlik darajasi va  $k = 101$  bo'lgan holda hisoblash natijalari keltirilgan, bunda (12, 6-ilogava asosan)  $t_{kp}(0,05; 101) = 2,0$  qiymat olingan.

7-jadval

**O'quvchilar faoliyatini aniqlashda ijodkorlikning turli mezonlari orasidagi o'zaro bog'liqlik**

		Adekvatlik	Foydalilik	Ravonlik	O'ziga xoslik
Adekvatlik	Korrelatsiya koeffitsiyenti	1,000	0,851	0,801	0,460
	qiymatdorlik (ikki tomonlama)	-	0,104	0,119	0,177
Foydalilik	Korrelatsiya koeffitsiyenti	0,851	1,000	0,728	0,461
	qiymatdorlik (ikki tomonlama)	0,104	-	0,137	0,177



Ravonlik	Korrelatsiya koeffitsiyenti	0,801	0,728	1,000	0,570
	qiymatdorlik (ikki tomonlama)	0,119	0,137	-	0,163
O'ziga xoslik	Korrelatsiya koeffitsiyenti	0,460	0,461	0,570	1,000
	qiymatdorlik (ikki tomonlama)	0,177	0,177	0,163	-
korrelatsiya qiymatdorligi 0,05 sathda (ikki tomonlama)					

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, adekvatlik ijodkorlik mezonlaridan biri sifatida foydalilik bilan kuchli bog'liq ekan.

Ijodkorlikning uchta mezoniga asoslangan holda, berilgan topshiriqni bajarish bo'yicha o'quvchilarning faoliyatida foydalilik va ravonlik orasida ( $r_s(103)=0,728$ ,  $p < 0,05$ ), foydalilik va o'ziga xoslik orasida ( $r_s(103)=0,461$ ,  $p < 0,05$ ) hamda ravonlik va o'ziga xoslik orasida ( $r_s(103)=0,570$ ,  $p < 0,05$ ) korrelatsiya borligi aniqlandi. Aniqlanishicha, o'quvchilarning topshiriqni bajarish bo'yicha faoliyatida foydalilik va ravonlik orasida sezilarli bog'liqlik bor.

Ijodkorlikni o'z ichiga olgan ijodiy kompetensiyani baholash mantiqiylikini o'rganishda o'quvchilarning ijodiy kompetensiyalarini berilgan topshiriq bo'yicha bajargan ishlariga asoslanib, ijodkorlik mezonlari asosida o'lchashga e'tibor qaratildi.

Masalan, berilgan topshiriqda so'z birikmalaridagi harflar orasini birlashtirish va formatlash haqidagi yondashuvlar o'rtacha foydalilik darajasida tasniflangan, chunki o'quvchilar topshiriqni bajarish uchun umumiy yondashuvlardan foydalanishgan. Yondashuvlarning ravonlik mezonini tahrirlash va formatlash ketma-ketligi va ishlab chiqilgan usullarning to'liqligi va xilma-xilligiga e'tibor qaratadi. Topshiriqni bajarishda kam sonli o'quvchilar ko'proq usuldan foydalanishgan. Yondashuvlarning o'ziga xoslik mezonida tahrirlash va formatlash uchun maxsus usullardan foydalanish kerak bo'lgan holda, ular deyarli ko'pchilik ishlatgan usullardan foydalanishgan.

Umuman olganda, o'quvchilarning ijodkorlikni o'zida mujassam etgan turli tahrirlash va formatlash topshiriqlari bo'yicha faoliyatini baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, ijodiy kompetensiyani boyitish nazariy jihatdan maqsadga muvofiq va boyitilgan tizim empirik tarzda baholanishi mumkin.

Garchi, Karmana tumani 8-umumiy o'rta ta'lim maktabining 6-sinf o'quvchilari tahrirlash va formatlash bo'yicha tajribaga ega bo'lgan bo'lsalar-da, ular ushbu topshiriqni ijodkorlik nuqtayi nazaridan baholaganda yaxshi bajara olmadilar.

O'quvchilarning 54,4%ga yaqini berilgan topshiriq uchun adekvat yondashuvlarni taqdim etdi, aslida, informatika va axborot texnologiyalari darslarida ushbu turdagi topshiriqlarni bajarish o'rgatilgan bo'lsa-da, ijodkorlik nuqtayi nazaridan ravonlik va o'ziga xoslik mezonlari bo'yicha yaxshi natijalarga erisha olmadilar. Bu shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar topshiriqlarni hal qilishda ko'p sonli usullarni sinab ko'rishga odatlanmaganligidan dalolat beradi.

Ushbu tadqiqot bir nechta cheklovlarga ega. Berilgan topshiriq o'quvchilarning tahrirlash va formatlash yondashuvlarini baholash uchun individual mashqlar sifatida hal qilindi.

Topshiriqning uchta – yuqori-o'rta-past darajali tasnifi tahrirlash va formatlash yondashuvlarining muvofiqligi va ijodkorlikning uchta mezonini ijodiy kompetensiyaning tarkibiy qismlarining diskret va nisbatan taxminiy toifalarini ko'rsatadi. Shuningdek, topshiriqni umumiy baholashdan ko'ra, har bir komponenti bo'yicha ishlashga e'tibor qaratildi.

Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin. O'quvchilar tomondan taqdim etilgan tahrirlash va formatlash yondashuvlarining adekvatligi tahliliga ko'ra, berilgan topshiriqni bajarishda biroz qiyinchiliklarga duch keldi. O'quvchilarning yarmiga yaqini faqat o'rtacha foydalilik darajasiga erishdilar, bu esa ular vazifani faqat o'z-o'zidan hal qila olganliklarini anglatadi. Ularning aksariyati berilgan topshiriqni hal qilish uchun faqat bitta tahrirlash va formatlash yondashuvini taqdim etdilar. O'ziga xoslikka kelsak, ular berilgan topshiriqni past darajada bajardilar, ya'ni, oz sonli o'quvchilar nisbatan yangi yondashuvlarni taqdim etdilar, bu yondashuvlarda ko'proq parametrlar hisobga olinganligini ko'rsatadi.

Sinflarda mavjud tahrirlash va formatlash yondashuvini ijodkorlik mezonlari asosida chuqur o'rganish ushbu jarayonni ko'proq tushunishga yordam beradi. Ushbu natijalar tahrirlash va formatlash yondashuvlarining adekvatligi va ijodkorlik mezonlari orasidagi korrelatsiyaga topshiriqning oson yoki qiyinligi, shuningdek, ijodkorlikning uch mezonini orasidagi bog'liqlik ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Agar topshiriq juda murakkab bo'lmasa, o'quvchilar yondashuvlarning foydalilik darajasini oshirishi mumkin ekan.

Umuman olganda, tadqiqot ishida ijodiy kompetensiyalarni ijodkorlik mezonlari asosida baholash mumkin ekanligi ko'rsatilgan.

**Турсунов Қаҳор Шоназарович (Қарши МИИ Физика ва электроника кафедраси профессори, ПФД; e.mail. qarhu-qahhor@mail.ru),  
Эгамбердиева Озода Шухрат қизи (Қарши ДУ Умумий физика кафедраси ўқитувчиси; e.mail. ozodaegamberdiyeva93@mail.ru)**

### **ТАБИИЙ-ИЛМИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШНИ ГУМАНИТАРЛАШТИРИШ– ДАВР ТАЛАБИ**

**Аннотация.** Мақолада ҳозирги замон фани моддий бойликлар ишлаб чиқаришида, ижтимоий ҳаётда, маориф ва маданиятда, умуман, турмуш тарзимизда инқилобий ўзгаришлар омили эканлиги эътироф этилган. Шунинг учун табиий-илмий фанларни гуманитарлаштириш педагогик муаммо эканлиги асослаб берилган.

**Аннотация.** В статье признается, что современная наука является фактором революционных изменений в производстве материальных благ, в общественной жизни, в образовании и культуре, в целом в нашем образе жизни. поэтому обосновывается, что гуманизация естественных и точных наук является педагогической проблемой.

**Annotation.** The article admits that modern science is a factor of revolutionary changes in the production of material goods, in social life, in education and culture, in general, in our way of life. Therefore, it is substantiated that the humanization of natural and scientific sciences is a pedagogical problem.

**Калит сўзлар.** демографик, энергетик, экологик инқирозлар, гуманитарлаштириш, гуманитар потенциал, илмий дунёқараш, тарихийлик тамойили, физика, астрономия.

**Ключевые слова.** демографический, энергетический, экологический кризисы, гуманитаризация, гуманитарный потенциал, научное мировоззрение, принцип историчности, физика, астрономия.

**Key words.** demographic, energy, environmental crises, humanitarianization, humanitarian potential, scientific worldview, principle of historicity, physics, astronomy.

Дунёда аниқ ва табиий илмий фанларни ўқитиш сифатини яхшилаш орқали, ўқувчиларнинг ақлий салоҳияти, ижодий қобилиятларини ривожлантириш учун замонавий методик таъминотни яратиш ва таълим сифатини таъминлашга йўналтирилган самарали тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Аниқ ва табиий илмий фанларни, жумладан, “Физика” фанини ўқитиш жараёнида ўқувчиларни замонавий ва истиқболли меҳнат бозори талабларига, инновацион таълим муҳитида ўқитишнинг янги стратегияларига мослаштириш, доимий янгиланиб, ўзгариб, такомиллашиб бораётган таълимнинг ахборот инфраструктураси базасини назарий умумлаштиришлар асосида яратиш, технологик тараққиёт талабларига мослаштириш, инновацион технологиялар асосида ривожлантиришга қаратилганлиги билан аҳамиятлидир.<sup>1</sup>

Республикамизда сўнгги йилларда узлуксиз таълимни ривожлантириш, жумладан, аниқ ва табиий фанларни ўқитиш савиясини оширишга катта эътибор қаратилмоқди. “Физика, математика, кимё, биология, информатика ва компьютер технологияси каби фанлар бўйича ихтисослаштирилган мактабларни кўпайтириш ва талаб юқори бўлган фанларни чуқурлаштирилган тарзда ўрганиш илмий-техник тараққиёт бўйича мамлакат келажагини белгилаб беради”.<sup>2</sup> Физика фанини ХХI аср фани ва технологиялари даражасидаги постноклассик дунёқараш аспектида ўқитиш назарий билимларни шакллантириш ва ривожлантиришнинг дидактик ва методик имкониятларини такомиллаштириш долзарб аҳамият касб этади.

Ҳозирги замон фани моддий бойликлар ишлаб чиқаришда, ижтимоий ҳаётда, маориф ва маданиятда, умуман, турмуш тарзимизда инқилобий ўзгаришларга сабабчи бўлмоқда. Шунингдек,

<sup>1</sup>Турсунов Қ.Ш. Узлуксиз физика таълимида назарий умумлаштиришларнинг дидактикаси ва методикаси. Пед. фан.док. ...дисс. авторефер., Қарши, 2021, 64-бет.

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017–2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантириш бўйича Ҳаракат стратегияси тўғрисида»ги ПФ–4947-сонли фармони. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. Т., 2017, 37-бет.

мураккаб ва глобал масштабдаги муаммолар цивилизациямизга «бостириб» келаётган айни дамларда, инсоният бу муаммоларнинг олдини олишда фанга яна катта умидлар билан кўз тикмоқда.

XXI асрнинг йирик муаммоларидан ҳисобланган демографи-энергетик экологик инкирозлар деб ном олган кризисларнинг олдини олишда фаннинг роли қандай бўлади? Инсониятнинг келажаги фан эришган ва эришаётган ютуқлардан амалда у қай йўсинда фойдаланиши билан белгиланади. Шу боисдан фаннинг келажак мақсадлари қандай? У инсон ва унинг фаолияти билан боғлиқ глобал масштабдаги эслатилган муаммоларни қай тарзда ҳал этмоқчи, бошқача айтганда, фаннинг ахлоқий эзгулик ва этник мазмундаги «башараси», қанақа инсонпарварми ёки аксинча эканлигини билиш бу кунда жуда муҳимдир.

Фан ўзининг ривожланиш жараёнида, инсон ва унинг ҳаёти билан боғлиқ муаммоларга доимий эътиборини қаратиб, «инсон омили» доимо унинг диққат марказида бўлган. Бунда инсон ҳам биологик ҳам ижтимоий мавжудот сифатида табиий ҳамда ижтимоий фанларнинг объекти ҳисобланади. Шу боисдан сайёрамиз кўламида рўй бериш хавфи бўлган – эслатилган инкирозларни фақат техник ёки фаннинг инкирозлари дейиш унча тўғри бўлмайди. Чунки улар инсониятнинг келажagini белгилаб, биологик мавжудотларнинг бир тури сифатида «у яшаб қоладими ёки йўқми?» деган масалага ҳам ойдинлик киритади. Бинобарин, бу муаммолар ижтимоий ҳам ҳисобланади. Яна шуни ҳам таъкидлаш жоизки, цивилизациямизнинг «бош кўтараётган» бу муаммолари инсон фаолиятининг маҳсулидир.<sup>1</sup>

Шуларни эътиборга олганда, фаннинг «индустрлаштириш» ва «техникалаштирилиши»га қарамай, билимнинг объекти сифатида, инсоннинг роли вақт ўтиши билан тушмай, аксинча, кўтарилиш тенденциясига эга бўлади. Фаннинг мураккаблашган техникаси бу сферадан инсонни сиқиб чиқара олмайди, чунки техника бунда фақат билишнинг воситаси сифатидагина иштирок этади. Шунингдек, бир қарашда, «фанда майда тармоқланиш туфайли рўй бераётган тор профессионализм» ҳам гуё инсоннинг ролини пасайтираётгандек туюлади.

Аслида, фан тармоқларининг интеграцияси, предметлараро тадқиқотларга туғилажак эҳтиёж туфайли комплекс фанларнинг вужудга келиши, хусусий фан вакилларининг универсал тадқиқотчиларга айланишлари учун кенг шароит яратиши билан инсон омилининг ролини яна-да ортира боради.

Фанни вақт ўтиши билан гуманизацияланиши, фанни социал-этик ҳам гуманистик йўналишда бошқариш билан боғлиқ умумий жараёнларни ўзида мужассамлаштиради. Бу ерда гап фанни фақат бир ижтимоий институт сифатида бошқариш устидагина кетмай, балки уни социал-этик нуқтаи назардан бошқариш, аниқроғи, уни бошқарувчи олимларнинг дунёқараши ва ахлоқи устида кетяпти.

Бу муаммони ҳал қилиш учун фан ва у эришаётган натижаларини ахлоқ юзасидан қандай баҳолаш кераклигини, бошқача айтганда, фан излаётган ҳақиқатнинг гуманистиклиги, умуминсоний қадри қандайлигини аниқлаш зарур бўлади. Дарвоқе, ҳақиқат жамият учун жуда қадрли эканига шубҳа йўқ, чунки у инсонга ўз эҳтиёжини қондириш учун табиат инъом этган қулайликлардан қандай фойдаланишни ўргатади. Ҳақиқат инсоннинг табиат билан муносабатларини оптимал шакллантиришда муҳим роль ўйнаб, унинг фақат моддий бойлигини эмас, балки маънавий бойлигини ўстиришни ҳам таъминлайди. Ижтимоий ҳаёт қонунларини ўрганиш, инсонга фақат табиий инкирозларнигина эмас, балки ижтимоий фалокатларнинг олдини олишда ҳам катта ёрдам беради.

Гуманизация ҳақида гап кетганда, одатда, унинг икки асосий йўналиши ҳақида тўхташ муҳим. Булардан биринчиси, табиат фанлари таркибига «инсон омили»ни киритиш, илмий фаолиятнинг натижаларида инсон қадриятларининг акс этишига эришиш бўлса, иккинчиси, гуманитар фанлар методологиясининг табиат фанларига таъсирини ортира боришдир.<sup>2</sup>

Албатта, бундай бўлиниш шартли бўлиб, ҳозирги замон илмий изланишларда гуманитар фанларга тегишли ғояларнинг табиат фанлари билан уйғунланиш жараёни илгаридан мавжуд. Ҳозирги шароитда табиатшунослик ўз метод ва дастурларини фақат билиш ва ўрганиш нуқтаи назаридангина эмас, балки келажакни башоратлашга, лойиҳалаш ва бошқаришни ҳам ҳисобга олган ҳолда тузади. Бошқача айтганда, табиатшунослик ўз дастурини инсоният ва унинг тасвири билан боғлиқ муаммоларди тўла ҳисобга олган ҳолда режалаштиради. Энди, айни пайтда, кенг ишлати-

<sup>1</sup>Мамадазимов М.М. Мактабда астрономия таълими. Т., “Ўқитувчи”, 1994, 88-бет.

<sup>2</sup>Турсунов К.Ш., Тогайкулова Ш.С Гуманитаризация процесса обучения как педагогическая проблема. “Молодой учёный”, Россия, Чита, 2012, №12, с. 515 – 517.

лаётган таълимни гуманитарлаштириш устида тўхталсак, таълимни гуманитарлаштириш деганда, мактаб фаолиятини, шахсни ҳар томонлама ривжлантириш муаммоси, инсонийлик хислатларини тарбиялаш, тафаккурини ривжлантириш, уларда умуминсоний қадриятларни кўпайтиришга ўз хиссаси билан улуш қўшиш масъулиятини тарбиялаш тушунилади. Шу муносабат билан, кўпчилик мактаб дастури ва ўқув режаларида ижтимоий-гуманитар фанларнинг нисбий ҳажмини кўпайтириш лозим, деган фикр билдирилади. Аслида, ундай эмас, албатта. Халқ таълимини гуманитарлаштириш муаммоси, табиий ва гуманитар предметлар орасида ўқув соатларини қайта тақсимлашни назарда тутмай, балки барча ўқитиладиган предметларнинг, жумладан, табиий фанларнинг гуманитар йўналиши ва мазмунини кучайтиришни назарда тутати. Педагогик муаммо табиий фанларни ўқитишни қайта кўриб, уларнинг мазмунидаги жуда катта гуманитар потенциални аниқлашни ва ўқитиш жараёнида улардан кенг фойдаланишни назарда тутати.

Табиий фанларнинг гуманитар потенциали деганда нимани тушуниш керак, деган савол туғилади. Бу, биринчи навбатда, мазкур фанларнинг ҳақиқатни излаш билан боғлиқ фаолияти бўлиб, уларнинг авторитар, модда, традициялар ва конъюнктура билан иш тутмаслигидадир, ҳақиқатни ахлоқий намоён бўлишидир.

Иккинчидан, фан уларнинг дунёқараши мазмуни бўлиб, у «Олам қандай тузилган ва у қандай ривжланади? Инсоннинг бунда роли ва ўрни қандай?» деган саволлар билан бевосита боғлиқдир. Бунда табиий фанлар, «Биз кимлармиз? Қаерданмиз? Қаёққа кетаяпмиз?» деган. Инсониятнинг азалий саволларига жавоб излашда гуманитар фанлардан қолишади, дейиш ўринли бўлмайди.

Учинчидан, бу фанларда табиат ҳодисалари, Олам тузилишининг гўзаллиги, улардаги уйғунлик ва гармония орқали англашилиб, кишида эстетик ҳис-туйғуларни кўзғайди.

Тўртинчидан, бу фанларнинг асослари, дунёда рўй берадиган барча антропоген ҳодисаларда ҳар бир инсоннинг шахсий ҳиссаси борлигини ҳис қилдиради ва цивилизациямизнинг келажаги учун ўз масъулиятини сездиради. Табиат қонунларини билишни, ундан ўз амалий фаолиятида қандай фойдаланишни ўргатади. Бу қонунлардан беҳабарлик эса кишини антропоген йўл билан табиат ишларига аралашининг, зарарли оқибатларини кўриш имконидан маҳрум қилади.

Бешинчидан, дунёда барча ҳодисалар объектив қонунлар асосида рўй беришидан огоҳ қилади. Бундан ғайритабиий кучларнинг роли йўқлигини кўрсатади.

Замонавий физика ва астрономия фанларининг мазмуни инсониятга диалектиканинг энг ишончли далилларини намоён қилган ҳолда майдонга чиқди. Мактабда табиат фанларини биринчи навбатда, физика ва астрономия фанларини ўқитишда кўп йиллар давомида юқорида эслатилган гуманитар мазмунига эътибор берилмади. Бунинг бир неча сабаби бўлиб, булар ичида охириги йилларда ҳаётини эҳтиёжлар туфайли илмий-техникавий прогрессни ривжлантиришга қўйилган талабларнинг мактабда ўқитиладиган табиий фанларни фақат техник муаммолар бўйича йўналтирилишига олиб келиш энг жиддий камчиликлардан ҳисобланади. Ўз адабиёти ва тарихини билмаган кишини маданиятли деб бўлмалиги жуда тўғри. Бироқ, шу билан бирга, физика ва математикадан ҳам билимли ҳар қандай киши тўла маданиятли бўлиши мумкин эмас деган жуда нотўғри фикр мавжуд. Бу янглиш фикр, албатта. «Табиат фанларининг умуминсоний маданият билан боғлиқлиги ва айрим кишилар учунгина тушуниш мумкин бўлган энг сунгги кашфиётлар ҳам ўзларининг маданий контекстисиз маънога эга эмаслигини баъзан унитиб қўйишади», деган эди машҳур физик Эрвин Шредингер.

Мактаб физика ва астрономия курсининг бугунги кундаги бош вазифаси, ўқувчиларни инсоният олдида турган ва эртага кутарилиши кутиладиган ва мазмуни билан бу фанларга дахлдор муаммалари тушунишларида туғри йўл кўрсатишидир. Аслида, бу ўринда гап мактабда физика ва астрономияни ўқитишда уни гуманитарлаштиришнинг яна бир аспекти, яъни, ўқувчилар фикрлашларининг янги услуби, таъбир жоиз бўлса, планетар фикрлашлари ҳақида боряпти. Модомики, шундай экан, табиий фанларни ўқитишни гуманитарлаштиришнинг қандай дидактик асосларга таянган ҳолда амалга ошириш мумкин, деган ўринли савол туғилади. Бу фанларни ўқитиш бўйича кўп йиллик тажрибадан келиб чиқиб ишонч билан шуни таъкидлаш мумкинки, табиий фанларни ўқитишни гуманитарлаштиришда тарихийлик тамойилини қўллаш жуда катта самара беради. Ўқитиш жараёнида тарихий материаллардан кенг фойдаланиш ҳисобига таълимнинг тарбиявий аспекти кескин жонлантиришга эришиш мумкин. Айниқса, ўқувчиларда илмий дунёқарашни, ахлоқни ватанпарварликни, байналминалликни тарбиялашда тарихийлик тамойили алоҳида ўрин тутати. Тарихийлик тамойили асосида мактаб предметларини ўқитишни гуманитарлашти-

риш борасида табиат фанлари ўзининг бой интеллектуал тарихи, илғор гуманистик ғояларнинг кашфиётларнинг яратилиши жараёнида туғилиши билан алоҳида ўрин тутди.

Хусусан, физика ўқитилишида ўқувчиларда ўқитилаётган предмет асосларига турғун кизиқшни шакллантириш учун физик ғояларнинг туғилиши ва эволюцияси, илмий изланишнинг механизми, ижодий жараёнларнинг шарт-шароитларини ўқувчи кўз олдида яққол гавдалантириш жуда муҳим. Бунда баён этилаётган материалнинг жонли ва қизиқарли чиқиши учун олимнинг ҳаёти ва ижодига ёхуд маълум бир физик ғоянинг эволюциясига оид айрим «деталлар» ва эпизодлардан кенг фойдаланиш ижобий натижа беради.

Методист олимлар томонидан тарихийлик тамойилининг ўқувчиларда бир қанча муҳим ижобий ҳислатларни, жумладан, фан асосларига қизиқиш ва илмий дунёқарашни шакллантириш, билим савиясини юксалтириш, ахлоқий-эстетик тарбиялаш каби функциялари аниқланган. Булар ичида, айниқса, ўқувчиларда юксак инсоний сифатларни, биринчи навбатда, ахлоқ нормаларини, инсоннинг бу кунги муаммоларга муносабатини, шунингдек, унинг бу муаммоларда тутган ўрни, жавобгарлигини ҳис этиш каби ҳислатларни тарбиялаш муҳим аҳамият касб этади.

Ўқитиш жараёнида қўлланиладиган тарихий материаллар ўқитилаётган предмет мазмуни билан бевосита боғлиқ бўлиб, схема, фотография, олимларнинг маълум ҳодиса ҳақидаги баёни, формулалари, чизмалари, даврнинг баёний тасвири, олимларнинг иш шароити, айрим кашфиётлар тарихи, ғоялар кураши куринишида бўлиши мумкин. Аксарият ҳолларда, ўқувчиларда кучли таассурот қолдирадиган, уларда кучли эмоционал ҳис-ҳаяжонларни кўзгата оладиган тарихий материаллар ичида олимларнинг ҳаёти ва ижоди билан боғлиқ маълумотлар эътиборга молик бўлиб, ўқувчи шахсининг шаклланишида муҳим роль уйнайди.

Тарихийлик тамойили асосида ўқитиш шубҳасиз ўқитувчидан бу борада катта билим ва иқтидор талаб қилади. Мисол тариқасида 7-синфда физика курсида суюқликлар учун «Паскаль қонуни» деб номланган дарснинг ўқитилишини олайлик. Мазкур қонуннинг назарий баёни (гарчи у тажрибага таянган бўлса ҳам) фақат таълимнинг билим бериш билан боғлиқ функциясинигина бажаради. Унинг гуманитар аспекти учун эса, Б.Паскалнинг физиклигидан ташқари, математик ҳисоб техникаси, эҳтимоллар назариясининг асосчиларидан бири ва машҳур ёзувчи эканлигидан ўқитувчи хабардор бўлиши керак. Унинг ёшлик ва ўсмирлик даври билан боғлиқ қуйидаги эпизодлар ўқувчиларга кучли ижобий таъсир кўрсатади. Касалванд бўлган Б.Паскалнинг отаси унга ёшлигидаёқ математика ўқишни маън этган эди. 17 ёшида у «Конус кесимлари ҳақида тажрибалар» рисоласини чоп этди. Худди шу ишларида отасининг ҳисоб ишларининг кўплигидан эзилаётганини кўрган Блез унга раҳми келади ва унда ҳисоб машинасини яшаш ғояси туғилади. Бу ғояни амалга ошириш учун у 5 йил тинимсиз ишлайди. «Паскаль ғилдираклари» деб ном олган у ясаган ҳисоблаш машинаси арифмометрнинг биринчи нусхаси эди.

Францияда уни ҳозирга қадар нозик ҳисли ва ўткир қаламли ёзувчи сифатида жуда ҳурмат қилишади. «Унинг қалами остида чиндан ҳар бир қатор қимматбаҳо тошдан терилган маржондек қадрланади», деб ёзади унинг ёзувчилик маҳорати ҳақида Жозеф Бертран.

«Паскални ўқиганда мен ўз ёзганларимни ўқиётгандек ҳис қиламан», деб ёзган эди у ҳақда машҳур Стендаль. 1805 йилда «...уни ўқиётиб, ўзимни бундан юзлаб йиллар олдин оламдан ўтган бу одам билан (Б.Паскаль билан–Қ.Т.) тўла ҳамоҳанглигимни сездим ва кўз ёшимни тия олмадим», деб ёзган эди у ҳақда буюк Л.Толстой.

Шу «арзимас» эпизодлар ўқувчининг табиат фанларига, биринчи навбатда, физикага қизиқиши учун катта туртки беради. Олимлар ҳаётидан бериладиган бундай «элементлар» ўқувчи ҳаётида, табиат фанларига ижобий муносабатларини шакллантиришда ўз кучини кўрсатмай қолмаслиги тажрибада кўп марта тасдиқланган.

Хулоса қилиб, шуни таъкидлаш лозимки, табиий фанларни, хусусан, физика, астрономия фанларининг кучли гуманитар потенциалидан ўқитиш жараёнида кенг фойдаланиш, бошқача айтганда, айтилганларни амалга ошириш осон бўлмай, ҳар кимнинг ҳам қўлидан келавермайди. Бунинг учун у ўқитувчидан фан тарихидан етарлича кўп маълумот, иқтидор, билимлар захираси ва ўқувчини ҳайратлантира олиш ва ажаблантира олишдек зўр маҳорат талаб этилади. Бу икки фактор оптимал ҳолатда йўғирилгандагина, кўзланган мақсад амалга оширилиб, ўқитиш жараёнининг самарали воситасига айланади.

**Xudayberganov Otabek Erkinovich (Urganch davlat Pedagogika instituti “Texnologiya va jismoniy madaniyat” kafedrası dots. v.b. p.f.b.f.d. (PhD); [Xudayberganov-O@mail.ru](mailto:Xudayberganov-O@mail.ru)),  
Muratov Sanjar Jumanazarovich (Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi)  
KURASH MASHG‘ULOTLARIDA KUNLIK VA HAFTALIK MIKROTSIKLLAR  
YUKLAMALARINI ME‘YORLASH**

**Annotatsiya.** Maqolada kurashchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini oshirishda mashg‘ulot yuklamalarini maqsadli rejalashtirish va tayyorgarlik siklining turli bosqichlarida mashg‘ulot yuklamalari orqali ularning nisbatini aniqlash, musobaqa faoliyatini hisobga olgan holda taqsimlash masalasi o‘rganilgan.

**Аннотация.** В статье рассматривается вопрос целевого планирования тренировочных нагрузок для повышения физической и технико-тактической подготовки борцов и их соотношения через тренировочные нагрузки на разных этапах тренировочного цикла, распределение тренировочных нагрузок с учетом соревновательной деятельности.

**Annotation.** The article examines the issue of targeted planning of training loads to increase the physical and technical-tactical training of wrestlers and their ratio through training loads at different stages of the training cycle, the distribution of training loads, taking into account the competition activities.

**Kalit so‘zlar:** o‘quv mashg‘ulotlari yurak qisqarishi tezligi, anaerob-aerob, anaerob-alaktat va aerob-glikolitik yuklamalar, jismoniy tayyorgarlik, mezotsikl, shiddat, musobaqa faoliyati.

**Ключевые слова:** тренировочная частота сердечных сокращений, анаэробно-аэробная, анаэробно-алактат и аэробно-гликолитическая нагрузки, физическая подготовка, мезоцикл, интенсивность, соревновательная деятельность.

**Key words:** training heart rate anaerobic-aerobic, anaerobic-lactate and aerobic-glycolytic loads, physical training, mesocycle, intensity, competitive activity.

**Maqolaning dolzarbligi.** Hozirgi kunda, jismoniy tarbiya va sport dunyoda ustuvorlik kasb etmoqda. O‘zbekistonda kurash bilan shug‘ullanadigan sportchilarni saralash, o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, musobaqa jarayonini nazorat qilish, psixologik, jismoniy, texnik-taktik va funksional tayyorgarlikda qo‘llaniladigan vosita va usullarni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari o‘tkazilgan. Sport natijalarining jadal o‘sishi mazkur sohada zamon talablariga javob beradigan o‘quv-mashg‘ulotlarni tashkillashtirishning optimal tizimini izlab topish talabini qo‘ymoqda.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan, kelib chiqib, zamonaviy sportda mashg‘ulot va musobaqa yuklamalari hajmi hamda shiddatining oshib borishi o‘quv-mashg‘ulotlarini o‘tkazishda yangi vositalar va uslublarini izlab topishni taqozo etadi.

Ishning maqsadi: kurashchilarning mashg‘ulot yuklamalarini maqsadli rejalashtirish, kunlik va haftalik mikrotsikllar yuklamalarini me‘yorlash va musobaqa faoliyatini hisobga olgan holda, mashg‘ulotlar yuklamalarini tayyorgarlik bosqichlari bo‘yicha hajmi va shiddatini taqsimlash.

Tezkor rejalashtirishda yuklamalarni me‘yorlash, mashg‘ulot vazifalari (seanslari)da yuklamalar hajmi bo‘yicha uning quyidagi tavsiflari yo‘nalishi va ixtisoslashganligini hisobga olgan holda me‘yorlashni ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi.

Yuklamalar tuzilmasining aniq tarkibini belgilash uchun N.I.Volkov tavsiyalaridan foydalanish zarur:

a) anaerob-alaktat mashqlar (energiya ta‘minotining kreatinfosfat manbaini rivojlantiruvchi), davomiyligi 8 s, shiddat – maksimal (200 zarb/daq gacha va yuqori);

b) anaerob-glikolitik (energiya ta‘minotining glikolitik manbalarini rivojlantiruvchi): davomiyligi 0,3 dan 0,5 daq.gacha, shiddati – submaksimal (186 zarb/daq.gacha);

d) anaerob-aerob, mashqlar davomiyligi 1 daq.gacha, shiddati - katta (174 zarb/daq.gacha);

e) aerob, mashqlar davomiyligi 2 dan 3 daq.gacha, shiddati - sust (150-156 zarb/daq).

Mashg‘ulot vazifalarini (seriyalarini) rejalashtirish davomida turli mashqlarning kurashchilar organizmiga bo‘lgan ta‘siri shiddati tekshirildi va ular organizmning yurak qisqarishi tezligi (YQT) va arterial bosim (AB) parametrlari bo‘yicha tiklanish xususiyatlari tahlil qilindi.

Turli yuklamalarda qon bosimi o‘zgarishi hamda tomir urishi aniqlanadi va har biridan so‘ng dastlabki darajaga qaytish tekshiriladi.

1. Mashg‘ulot yuklamalari sifatida quyidagilar qo‘llanildi:

a) turli yoʻnalishdagi mashqlar; b) qisman ixtisoslashgan mashqlar (maxsus tayyorgarlik mashqlari, yakkakurash elementlaridan iborat oʻyinlar va h.k.); d) turli TTH va MF elementlari, shuningdek, turli yuklama yoʻnalishi rejimlarida bajariladigan koʻp yurishli harakatlar.

2. Tomir urishi koʻrsatkichlarining dastlabki darajaga qadar tiklanishi davomida biz tomir urishi-ning 144–150 zarb/daq.gacha (1 chegara) va 120 zarb/daq.gacha (2 chegara) tiklanish vaqti koʻrsatkichlarini kiritdik. Tomir urishi 10 s ichida hisoblandi.

Tajribalar davomida quyidagilarni aniqlash zarur edi:

– bajariladigan mashqlarning necha marta takrorlanishi shiddatli yuklamaning berilgan rejimiga kirishni (tomir urishi qiymatiga koʻra) taʼminlaydi;

– kurashda anaerob-alaktat mashqlarni takrorlash soni uchun optimal chegara mavjudligi;

– mashgʻulotlarni turli miqdorda takrorlagandan soʻng sportchilar organizmining tiklanish dinamikasini (YQT boʻyicha) baholash;

– mashqlarni takror bajarish va mashq seriyalari oʻrtasidagi boʻsh vaqtning optimal rejimi qanday.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni belgilashga yordam berdi:

1. Anaerob-alaktat yoʻnalishdagi mashqlarni bajarishda quyidagi hollarda maksimal shiddatdagi rejimga kirishga erishildi:

a) tajriba guruhi kurashchilari uchun mashqlarni 4–5 marta takrorlashdan soʻng ( $R < 0,001$ );

b) nazorat guruhi kurashchilari uchun mashqlarni 3–4 marta takrorlashdan soʻng ( $R < 0,001$ ).

Bunday yoʻnalish rejimida mashqlar davomiyligi 10 s.dan oshmasligi lozim (kreatinfosfat energiya taʼminotini rivojlantirish uchun optimal davomiylik 6–8 s.ga etadi).

Maksimal shiddat rejimiga kirish bilan 10 s. ichida maxsus yuklama tarkibi quyidagicha: tik turishda tashlashlarni kamida 6–7 marta bajarish lozim. Tanaffus vaqti 2–3 s keyin tashlashlar seriyasini davom ettirish zarur. Bitta yondashishda tashlashlarni 4–6 seriyadan bajarishni tavsiya etamiz.

2. Anaerob-glikolitik yoʻnalishdagi mashqlarni bajarishda quyidagi hollarda submaksimal shiddatdagi rejimga kirishga erishiladi:

a) tajriba guruhi kurashchilari uchun mashqlarni 2 marta takrorlashdan soʻng ( $R < 0,001$ );

b) nazorat guruhi kurashchilari uchun submaksimal shiddatdagi rejimga kirish mashqni bir marta takrorlashdan keyin taʼminlanadi ( $R < 0,005$ ). Mashqlar oʻrtasida dam olish vaqti 0,5 daq.gacha optimal davomiylikda 1–2 daq.ni tashkil etadi ( $R < 0,001$ ).

Mashqlarning bitta seriyasidagi takrorlashlar soni 12–16 marta.

3. Anaerob-aerob va aerob yoʻnalishdagi mashqlarni bajarishda katta, hamda sust shiddatdagi rejimga kirish birinchi takrorlash jarayonidayoq erishiladi. Ushbu holda mashqlar soni tartibga solinmaydi, mashqlarni takrorlashlar oʻrtasidagi dam olish vaqti 3–4 daq.gacha (sportchilar organizmining toʻliq tiklanishiga qadar) etishi mumkin.

Yuklamani tezkor meʼyorlash xususiyatlarini tekshirish jarayonida 2 ta guruh sportchilari organizmining turli yuklamalar taʼsiridan soʻng tiklanish dinamikasi baholandi. Kurashchilar maxsus yuklama usullarga tashlashlarni bajardilar. Tashlashlar tik turishda turli yoʻnalish rejimlarida mashqlarni 6 seriyada takrorlashgacha bajarildi. Mashqlarning har bir seriyasini bajarish davomida sportchilar organizmining 150 zarb/daq, 120 zarb/daq.gacha va dastlabki holatga qadar tiklanish vaqti qayd qilindi.

Tiklanish dinamikasi 1–2-jadvallarda va 1–2-rasmlarda koʻrsatilgan.

Talaba-kurashchilar organizmining dastlabki darajagacha tiklanish uzoqligi natijalarini hisobga olib, mashgʻulot vazifalari uchun quyidagicha mashgʻulot yuklamalari meʼyorini (tezkor meʼyorlash) tavsiya etish mumkin.

**1. Anaerob-alaktat ixtisoslashgan yuklama (rejimga kirgandan soʻng):**

– tajriba guruhi uchun mashqlarni 8 seriyagacha takrorlash, davomiyligi 10 s.dan oshmaydi ( $R < 0,001$ );

– nazorat guruhi uchun mashqlarni 6 seriyagacha takrorlash, davomiyligi 10 s.dan oshmaydi ( $R < 0,001$ ).

**2. Anaerob-glikolitik yuklama:**

– tajriba guruhi uchun mashqlarni 6 seriyagacha takrorlash;

– nazorat guruhi uchun mashqlarni 4 seriyagacha takrorlash;

– hamma guruhlar uchun ( $R < 0,001$ ).

**3. Aralash yuklamalar:**

– tajriba guruhi uchun mashqlarni 3 seriyagacha takrorlash;

– nazorat guruhi uchun mashqlarni 2–3 seriya takrorlash;

– hamma guruhlar uchun ( $R < 0,001$ ).


1-jadval

№	Yuklamalar yo'nalishi	Turli yuklamalar ta'siridan so'ng ta'riba guruhi sportchilari organizmining tiklanish dinamikasi ( $P < 0,01$ )																
		Dastlabki darajagacha						Tiklanish vaqti (daq)										
		150 zarb/daq.gacha						120 zarb/daq.gacha										
1	2	3	4	5	6	1	2	3	4	5	6	1	2	3	4	5	6	
1.	Anaerob-alaktat (YuQT 200 zarb/daq.gacha)	-	2±3	4±5	5±6	6 gacha	-	-	0,2	0,5	1	1,5	-	0,5	0,5±1	1±1,5	2	2
2.	Anaerob – glikolitik (YuQT 180 zarb/daq.gacha)	-	2±3	3±4	4±5	6 gacha	-	0,3	0,3±0,5	0,5	1±2	2	-	0,4	0,5	0,5±1	1±1,5	2±3
3.	Aralash anaerob-aerob (YuQT 174 zarb/daq.gacha)	11	2±3	4±5	-	-	0,3	0,5	0,5±1,0	1,0	-	-	0,5	0,5±1	1±1,5	2 gacha	2±3	2±3
4.	Aerob (YuQT 162 zarb/daq.gacha)	22	3±2	4	-	-	0,5	0,5±1	1,0	1,5 gacha	-	-	1,0	1,5	1,5	2	-	-


2-jadval

№	Yuklamalar yo'nalishi	Turli yuklamalar ta'siridan so'ng nazorat guruhi sportchilari organizmining tiklanish dinamikasi ( $P < 0,01$ )																
		Dastlabki darajagacha						Tiklanish vaqti (daq)										
		150 zarb/daq.gacha						120 zarb/daq.gacha										
1	2	3	4	5	6	1	2	3	4	5	6	1	2	3	4	5	6	
1.	Anaerob - alaktat (YuQT 200 zarb/daq.gacha)	-	3±4	5±6	7 gacha	-	0,2	0,5±1,0	1,0	1±1,5	-	-	-	0,5±1,0	1,0	1±1,5	1,5±2	-
2.	Anaerob-glikolitik (YuQT 180 zarb/daq.gacha)	-	2±3	4±4	5±6	7 gacha	-	0,3	0,5 gacha	0,5±1,0	1±2	3	-	0,5	0,5±1,0	1±1,5	2	2±3
3.	Aralash anaerob-aerob (YuQT 174 zarb/daq.gacha)	1,0	3	6	-	-	0,5	0,5±1,0	1,0±1,5	1,5	2	2,5	0,5±1,0	1,0	1,5	2	2,5	3
4.	Aerob (YuQT 162 zarb/daq.gacha)	2,5	4	5	-	-	0,5	1	1,5	1,5±2	-	-	1,0	1,5±2	2	3	-	-







1-rasm. Anaerob-alaktat yuklamalar ta'siridan so'ng talaba-kurashchilar organizmining tiklanish dinamikasi.



2-rasm. Anaerob-alaktat yuklamalar ta'siridan so'ng talaba-kurashchilar organizmining tiklanish dinamikasi.



3-rasm. Anaerob-alaktat yuklamalar ta'siridan so'ng talaba-kurashchilar organizmining tiklanish dinamikasi.



**4-rasm. Anaerob-alaktat yuklamalar ta'siridan so'ng talaba-kurashchilar organizmining tiklanish dinamikasi.**

**Izoh:** \_\_\_\_\_ A1 – Tajriba guruhi.  
 \_\_\_\_\_ A2 – Nazorat guruhi.

Biz mashg'ulot vazifalari zichligini oshirish uchun S.P.Letunovning quyidagi yangilangan testidan foydalandik:

– mashqlarning tavsiya etilgan seriyalari bajarilgandan so'ng, 1 daq, 30 soniyagacha davom etadigan dam olish oralig'i berildi. Agar shu vaqt ichida YQT 120 zarb.daq.gacha va undan pastga kamaysa, yuqori shiddatdagi yuklamani davom ettirish lozim. Agar YQT shu darajagacha kamaymasa, dam olish vaqtini uzaytirish lozim.

Anaerob-alaktat, anaerob-glikolitik va aralash aerob-anaerob yuklamalar uchun optimallashtirilgan yuklama sifatida quyidagilarni qo'llashni tavsiya etamiz:

– usullarga tezkor tashlashlar, shuningdek, ma'lum bir vaqt: 10 s, 20 s, 30 s, 1 daq, 3 daq, ichida maksimal tashlashlar soni;

– usullarni tayyorlashning taktik yo'llari, raqibning turli darajadagi qarshiligida muvozanatdan chiqarish usullari, kurashning maxsus tayyorgarlik mashqlari, tashlashlarni ishora bilan o'xshatib bajarish va boshqalar.

– berilgan vaqtlar oralig'ida (10 s, 20 s, 30 s, 1 daq, 2 daq, 3 daq) ushlashlardan qutilishlar, hujumga qarshi amallarni qo'llash va h.k.

– qisqa vaqt ichida (30 s, 1 daq, 2 daq) tezkor bellashuvlarni o'tkazish.

Yuklamalar yo'nalishining rejalashtirilayotgan rejimidan kelib chiqib, oldindan belgilangan parametrlar vaqti va shiddati me'yorlari bo'yicha og'irliklar bilan hamda ularsiz bajariladigan siklik, umum-rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanishni tavsiya qilish mumkin.

Mikrotsikllar va mezotsikllar yuklamalarni kundalik me'yorlash muammosi hamon o'z yechimini topishni taqozo etmoqda.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarda mashg'ulot mikrotsikllari (MS) quyidagicha tavsiflanadi: yaqinlashtiruvchi, «zarbdor», bittalik va h.k. Biron-bir tasnifli tizimda yuklamaning hajmi bo'yicha son qiymatlari, MSning har bir turi uchun yuklama soni to'g'risida aniq ko'rsatmalar yo'q. Faqat yuklamaning katta, o'rta, kichik darajalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar bor, xolos.

Yuklamalar sonini rejalashtirish bo'yicha turli xil tavsiyalar mavjud. Masalan, «zarbdor» MSni rejalashtirish uchun V.N.Platonov haftada katta yuklama bilan 2 tadan 6 tagacha mashg'ulotni, Y.V.Verxoshanskiy esa ikkita mashg'ulotni maksimal darajada va ikkitasini o'shanday yo'nalishdagi katta yoki o'rta darajadagi yuklama bilan o'tkazishni tavsiya etadi. Kurashda haftalik MSlar uchun yuklamalarni rejalashtirish va uning uchun me'yorlarni ishlab chiqishni biz sport mashg'ulotlarini kun davomida 2 ta, gohida esa 3 ta mashg'ulot o'tkazishni hisobga olishdan boshladik.

Mashg'ulot yuklamalarini qo'llash orqali toliqish belgilarini aniqlash va tahlil qilish, shuningdek, sportchilar bilan suhbatlar «zarbdor» haftalik MSlar uchun mumkin bo'lgan optimal yuklama darajasini son jihatdan aniqlash imkonini berdi.

1. Tajriba guruhi kurashchilari uchun 2–3 ta mashg'ulotlar kuni har birining yuklamasi maksimal darajada (1101 shart. bir va yuqori).

Agar haftalik MS tarkibida maksimal darajadagi yuklama bilan 3 ta mashg'ulot kuni rejalashtirilgan bo'lsa, unda bu holda keyingilarida 1 kun submaksimal darajadagi yuklamani (1000 shart.bir.gacha) yoki katta darajadagi yuklamani (750 shart.bir.gacha.) hamda sust shiddatdagi (hajmi kamida 450 shart. bir) tiklovchi yoki rivojlantiruvchi yuklamani tavsiya etamiz ( $R < 0,001$ ) (3–4-rasmlar).

Agar maksimal darajadagi yuklamalar bilan 2 ta mashg'ulot kuni rejalashtirilsa, unda keyingilarida 1 kun submaksimal darajadagi va 1 kun katta darajadagi yuklama bilan hamda oldingi holdagi kabi, ikki kun o'rtacha darajadagi yuqori bo'lmagan tiklovchi va rivojlantiruvchi yuklama bilan mashg'ulotlar kunini rejalashtirishni tavsiya etamiz.

2. Nazorat guruhi kurashchilari uchun haftalik MSda maksimal darajadagi yuklama bilan (821 shart. bir.gacha va yuqori) 2 tadan ko'p bo'lmagan mashg'ulotlar kunini qo'llash zarur. So'ngra 1 kun submaksimal darajadagi yuklama bilan 800 shart. bir.gacha) va 1 kun katta darajadagi yuklama bilan (560 shart. bir.gacha) mashg'ulot kunini rejalashtirish shart. Bu haftalik MSda, shuningdek, o'rtacha darajadan yuqori bo'lmagan (ko'pi bilan 340 shart. bir.) tiklovchi yoki rivojlantiruvchi yuklama bilan 2 ta mashg'ulot kunini qo'llash lozim.

**Xulosa.** Muammoning nazariy anglanishi va ilmiy asoslangan natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkoniyatini berdi:

1. Jahon, Osiyo hamda O'zbekiston Respublikasi sovrindorlari bo'lmish talaba-kurashchilar MF tahlili kurashda MF ko'rsatkichlarining etalon (namunaviy) qiymatini aniqlash hamda mashg'ulotlar yuklamalarini me'yorlashga qo'yiladigan umumiy talablarni belgilash imkonini berdi.

2. Mashg'ulot yuklamalarini kurashchilarga me'yorlash muammolarini yo'nalishi, ixtisoslashuvi va koordinatsion murakkabligi turlicha bo'lgan yuklamalar kattaligiga ko'ra quyidagi mashg'ulot tuzilmalari uchun o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Topshiriqlar: mashg'ulot kunlari (tezkor me'yorlash), haftalik MS uchun (kundalik me'yorlash), yillik sikl bosqichlari uchun (bosqichli me'yorlash).

3. Olib borilgan tadqiqotlar davomida tajriba boshida va oxirida ikkala guruh kurashchilari o'rtasida 30 ta nazorat bellashuvlari o'tkazildi. Musobaqa bellashuvi natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, tajriba boshida nazorat guruhi kurashchilari tajriba guruhidan 3 ta bellashuvda ustunlik qilgan bo'lsa, tajriba oxirida tajriba guruhi kurashchilari 7 ta bellashuv farqiga ustunligi asoslandi.

Bu esa kurashchilar uchun biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tayyorgarlik jarayonining optimallashgan mashg'ulot yuklamalarining umumiy hajm rejasi asosli va samarador ekanligini isbotlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдиев А.Н. Борьба. Организация восстановительно-тренировочного процесса на после-соревновательном этапе. Т., 1997, с. 138.

2. Ахмедов Х.Р. Ёш курашчиларни педагогик назорат қилиш асосида тренировка нагрузкаларини бошқариш услубияти (эркин кураш мисолида). Пед.фан.ном... дисс. автореф., Т., 2005, 16-бет.

3. Бакиев З.А. Эркин кураш нарияси ва услубиёти. Ўқув қўлланма, Тошкент, “Lider Press” нашриёти, 2011, 230–239-бетлар.

4. Боймуратов И.Х. Курашчилар мусобақа фаолиятининг индивидуал тавсифларини ҳисобга олган ҳолда уларнинг тезкор-куч тайёргарлиги. Пед.фан.ном... дисс. автореф., Т., 2009, 17-бет.

5. Верхожанский В.Ю. Основы специальной силовой подготовки в спорте. 3-е изд., М., “Советский спорт”, 2013, с. 156 – 161.

6. Волков В.М., Сиваков В.И. Определенные условия подготовки спортсменов к соревнованиям. “Теория и практика физической культуры”, М., 2001, №3, с. 31 – 32.

7. Летунов С.П. Методика врачебно-педагогических наблюдений за спортсменами. М., МГУ, 1981, с. 584.

8. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Олимпийский литератур. К., 2004, с. 100 – 112.

**Хажиева Максуда Султановна (фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Урганч Давлат университети)  
АБУ АБДУЛЛО РУДАКИЙНИНГ ГУМАНИСТИК ҒОЯЛАРИ**

**Аннотация.** Ушбу мақолада, Рудакий таълимотида, илм-фан ва билимнинг тарғиб қилиниши, унда меҳр-оқибат, дўстлик ва меҳнатсеварлик каби умуминсоний мавзулар асосий ўрин олиши ҳамда унинг комил инсон тарбиясига, гўзал ахлоқни тарбиялашга ҳисса қўшганлиги борасида фикр юритилади.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается пропаганда науки и знаний в учении Рудаки, где основное место занимают такие общечеловеческие темы, как доброта, дружба, трудолюбие, и его вклад в воспитание совершенного человека и воспитание добрых нравов.

**Annotation.** In this article, the promotion of science and knowledge in Rudaki's teaching, where universal themes such as kindness, friendship, and hard work take the main place and its contribution to the education of a perfect person and the cultivation of good morals are discussed.

**Калим сўзлар:** ақл, билим, ўз-ўзини билиш, жамиятда ўз тақдирини ўзи белгилаш, буюк номиқ, дўстлик, инсон ҳаётининг табиий эҳтиёжи, яхшилик ва тинчлик, хавф-хатарини англаш, муроаса қилиш, ибратли хулқ-атвори, тинч-тотув.

**Ключевые слова:** интеллект, знание, самопознание, самоопределение в обществе, великий оратор, дружба, естественная потребность человеческой жизни, добро и мир, осознание опасности, компромисс, примерное поведение, миролюбие.

**Key words:** intelligence, knowledge, self-knowledge, self-determination in society, great speaker, friendship, natural need of human life, goodness and peace, awareness of danger, compromise, exemplary behavior, peace.

Миллий маданият ҳар бир халқнинг ахлоқий-эстетик тарбиясининг ташкилотчиси бўлиб, ёшларда ўзликни билиш ва ўзликни англаш, ватанпарварлик ва маърифатпарварлик туйғуларини юксалтириш, тарбиявий ишларни ривожлантиришда ҳал қилувчи ўрин тутди. Таълим ва тарбия миллий хусусиятларга эга бўлса, тарихий кадриятларимизни асраб-авайлаш, ўзликни англаш, миллий ғурур туйғуларини юксалтиришда барқарор бўлади. Мамлакатимиз олимлари, мутахассислари, ёшлари ўртасида юқори савияда семинар ва анжуманлар ташкил этиш ва ўтказиш бу борадаги барқарор қадамлардан биридир. Чунки жамиятимиз бунёдкор тафаккур, замонавий дунёқараш ва билимга эга, ақл-заковатли, билимли, ватанпарвар авлодни тарбиялаши зарур.

Шу ўринда айтиб ўтиш жоизки, Абу Абдулло Рудакийнинг ўз миллати ва Ватани олдидаги бунёдкорлик ва инсонпарварлик ишлари тожик зиёлиларининг бугунги авлоди учун фидойилик, янгилик, мардлик ва матонат ва эътиқоднинг ажойиб тимсоли сифатида бўлиши керак. инсон руҳида. Яъни, ўзимизни ҳақиқатан ҳам Рудакий ва халқимизнинг бошқа улуг зотларининг ворислари ва меросхўрлари деб билсак, фикримиз, амалимиз, ҳаётимиз муносиб ва эзгу номимизга муносиб бўлиши керак.

Рудакийнинг тарихий хизмати шундаки, у сўз қадрини юксак даражага кўтарди, адабиёт мустақиллигини ўрнатди, адабиётимизни дунёга танитди. Рудакий шеърини ўзининг юксак мазмуни, инсонпарварлик кадриятлари билан халқни тинчлик, дўстлик, адолат, фаровон ҳаёт, эркинлик ва ҳамжихатликка чорлайди ва ҳозир ҳам дунё халқларининг маданий бирлиги рамзи бўлиб хизмат қилади.

Қадимги халқимиз тарихидаги Рудакий шеърини ўзининг хушбўй ҳиди билан ҳаётимизни ҳамиша хушбўй ва гўзал қиладиган ҳамиша яшил атиргулга ўхшайди. Рудакий шеърини тожик халқининг ўтмиши, ҳозирги ва келажак авлодлари ўртасидаги боғловчи бўлиб, буюк ахлоқий, фалсафий, илмий, маданий ва тарихий кадриятлар билан ҳар биримиз ҳаётимизнинг ёрқин кўзгусидир. Тожик халқининг қадимий тамаддун ва маданияти ворислари, бугун ғурур билан айтишимиз мумкинки, Рудакийнинг боқий шеърини тожик тилининг мавжудлиги ва асраб-авайлаш омили, унинг ўзликни англаш, ватанпарварлик туйғусини юксалтириш, миллий ғояни мустаҳкамлашга қўшган ҳиссаси ҳисобланади. Таъкидлаш жоизки, Рудакийнинг асрлар давомида янги тожик-форс шеърининг асосчиси сифатидаги шуҳратини шоир ва шарҳловчилар ҳамиша тилга олиб, тасдиқлаб келган.

Рудакий Россия ва Ғарбнинг шарқшунослик фанида ҳам муҳим ўрин тутган ва биз Германия, Франция, Англия ва бошқа мамлакатлар олимларининг хизматларидан миннатдоримиз. Ўтган

асрининг йигирманчи йилларидан, яъни Тожикистон Республикаси ташкил топганидан бери Рудакий тожик миллий ўзлигининг байроғи сифатида танилган. Рудакийнинг тожик халқ шоири сифатида шуҳрат қозонишида устоз Садриддин Айний, академик Бобожон Ғофуровларнинг хизматлари катта.

1958 йилда Рудакий таваллудининг 1100 йиллиги миллий шеърят ва адабиётимиз байрами сифатида нишонланди, унинг 1150 йиллиги нишонланиши эса эзгу миллий анъаналаримизнинг давоми бўлди. Рудакий, Фирдавсий, Саъдий, Ҳофиз, Жалолиддин Балхий, Камоли Хўжандий каби адабиёт, инсонпарварлик шеърятини, буюк шеърят намоянадалари ҳаммиша дилларнинг риштаси, турли халқлар, миллатларнинг халқаси бўлган ва шундай бўлиб қолади.<sup>1</sup>

Рудакийнинг ёрқин шеъри шеърятнинг юксак осмонида ҳаммиша ёниб туради. Тожик халқи туманга, бир қанча фан, таълим ва маданият муассасаларига, Тожикистон пойтахтининг марказий майдонига ва катта майдонга буюк ўғли Рудакий номини берди, шоирнинг туғилган жойи – Панжруд кишлоғида мақбара бунёд этди, Душанбе шаҳрида муҳташам ёдгорликлар ўрнатди. Хўжанд, Панжакент, Истаравшан, Кўлоб, Қўрғонтепа ва Файзобод, Рудакий туманлари Тожикистоннинг адабиёт ва санъат соҳасидаги давлат мукофоти ҳам Рудакий номи билан аталган. Тожикистон Республикаси Мажлиси Олий ва ҳукумати қарори билан ҳар йили сентябрь ойида Рудакий куни нишонланади. Буларнинг барчаси халқимизнинг шоир устозлари, устоз Рудакийга бўлган юксак ҳурмати ва чексиз меҳрининг тимсолидир.

Рудакий учун ҳаёт бир хил эмас. У ҳаёт ва борлиқларнинг доимий ҳаракатини эскиришда, янгилашишда, гўзалликларнинг алмашилишида, аксинча, турар жойларнинг вайрон бўлишида, табиат зиддиятларида кўради. У ҳаётнинг пайдо бўлиши ва йўқ бўлиб кетишининг диалектик қонунини тушунади ва ундан моддий олам табиати ва инсон ҳаётининг табиати ҳақида ибратли хулосалар чиқаради. Шоир инсон умрининг мазмуни ва ширинлигини умрнинг қисқалиги, ўлим муқаррарлигидан келиб чиқиб тасвирлайди. Унинг фикрича, инсон жисмонан мангу ҳаёт топа олмаса, эзгу амал ва эзгу ишлар билан яхши ном қозониши керак. Бу инсоннинг абадий яшаши учун яхши исм. Бу дунёнинг шодликлари ва роҳати доимий бўлмагани учун инсон фурсатдан унумли фойдаланиб, тўғри дамлардан баҳраманд бўлиши, покиза хулқ, гўзал ахлоқ, эзгу амал, Беморга меҳр-шафқат, эл-юртга муҳаббат, эл-юртга хизмат қилиш, бахтли ҳаёт кечириш унинг ҳаётини мазмунли қилади. Рудакийнинг барча панднома ва ахлоқий фикрлари ана шу ғояга асосланади. Ўз сўзлари билан айтганда, “оқилларча ўйламоқ” муҳокаманинг мантиқий асосланганлиги, далилларга таяниш, зиддиятларни аниқлаш ва ҳақиқатни исботлаш асосига қурилишини ёқлайди. У ҳиссий билимларни инкор этмаган ҳолда, инсон идрокининг қудратини тўғри, аниқ ҳамда изчил фикрлашда кўради.<sup>2</sup>

Рудакий таълимоти ва ҳикматларида илм-фан ва билимни тарғиб қилиш, меҳр-оқибат, дўстлик ва меҳнатсеварлик каби умуминсоний мавзулар асосий ўрин тутади. Шу тариқа, шоир бугунги кунгача комил инсон тарбиясига, гўзал ахлоқни тарбиялашга ҳисса қўшади. Унинг фикрича, ҳаёт ҳақиқатини тушуниш учун ақл ва билимдан фойдаланиш керак. Воқеаларга ҳикмат нигоҳи билан боқиб, унинг моҳиятини англашга ҳаракат қилиши, ташқи кўринишини кўриш билан чекланиб қолмаслик, ҳодисаларни кузатишдан юзаки хулосаларга алданиб қолмаслик керак. Шу боисдан ҳам шоир:

*Дунёдан таъмани узган чоғингда,  
Билурсан жаҳонни буткул карим, деб ёзади.<sup>3</sup>*

Рудакий ҳаётини тажрибани инсоннинг тараққиёт ва муаммоларни ҳал этишдаги биринчи ус-този ва асосий йўлбошчиси деб билганлиги учун ҳаммани уни ўрганишга ундайди. Аммо ҳаёт тажрибасини фақат илм-фан ва билим асосида тушуниш мумкин. Шундай экан, доно бўлиш учун, аввало, илм олиш керак. Ута ҳаётини бўлган Рудакий таъбири билан айтганда, илм доноликни чархлайди, ҳаёт маёқи инсонларга эзгу йўлни кўрсатади, уни ҳар қандай ёмонлик, бало ва офатлардан асрайди, халқ наздида, донишманд ва зиёли инсонни эъзозлайди. Демак, ҳақиқий инсон илм ўрганиши, билим олиши, малака ўрганиши керак. Бу фазилатлар юқори даражадаги ижтимоий мавке-

<sup>1</sup> Гаффоров М.Д. Саид Нафиси – исследователь жизни и творчества Рудаки. Диссертация ...кандидата филологических наук, 10.01.03. Гаффоров Мизроб Джалилович (Место защиты: Ин-т яз. и лит. им. Рудаки. АН Респ. Таджикистан), Душанбе, 2009, с. 177.

<sup>2</sup> Мирзаев А.М. Рудакий. Москва, 1968, 187-бет.

<sup>3</sup> Шу манба.

ни ўзида мужассам этган. Маданият – ақл, билим, маърифат, адабиёт ва маданиятнинг энг юқори даражасидир. Рудакий уни инсониятнинг энг яхши маънавий бойлиги деб ҳисоблаб, имкон қадар, ундан баҳраманд бўлишга чақиради.

Шоир инсонпарвар, одоб-ахлоқ ўқитувчиси сифатида гўзал одобли, гўзал ахлоқли, санъатли, илм-маърифат савияси юқори бўлган фарзандлар ота-онаси, аждодлари, миллати, халқи номи бўлиши кераклигини тарғиб қилади. Фарзандлар аждодлари билан фахрланмасликлари керак, чунки оталарнинг билими, донолиги ва обрўси қобилияти ва нолойиқ болаларга фойда келтирмайди:

*Қўлингга тиг тушса, урма бировга,  
Аллоҳ ёвузликни унутмас бир зум.  
Бу тиг яралмаган ситамгар учун,  
Хумда қамалмоқ-чун яралмас узум.  
Ўлдириб ташлаган кимсага Исо,  
Йўлда дуч келди-ю, деди: «О, марҳум,  
Кимни ўлдирувдинг, хор-зор ўлибсан,  
Сени ўлдирганни ким ўлдирар, ким?..»  
Бировни ранжитсанг бармоқ ўқталиб,  
Ундан мушт емоққа эрурсан маҳкум.<sup>1</sup>*

Аксинча, Рудакий ўз илми билан барчани шод этаётган дарёдек Ҳамадон халқига катта ҳурмат билан қарайди, илмидан шодланади:

*Жаҳон буюклари бариси ўтди,  
Ажал ҳаммасини бирма-бир ютди.  
Баланд кўшк устида даврон сурганлар,  
Оқибат тупроқнинг остига йитди.  
Неча юз, неча минг нозу-неъматдан  
У ёққа бир парча кафанни элтди.  
Бахтли ул кимсаки едию кийди,  
Борин бошқаларга аямай тутди.<sup>2</sup>*

Рудакий таълимоти ва ҳикматларида мардлик ва жасоратни рағбатлантириш, одамларга муҳаббат, деҳқон ва ҳунармандларга меҳр, меҳнатсеварлик, меҳр-оқибат, саховат, дўстлик, беморларга раҳм-шафқат ва бошқалар каби масалалар муҳим ўрин тутади. Бу фазилятлар инсоннинг қобилиятларини фаоллаштириш ва тақдирга боғлиқ бўлмаслик орқали кучаяди. Лекин шоир нафсни тийиб, нафснинг нафсини тийиб, ёмонликдан тийилиб, қаноат, сабр, бағрикенглик, мутаносиблик, тавозе ва ҳаёни тарғиб қилади. Айни шу маънода Рудакий “Парҳез – ножўя амаллардан тийилмоқ, яъни, нафсни мағлуб этиб, ғийбатдан йироқлашмоқ, шунингдек, қаноат, сабр, ризо, умрни беҳуда ишларга сарф қилмаслик ўз-ўзини тарбияловчи инсоннинг маънавий қудрати нишонлари эканлигини уқдиради”.<sup>3</sup>

Рудакий фикрича, инсон шахсини камол топтириш учун билим олиш ва ҳаётий тажрибани қўллашдан ташқари, соғлом тана, гўзал хулқ, гўзал ном ва донишмандлик зарур. Ким бу тўрт илоҳий неъматга эга бўлса, бахтли инсон бўлиб, беғараз ҳаёт кечира олади:

*Замон бир доно панд айтди менга,  
Боқсанг замонага сарбасар панддур!  
«Бировнинг бахтидан, – деди, – қайғурма,  
Сенинг бахтингга қўплар орзуманддур».  
Замона айтдики: «Қаҳрингни яшир,  
Тили бандсизларнинг оёғи банддур».*

Буларнинг барчаси ҳар бир шахс, биринчи навбатда, ўз-ўзини билиш, жамиятда ўз тақдирини ўзи белгилаш ва ўзининг келажак тақдири учун курашиши зарурлигидан далолат беради. Шунинг учун унутмаслик керакки, бойлар билан бир қаторда, камбағал ва муҳтожлар ҳам кўп. Рудакий меҳнаткашлар ва камбағалларнинг аҳволини бойларнинг фаровонлигини қиёслайди. Зеро, ҳеч бир инсон бундан хафа бўлмаслик керак, лекин ҳар бир инсон ўз гўзаллигидан мамнун бўлса, бировнинг бой

<sup>1</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/abu-abdulloh-rodakiy-sherlar.html>

<sup>2</sup> Шу манба.

<sup>3</sup> Мухамеджанова Лалихон Ашуралиевна (2019). «Роль нравственности в общественном сознании». Научный вестник Наманганского государственного университета, вып. 1, вып. 9, статья 17.

хаётига ҳасад қилмасдан, хаёти ёмонроқ бўлганларнинг хаётига назар ташлаб, шукр қилса арзийди.

“Буюк мутафаккир кишилар ўртасидаги дўстлик ва ўзаро ҳамкорлик кишилик жамияти учун муҳим аҳамиятга эга эканини бир неча бор таъкидлаб ўтган. Унинг қуйидаги сатрлари диққатга сазовордир:

*Жаҳоннинг шодлиги йиғилса бутун,*

*Дўстлар дийдоридан бўлолмас устун.*

Рудакий хаётни устоз деб ҳисоблайди ва ундан таълим олишга ундайди:

*Ҳар киши олмаса ҳаётдан таълим,*

*Унга ўргатолмас ҳеч бир муаллим.<sup>1</sup>*

Буюк нотик дўстликни инсон ҳаётининг табиий эҳтиёжи деб билади. У ҳақиқий ва бегараз дўстни яхши кўради. Лекин одам бор дўстлари билан қаноатланмаслиги керак. Яхши одам яхшилик ва тинчликни орзу қилади, уруш, жанжал ва низоларни ёмон кўради. Ҳақиқий инсон душман хавф-хатарини англаган ҳолда, у билан муроса ва муроса қилиш билан бирга, ибратли хулқ-атвори, тинч-тотув муомаласи, яхши сўзлари билан душманни ўзига дўст қилишга интилади.

**Ashurova Marhabo Sayfulloyevna (Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi)**  
**HUSAYN VOIZ KOSHIFIY MEROSIDA MA'NAVYIY-AXLOQIY FAZILATLARNI**  
**RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida so'z boradi. Axloq qoidalari hamma uchun majburiy bo'lib, odamlar hayotining muhim shartlarini, ma'naviy ehtiyojlarini aks ettiradi. Axloq insonning jamiyatga munosabatini va jamiyatning shaxsga qo'yadigan talablarini aks ettiradi. U odamlarning bir-birlari va jamiyat oldidagi burchlarini belgilab beruvchi xulq-atvor qoidalarini taqdim etadi. Axloqiy ong inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi.*

***Аннотация.** В данной статье идёт речь о педагогико-психологических особенностях развития духовно-нравственных качеств у учащихся посредством произведений Хусейна Ваиза Кощифи. Правила этикета обязательны для всех, они отражают важные условия жизни людей, их духовные потребности. Мораль отражает отношение человека к обществу и требования, которые общество предъявляет к личности. В ней представлены правила поведения, определяющие обязанности людей друг перед другом и перед обществом. Нравственное сознание охватывает все сферы человеческой деятельности.*

***Annotation.** This article discusses the pedagogical and psychological features of the development of spiritual and moral qualities in students through the works of Hussein Vaiz Koshifi. The rules of etiquette are mandatory for everyone and reflect the important living conditions of people, their spiritual needs. Morality reflects a person's attitude to society and the requirements that society imposes on the individual. It presents the rules of behavior that define the responsibilities of people to each other and to society. Moral consciousness encompasses all spheres of human activity.*

***Kalit so'zlar:** ma'naviy-axloqiy fazilatlar, pedagogik-psixologik xususiyat, javonmardlik yoki futuvvatchilik, ong, axloqiy ong, axloq, axloq qoidalari, axloqiy g'oyalar.*

***Ключевые слова:** духовно-нравственные качества, педагогико-психологическая характеристика, стойкость или энергичность, сознание, нравственное сознание, мораль, правила поведения, нравственные представления.*

***Key words:** spiritual and moral qualities, pedagogical and psychological characteristics, steadfastness or vigor, consciousness, moral consciousness, morality, rules of behavior, moral ideas.*

X asrdan boshlab, yangi ma'naviy-amaliy harakat javonmardlik yoki futuvvatchilik harakati tarqaldi. Javonmardlar, asosan, oddiy xalq ichidan chiqqan pahlavonlar, qiziqchilar, hunarmandlar, sipohilar va boshqalardan tashkil topgan bo'lib, har birining o'z jamoasi, piri, ustoz bo'lgan. Oddiy yigit javonmardlik tariqatiga kirishi uchun pirga qo'l berib, ustozga sidqidildan ahd-u paymon qilib, mardlik belbog'ini bog'lamog'i kerak bo'lgan. Barcha javonmardlar bir-biriga aka-uka, birodar bo'lishgan. Beg'araz yaxshilik qilish, borini o'zgalilar bilan baham ko'rish, muhtojlarga yordam berish, pir-u ustozlar nomusini pok tu-

<sup>1</sup> <https://shosh.uz/mutafakkirlar-abu-abdulloh-rudakiy-860-941/>

tish, ma'naviy va jismoniy yetuklikka intilish, mard va oliyjanob bo'lish, mol-dunyodan insonni ulug' tushirish har bir javonmardning odatiy fazilati edi. Javonmardlik tariqatining axloqiy-tarbiyaviy mohiyati nihoyatda chuqur va ko'p qirrali bo'lganligi sababli keng tarqaldi hamda keyingi davrlarda rivojlangan tasavvuf tariqatlariga zamin tayyorladi.

Insonning go'zal xulqi, axloqi hamiydasi Ollohga ham xush kelishi Qur'onda va hadislarda qayta-qayta ta'kidlanadi. Insoniy pok fazilatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida saudiyalik olim Muhsin Ahmad Borum shunday yozadi: "Yaxshi axloq, ezgu sifatlar o'z sohibi qadrini ko'taradi, obro'sini oshiradi, ulug'vorlik baxsh etadi, uni Olloh oldida ham, insonlar oldida ham aziz-u mukarram qiladi. Qabih sifatlar esa kishi qadrini tushiradi, mavqeyini pasaytiradi, uni Olloh va odamlar oldida sharmanda qiladi".

Axloqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, u o'zining boshqa shakllari kabi ijtimoiy hayotning in'ikosidir. Unda axloqning subyektiv tomoni bo'lgan tarixiy o'zgaruvchan axloqiy munosabatlar mavjud. Axloqiy ongning zamirida axloq kategoriyasi yotadi. Axloq ong shakli shu bilan birgalikda, urf-odatlar, amaliy harakatlar majmuasi hamdir. Axloq tushunchasi boshqa ijtimoiy ongning shakllariga qaraganda ertaroq, ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan. Jamiyatda insonlarning kundalik hayotdagi shaxsiy munosabatlardagi xulq-atvorini tartibga solish uchun xizmat qilgan. Axloq qoidalari hamma uchun majburiy bo'lgan, shuning uchun ham bu umumbashariy ahamiyatga egadir. Jamoaning barcha a'zolariga talloqli bo'lgan axloqiy qoidalar jamiyatning qadriyat asoslarini tashkil etuvchi barcha umumiy narsalarni o'zida birlashtiradi. Jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan xulq-atvor normalari va qoidalari majmuyi sifatida harakat qilgan.

Bilgilki, ulug'lar darveshlik barcha adabdir demishlar. Ya'ni har bir vaqtning, har bir holatning, har bir maqomning o'z odobi bordir. Bas, kimki odobni saqlasa, mardlar maqomiga yeta oladi. Hakim Abulmajd Sanoiy "Hadiqat ul-haqiqat" ("Haqiqat bog'chalari") asarida debdurkim, suhbat adab natijasidir va adab hurmat natijasi va hurmat savfat (sof, pokiza) natijasi va savfat ko'ngli natijasi va ko'ngil aql xazinasi va aql esa sir xazinasi, sir ma'rifat xazinasi... Va debdurlarki, zohiriy adab botin adabining belgisidir. Har bir odam biror martabaga erishsa, odobidan erishadi.

Bu borada Jaloliddin Rumiy:

*Ham adabdin nurga to'lmish bu falak,*

*Ham adabdin tojdir, ilohiy nurdan ul*

Va yana:

*Adabdin tojdir, ilohiy nurdan ul,*

*Bu tojni kiy, sanga ochiq hama yo'l.<sup>1</sup>*

Koshifiy yana ko'ngilni asrash va yetti a'zo: ko'z, quloq, til, qorin, og'iz, qo'l va farj (tanosil) a'zolarining odoblari haqida to'xtalib, shariatga xilof ishlardan, gunohdan, hasad, takabbur, xudpisandlik, riyoyo, g'afolat, baxillik, hirs va shunga o'xshash yomon illatlardan ko'ngil oinasini pokiza tutmoqlik kerak deb, ta'kidlaydi. Ko'ngil oinasini xas-xoshokini safo supurgisi bilan tozalab turgin.

*Dil o'yin safo supurgisi ila supurmaguncha,*

*Hazrati jonon jamoli unda jilva etmagay.*

Axloq qoidalari hamma uchun majburiy bo'lgan. Chunki ular odamlar hayotining muhim shartlarini, ma'naviy ehtiyojlarini aks ettiradi. Axloq insonning jamiyatga munosabatini va jamiyatning shaxsga qo'yadigan talablarini aks ettiradi. U odamlarning bir-birlari va jamiyat oldidagi burchlarini belgilab beruvchi xulq-atvor qoidalari taqdim etadi. Axloqiy ong inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Kasbiy axloq, kundalik axloq va oilaviy axloqni ajratib ko'rsatish mumkin.<sup>2</sup> Axloqiy g'oyalari jamiyat tomonidan ishlab chiqiladi va uning rivojlanishi va o'zgarishi bilan o'zgarishi mumkin. Axloqning asosiy vazifasi jamiyatning barcha a'zolari va ijtimoiy guruhlarining munosabatlarini tartibga solishdan iborat. Axloqiy ong tarkibida axloqiy ideal muhim o'rin tutadi. Bu axloqiy baholashning eng yuqori mezonidir. Kishilarda axloqiy idealning shakllantirishning zaruriy sharti ularning axloqiy mdaniyat darajasi bo'lib, u ma'lum sharoitlarda va amalda bunday qadriyatlarni yaratish yo'nalishlarida axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish o'Ichovidir. Axloqiy ong odamlarning ijtimoiy hodisa va harakatlarini ularning qadr-qimmatini nuqtayi nazaridan aks ettiradi. Qadriyat deganda shaxs yoki jamoaning ma'naviy ahamiyati, muayyan xatti-harakatlari va qadriyat g'oyalari (me'yorlar, tamoyillar, yaxshilik va yomonlik tushunchalari, adolat) tushuniladi. Baholovchi ongda ba'zi qadriyatlar yo'qolishi mumkin, boshqalari paydo bo'ladi. O'tmishda

<sup>1</sup>Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. Futuvvatnomai Sultoni. Toshkent, "O'zbekiston", 2019, 345-bet.

<sup>2</sup> Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Toshkent, 2000, 15-bet.



axloqiy bo'lgan narsa zamonaviy hayotda axloqsiz bo'lishi mumkin. Axloq dogma emas, u tarixiy jara-  
yoning borishiga mos ravishda rivojlanadi.

Axloqiy ongning o'ziga xosligi shundaki, u urf-odatlar va an'analar bilan qo'llab-quvvatlanadigan  
o'z-o'zidan shakllangan normalar, baholar va tamoyillarni aks ettiradi. Shaxsning axloqiy talablarining  
bajarilishi jamiyat tomognidan baholanadi, bu uning ayrim vakillarining rasmiy vakolatlari bilan bog'liq  
emas. Insonning o'zi o'z harakatlari va sodir bo'layotgan voqealarni axloqiy me'yorlarga asoslanib baho-  
lay oladi, shuning uchun u axloqiy ongning yetarlicha rivojlangan darajasiga ega subyekt sifatida harakat  
qiladi.

Axloq normalari ikki xil ko'rinishda bo'ladi; axloqiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida; ik-  
kinchisi axloqiy ong shakllari sifatida. Birinchi, shakl ko'pchilikning xatti-harakatlari tufayli kelib chiq-  
qan bo'lsa, ikkinchisi, axloqiy norma har bir insonning ongida qoida sifatida namoyon bo'lib, harakatga  
yo'naltirilgan motiv demakdir. Kasb axloqiy normalariga quyidagilar kiradi: odoblilik, xushmuomalalik,  
kamtarlik, sabrlilik, bag'rikenglik, adolatlilik va, asosiysi, halollik.<sup>1</sup>

Koshifiydan ko'zning odobi nechta deb so'rasalar, ikkita: birinchidan, ko'zni to'rt narsani ko'rish-  
dan saqlash kerak. Ikkinchidan, to'rt narsani ko'rishga ko'zni ochish kerak. Aslida, ko'zni nimani ko'rishi  
mumkin deyishsa, yo'ylni ko'rib, qadamni qo'yishni mulohaza qilish uchun, avval, yo'lga qarash kerak.  
Ikkinchidan, yer va osmonga qarash kerak. Uchinchidan, ibratli narsalarga ko'zni ochib qarash kerak, toki  
kelajakda foydali saboq bo'lsin. Ko'z qarashi mumkin bo'lmagan narsalar quyidagilar: ko'zni nomah-  
ramni ko'rishdan man etmoq kerak. Chunki unga nazar zaharli o'q kabidir. Ikkinchidan, ko'zni shahvat  
qo'zg'ovchi suratlardan asrash kerak, uchinchidan, ko'zni o'zgalay aybini ko'rishdan asrash kerak;

*O'zgalay aybiga boqma, o'zingga boq,  
Ko'zni yoqaga berkit, dil shamini yoq.*

To'rtinchidan, ko'zni birovga haqorat nazari bilan qarashdan asragil. O'zgalarni kamsitish, mazax  
qilish, ojizlar ustidan kulishdan saqlash, chunki hech kim nuqsondan xoli emas. Hoja Imomiddin Faqih  
yozganidek,

*Mamlakat shohi bo'larsan yo Ilohing soyasi,  
Lek boqmas sen haqorat ko'zila bir bandaga.*

Koshifiy quloqning odobi borasida esa u ikkita, birinchisi, quloqni uch narsaga ochmoq kerak, ik-  
kinchisi, uni uch narsadan saqlash kerak. Quloq eshitishi lozim bo'lgan narsalar: avval, botil va bid'at  
so'zlardan, ikkinchidan, behuda va foydasiz fahsh so'zlardan, uchinchidan esa g'iybat va bo'hton so'z-  
larni eshitishdan.

Tilni ochish kerak bo'lgan narsalar qaysi deb so'rasalar ayoytg'in hojat zarurati yuzasidan ko'ngil-  
larda yashirin bo'lgan rozni izhor etish, mazlumlar faryodiga javob berish va mahrumlar imdodi uchun  
so'z aytish. Yana tilni saqlash lozim bo'lgan narsalar qo'yidagilar: birinchidan, yolg'on gapirishdan, ik-  
kinchidan, va'daga xilof gapirish va munofiqona so'z aytishdan, uchinchidan, g'iybat va bo'hton gaplar-  
dan, chunki bo'hton fosiqlar ishidir. To'rtinchidan, behuda bahs qilishdan va gap tashishdan, beshinchi,  
o'zini maqtash va ta'riflashdan, oltinchi, navkar va xizmatkorlarni la'natlashdan, yettinchi, qarg'ashdan,  
duoyi bad qilishdan, sakkizinchi, mazax-masxara qilish va hazil-huzuldan.

Koshifiy qo'lning odobiga to'xtalar ekan, ular beshta: halol ish bilan shug'ullansin (kasbi bo'lsin),  
birovga ozor bermasin, haromga tegmasin, omonatga xiyonat qilmasin, qalamni to'g'ri so'z uchun ishlat-  
sin va qalam bilan yozganini til bilan aytish imkoni bo'lsin.

Voiz qorin odobiga to'xtalib, insonlarning harom va shubhali taomlarni yemaslik va pok bo'lishga  
chaqiradi.

Endi esa oyoqlar odobiga to'xtalib, inson uchta joyga borish va uchta joyga bormaslik kerakligi ay-  
tib o'tadi. Ular: borilishi kerak bo'lgan joylar, xayrli joyga borish, qabrlar va qalblar (bemor insonlar) zi-  
yosatiga borish. Borilishi kerak bo'lmagan joylar: zolimlar va haromxo'rlar uyiga bormaslik, qimorxon  
va xarobod kabi noloyiq va tuhmat joylarga bormaslik, nomahramlar orqasidan qadam tashlamaslik ke-  
rakligini aytib o'tadi.

Koshifiy "naqib" so'zining ma'nosiga to'xtalar ekan, u arabcha so'z bo'lib, sinovchi, taniydigan  
demak. Ya'ni, naqib odamlar fe'li ruhiyatini yaxshi fahmlaydigan kishidir va ul kishilar o'z zamonasi  
qavm-u ahlining guvohidirlar. Tariqat ahli esa kishilarning hol ahvolini payqaydigan, ruhshunos odamni  
naqib deydi, ya'ni, naqib bir qancha fazilatlarini jamlagan donishmand, zakiy insondir.<sup>2</sup> Agar qanday

<sup>1</sup> Abdulhay Abduraxmonov. Saodatga eltuvchi bilim. T., "Movarounnahr", 2004, 525-bet.

<sup>2</sup> Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. Futuvvatnomayi Sultoniy. Toshkent, "O'zbekiston", 2019, 289-bet.

odamlarni naqib deydilar, deb so'rasalar, javob berib aytginki, qo'yidagi o'n xislatni jamlagan odam naqibdir. Birinchidan, u olim bo'lmog'i kerak. Ikkinchidan, u omil, ya'ni, ilmiga amal qiluvchi tajribali kishi bo'lsin. Uchinchidan, ko'p safar qilib, ko'pni ko'rgan bo'lsin. To'rtinchidan, rahbarlik qobiliyatiga ega bo'lsin. Beshinchidan, nasihatgo'y bo'lsin. Oltinchidan, yaxshilikni sog'inadigan bo'lsin. Yettinchidan, saxiy bo'lsin. Sakkizinchidan, xulqi yoqimli bo'lsin. To'qqizinchidan, haq so'zni aytadigan bo'lsin. O'ninchidan, sirni saqlaydigan bo'lsin. Agar "naqib" so'zining harflari nima ma'noni bildiradi, deb so'rasalar (arab yozuvida): "N"– niyozmandlikni, "D"– qabulni (naqib tariqat farzandlarining barchasini muhabbat bilan qabul qilishi lozim), "T"– yorliq va mehribonlikni, "B"– behbudiy (futuvvat ahli niyatlarining doimiy yaxshiligi)ni bildiradi.<sup>1</sup>

Agar belbog'ni bog'lash va yechishning ma'nosi nima, deb so'rasalar, degilkim, tariqatda nechta bog'lanadigan va nechta ochiladigan narsalar (eshiklar, mushkulliklar) bor, bu o'shanga ishoradir. Agar bog'lanadigan narsalar nechta va ochiladiganlari qancha, deb so'rasalar, aytgil: o'n ikkita bog'lanadigan va o'n to'rtta ochiladi (yechiladi)gan narsa bor. Agar bog'lanadi (berkil)gan narsalar qaysidir, deb so'rasalar, ayt: avval, ko'zni harom narsalardan va ko'rish gunoh bo'ladiganlaridan berkitish, ikkinchi, quloqni eshitish nojoiz narsalardan berkitish, uchunchi, aytilishi nomaqbul so'zlardan tilni tiyish, to'rtinchi, g'ayr narsalardan fikrni asrash, beshinchi, ko'ksini hasad va kinadan saqlash, oltinchi, ko'ngilni shubhadan xoli tutish, yettinchi, qo'lni xalq ozori va harom narsalardan tortish, sakkizinchi, tomoqni man qilingan narsalardan berkitish, to'qqizinchi, futuvvat bandini zinodan va sharr (yomon) ishlardan saqlash, o'ninchi, oyoqni tuhmat keltiruvchi va iflos joylarga borishdan saqlash, o'n birinchi, xotirani behuda fikrlardan saqlash, o'n ikkinchi, baxillik va ta'ma yo'lini berkitish.

Ochiladigan narsalar qaysidir, deb so'rasalar, aytgin: eshikni mehmoni uchun ochish, dasturxonni ochish, odamlar bilan muloqotda yuzning ochiqligi, piri va muridlarni ko'rish uchun ko'zning ochiq bo'lishi, quloqni oriflar va ustozlar so'zi uchun ochish, tilni Subhonah-u taolo zikri uchun ishlatish, shafqat-u ehson uchun qo'lni ochish, odamlar muhabbatiga qalbni ochish, ishq uchun ko'ngilni ochish, haqiqatni bilish uchun fikr eshigini ochish, xayr-u savob ishlar uchun qadamni ravon etish, ezgu hikmatlarga xotira darchasini ochish, saxovat va ko'ngil ovlash eshigini ochish, ezgu axloqqa yo'l ochish.

Koshifiy axloqiy fazilatlarining yana biri sabr borasida Haq taolldan kelgan balolarga toqat qilish va o'zini qo'lga olishdir, deb tushuntiradi. Sabr juda chiroyli va yoqimli sifatdir. Muqaddas kitobda "Albatta Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir" ("Baqara" surasi, 153-oyat) kalimasi kelgan. "Albatta, sabr qiluvchilarga (oxiratda) mukofotlari behisob berilur" ("Zumar" surasi, 10-oyat) kalimasi bilan sabr qiluvchilarning mukofoti behad va behisobligi ayon etiladi. Sabr tufayli har bir kishi murodga yetkay, deb yozadi.

*Sabr qilmoq ergadur yaxshi sifat,  
Toki topqay o'z murodin oqibat.*

Koshifiy bu borada fikrini davom ettirib, har kim zamona hodisalarining o'q yomg'iri ostida sabr qalqonini yuziga tutsa, albatta, umidining o'qi murod nishonasiga tegadi va balolardan unga hech qanday zarar yetmaydi. Chunki sabr shodlik kalitidir va rohat adabining eshigi bu kalitsiz, aslo, ochilmas, deb ta'kidlaydi.

Koshifiy omonat va diyonat fazilati borasida diyonat xalqning ildizidir, imon omonat bilan mukammal bo'ladi, "Omonatga xiyonat qiladigan kishida imon yo'q", deb aytadi. Islomda esa shariat qoidasi diyonat rasmini saqlash bilan tartib topadi:

*Shar'iki, qaror oldi siyonat uzra,  
Din qoidasin qo'ydi diyonat uzra.  
Ko'ngilda bo'lsa omonatdin asar,  
Yetmas do'zax o'tidin hech zarar.<sup>2</sup>*

Har bir ishga inson tafakkur bilan boqsa, sabr bilan ko'rgan va eshitgan narsasiga qarasa, uning bir haddi omonatga va bir haddi xiyonatga bog'liqdir. Shunday bo'lgach, kishi biror ishda omonat saqlamasa, xiyonat qilgan bo'ladi. Koshifiy insonga Alloh har bir a'zoni omonat qilib berganki, toki u ularga xiyonat qilmasin. Masalan, ko'z shunday omonatki, uning bilan qudrati ilohiy narsalarga qarasinlar. Quloq omonati shuki, u bilan Alloh taollo kalomini va Rasululloh hadislarini va nasihatini eshitsinlar. Til shunday omonatki, u bilan Haq taollo zikrini aytsinlar. Qo'l omonati shuki, u bilan xaloyiqqa foyda keltirsin. Ko-

<sup>1</sup> Shu manba.

<sup>2</sup> Shu manba.

shifiy “diyonat” so‘zining ma’nosini omonat saqlamoqdir va uning rasmini saqlash ikki jahon saodatiga, balki Xudo roziligiga sababdir.

Axloqiy fazilatlaridan yana biri farosat tushunchasidir. Koshifiy “farosat” so‘zining lug‘aviy ma’nosi biror narsaning yaxshi va yomon xususiyatini ko‘rib aniqlashdir, istilohiy ma’nosi esa umumiy bo‘lib, jonning suratdagi zohir holini mushohada qilib, uning ichki mohiyatidan ogoh bo‘lishdir. Koshifiy farosat hukumat ishining ulug‘ shartidir va har bir ish yuz berganda huquq ahli uning oldi va orqasiga basirat (arab tilida ko‘rmoq) ko‘zi bilan nazar solishi lozimki, toki adolatli hukm chiqarsinlar. Agar ish hodisa haqiqati maxfiy bo‘lsa, uni farosat nuri bilan topsinlar. Chunki hukumat ziynati farosat zevari bilan go‘zaldir. Koshifiy farosat ikki qismdan iborat deb aytadi: hukmiy farosat va shar‘iy farosat. Shar‘iy farosat “pok botin va sof ko‘ngilli kishining ko‘zidan ko‘tarilib, farosat nuri bilan haqiqatni anglab yetadi” va ikkinchi qism hukmiy farosat bo‘lib, donishmandlar uni tajriba bilan topadilar va dalillarini kishining shakli va shamoilidan mushohada qilib, aniqlaydilar va buning aksari to‘g‘ri chiqadi.

*Farosatdin ko‘ngilga ko‘z ochilg‘ay,*

*Hama holatni ul ma‘lum qilg‘ay.*

Agar inson ko‘nglida farosat ko‘zi ochilsa, undagi hamma holat ma‘lum bo‘lib, haqiqat qaror topadi. Buning uchun inson qalbi pok, niyati xolis bo‘lsa, unda ilohiy baxsh etilgan ne‘matlar qaror topadi. Qomusiy lug‘atda “Inson tashqi tomondan, g‘arib, nochor ko‘rinsada, uning botiniylik hissiyoti, qalbi, ko‘ngli nihoyatda nozik va ma‘naviy boy bo‘lishi mumkinligi, aksincha, sirdan qaraganda, kam-ko‘stisiz, salobatli ko‘ringan kishi, hissiyotsiz, qalbi ko‘r bo‘lishi mumkin. Botiniylik insonga ilohiy baxsh etilgan ne‘mat, u buyuk kishilarning zoxiriy faoliyatlarida yorqin ifodasini topgan”, deb ta‘kidlangan.<sup>1</sup>

Xulosa o‘rnida Koshifiyning fikrini keltiramiz: “Odamzod o‘z axloqini o‘zgartirib boradi, ya‘ni, xulq-atvor yaxshilik tomon o‘zgarishi kerak, bu so‘zning haqiqati shundaki, odamlar maqbul va nomaqbul axloqiy sifatlar orasida doimiy kurash boradi, har bir sifat o‘ziga qarshi sifatni yo‘q qilish payida bo‘ladi. Shundaygina peshtaxta (sandiq) ichidagi “qalb” (arab tilida qalb so‘zi o‘zgaruvchi, evrituvchi, degan ma‘nolarni beradi) yaxshi xislatlardan nishona berib boradi. Bu borada Mavlono Rumiy ham insonning “qalb ko‘zi” ochilmas ekan, u o‘zini, o‘zligini topa olmaydi, deb ta‘kidlaydi.

**Худайбердиев Элибой Норбоевич (Навий Давлат Педагогика институти доценти)  
ЯДРО ФИЗИКАСИДАН АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИ ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВ  
АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ**

***Аннотация.** Ушбу мақолада бўлажак физика ўқитувчиларини тайёрлашда “Атом, ядро ва элементар зарралар физикаси” фанидан амалий машғулотлар ўтказиш методикаси таҳлил этилган. Амалий машғулотларда интегратив ёндашув методикасининг таълим самарадорлигини оширишдаги аҳамияти кўрсатилган.*

***Аннотация.** В данной статье проанализирована методика проведения практических занятий по дисциплине “Физика атома, ядра и элементарных частиц” при подготовке будущих учителей физики. Показано значение методики интегративного подхода на практических занятиях в повышении эффективности обучения.*

***Annotation.** This article analyzes the methodology of conducting practical lessons in the discipline “Physics of the atom, nucleus and elementary particles” in the preparation of future physics teachers. The importance of the integrative approach methodology in practical lessons in improving the effectiveness of training is shown.*

***Калим сўзлар:** атом, ядро, элементар зарралар, амалий машғулот, методика, интегратив ёндашув, сифат масалалари, ҳисоб-график ишлар, политехник масалалар.*

***Ключевые слова:** атом, ядро, элементарные частицы, практическое обучение, методика, интегративный подход, качественные задачи, расчетно-графические работы, политехнические задачи.*

***Key words:** atomic, nuclear, elementary particles, practical training, methodology, integrated approach, quality issues, computational-graphic works, Polytechnic issues.*

Педагогика олий таълим муассасаларида юкори компетентли физика ўқитувчиларини тайёрлашда амалий машғулотларнинг аҳамияти педагогик тадқиқотлар ва педагогик тажриба синовларда исботланган. Амалий машғулотларда талабаларнинг назарий билимлари мустаҳкамланади, бу

<sup>1</sup> Falsafa. Qomusiy lug‘at. Tuzuvchi va mas‘ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent, “Sharq”, 2020, 59-bet.

билимларни аниқ ҳолатларда қўллаш малака ва қўникмалари шаклланади. Амалий машғулотларни методик жиҳатдан таҳлил этилганда бу машғулот тури кўп томонлама интегратив ёндашувларни ўз ичига олишини кўриш мумкин. Биринчидан, амалий машғулотда машғулот турлари орасидаги, яъни, назарий машғулот, лаборатория машғулоти, мустақил таълим орасидаги интеграция амалга ошади. Иккинчи томондан, амалий машғулотларда математика, геометрия, кимё ва бошқа фанлар билан предметлараро интеграция хусусий ҳолатлар учун таҳлил этилади. Физик ҳодисаларни моҳияти ва қонуниятларини интегратив асосда мукаммал ўрганиш эса бўлажак физика ўқитувчиларининг компетентлик даражаси шаклланишида муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Мамлакатимизда ва хорижий давлатларда физика фанини ўқитишда амалий машғулотларнинг ўрни ҳамда аҳамиятини ўрганиш бўйича кўплаб илмий тадқиқотлар ўтказилган ва бу жараён ҳозирги кунда ҳам давом этмоқда. Бундай илмий тадқиқотлар мамлакатимизда Б.Мирзахмедов, М.Джораев, А.Бойдедаев, О.Ахмаджонов, Т.М.Оплачко, К.А.Турсунметов, К.Р.Насриддинов, С.Р.Полвонов, Э.Бозоров каби олимларимиз томонидан олиб борилган. Бу тадқиқотларда умумий физика курсининг турли бўлимларига тегишли масалалар классификацияси ҳамда амалий машғулотлар методикаси ишлаб чиқилган. Я.А.Коменский, В.П.Демкович, С.Е.Каменский, В.П.Орехов, Я.И.Перельман, М.И.Ильин, Б.Ф.Булимович, Б.Т.Разумовский, С.С.Мошков, Л.И.Резников, В.А.Зиббер, Н.Я.Прайсман каби хорижий олимларнинг илмий-педагогик тадқиқотларида амалий машғулотларнинг моҳияти ва классификацияси батафсил таҳлил этилган ҳамда амалий машғулотларда турли типдаги масалаларни ечишда ўзига хос ёндашувлар методикаси ишлаб чиқилган.

Илмий тадқиқотларда физик масала сифатида мантикий фикрлаш, математик амаллар ва эксперимент ёрдамида физик усуллар ва қонунлар асосида ҳал қилинадиган кичик муаммо тушунилади. Буни ҳисобга олган ҳолда, амалий машғулотни «Ақлий ҳужум» воситасида ҳал қилинадиган «Муаммоли вазият» дарс машғулоти сифатида талабаларда физик тушунчалар ва билимларни шакллантиришга хизмат қилувчи мақсадли машқлар тўплами, дейиш мумкин.

Ҳар бир амалий машғулотда мақсадни аниқ белгилаб олиш ва шу мақсадга мувофиқ ҳолда масалаларни тўғри танлаш муҳим аҳамиятга эга. Шу нуқтаи назардан, физик масалалар турли хусусиятларига кўра, классификацияланади.<sup>1</sup> Илмий методик тадқиқотлар натижалари асосида физик масалаларнинг умумий классификацияси 1-расмдаги схемада келтирилган.




1-расм. Физикавий масалалар классификацияси.

<sup>1</sup>Каменецкий С.Е., Орехов В.П. Методика решения задач по физике средней школе. Москва, “Просвещение”, 1971, с. 448.

Юқорида келтирилган масалалар классификацияси масалалар турларини тўлиқ қамраб олмади. Масалан, М.Джораев, Б.Сатторовалар масалаларни берилиши бўйича: матн масалалари, эксперимент масалалари, график масалалар, тадқиқот масалалари каби турларига ажратиш мумкинлигини кўрсатганлар.<sup>1</sup> Бундан кўринадики, физик масалалар классификациясини турли жиҳатларига кўра яна-да бойитиш ва кенгайтириш мумкин.

Амалий машғулотлар ўқув фаолиятининг энг мураккаб тури бўлганлиги учун, ўқув дастурида ўқув соатларининг ярмидан кўпи бу машғулотларга ажратилади. Амалий машғулотлар таълимий, тарбиявий характердаги бир нечта функцияларни бажарган ҳолда, уларни нафақат ўқитиш воситаси, балки ўқитишнинг асосий мақсади сифатида ҳам қараш мумкин. Бу ҳолат ҳозирги кунда масалалар ечиш бўйича амалий машғулотларга эътиборнинг кучайганлигида ҳам ўз аксини топган. Шунга қарамадан, бўлажак физика ўқитувчиларини тайёрлашдаги асосий камчиликлардан бири физик масалаларни ечиш методикасига, айниқса, масала ечишнинг умумлашган методларини ишлаб чиқишга етарли эътибор қаратилмаётганлиги бўлиб қолмоқда. Л.М.Фридман фикрича, “Биз қанчалик кўп масала ечмайлик, барибир, янги турдаги масалаларга дуч келаверамиз. Шунинг учун ихтиёрий масалани ечиш учун ярқли умумий ёндашувни топишимиз зарур”.<sup>2</sup>

Илмий-услубий тадқиқотлар таҳлили ҳамда кўп йиллик педагогик тажрибалар асосида амалий машғулотларда физикавий масалаларни ечишга умумий ёндашув алгоритминини Блум таксономияси орқали ифодалашни таклиф этиш мумкин (2-расм).



2-расм. Амалий машғулотларда масалаларни ечишнинг умумий алгоритми.

Амалий машғулотларда кузатиладиган муаммолардан яна бири мутахассислик йўналишига мос масалалар танлаш муаммосидир. Ҳозирги кунда мавжуд бўлган ва таълим жараёнида қўлланилаётган масалалар тўпламлари университетлар, педагогика институтлари ёки техника олий ўқув юр்தларида турига мос ҳолда тайёрланган бўлиб физика фанини барча бўлимларини ўз ичига олади [4,5,6]. Ўқитувчи ва талабаларга қулай бўлиши ҳамда таълим сифати ва самарадорлигини ошириш учун ҳозирги кунда таълим йўналишлари фан дастурига мос келувчи масалалар тўпламлари яратиш зарурияти мавжуд. Шу мақсадда умумий физика фанининг алоҳида бўлимлари учун масалалар тўпламлари яратилган. Атом, ядро ва элементар зарралар физикаси бўйича бундай ўқув қўлланмаларга И.Е.Иродовнинг “Квант механикасида масалалар тўплами” [7], “Атом ва ядро физикасида масалалар тўплами” [8] ҳамда К.Р.Насриддинов ва бошқалар томонидан яратилган масалалар тўпламлари [9, 10]ни мисол сифатида келтириш мумкин.


Физика фанидан амалий машғулотларни ташкил этишнинг турлари ва уларнинг умумий мақсади 3-расмдаги боғланиш схемасида кўрсатилган.

**3-расм.** Амалий машғулотларни аудиторияда ва аудиториядан ташқари ташкил этиш.

<sup>1</sup> Джораев М., Саттарова В. Физика ва астрономия ўқитиш назарияси ва методикаси. Т., “Фан ва технология”, 2015, 352-бет.

<sup>2</sup> Фридман Л.М. Теоретические основы методики обучения математике. № 3, изд. 5, стереотип. URSS, 2021, с. 248.

Амалий машғулотларни ташкил этиш схемасидан кўринадики машғулот туридан қатъий



назар ҳар бир масала ечими бўйича хулоса берилиши зарур. Масала ечимига берилган якуний хулоса масалада қўйилган муаммонинг туб моҳиятини тушунишга хизмат қилади.

Юқоридаги таҳлилларни “Атом, ядро ва элементар зарралар физикаси” фани учун қўлланилишини қарайлик. Бу фан бўйича амалий машғулотларни ташкил этишда бажариладиган ҳар хил турдаги масалаларни қандай кетма-кетликда берилишига эътибор бериш зарур. Бунда амалий машғулотда оддийликдан мураккабликка ўтиш тамойилига амал қилиб, дастлаб, мантиқий, сифат масалалари, кейин эса ҳисоблаш ва ҳисоб-график ишлари ва шу орқали ишлаб чиқариш масалаларини ўз ичига олувчи политехник масалаларга ўтиш юқори самара бериши аниқланди.

Атом ва ядро физикасидан сифат масалалари ўзига хос жиҳатларга эга бўлиб, кўп ҳолларда назарий маълумотларни такрорлаш, чуқурлаштириб ўрганишга йўналтирилган бўлади. Бу масалалар маълум жиҳатлари бўйича PISA тестларига ўхшаш бўлиб, талабаларда ўрганилаётган мавзуга нисбатан мотивацияни шакллантиришга ҳам хизмат қилади.

Атом ва ядро физикасидан сифат масалаларига намуна тариқасида қуйидаги 1-жадвалдаги масалаларни келтириш мумкин.

1-жадвал

Атом ва ядро физикасидан сифат масалаларига намуналар

Масала шarti	Масалага оид чизма ёки формула	Жавоби
Расмда қайси тажриба тасвирланган? Схемани шарҳланг.		Алфа заррачаларнинг атомда сочилиши бўйича Резерфорд тажрибаси.
Графикдаги штрихланган юза нимани англатади?		Бета-стабиллик полосаси.
Ушбу формула қандай физик		Ядроларнинг боғ-

катталикни ифодалайди?	$W(A,Z) = \alpha A - \beta A^{2/3} - \gamma \frac{Z(Z-1)}{A^{1/3}} - \delta \frac{(A-2Z)^2}{A} + \zeta A^{-3/4}$	ланиш энергияси учун Вейсзеккернинг ярим эмпирик формуласи.
Ушбу графикда қандай боғланиш ифодаланган?		Ядролар солиштирма боғланиш энергиясининг масса сонига боғлиқлик графиги.


Ҳисоб график ишлари микдорий масалалар турига кирсада у ҳам экспериментал, ҳам ҳисоблаш ва график масалаларни ўз ичига оловчи комплекс масалалардан иборат. Бу ҳолда масалада маълум бир параметрлар орасидаги ўзаро боғланишларни ўрганиш ҳамда бу боғланиш графикларини чизиш ва ташкил этиш қўйилган муаммони чуқур таҳлил этишга имкон беради. Ҳисоб график ишларининг ҳажмини эътиборга олган ҳолда бундай масалаларни талабаларга мустақил таълим топшириғи сифатида берилиши мақсадга мувофиқ бўлади. Ҳар бир амалий машғулот ёки мустақил иш якунида олинган ечимни таҳлил этиш ҳамда хулоса чиқариш қаралаётган мавзунини ёки муаммони чуқурлаштириб ўрганишга ва шу орқали таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Атом ва ядро физикасидан амалий машғулотларда ёки мустақил таълимда ҳисоб-график ишларини бажариш намунаси сифатида қуйидаги масалани қарайлик.

2-жадвал

Атом ва ядро физикасидан ҳисоб-график иши намунаси

Ҳисоб график иши мазмуни ва топшириқлари					Ҳисоб график ишининг бажарилиши
В а р и а н т	$n_1$	$n_2$	$Z$	$\Sigma$	График боғланишлар
1	1	2	74	1	$v(Z),  \vec{L}_l (l)$
№					
1	$n_1$ ҳолатда электроннинг ядродан энг катта эҳтимолли жойлашув масофасини аниқланг.				$r_n = \frac{4\pi\epsilon_0\hbar^2}{m_e Z e^2} n^2 = \frac{r_0}{Z} =$
2	$n_1$ квант сон билан белгиланган ҳолатда жойлашадиган максимал электронлар сонини аниқланг.				$N_e = 2n^2 = 2$
3	$n_1$ ҳолатдаги электроннинг орбитал импульс моменти модулини аниқланг.				$ \vec{L}_l  = \hbar \sqrt{\ell(\ell+1)} = 0 \quad (l=0)$
4	$n_1$ ҳолатдаги электроннинг орбитал импульс моменти-нинг ташқи магнит майдон йўналишига барча проекцияларини топинг.				$L_{lz} = m_l \cdot \hbar = 0 \quad (m_l = 0)$
5	$n_1$ ҳолатдаги электроннинг магнит момент модулини топинг.				$ \vec{P}_l  = \mu_B \sqrt{\ell(\ell+1)} = 0 \quad (l=0)$
6	$n_1$ ҳолатдаги электроннинг магнит моменти импульсининг проекцияларини топинг.				$P_{lz} = -\mu_B m_l = 0 \quad (m_l = 0)$
7	Берилган $n_1$ ҳолатдаги электроннинг максимал тўла импульс моменти ва Ланденинг $g$ факторини аниқланг.				$ \vec{J}  = \hbar \sqrt{j(j+1)} = \sqrt{\frac{3}{4}} \hbar,$ $(j =  \ell \pm s  =  \ell \pm 1/2 )$ $g = 1 + \frac{j(j+1) + s(s+1) - \ell(\ell+1)}{2j(j+1)} = 2$
8	$n_1 \rightarrow n_2$ ўтиш частотасини аниқланг.				$\nu = c \cdot Z \cdot R \left( \frac{1}{n_1^2} - \frac{1}{n_2^2} \right) = 1,83 \cdot 10^{17} \text{ Hz}$

9	$n_1 \rightarrow n_2$ ўтишда қандай тўлқин узунлиқдаги фотон чиқади (ютилади) ва бу фотон электромагнит тўлқинлар қайси диапазонида ётади.	$\lambda = \frac{c}{\nu} = 1,64 \cdot 10^{-9} \text{ м}$ Рентген нурланиш диапазони.
10	Вариантда берилган $\nu(Z),  \vec{L}_l (l)$ боғланиш графикларини чизинг.	$\nu = 2,5 \cdot 10^{17} \cdot Z$ 
		$ \vec{L}_l  = \hbar \sqrt{l(l+1)} = 0 \quad (l = 0)$

Атом ва ядро физикаси фанидан амалий машғулотларда политехник масалаларга мисол тариқасида ядро энергетикасининг физикавий асосларига доир қуйидаги масалани қарайлик [9] (3-жадвал).

3-жадвал

#### Атом ва ядро физикасидан политехник масалаларга намуна

Масала шарти	Масаланинг ечилиши
<p>Ядронинг ҳар бир бўлинишда бўлақларнинг бешта <math>\beta^-</math> емирилиши тўғри келади ва бунда антинейтриноларнинг йиғинди энергияси <math>E = 11</math> МэВ га тенг деб ҳисоблаб, иссиқлик қуввати 20 МВт бўлган реактордан чиқаётган антинейтриноларнинг тўла оқимини ҳамда улар олиб кетадиган қувватни аниқланг. Ядро реакторларида уран-235 изотопи ишлатилади ва ҳар бир уран ядроси бўлинишида <math>Q_{\beta^-} = 200</math> МэВ энергия ажралади.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Реакторнинг иссиқлик қуввати, яъни 1 с да уран-235 бўлинишида чиқадиган тўла энергия. <math>P = 20 \text{ МВт} = 20 \cdot 10^6 \text{ Ж/с}</math></li> <li>• 1 с даги бўлинишлар сони <math>\phi = \frac{P}{Q_{\beta^-}}</math></li> <li>• Ҳар бир бўлақда 5 та <math>\beta^-</math> емирилиш бўлса <math>\phi = 5 \frac{P}{Q_{\beta^-}} = 3,12 \cdot 10^{18} \text{ с}^{-1}</math>.</li> <li>• Битта антинейтрино олиб кетадиган энергия <math>E/5</math> га тенг.</li> <li>• Антинейтрино оқимининг тўла қуввати <math>P_{\bar{\nu}} = \frac{E}{5} \phi = 1,1 \text{ МВт}</math>.</li> </ul>

“Атом ва ядро физикаси” фанидан амалий машғулотлар юқорида кўрсатилган интегратив ёндашув методикаси асосида ташкил этилганда, бўлғуси физика ўқитувчилари микроолам ҳодисалари ва қонуниятлари ҳақида мукамал билимга эга бўладилар ҳамда уларда юқори касбий компетентлик шаклланади. Амалий машғулотларни бу методика асосида ташкил этиш нафақат атом ва ядро физикаси бўйича билимларни амалда қўллашга, балки ҳисоб-график ишларида Microsoft excel дастурий таъминотидан фойдаланиш орқали фанлараро интеграцияни таълим жараёнида қўллаш орқали таълим самарадорлигини орттиришга хизмат қилади. Муаммоларни ўрганишга бундай ёндашув микроолам ҳодисаларидан фарқли бўлган ўзига хос хусусиятларга эга бўлган микродунё ҳодисаларини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. Каменецкий С.Е., Орехов В.П. Методика решения задач по физике средней школе. М., “Просвещение”, 1971, с. 448.
2. Джораев М., Саттарова В. Физика ва астрономия ўқитиш назарияси ва методикаси. Т., “Фан ва технология”, 2015, 352-бет.
3. Фридман Л.М. “Теоретические основы методики обучения математике”. №3, изд.5, стереотип, URSS, 2021, с. 248.
4. Чертов А.Г., Воробьев А.А. Физикадан масалалар тўплами. Т., “Ўзбекистон”, 1997, 604-бет.
5. Волькенштейн В.С. Умумий физика курсидан масалалар тўплами. Т., 1969.
6. И.Е.Иродов. Задачи по общей физике. “Наука”, 1979, 449-бет.
7. Иродов И.Е. Задачи по квантовой физике. Учеб. пособие для физ. спец. вузов, М., “Высш. шк.”, 1991, с. 175.
8. Иродов И.Е. Сборник задач по атомной и ядерной физике. М., Энергоатомиздат, 1984, с. 250.



9. Насриддинов К.Р., Худайбердиев Э.Н., Самандаров Л.К., Қосимов Р. Атом ва ядро физикасидан масалалар тўплами. Т., Чирчик, 2022, 230-бет.

10. Насриддинов К.Р., Мадалиев А.М. Умумий физика. Элементар зарралар физикаси асослари. Т., “Ишончли ҳамкор”, 2021, 128-бет.

**Ismoilov Davron Maxmadaliyevich (QarMII Fizika va elektronika kafedrasida dotsenti)**  
**TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARNING O'QISH ORQALI BILISH**  
**JARAYONINI METODIK TIZIM SHAROITLARIDA BOSHQARISHNI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**Аннотация.** Ushbu maqolada talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy vositalardan foydalanish orqali loyihalash, konstruksiyalash, ilmiy tadqiqot kabi kasbiy faoliyat turlariga tayyorlash keltirib o'tilgan, bundan tashqari, bilishning nazariy metodlari umummantiqiy metodlarni hamda xususiy-nazariy metodlarni o'z ichiga oladi, masalan, gipotetik-deduktiv metod, xayoliy eksperiment metodi, matematik formallashtirish metodi, tizimli-strukturaviy yondashuvlar tushuntirib o'tilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается подготовка студентов к таким видам профессиональной деятельности, как проектирование, строительство, исследование с использованием программного обеспечения при подготовке к профессиональной деятельности, кроме того, к методам теоретического познания относятся общие и специфические теоретические методы, например, гипотетико-дедуктивный метод, метод воображаемого эксперимента, метод математической формализации, структурно-структурный подходы.

**Annotation.** This article discusses the preparation of students for such types of professional activity as design, construction, research using software in preparation for professional activity, in addition, the methods of theoretical knowledge include general and specific theoretical methods, for example, the hypothetical-deductive method, the method of imaginary experiment, the method of mathematical formalization, structural-structural approaches.

**Калит со'злар:** ilmiy bilish, empirik bilish, animatsiya, ratsional bilish, metodologiya, konseptual, texnologiyalar, loyihalash, konstruktorlik.

**Ключевые слова:** научное познание, эмпирическое познание, анимация, рациональное познание, методология, концептуаль, технология, конструкторская.

**Key words:** scientific cognition, empirical cognition, animation, rational cognition, methodology, conceptual, technology, design.

O'qish orqali bilishni inson faoliyatining intellektual turlariga kiritishadi. V.I.Andreyev o'qish orqali bilishga, ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyati natijalarini oshirish maqsadlarida pedagog tomonidan tashkillashtiriladigan, ta'lim oluvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga ko'maklashadigan bilimlarni, qobiliyatlar, ko'nikmalarni egallash bo'yicha turli ta'lim vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan ish sifatida qaraydi.<sup>1</sup> Oliy o'quv yurtida talaba o'qish orqali bilish subyekti hisoblanadi. Uning faoliyati ta'lim olishga qaratilgan.

M.V.Ovchinnikov o'qish-bilish faoliyatini "subyektning o'zini-o'zi takomillashtirish va o'zini-o'zi rivojlantirish, bilimlar tizimini egallash, turli vaziyatlarda harakatlarning umumlashgan usullari va ularni qo'llash ustida ishlash maqsadida maxsus tashkillashtiriladigan o'ziga xos ta'lim turi" sifatida ta'riflaydi.<sup>2</sup>

O'qish orqali bilishning ikkita bosqichi va usuli farqlanadi: hissiy va ratsional, bu borliqni aks ettirishning ikkita usuliga, ya'ni hissiy obrazlarda va ongda aks ettirish usullariga to'g'ri keladi. Hissiy bilish his qilish organlari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ushlab sezish, ta'm bilish) yordamida amalga oshadi. Unga quyidagilar xos: bevositalik (obyektni to'g'ridan to'g'ri aks ettirish); yuzaga keladigan obrazlarning ko'rgazmali va predmetli ekani, obyektlarni hodisa darajasida, ya'ni ularning tashqi tomonlari va xususiyatlarini aks ettirish.<sup>3</sup>

Hissiy bilishning asosiy shakllari: sezish, idrok etish, tasavvur qilish. Sezish obyektning alohida xususiyatlari va tomonlarini (rang, hid va h.k.) aks ettiradi va alohida o'zi bilish obyektining yaxlit manzarasini bermaydi. Idrok qilish – sezishlar sintezi, bunda predmetning yaxlit obrazi uning tomonlari va xususiyatlari bilan birga shakllanadi. Nihoyat, xotira va tasavvur yordamida o'tmish idroklarining ko'r-

<sup>1</sup> Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. Москва, "Азбуковник", 2006, с. 944.

<sup>2</sup> Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. Москва, "Педагогика", 1986, с. 240.

<sup>3</sup> Пологрудов В.А. Вопросы методики преподавания физики в ВУЗе. Кемерово, КГУ, 1979, с. 122.

gazmali aks etishi tasavvur kabi obraz shaklini keltirib chiqaradi. Idrok qilish bilan solishtirganda u real voqelikning ko'proq umumlashgan obrazi hisoblanadi, u real voqelikni ratsional aks ettirishga o'tish imkonini beruvchi bosqich bo'lib xizmat qiladi. Ammo hissiy bilish – bu axborotni obyektidan subyektga uzatishning passiv bosqichi deb tasavvur qilmaslik lozim. Birinchidan, hissiy aks ettirish faol, ikkinchidan, ijtimoiy shartlangan (so'z odamning hissiy aks ettirishi haqida bormoqda).<sup>1</sup>

Ratsional bilish odamga xos bo'lgan fikrlash yordamida borliqni aks ettirishning murakkabroq usulidir. Fikrlash uchta asosiy daraja bilan taqdim etilishi mumkin, ular fikrlash rivoji tarixiga muvofiq keldi: sensorli – perseptiv, tasavvurlar darajasi, verbal – mantiqiy daraja (tushunchali fikrlash darajasi). Unga quyidagilar xos:

- hissiy aks ettirish natijalari, hissiyotlar orqali bilish;
- yuzaga keladigan obrazlarning abstraktililigi va umumlashganligi;
- obyektlarni mohiyatlar, ichki qonuniy aloqalar va munosabatlar darajasida aks ettirish.

Bilish jarayonining ikki – hissiy va ratsional bosqichga bo'linishi hissiy bilish ratsional bilishdan izolatsiyalanganligini bildirmaydi. Hissiy va ratsional bilish dialektik birlikni hosil qiladi.<sup>2</sup>

Metodologiya nuqtayi nazaridan o'qish orqali bilish jarayoni – bu yagonalikdan (faktlar, tushunchalar, qonunlar) umumiylik (nazariya) tomonga, ulardan esa chegaraviy umumiylik (dunyoning fizikaviy manzarasi, dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi, dunyoning ilmiy manzarasi) tomonga harakat. Yagonalik va umumiylikdan chegaraviy umumiylikka o'tish obyektiv olamni chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Dunyoning fizikaviy manzarasi – bu bilimlarni bir tizimga solishning yuqoriroq darajasi. Dunyoning fizikaviy manzarasi – bu qolgan boshqa nazariy g'oyalarni o'z ichiga oluvchi tabiat modeli.

O'qish orqali bilish jarayonini mantiqiy zanjir shaklida tasavvur qilish mumkin: empirik bilish nazariy bilish. Bilishning ushbu ikkita turi darajali strukturaga ega.

Empirik bilish quyidagilarni ko'zda tutadi: 1) kuzatish, eksperiment (bilishning 1-darajasi); 2) eksperiment ma'lumotlarini bir tizimga solish va empirik qonun bilan ifodalanadigan induktiv umumlashtirish (empirik bilishning 2-darajasi); 3) empirik qo'llash (empirik bilishning 3-bosqichi).

Bilishning empirik metodlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: eksperimental metodlarning o'zi – eksperiment ma'lumotlarini kuzatish, o'lchash, tavsiflash, umummantiqiy metodlar – eksperiment ma'lumotlarini tahlil va sintez qilish, empirik baholi modellashtirish, eksperiment ma'lumotlarini induktiv umumlashtirish. Empirik bilish empirik qonunlarda ifodalangan nazariyaning empirik asosini shakllantiradi. Yetarlicha siyraklangan gazlarda kvazistatik jarayonlar qanday yuz beradi, degan savolga javob beradigan gaz qonunlari shunday empirik qonunlarga misol bo'ladi.

Nazariy bilish ham darajali strukturaga ega. U quyidagilarni ko'zda tutadi: 1) g'oya, konsepsiya, gipotezani qurishni o'zlashtirish, yetakchi tamoyillarni shakllantirish (nazariy bilishning 1-darajasi); 2) hodisalar o'rtasidagi qonuniy aloqalarni aks ettiruvchi mantiqiy-matematik fikrlar tizimini olish (nazariy bilishning 2-darajasi); 3) qonunlar, hodisalar, faktlarning nazariy izohi, yangilarini bashorat qilish (nazariy bilishning 3-darajasi).

Bilishning nazariy metodlari umummantiqiy metodlarni va xususiy nazariy metodlarni o'z ichiga oladi, masalan, gipotetik-deduktiv metod, xayoliy eksperiment metodi, matematik formallashtirish metodi, tizimli-strukturaviy yondashuv va h.k.

Bilish faoliyati – bu hissiy idrok, nazariy tafakkur va amaliy faoliyat birligi. U faoliyat va o'zaro ijtimoiy munosabatlarning barcha ko'rinishlarida (ishlab chiqarish mehnatida, badiiy-estetik faoliyatda, muloqotda, o'quv jarayonidagi fan-amaliy bilish harakatlarida) ro'yobga chiqadi. Biroq faqat ta'lim jarayonidagina bilish faoliyati faqat odamga xos bo'lgan o'qish-bilish faoliyati yoki o'qishda aniq ifodalanaadi. O'qish orqali bilishning 3 ta darajasini ajratish mumkin – yagonalik, umumiy, chegaraviy umumiy (1-rasm).

O'qish orqali bilishning shakllanishi va rivojlanishi fikrlash matig'ining rivojlanishi bilan bog'liq. Fikrlash matig'i – bu fikr elementlari va ushbu elementlar aloqasi mavjudligining qonunlari va shakllari tizimi. Fikrlash matig'i amaliy faoliyatda shakllanadi, shuningdek, faoliyatda narsalarning obyektiv aloqasi namoyon bo'ladi, bu muqarrar ravishda fikrlash matig'ida aks etadi. O'quv bilimlari faoliyatli tabiatga ega – ular o'qish-bilish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

<sup>1</sup> Советский энциклопедический словарь. А.М.Прохоров. Москва, “Советская энциклопедия”, 1981, с. 1600.

<sup>2</sup>Краевский В.В. Дидактический принцип как структурный элемент научного обоснованного обучения. Челябинск, ЧГПИ, 1985, с. 3 – 12.



1-rasm. O'qish orqali bilishning tarkibiy qismlari.

Fizikaviy nazariya tushunchalar, mulohazalar, xulosalar kabi mantiqiy tuzilmalar (mantiqiy birliklar) bilan ishlaydi.

Tushuncha – umumiylik obyektlarida aks etishning mantiqiy shakli. Ilmiy bilishda tushuncha bilim shakli sifatida shunchaki umumiylikni emas, balki mohiyatga ega umumiylikni aks ettiradi, shu bois mazmunli umumlashmalarga kiradi. Masalan, haroratning molekullarning o'rtacha kinetik energiyasi o'lchamlari sifatidagi tushunchasi.

Mulohaza – obyektida bir yoki bir nechta xossalarning tasdiqlash yoki rad etish shaklida aks etishining mantiqiy shakli. Mulohazada obyektlarda yagonalik va umumiylikning mustaqil ravishda bo'lishi aks etadi. Masalan, fizikaviy tizim holatining tizim entropiyasi kabi funksiyasi mavjudligi haqidagi fikr.

Xulosa. Obyektida yagonalik, umumiylik va alohidalik aks etishining mantiqiy shakli. Masalan, tabiatda energiyani tashishning faqat ikki usuli ish va issiqlik mavjudligi haqidagi fikr. Tushunchalar umumlashtiruvchi fikrlar sifatida to'planganida ularni u yoki bu belgilar bo'yicha tasniflash, ularning o'xshash tomonlari va farqlarini aniqlash imkoni yuzaga keladi. Tafakkurda integral tushunchalar – kategoriyalar ishlab chiqiladi. Kategoriyalar – bu bilishda borliqning eng umumiy va muhim xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiruvchi konseptual tushunchalar. Xususiy tushunchalar muayyan kategorial muhitda mavjud bo'ladi. Masalan, termodinamik tizim holatining funksiyalari tushunchasiga kategorial tushuncha sifatida, harorat tushunchasiga ichki energiya tushunchasi sifatida, entropiya tushunchasiga ushbu kategoriyaning xususiy elementlari sifatida qarash mumkin.

Meyliyev Xusin (UrDU)

## KURASHCHILARNING SPORT TAYYORGARLIK TOMONLARINING INTEGRATSIYALASHUVINING MAZMUNI, VOSITALARI VA METODLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kurashchilarning sport tayyorgarlik tomonlarining integratsiyalashuvining maqsadi, vazifalari, mazmuni, vositalari, uslublari yoritib berilgan. Shuningdek, kurashchilar tayyorgarligining integratsiyalashuvida sport musobaqalarining tutgan o'rni, kurashchilarning texnik, taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarliklarining mazmuni tahlil qilingan.

**Аннотация.** В данной статье освещаются цель, задачи, содержание, средства, методы интеграции аспектов спортивной подготовки борцов. Анализируется также роль спортивных соревнований в интеграции подготовки борцов, содержание технической, тактической, физической и психологической подготовки борцов.

**Annotation.** This article describes the purpose, tasks, content, tools, methods of integration of aspects of sports training of wrestlers. The role of sports competitions in the integration of wrestlers' training, the content of technical, tactical, physical and psychological training of wrestlers are also analyzed.

**Kalit so'zlar:** sport tayyorgarligining tomonlari, integral tayyorgarlik, sport musobaqasi, sport mashg'uloti, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik.

**Ключевые слова:** стороны спортивной подготовки, комплексная подготовка, спортивное соревнование, спортивная подготовка, техническая подготовка, тактическая подготовка, физическая подготовка, психологическая подготовка.

**Key words:** *aspects of sports training, integrated training, sports competitions, sports training, technical training, tactical training, physical training, psychological training.*

Ma'lumki, sport tayyorgarligi sportchidan bir qator tayyorgarliklarni, jumladan, jismoniy, texnik, taktik, psixologik va nazariy tayyorgarliklarni tarbiyalashni nazarda tutadigan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Shu bilan birga, tayyorgarlik tomonlari alohida-alohida rivojlantiriladi va sportchidan bu tayyorgarliklarni o'zaro muvofiqlashtirishni, hamma tayyorgarliklardan bir vaqtda oqilona foydalanish malakasini tarbiyalashni talab etadi. Bu tayyorgarlik sport tizimida "Integral tayyorgarlik" tushunchasi bilan nomlanadi.

Integral tayyorgarlik–sportchining nazariy, texnik, taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarliklarini musobaqa faoliyatiga muvofiqlashtirish va amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, sportchining barcha tayyorgarlik tomonlarining imkoniyatlarini musobaqa davomida maksimal darajada namoyon qilib, yuqori sport natijasiga erisha oladigan darajaga olib chiqishni ko'zda tutadi. Ushbu holat juz'iy ma'noda "sport formasi" deb ataladi va sport formasi holatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sportchining integral tayyorgarligining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.<sup>1</sup>

Kurashchilar tayyorgarligida integral tayyorgarlik kurashchilar uchun musobaqa jarayonida zarur bo'ladigan tayyorgarliklarni integratsiyalashuvini shakllantirish va tarbiyalashga yo'naltiriladi.

Integral tayyorgarlikning bir qator yo'nalishlari bo'lib, soha olimlari quyidagi asosiy yo'nalishlarini tavsiflaganlar:

- 1) shaxsiy texnik va taktik harakatlarni takomillashtirish;
- 2) tananing funksional imkoniyatlarini chegara darajagacha safarbar qilish qobiliyatini takomillashtirish;
- 3) yuqori ish faoliyatini nisbiy yengillik davridan keyin yana maksimal harakat faoliyatini yaxshilash qobiliyatini takomillashtirish.

Taniqli olim N.G.Ozolin integral tayyorgarlikning asosini quyidagi bosqichlarga ajratgan:

- a) maxsus fundamehtal baza yaratish (sport mashg'ulotining tayyorlov davrida);
- b) maxsus tayyorgarlik darajasini oshirish (musobaqa oldi va musobaqa davrida);
- d) maxsus tayyorgarlik darajasini saqlab turish (katta sikllar davri uchun).

L.P.Matveyev, N.G.Ozolin, V.N.Platonov va boshqalar olimlar integral tayyorgarlikning asosiy vositalari sifatida turli xil darajadagi musobaqalar jarayonida bajariladigan tanlangan sport turning musobaqa mashqlari va tarkibi hamda xususiyatlariga ko'ra, tananing funksional tizimini maksimal darajada musobaqalashish holatiga olib keladigan maxsus tayyorgarlik xarakteriga ega bo'lgan mashqlar tashkil etishini ta'kidlaganlar. Kurashchilarni integral tayyorgarliklarini tarbiyalash musobaqa tizimi, sport mashg'uloti tizimi (kurashchilarning tayyorgarligining barcha tomonlarini tarbiyalash va rivojlantirish) va mashg'ulot hamda musobaqa faoliyatining samaradorligini oshiruvchi qo'shimcha omillardan (tiklanish, ish qobiliyatini oshirish tizimi va boshqalarni) foydalangan holda amalga oshiriladi.<sup>2</sup>

Integral tayyorgarlikning vositalarini har bir aspektiga to'xtaladigan bo'lsak, sport musobaqasi kurashchilarning maxsus tayyorgarlikning eng muhim vositasi sifatida tayyorgarliklarining maqsad va yo'nalishini belgilab olishga hamda shug'ullanuvchilarning tayyorgarlik darajasini taqqoslash va oshirishga xizmat qiladi.<sup>3</sup>

Kurashchilarning integral tayyorgarligini rivojlanishida musobaqa asosiy ahamiyat kasb etib, aynan musobaqa jarayonida barcha tayyorgarliklarni o'zaro muvofiqlashuvi yuzaga keladi. Musobaqa faoliyati kurashchidan yuqori darajadagi jismoniy, texnik-taktik, psixologik va funksional tayyorgarliklarni birgalikda amalga oshirishni talab etishi natijasida tayyorgarliklarning o'zaro integratsiyalashuvi malakasi shakllanib boradi hamda bu tayyorgarlik tomonlarining rivojlanish darajasini baholab olishga, keyingi tayyorgarlik rejalarini tuzishga, oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishga imkoniyatlar tug'diradi.

F.A.Kerimov kurashchilarni musobaqa jarayoniga integral tayyorgarligini rivojlantirishning quyidagi metodik uslublarini ko'rsatib bergan:

1. Sharoitni yengillashtirib: o'zidan zaif yoki o'ziga "qulay" bo'lgan raqiblar bilan musobaqa tashkil qilish orqali.

<sup>1</sup> Kerimov F.A. Sport nazariyasi va usuliyati. Darslik, T., 2007, 25-bet.

<sup>2</sup> Платонов В.Н. Теория и методика спортивной тренировки. Киев, "Вища школа", 1984, с. 45.

<sup>3</sup> Taymuratov Sh.A. Kurashchilarni tayyorlash texnologiyasi. T., 2010, 38-bet.

2. Sharoiti murakkablashtirib: noqulay sharoitlarda, o'zidan kuchli yoki "noqulay" bo'lgan raqiblar bilan musobaqa tashkil qilish orqali.

3. Raqiblarning vazn toifalarini oshirib borish orqali musobaqa faoliyatini oshirib borish.<sup>1</sup>

Kurashchilarning integral tayyorgarligini tarbiyalashda mashg'ulot tizimi ham muhim vosita hisoblanib u mashqlar tizimi asosida qurilgan va kurashchilarning eng yuqori natijalarga erishish uchun tayyor bo'lishiga olib keluvchi zarur qobiliyatlarni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan maxsus pedagogik jarayon hisoblanadi.

Mashg'ulot faoliyatini kurashchilarning integral tayyorgarliklarini rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki, bunda kurashchilar kurash texnikasi va taktikasini oqilona egallab olishga, jismoniy sifatlarni takomillashtirishga, tananing funksional tizimlarining ishlash imkoniyatlarini oshirishga, shuningdek, shaxsiy (ayniqsa, ma'naviy-irodaviy) fazilatlarini tarbiyalashga, psixologik tayyorgarlikning zarur darajasiga erishishga, ayniqsa, kurash mashg'ulotlarining amaliy tajribasi bilan bog'liq nazariy bilimlarni egallab olishga imkoniyatlar yaratiladi.

Kurashchilar tayyorgarliklarini integratsiyalashuvida ko'p yillik sport mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonidagi o'quv jarayonining yaxlitligi muhim pedagogik ahamiyatga ega hisoblanadi va bu quyidagilarni ta'minlaydi:

–mashg'ulot jarayonida sportchilarni tayyorlashning turli tomonlarini o'zaro bog'liqligini (UJT, MJT, texnik va taktik va jismoniy tayyorgarlik);

–mashg'ulot yuklamalarining parametrlari nisbatini (bajarilgan mashg'ulot ishlarining hajmi va shiddati);

–mashg'ulot jarayonining turli yo'nalishlarining muayyan ketma-ketligini (ayrim mashg'ulotlar, bosqichlar, davrlar, sikllar).

Kurashchining integral tayyorgarligini rivojlanishida texnik va taktik tayyorgarliklarni samarali egallash muhim ahamiyatga ega. Kurash texnikasi kurashchilarga mashg'ulot yoki musobaqa faoliyati elementlarining asosini o'rgatish jarayoni bilan tavsiflanadi va bu kurash texnikasining tanlangan variantlarini takomillashtirishni o'z ichiga olib, buning eng afzallik jihati kurashning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'tkaziladigan musobaqa bahslarida kuch va energiyaning eng kam sarflanishi bilan hal qilishga yordam beradigan harakatlar, faoliyatlilar va operatsiyalar tizimi rivojlantirishga yordam beradi. Kurashchilarning texnik usullarni bajarish mahoratlarini yuqori darajada tarbiyalash kurashchilarni musobaqa jarayonidagi harakatlarini o'zaro integratsiyalashuvining asosiy vositasi hisoblanadi.

Kurashchining taktik tayyorgarligi – bu musobaqalarda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanish malakasini shakllantirish bilan birga, kurashchilarda taktika sohasidagi integratsiyalanishi uchun zarur bilimlarni egallash, kurash bellashuvlarini to'g'ri olib borishda ma'lum malaka hamda bilimlarni shakllantiradi hamda taktik mahoratni takomillashtiradi.

Kurashchilarning taktik tayyorgarligi vositalariga qat'iy belgilangan harakat tuzilmasi va ularni namoyon qilish uchun zarur jismoniy sifatlar darajasi bilan ifodalanadigan kurashchilar harakatlari bilan ifodaladi. Kurashchida taktik bilim, ko'nikma va malakalarini integratsiyalashuvi asosida unda hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi, bellashuvni tuzish taktikasi va musobaqalarda qatnashish taktikasi ham samarali rivojlanadi.

Integral tayyorgarlikni rivojlanishi jismoniy tayyorgarlik bilan bevosita va bilvosita bog'liq. Har qanday harakat bajaruvchidan qaysi bir ma'noda jismoniy tayyorgarlikni talab qiladiki, bu sport tayyorgarligini integratsiyalashuvida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy qobiliyatlarini takomillashtirishda, tananing funksionan imkoniyatlarini rivojlantirishda, yuqori ish qobiliyatini oshirishda, texnik-taktik mahoratlarni samarali egallab olishda katta imkoniyatlarni ochib beradi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik kurashchilarning jismoniy sifatlarini, tanani funksional imkoniyatlarining har tomonlama rivojlanishiga, mushaklarning ish faoliyati jarayonida ularning namoyon bo'lishining uyg'unlashuviga, maxsus jismoniy tayyorgarlik esa kurashchilarni yutuqlarga erishishni bevosita ta'minlaydigan jismoniy qobiliyatlarni, organlar va funksional tizimlarning imkoniyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kurashchilarning tayyorgarlik tomonlarini integratsiyalashuvida psixologik tayyorgarlik asosiy vosita sifatida kurashchilarda mashg'ulot va musobaqada qatnashish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishni

---

<sup>1</sup> Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. Darslik, T., 2009.

ta'minlashda, psixologik vazifalar, jarayonlar, holatlar va shaxsiy xususiyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

E.I.Boyturayev umumiy psixologik tayyorgarlik kurashchilarning tayyorgarlik tizimlarini integratsiyalashuvida quyidagi psixologik vazifalarni hal etishga xizmat qilishini ta'kidlagan: axloqiy va irodaviy sifatlarni tarbiyalaydi, jamoada ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi, ilg'ab olish jarayonlarini, xususan, "raqibni his qilish", "vaqt va makonni his qilish" kabi ilg'ashning maxsus turlarini takomillashtirish, diqqatni, uning mustahkamligi, jamlanishi, taqsimlanishi hamda birdan ikkinchisiga tez o'tish qobiliyatini, taktik fikrlashni, o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Maxsus psixologik tayyorgarlik kurashchilarni tayyorgarliklarini integratsiyalashuvining asosini tashkil etib, kurashchini oldinda turgan musobaqaning ahamiyatini anglash, oldinda turgan musobaqaning sharoitlari (o'tkazish joyi va vaqti) xususiyatlarini, raqibni kuchli ba kuchsiz tomonlarini o'rganish, ularni hamda o'zining hozirgi paytdagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda musobaqaga tayyorgarlik ko'rish, oldinda turgan musobaqada g'alabaga erishish uchun o'z kuchi va imkoniyatlariga qattiq ishonchni shakllantirish, oldinda turgan musobaqalar tufayli yuzaga kelgan salbiy hayajonlarni yengib o'tish va tetuk emotsional holatni yaratish kabi pedagogik vazifalarni hal etadi.

**Xulosa.** 1. Kurashchilarning tayyorgarlik tomonlarini integratsiyalashuvi yuqori sport natijalariga erishishning garovi hisoblanib, uni rivojlantirishda musobaqa tizimi, mashg'ulot tizimi, mashg'ulot jarayonida kurashchilarni tayyorlashning turli tomonlarini o'zaro bog'liqligiga erishish, mashg'ulot yuklamlarining parametrlari nisbati (bajarilgan mashg'ulot ishlarining hajmi va intensivligi), o'quv jarayonining turli yo'nalishlarining muayyan ketma-ketligi (individual mashg'ulotlar, bosqichlar, davrlar, sikllar), mashg'ulot va musobaqa faoliyatining samaradorligini oshirishning qo'shimcha omillari (tiklanish va samaradorlikni oshirish tizimi va boshqalar) asosiy vosita hisoblanadi.

2. Kurashchilar tayyorgarlik tomonlarining integratsiyalashuvini tayyorgarlikning boshqa tomonlari bilan birgalikda olib borilsa, yuqori samaraga erishiladi.

**Абдуллаев Комилжон Абдуғаниевич (Наманган Давлат университети Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси доценти, педагогика фанлари номзоди; komiljon.abdullayev.1961@mail.ru)  
АДАБИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАДҚИҚОТЧИЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИЯДАН  
ФЙДАЛАНИШ**

**Аннотация.** Мақолада адабий таълим жараёнида ўқувчиларнинг тадқиқотчилик қобилиятини ривожлантиришида фанлараро интеграциядан фойдаланишнинг ўрни ва самарали усуллари кўп йиллик амалий тажрибалар асосида ёритилган.

**Аннотация.** На основе многолетнего практического опыта выделены роль и эффективные методы использования междисциплинарной интеграции в развитии исследовательских способностей учеников в процессе литературного образования.

**Annotation.** The role and effective methods of using interdisciplinary integration in the development of students' research abilities in the process of literary education are highlighted based on many years of practical experience.

**Калим сўзлар:** адабий таълим, Рауф Парфи, фанлараро интеграция, расм-слайд, ахборот коммуникацион технологиялари, ёмғир тасвири, видеолавҳа, "Жажжи тадқиқот", бадиий лавҳалар, "Мажолис ун-нафоис", "Сабъаи сайёр", бадиий-тасвирий воситалар, ўхшатиш, интоқ (жонлантириш).

**Ключевые слова:** литературное образование, Рауф Парфи, межпредметная интеграция, картинка-слайд, информационно-коммуникационные технологии, образ дождя, видеокассета, "Жаджи развян", художественные картины, «Мажолис ун-нафоис», «Сабъаи сайор», художественный и визуальные инструменты, сравнение, оживление.

**Key words:** literary education, Rauf Parfi, interdisciplinary integration, picture-slide, information and communication technologies, image of rain, video, "Jajji razvyan", artistic pictures, "Majolis un-nafois", "Sab'ai sayor", artistic and visual tools, simile, enliven (animate).

Республикамизда ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги ишларни янги тизим асосида йўлга қўйиш бўйича Президентимиз томонидан илгари сурилган 5 та муҳим ташаббусда ёшларни мусиқа, рассомлик, театр, спорт, компьютер технологиялари ва интернет, адабиёт, китобхонлик

соҳасига қизиқтириш масалалари устувор йўналишлар сифатида белгилаб берилганлиги,<sup>1</sup> “2020–2025 йилларда ижод мактаблари фаолиятини такомиллаштириш концепцияси”га кўра,<sup>2</sup> ижод мактаблари ўқувчиларининг асосий кўрсаткичлари қуйидагилар:

–ўзбек ва дунё адабиётининг энг сара 50 та асарларини ўқиши;

–бир йилда камида 50 та шеър ёд олиши;

–ўзбек ва дунё кинематографиясининг 100 та энг яхши намунасини томоша қилиши;

–ўзбек ва дунё тасвирий санъатининг 100 та энг етук асари билан танишиши;

–ўзбек ва дунё мумтоз мусиқасининг 100 та энг мукамал асарини тинглаши зарурлигидан иборат бўлиши белгиланганлиги;

–ушбу концепция талаблари ҳамда 2019–2020 ўқув йилида Давлат тест маркази имтиҳонлари саволлари таркибига: она тили ва адабиётдан мустақил ўқиш учун тавсия қилинган бадиий асарлар ва фанга оид чизмалар тест топшириқлари сонини кўпайтириш устида изланишлар давом эттирилаётганлиги ҳам фанлараро интеграцияни йўлга қўйилиши масаласи ривожлантирилишини тақозо этаётганлигининг далили, ўқувчиларнинг мустақил, ижодий ишлаш кўникмалари – тадқиқотчилик қобилиятини ривожлантириш ҳозирги кун таълим тизими барча босқичларининг энг долзарб масалаларидан эканлигини таъкидлаш мақсадга мувофиқдир.<sup>3</sup>

Биз қуйида ана шу долзарб масала ҳақидаги фикрларимизни Ўзбекистон халқ шоири, XX аср ўзбек адабиёти тарихида ўзининг бетакрор шеърлари билан муносиб ўрин эгаллаган, мухлисларининг суюкли шоири бўлишдек бахтга эришган сўз санъаткорларидан бири Рауф Парфининг ҳаёти ва ижодини умумий ўрта таълим мактаби ва академик лицейларда ўргатиш мисолида баён этмоқчимиз.

Умумий ўрта таълим мактабларининг адабиётдан ўқув дастури асосида тузилган режага асосан, 11-синфда унинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш учун 2 соат вақт ажратилган бўлиб,<sup>4</sup> уни қуйидагича тақсимланиши мақсадга мувофиқ:

1. Рауф Парфининг таржимаи ҳоли. Унинг ўзбек адабиёти ривожига тутган ўрни. Шеърини тўпламлари, уларнинг мавзу кўлами, бадиияти ва таржимонлик фаолияти ҳақида маълумот. “Тонг отмоқда”, “Ёмғир ёғар” шеърлари матни устида ишлаш, таҳлил қилиш – 1 соат.

2. “Ёз кечаси”, “Яна қайтиб келдим”, “Юрак” шеърлари матни устида ишлаш, таҳлил қилиш – 1 соат.

1-соатдаги дарс давомида ўқитувчи Рауф Парфининг таржимаи ҳоли, ижодий фаолияти, хусусан, унинг “Карвон йўли” номли биринчи шеърлар тўплами 1968 йилда нашрдан чиққанлиги, шундан сўнг “Акс садо” (1970), “Тасвир” (1973), “Хотирот” (1975), “Кўзлар” (1977), “Қайтиш” (1978), “Сабр дарахти” (1986), “Сукунат” (1989), “Тавба” (2000), “Сўнгги видо” (2005), “Сакина” каби шеърини тўпламлари чоп қилинганлиги, уларда инсон эрки, Ватан озодлиги, Туркистон ёди, муҳаббат туйғуси каби адабий мавзулар етакчилик қилиши, барча шеърлари юксак бадиияти билан ажралиб туриши; таржимон сифатида Байроннинг “Манфред”, Нозим Ҳикматнинг “Инсон манзаралари”, Карло Каладзенин “Денгиз хаёли”, А.Дюманин “Уч сарбоз”, А.Твардовскийнинг “Зайтун новдаси” асарлари ва бошқа кўплаб жаҳон адабиёти намояндalarининг шеърларини ўзбек тилига ўгирганлиги ҳақидаги маълумотлар изчилликда баён этилади (Шоир ҳаёти ва ижодини изчил ифода этувчи расм-слайддан фойданиш дарс самарадорлигини ошириш учун хизмат қилади).

Сўнгра “Тонг отмоқда”, “Ёмғир ёғар” шеърлари ифодали ўқилади, янгиланган педагогик тафаккур тамойиллари (шаклдан мазмунга) асосида бадиий таҳлил қилинади.

Ўқитувчи ўқувчиларнинг фикрларини умумлаштириш, мустаҳкамлаш, таҳлилни давом эттириш жараёнида Қ.Йўлдошевнинг “Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари”,<sup>5</sup> М.Мирқоси-

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича муҳим вазифалар белгилаб берилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 19 мартдаги видеоселектор йиғилишида сўзлаган нутқи. “Халқ сўзи”, 2019 йил 20 март.

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 240-сонли қарори. “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Президент, ижод ва ихтисослаштирилган мактабларни ривожлантириш агентлигининг фаолиятини яна-да такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”. Тошкент, 2020 йил 18 апрель.

<sup>3</sup>Тест синовларига тайёргарлик қандай? 1-мақола. 2020 йил 27 апрель. Давлат тест маркази матбуот хизмати.

<sup>4</sup>Тўхлиев Б. Адабиёт (матн). 11-синф, дарслик-мажмуа. 1-қисм. Б.Тўхлиев ва бошқ., Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат нашриёти, 2018, 80–87-бетлар.

<sup>5</sup>Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Мактаб ўқитувчилари, илмий ходимлар, тала-

мованинг “Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари” услубий қўлланмасидан фойдаланиши мақсадга мувофиқ бўлади<sup>1</sup> (Мавзуга мос танланган фанлараро интеграция асосидаги видеолавҳалар ва кўшиқлар намойиши, “Кўшиқлар бекати” усули дарснинг эстетик жозибасини оширишга, ўқувчиларнинг адабиёт ва санъатга бўлган иштиёқларини оширишга хизмат қилади).

Дарс якунида ўқувчиларни тадқиқотчилик фаолиятига йўналтирувчи топшириқлар уйга ва зифа қилиб топширилади:

1. Ахборот-ресурс маркази ёки интернет манбаларидан Рауф Парфининг шеърий тўпламларини топиш ва табиат манзаралари тасвирланган шеърларидан намуналар ёд олиш.

2. Шоир шеърларида қўлланилган бадиий-тасвирий воситалардан намуналар кўчириш.

3. Ёмғир мавзусида яратилган асарлар рўйхатини тузиш.

4. Ёмғир тасвири билан боғлиқ расм, кўшиқ, аудио, видеолавҳаларни жамлаш.

5. Ёмғир ҳақида бадиий матн тузиш.

6. “Ўзбек адабиётида ёмғир тасвири” мавзусида жажжи тадқиқот яратиш.

Бунда тадқиқот методидан фойдаланишнинг муайян талаблари ҳисобга олиниши зарур.

2-соатдаги дарс ўқувчиларнинг тадқиқотчилик қобилиятини ривожлантиришга йўналтирилган фанлараро интеграция асосидаги “Жажжи тадқиқот”лари билан танишишдан бошланади: шоир шеърларидан намуналар ёддан ўқилади, ижодкор шеърларида ишлатилган бадиий-тасвирий воситалар асосидаги расм-слайдлар, ижодий ишлар кўрғазмаси баҳоланади, тўпланган кўшиқ, аудио, видеолавҳалардан намуналар намойиш этилади, ғолиб ўқувчининг тадқиқоти ўқиб эшиттирилади (“Жажжи тадқиқотлар” таҳлили “Ёш ижодкорлар” тўғарагининг навбатдаги машғулотида давом эттирилиши, чоп этишга тавсия этилиши, мактаб раҳбарияти томонидан тақдирланиши мумкин). Фикримизнинг исботи сифатида 3-босқич ўқувчиси Санобар Тўрабоевнинг изланишлари натижасини намуна сифатида келтираемиз:

Ўзбек адабиётида ёмғир тасвири. Севимли шоиримиз Рауф Парфининг уч тўртликдан иборат ушбу мўъжазгина шеъри таҳлилидан олган олам-олам таассуротлар мени ҳам илҳомлантириб, кўлимга қалам тутқазди.

Илмий адабиётларда “0,5 – 0,6 диаметрли суюқ томчи ҳолидаги атмосфера ёғини, булутдаги майда сув зарраларининг кўшилиб, йириклашувидан ҳосил бўладиган томчи сифатидаги ёғин” дея таърифланган ёмғир ҳақидаги манбаларни ўрганиш, уларни жамлашга киришар эканман, жуда кўп қизиқарли далилларнинг гувоҳи бўлдим. Олимларимизнинг бир томчи сувда 33 триллион молекула борлигини аниқлаганликлари ҳақидаги маълумот ҳам фикримнинг исботидир.

Қисқа давр мобайнида адабиётимизда ёмғир тасвирига доир 50 тадан ортиқ манба – санъат намунаси – “молекула”ни тўпладим. Қуйида ана шу манбалар мазмуни ҳақидаги умумий фикрларимни ўртоқлашмоқчиман.

Кузатган манбаларимизда ёмғир “осмоннинг кўз ёшлари”, “биллур севинч ёши”, “дур донаси”, “ғамхўр она”, “йипор (мушк)”, “барака томчилари”, “маржон кўз ёшлар”, “олтин ёмғирлар”, “марварид томчилар”, “ёқут маржон” каби бадиий-тасвирий воситалар билан ифодаланганлигининг гувоҳи бўлдик.

Ўқтамхон Холдорова, Ўроқ Саидов каби ижодкорлар интоқ (нутқсиз нарсаларни нутқ эгаси сифатида тасвирлаш) санъатидан фойдаланиб, “қаҳрамон”ни “ўз тилидан гапиртиришгани”нинг тасвирини ҳам кузатдик:

*Кўк парқуси булутнинг,*

*Севинч ёшиман биллур.*

*Табиатни эркалаб,*

*Сочиламан мисли дур.*

*Она – ерни согиниб,*

*Чапак чалиб келаман.*

*Кўкдан юртга насиба,*

*Қувонч олиб келаман.*

*Орзум – боғлар яшинасин,*

---

балар учун. “Ўқитувчи”, 1996, 52-бет.

<sup>1</sup> Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. Т., “Фан”, 2006, 112-бет.



*Учиб қўнсин капалак.  
Тўқликка нишон бўлиб,  
Товлансин ёй-камалак.  
Тулпор отлар кишинасин,  
Барра ўтим туфайли.  
Лолалар бошин ювиб,  
Омборлар тўлсин донга!  
Шуларни ўйлаб кўкдан,  
Ер юзига инаман.  
Ризқу рўз улашувчи  
Билсанг гамхўр онаман!*

Ёмғир тасвирига, дастлаб, энг қадимги адабий ёдгорликларда, хусусан, туркий халқларнинг комусий олими Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит турк” (XI аср) асарида, халқ оғзаки ижоди намуналари (мақол, топишмоқ, қўшиқ каби)да, ҳадисларда, кейинчалик, Алишер Навоий, Ҳофиз Шерозий каби аждодларимиз меросида дуч келамиз.

“Девони луғотит турк” асарида қуйидагича тасвир мавжуд:

*Йағмур йағуб сачилди,  
Турлук чечак сучулди (ялонгочланмоқ).  
Йинжу (инжу) каби очилди,  
Чиндан йипор (мушк) йўғрушур (йўғрилмоқ).*

Мазмуни:

*Ёмғир ёғиб сочилди,  
Турли чечаклар кийимларини ташладилар.  
Ёмғирнинг ёғиши билан инжу қоплари очилган каби бўлди,  
Тупроқлар чиндан-да “йипор” (мушк) билан йўғрилмоқда.*

Халқ мақолларида ёмғир тасвири билан боғлиқ ўринлар ўз аксини топган: “Ёмғир билан ер яшарар, Қўшиқ билан эл яшарар”, “Ёмғир – экиннинг жони”, “Ёз ёмғири ёндан ўтар, Қиш ёмғири жондан”, “Тоққа ёғса, чўл обод, Чўлга ёғса, эл обод”, “Эр туғилса – элнинг бахти, ёмғир – ернинг бахти”, “Булут йиғлайди, гул кулади”, “Савр ёмғири – сара олтин (Савр – қуёш йили ҳисобида иккинчи ойнинг арабча номи бўлиб, 21 апрель билан 21 май оралиғидаги даврга тўғри келади. Бу ойни “ёмғир ойи” деб ҳам атайдилар) каби 30 тага яқин халқ мақоллари мавжуд.

Ёмғир ҳақида яратилган топишмоқларда метафора, ўхшатиш, аллитерация, такрор ва жуфт сўзларнинг ишлатилиши каби бадиий-тасвирий восита ва усуллар етакчилик қилади: “Мени сўрайдилар, Кўринсам, қочадилар”, “Шатур-шутур этади, Ерни чўқиб кетади”, “Осмондан ўйнаб тупшар, Ерда чучвара пишар”, “Кўкда қилич чарақлар”, “Бири сепади, бири ичади, бири ўсади”, “Тумшуксиз чумчук ер тешар”, “Новча йигит том тешар” каби 20 тадан ортиқ топишмоқларни жамладик.

Ўзбек халқи мавсумий маросимларга бой халқлардан бири саналади. Бу нарса халқнинг йилнинг тўрт фаслидаги яшаш тарзи, меҳнат турларига боғлиқдир. Лалмикор (ёмғир суви билан) деҳқончилик қиладиган аҳоли ўртасида баҳор ойларида ёғингарчилик кам бўлса, махсус ёмғир чақириш маросимлари ўтказилган. Ана шундай маросимлардан бири “Суст хотин” деб юритилади.

“Суст хотин” қўшиқларида деҳқонларнинг мўл ҳосил олишлари, халқнинг тўкин-сочинликда ҳаёт кечириши, етим-есирларнинг фаровон кун кўришлари ҳақидаги орзу-истаклари ўз ифодасини топган:

*Суст хотин, сузма хотин,  
Кўланкаси майдон хотин.  
Ёмғир ёғдир ҳўл бўлсин,  
Еру жаҳон кўл бўлсин.  
Майсалар қулоқ ёзсин,  
Суту қатиқ мўл бўлсин.  
Ёмғир ёғдир, кўк бўлсин,  
Арпа-бугдой бош тортсин,  
Кайвонилар ош тортсин.*

“Сел келди, селон келди”, “Ёмғир гадойи келди”, “Суст хотин”, “Қибладан булут келар”, “Ҳаво ёғсин зарчалаб”, “Ёмғир ёғалоқ”, “Ёмғир ёға бер”, “Ёмғир ёғсин” каби қўшиқлар ҳам “Суст хотин” маросим қўшиқлари сирасига киради.

Ислон оламида машхур ва ишончли деб эътироф этилган олтига ҳадис тўплами муаллифларидан бири, муҳаддис (ҳадис илми билан шуғулланган олим) Абу Абдуллоҳ ибн Исмоил ал-Бухорий (194/810–256/870)нинг “Ал-Жомий ас-Саҳиҳ” (“Ишонарли тўплам”) ҳадислар тўпламининг 34-бобидан 43-бобигача, 48-бобидан 61-бобигача бўлган сатрлар Оллоҳ таолодан ёмғир сўрамоқ, курғоқчиликнинг олдини олмоқ масаласига бағишланганлигини ҳам кузатдик.

Улуғ бобокалонимиз ҳазрат Алишер Навоий ҳам “Мажолис ун-нафоис” асарларида ёмғир ва унинг тасвири билан боғлиқ ажойиб воқеани ҳикоя қилганлар:

“Баҳор кунларининг бирида, булут ошиқ кўнгилдек ёш тўкиб, тўкилган ёшдан маъшуқа вадасидек сезилмас иплар ҳосил қилганда, Хуросон мулкида туркий ва форсийда замонасининг маликул каломи бўлган Мавлоно Лутфий бу фақирга йўлиқди ва дедик: бу ёмғирнинг торларини ҳатто ушлаб кўриш мумкин. Амир Хусрав ҳиндуча ашъорида бир ажиби ғариб маъни айтибдур, ул будурким: маҳбуб баҳор кунларида бир ёққа бораётган экан, ёмғирдан ҳосил бўлган балчиққа тоғийиб йиқилар чоғида ёмғир риштаси (ипи)ни ушлаб, туриб кетибди. Фақир бу маънини эшитгач, хушхол бўлиб, амир Хусравнинг бу дақиқ (нафис) хаёлига офаринлар ўқидум”.

Табиатни севган, уни улуғлаган, гўзаллигидан завқлана олган Алишер Навоий “Сабъаи сайёр” достонида табиатни топтаган, уни пайхон қилган, бегуноҳ жониворларнинг қонини юз ариқ оқизган шоҳ Баҳром ва унинг аркони давлатини ёмғир селига дучор қилиб, ерга чўктиргани бежиз эмаслигидан огоҳ бўласан, киши, атрофингдагиларни огоҳ қилгинг келади, кишининг.

“Хулосаи калом, юз ариқ қон оқиб, ҳар бир ариқ ер юзини балчиққа, от оёғи эса у ерларни ботқоққа айлантириб турганда, осмондан ёмғир ҳам қуяверса, ёққанда ҳам шундай ёғсаки, ёмғирни олам халқи устига дарё каби оқизса-да, фалак ундан хижолатда қолса, одам қаерда қимирласа, ўша ер чўкадиган бўлса, бу пайтда эл-улус ўз ҳаётидан кўзини юмса айб эмас.

Ниҳоят, шу айтганларимизнинг ҳаммаси бир бўлиб, бир дамда ов қилаётган одамларнинг барчасини ер ютиб, нобуд қилди-қўйди”.

Халқимизнинг бебаҳо дурдоналаридан, мумтоз адабиётимизнинг сарчашмаларидан баҳра олган XX аср адабиёти вакиллари ижодидан ҳам “олтин ёмғирлар”нинг “марварид дур доналари”ни теришга ҳаракат қилдик. Натижада Уйғун, Мақсуд Шайхзода, Азим Суюн, Рауф Парфи, Омон Матчон, Салим Ашур, Икром Искандар, Ғайрат Худойназаров, Инобат Нормуронова, Дилором Исмоилова, Муҳаммадҷон Имомов, Абдурахмон Холмурод, Ўктамхон Холдорова, Фазлиддин Давронов, Феруза Темирова, Маҳмуд Тоиров, Ж.Раззоқов, Анвар Исроилов, Ғофир Қурбон, Эрмат Нурматов, Абдулла Шер, Оташ Холмирзаев, Рустам Долимов, Ориф Одилхонов, Хайриддин Салоҳ каби пейзаж усталарининг шеърдан марварид шодаларини тизишга уриндик.

Биз ҳам **ташбехона** сўз юритсак, **денгиз** (ўзбек адабиёти)дан **томчи** (ёмғир тасвири)ни **излаш**:

*Гўё кўкка чиқиб денгизлар*

*Сузилади улуғ галвирдан.*

Мақсуд Шайхзода:

*Шўх томчилар занжир боғлашиб,*

*Осилибди бир ип сингари.*

*Гўё арқон учидан ушлаб,*

*Тирмашилса мумкин юқори.*

*Сойга иниб тушган қатралар*

*Рақс этарди, кўпикланарди,*

*Чўмиларди сув ичра сувлар.*

Ўктамхон Холдорова:

*Ёмғир қуяр,*

*Кўзиқорин – соябоннинг*

*Тагида довдир –*

*Майсажонлар қиқирлашар*

*Бамайлихотир.*

Ғайрат Худойназаров:

*Ёмғир ёғар шатур-шутур,*

*Осмон кўкси титроқ  
Иқром Искандар:  
Ёмғир ёғар...  
Қулоқларга қочиб киради  
Шитирлаб,  
Ёмғирда ивиб кетган  
Бир товуш.  
Рауф Парфи:  
Ёмғир ёғиб чиқди тун бўйи,  
Тонг оқарди, тинмади ёмғир.  
Бузилгандек осмон уйи  
Ерга қараб йиғлайди оғир.  
Шухрат:  
Булут – тўрва сўкилиб кетди,  
Марваридлар тўкилиб кетди.  
Қанча тансиқ, азиз бўлмасин,  
Майса бели букилиб кетди.*

Эрмамат Нурматов, Гофир Курбонов, Оташ Холмирзаев, Ориф Одилхонов, Абдулла Шер, Азим Суюн, Усмон Азим каби шоирлар баҳор, ёз, куз ёмғирларининг бетакроп лавҳаларини чизадилар.

30-йиллар лирикасининг гўзал намунаси ҳисобланган Уйғуннинг “Назир отанинг ғазоби” шеъри қаҳрамони йил бўйи тер тўкиб етиштирилган “оқ олтин” ҳосилининг нобуд бўлишидан ташвишга тушиб, табиат қонунларига қарши бормоқчи бўлади ва ёмғирга нисбатан қаҳрли сўзлар айтади (кузатган манбаларимиздан фақат шу мисралардагина “қаҳрамонимиз”нинг салбий сифатланишига дуч келдик):

*Кўк юзини булут, чол кўзини ғазаб  
Аста босиб кела бошлади.  
Етиб келиб, булут чолнинг тепасига,  
Уч-тўрт совуқ томчи ташлади...  
Муштумини қисди, титради чол,  
Овланди хира кўзлари.  
Ғазабларга тўлиб асабий бир тусда,  
Лабларидан учди сўзлари:  
“Тавба...  
Бу лаънати, асти нима қилади?!  
Қани энди... бўға бошласам?  
Иложи бўлса-ю, лаънатини  
Тилка-тилка қилиб ташласам!..*

Ҳозирги кунда ватанпарвар отанинг бу гаплари кўпчиликка баландпарвоз туюлса-да, бизнинг назаримизча, ҳар бир инсонда, айниқса, ёшларимизда, ўз меҳнатини қадрлаш, юрт, халқ фаровонлиги учун қайғуриш ҳисси шаклланиши, камол топиши ва авлоддан-авлодга ўтиб бориши жуда катта аҳамиятга эгадир.

Маҳмуд Тоировнинг лирик қаҳрамони – ошиқ – марварид томчилар ҳам “ёмғир бўлиб” ёр васлига етишишни орзу қилади:

*Ёмғир бўлиб юзингни ўпсам,  
Сочларингда қолсам осилиб.  
Майса бўлсам йўлингда, санам,  
Товонингда кетсам босилиб.*

“Ёз кечаси”, “Яна қайтиб келдим”, “Юрак” шеърлари матни устида ишлаш, таҳлил қилиш намунадаги тартибда ўтказилади.

Умумий ўрта таълим мактаблари, академик лицей адабиёт дарслари жараёнида ўқувчиларнинг тадқиқотчилик қобилиятини ривожлантиришда фанлараро интеграциядан фойдаланиш ўқувчилар шоирнинг барча шеърлари юксак бадиияти билан ажралиб туришини чуқурроқ тушунишига; унда қўлланган бадиий-тасвирий воситалар ҳақидаги назарий ва амалий билимларини мустаҳкамлашга, лирик асарларни таҳлил қилиш, мустақил, ижодий ишлаш малакаларини ривожланти-

ришга, уларнинг адабиёт ва санъат беқиёс қудратга эга эканлигини ҳис этиш, бадиий ва эстетик дидларини камол топтириш; санъатга, она-Ватанга, жонажон табиатга муҳаббат, ифтихор ҳисларини тарбиялайди.

**Movlonov Ma'ruf Qalandarovich (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti  
katta o'qituvchisi: e-mail: [m.maruf1989@inbox.ru](mailto:m.maruf1989@inbox.ru))**

## **MALAKAVIY AMALIYOTNI PEDAGOGIK LOYIHALASH ASOSIDA TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada malakaviy amaliyotni pedagogik loyihalash orqali texnika oliy o'quv yurtlari talabalarini kasbiy tayyorlashning ilmiy ahamiyati ba'ian etilgan. Bular kasbiy muhandislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha asosiy o'quv dasturlariga kiriritilgan malakaviy amaliyot oliy ta'limning asosiy o'quv dasturining ajralmas qismi hisoblanadi.

**Аннотация.** В данной статье описывается научная значимость профессиональной подготовки студентов технических вузов через педагогическое проектирование квалификационной практики. Квалификационная практика, которая включена в базовые учебные программы по подготовке будущих инженеров к профессиональной деятельности, является неотъемлемой частью базовой учебной программы высшего образования.

**Annotation.** This article describes the scientific significance of professional training of students of technical universities through pedagogical design of qualification practice. Qualification practice, which is included in the basic training programs for preparing future engineers for professional activity, is an integral part of the basic curriculum of higher education.

**Kalit so'zlar:** texnik, muhandis, loyiha, kasbiy, amaliyot, ta'lim, model, tizim, jarayon.

**Ключевые слова:** техник, инженер, проект, профессионал, практика, образование, модель, система, процесс.

**Key words:** technical, engineer, project, professional, practical, education, model, system, process.

Hozirgi kunda dunyo hamjamiyatining ilmiy-texnik taraqqiyoti, ta'lim, fan va ishlab chiqarish sohalaridagi ulkan islohotlarning rivojlanishi va takomillashuvi ta'lim mazmuniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan ifodalanadi. Buning uchun oliy texnik o'quv yurtlarining asosiy vazifasi bitiruvchilarda zarur bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish, shuningdek, ushbu bilimlarni kasbiy faoliyatida qo'llash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Malakaviy amaliyotni pedagogik loyihalash ta'lim va kasbiy harakatlarni amalga oshirish uchun foydalanish mumkin. Shuning uchun o'qitishning algoritmik usuli, bo'lajak muhandislarni bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, ularning kasbiy tafakkurini rivojlantirishning eng muhim usullaridan biri bo'lishi mumkin. Natijada bo'lajak muhandislar turli vaziyatlarda harakatlarning algoritmilarini o'zlariga mustaqil tuzish (loyihalashtirish)lari kerak.

"Loyihalash" tushunchasini muhandislik ta'lim sohasiga joriy qilish, uni yangi muhitga moslashtirish bir qator uslubiy muammolarni hal qilish bilan bog'liq, chunki u pedagogika fanining terminologik makonini kengaytirish, ayrim an'anaviy toifalar haqidagi g'oyalarni qayta ko'rib chiqish, ularni bir-biri bilan bog'lash zaruratini belgilaydi. Pedagogik loyihalash va uning tatbiqlari V.S.Bezrukova, V.P.Bespalko, Y.S.Zair-Bek, N.N.Surtayeva, Y.K.Chernova, V.Z.Yusupov va boshqalar tomonidan olib borilgan. Biroq N.O.Yakovlevaga ko'ra, yagona nazariyani yaratish uchun olimlarning intensiv izlanishlariga qaramasdan, ushbu muammoning terminologiyasi va uning mazmuni to'liq o'rganilmagan.

Bizning kuzatishlarimizga ko'ra, bo'lajak muhandislarning malakaviy tayyorgarligida yuz beradi, bu esa o'rganilayotgan materialga qiziqishni shakllantirishga yetarli darajada e'tibor berilmasligi bilan bog'liq. Bo'lajak muhandisni kasbiy faoliyatga qiziqishni shakllantirishda, har qanday o'quv predmetini o'rganishda malakaviy amaliyotlarini, stajirovkalarni bajarishga alohida o'rin ajratiladi.

Amaliyot bo'lajak muhandislarning ta'lim jarayonida olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, tanlagan mutaxassislik bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallash va takomillashtirishga qaratilgan o'quv ishlari turidir. Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha asosiy o'quv dasturlariga kiritilgan malakaviy amaliyoti oliy ta'limning asosiy ta'lim dasturining ajralmas qismidir.

Oliy ta'lim muassasasida malakaviy amaliyot bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda aniq maqsadini hisobga olgan holda, bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni oshirish (takomillashtirish) uchun alohida fanlar yoki fanlar guruhlarida tashkil etiladi. Amaliyotda berilgan topshi-

riqlar murakkab xususiyatga ega bo'lib, amaliy tajriba orttirish yoki muhandislik loyihalarni tashkil etish, loyihalash, boshqaruv, tadqiqotchilik, ishlab chiqarish va sozlash kabi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Talabalar professor-o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni rejaga muvofiq bajaradilar.

Oliy ta'lim muassalarida malakaviy amaliyot jarayonini loyihalashda teskari aloqani uzluksiz qo'llab-quvvatlash lozim. Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, teskari aloqa vositasida ustunlik professor-o'qituvchi yoki malakaviy amaliyot tashkilotchilari tomonidan turli nazorat turlari bilan saqlanib qoladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, malakaviy amaliyot boshlanishida nazorat kamroq qo'llaniladi. Joriy nazorat muntazam ravishda qo'llaniladi, ammo malakaviy amaliyot metodologiyasiga ko'ra, u monotondir va talabalarning o'quv jarayoniga sezilarli tuzatishlar kiritilmaydi. Talabalarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish bir darajasidan ikkinchisiga ijobiy nazorat natijalari asosida o'tkazilishi mumkin. Bu shuni ko'rsatadiki, joriy nazorat hali loyihalash vositasi emas, malakaviy amaliyotni tashkil etish uchun xizmat qiladi.

Bo'lajak muhandisni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun mazmunli va qiziqarli mashg'ulotlar, yuqori ilmiy, nazariy va uslubiy darajalarda olib boriladigan malakaviy amaliyotni uzluksiz tashkil etish, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga ijodiy yondashuvni rag'batlantirish va ularning umumiy xususiyatlari – kompetensiyalar orqali hal qilinadi.

Texnika oliy ta'lim muassasasida bo'lajak muhandislarni malakaga asoslangan yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilish malakaviy amaliyot jarayonini takomillashtirish yo'llarini, ayniqsa, kasbiy mahoratni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadigan mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha qayta ko'rib chiqish zarurligini tasdiqladi va talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va malakaviy amaliyotini loyihalash muammosini amaliy yechimga yaqinlashtirdi.

Bo'lajak muhandislarni malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlashi modelini ishlab chiqish tartibi va xususiyatlari quyidagicha:

1. Malakaviy amaliyotni tashkil etish va o'tkazishdagi mavjud vaziyatni tizimli tahlil qilish, unda shaxsiy talablar nuqtayi nazaridan zaifliklar va kamchiliklar aniqlandi. Tahlil natijasida amaliyotning komponentlari, umuman, uning holati va unga qo'yiladigan talablar o'rtasidagi ziddiyatlar aniqlandi.

2. Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda malakaviy amaliyotni pedagogik loyihalash shakli tanlandi. Malakaviy amaliyotni loyihalash biz tomonimizdan talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini kursdan kursga bosqichma-bosqich rivojlantirish strategiyasi shaklida taqdim etildi.

3. Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda malakaviy amaliyot pedagogik loyihalashning nazariy asoslari taqdim etildi. Ushbu bosqichda quyidagi ma'lumotlar qidirildi: boshqa mutaxassisliklarda malakaviy amaliyot o'tkazish tajribasi haqida, boshqa professor-o'qituvchilar tomonidan o'xshash malakaviy amaliyotlarni ishlab chiqish tajribasi haqida, pedagogik tizimlar va jarayonlarning pedagogik vaziyatlarga muayyan ta'sirini nazariy va empirik tadqiqotlari haqida.

4. Bo'lajak muhandislarni malakaviy amaliyoti jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini ishlab chiqish uchun uslubiy yordam ishlab chiqildi. Ushbu bosqich tashkiliy va uslubiy loyihalash vositalarini yaratishni o'z ichiga oldi: "kompetentli yondashuvga asoslangan pedagogik loyihalash" seminar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, professor-o'qituvchilar uchun "pedagogik loyihalash", "kompetentli yondashuvdan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari" kasbiy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi; amaliyotning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqildi.

5. Bo'lajak muhandislarni malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini loyihalashning obyektini faqat real qiymatni oladi va uning rivojlanishi davomida ma'lum vaqt va ma'lum makon hisobga olinganda amalga oshishi mumkin. Malakaviy amaliyotni pedagogik loyihalashda uning individual bosqichlari va uni amalga oshirish vaqti (o'quv jarayonining o'quv jadvaliga joylashtirish, auditoriyalar, laboratoriyalar va boshqalar) aniqlandi.

6. Texnika oliy ta'lim muassalarida talabalarning malakaviy amaliyoti modelini loyihalashning moddiy-texnik ta'minoti tahlil qilindi. Malakaviy amaliyotning moddiy-texnik ta'minoti pedagogik loyihalash jarayonida bir nechta funksiyalarni bajarish nuqtayi nazaridan tanlangan. Birinchidan, u amaliyotni loyihalash faoliyatini amalga oshirish uchun pedagogik texnika va vositalarni o'z ichiga olgan. Ko'p funksiyalar (shakllantiruvchi, o'zaro ta'sir va boshqalar) kompyuterda o'tkazildi. Ikkinchidan, malakaviy amaliyotning moddiy-texnik ta'minoti turli manbalardan (bir nechta bo'limlar, o'quv laboratoriyalari va boshqalar) loyihalashtirildi. Uchinchidan, oliy ta'lim maqsadlarini hal qilish vositasi sifatida moddiy-texnik yordam ham amalga oshirildi va pedagogik loyihaning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqildi.

7. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va malakaviy amaliyot modelini loyihalashning tashkiliy-huquqiy ta'minoti ishlab chiqildi. Ushbu bosqich "malakaviy amaliyotni tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi yo'riqnomaga, amaliyot rahbarlari va tashkilotchilarining lavozim tavsiflariga o'zgartirishlar kiritildi) me'yoriy-huquqiy asoslarni yaratish va ularni amaliyotni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq tizim va jarayonlar doirasida ko'rib chiqishni o'z ichiga oldi.

8. Malakaviy amaliyot modelini ishlab chiqishda tizimni tashkil etuvchi omil aniqlandi. Bu bosqich bizga loyiha butunligini uning barcha komponentlarining o'zaro bog'liqligida amalga oshirildi. Bog'lanishlarning o'rnatilishi ixtiyorsiz bo'lgani uchun bu jarayon asosiy bog'lanishni ajratishni talab qildi, unga qarab barcha boshqa bog'lanishlar aniqlanadi. Tizimni tashkil etuvchi omilni tanlash, birinchi navbatda, kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasiga ta'sir qiladi.

9. Malakaviy amaliyot modelini ishlab chiqishda komponentlarning aloqasi va bog'liqligi aniqlandi. Tizimdagi komponentlar orasidagi bog'lanishlarning ko'plab mavjud turlaridan kelib chiqish, qurish, tarkibiy va boshqarish bog'lanishlarini tanladik.

10. Loyihani amalga oshirishda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan kompetentli yondashuviga asoslangan pedagogik loyihalash o'quv seminari doirasida amalga oshirildi.


11. Malakaviy amaliyot modelini joriy etish uchun virtual tajriba o'tkazildi. Ushbu bosqichda amaliyot loyihasini qo'llash bo'yicha uning o'zini tekshirish amalga oshirildi.

12. Ekspert baholash amalga oshirildi.

13. Bo'lajak muhandislarni malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli tajriba-sinovdan o'tkazildi. Ushbu bosqichda ishlab chiqilgan modeli mustaqil ekspertlar tomonidan tekshirildi.

14. Yakuniy bosqichi. Malakaviy amaliyotni loyihalash bo'yicha jamoaviy qarorni qabul qilish, undan keyin loyiha amalga oshirildi.

Quyidagicha malakaviy amaliyotni pedagogik loyihalashtirish jarayoni ishlab chiqildi (1-rasm).



**1-rasm. Malakaviy amaliyot loyihasi.**

Oliy ta'limni modernizatsiya qilish kompetentli yondashuvga asoslanadi, shuning uchun zamona-viy oliy ta'lim muassasasiga uchta asosiy vazifa qo'yiladi: iste'molchining ta'lim ehtiyojlarini qondirishi, jamiyat va davlat buyurtmasini bajarishi, shuningdek, ta'lim xizmatlari bozorida yuqori baholanishini ta'minlashi kerak. Shuning uchun kompetentli yondashuv biz tomonimizdan bo'lajak muhandislarni malakaviy amaliyoti jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini loyihalash tizimni tashkil etuvchi omil sifatida belgilandi.

Malakaviy amaliyot dasturini amalga oshirish davomida uchta asosiy vazifani hal qilish mumkin: 1) ta'lim ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun sharoit yaratish va kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun ajratilgan mablag'lardan oqilona foydalanishni ta'minlash; 2) talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini

yaxshilash, normativ-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish; 3) ta'limni boshqarish samaradorligi va sifatini oshirish.

Umumiy holda bo'lajak muhandislarning malakaviy amaliyot jarayonida barkamol, bilimdon, o'zini-o'zi rivojlantiruvchi, kommunikativ qobiliyatlarining rivojlanishi modelini amalga oshirish uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni yanada rivojlantirishga imkon berdi. Bundan tashqari, kompetentli yondashuv zamonaviy muhandislik talablariga javob beradigan yuqori malakali muhandislarni kasbiy va shaxsiy tayyorlash bilan bog'liq jarayonlarni yangilash uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Тураев С.Ж. Повышение качества профессиональной деятельности студентов с привлечением к научному проекту. Материалы XII Международной научно-практической конференции «Инновация в технологиях и образовании», 21–22 март 2019 г. Филиал КузГТУ в г.Белово. Белово, изд-во филиала КузГТУ в г. Белово, Россия, 2019, ч. 4, с. 240 – 242.

2. С.Л.Ибрагимов. Талабаларда математик моделлаштириш усули ёрдамида касбий кўникмаларни шакллантиришнинг психологик педагогик асослари Таълим, фан ва инновация (маънавий-маърифий, илмий-услубий журнал). Тошкент, 2019, 4сон, 112 – 115-бетлар.

3. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. Москва, “Азбуковник”, 2006, с. 944.

4. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. Москва, “Педагогика”, 1986, с. 240.

5. Пологрудов В.А. Вопросы методики преподавания физики в ВУЗе. Кемерово. КГУ, 1979, с. 122.

6. Советский энциклопедический словарь. А.М.Прохоров. Москва, “Советская энциклопедия”, 1981, с. 1600.

**Кўлдашева Махмуда Нурматжонова (Наманган Давлат университети Бошлангич таълимда аниқ ва табиий фанларни ўқитиш методикаси кафедраси катта ўқитувчиси (PhD);  
e-mail-kuldasheva80@bk.ru)**

#### **“ИҚТИСОДИЙ ВА ИЖТИМОЙ ГЕОГРАФИЯ” ФАНИДАН ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕХАНИЗМЛАРИ**

**Аннотация.** *Мазкур мақолада ўқув жараёнини ташкил этиш механизмлари, таълим самардорлиги ошириш масалалари, инновацион педагогик, инновацион технологияларнинг таснифи, географик билимларнинг турли манбалари, иқтисодий ва ижтимоий география фанини ўқитиш методикасининг ўзига хос хусусиятлари, билим манбалари бўйича тасниф, Таълимни ривожлантириш ҳолати асосида талабаларнинг билим фаолияти ва ўқув жараёнидаги иштироки хусусиятига қараб ўқитиш усуллари таснифи ёритилган.*

**Аннотация.** *В данной статье освещены механизмы организации образовательного процесса, вопросы повышения эффективности образования, классификация инновационных педагогических, инновационных технологий, различные источники географических знаний, особенности методики преподавания экономической и социальной географии, классификация по источникам знаний, классификация методов обучения в зависимости от характера познавательной деятельности и участия учащихся в образовательном процессе на основе идеи развития образования.*

**Annotation.** *In the article, mechanisms of organizing educational process, issues due to raising effectiveness of education, classification of innovational pedagogical, innovational technologies, various sources of geographical knowledge, peculiarities of methodology of teaching economical and social geography, classification according to sources of knowledge, classification of methods of education according to the character of cognitive activity and students studying in educational process on the basis of ideas on developing education.*

**Калим сўзлар:** *таълим, иқтисодий ва ижтимоий география, дарс, инновацион технология, методика, тадқиқот, тасниф, креатив суҳбат, ўқув жараёни, методлар.*

**Ключевые слова:** *образование, экономическая и социальная география, урок, инновационная технология, методология, исследование, классификация, творческая беседа, учебный процесс, методика.*

**Key words:** *education, economic and social geography, lesson, innovation technology, methodology, research, classification, creative conversation, learning process, techniques.*

Таълим самарадорлигини ошириш, шахснинг таълим марказида бўлишини ва ёшларнинг мустақил билим олишларини таъминлаш, замонавий педагогик ва ахборот технологияларидан ўқув ва тарбиявий машғулотларни ташкил этишда фойдаланиш муаммолари ҳақида қатор илмий тадқиқотлар яратилди. Шундай бўлса-да, замонавий дарс ва ўқитишнинг инновацион технологияларини қўллаш борасида чуқурроқ тадқиқ этилиши лозим бўлган масалалар ҳам мавжуд. Шу маънода иқтисодий ва ижтимоий география фанини ўқитиш методикасининг долзарб масалаларидан бири дарс жараёнини инновацион технологиялар асосида ўқув жараёнини ташкил этиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади (1-чизма).



1-чизма. Ўқув жараёнини ташкил этиш.

Сўнгги вақтларда географик билимларнинг турли манбаларидан фойдаланишга эътибор су-сайгани йўқ, аксинча, турли хил техник ўқув воситаларидан фойдаланиш билан боғлиқ равишда кучаймоқда. Айниқса, таълимнинг инновацион педагогик технологияларидан фойдаланишга қўйилган талаб ортиб бормоқда. Таълимда инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш турлари ва таркиби ортиб бормоқда (1-расм).

Билим манбалари бўйича тасниф жиддий камчиликларга эга. Методлар ўқувчиларнинг билим фаолияти хусусиятини ҳисобга олмаган ҳолда, ташқи хусусиятлари билан ажралиб туради. Тасниф ривожлантирувчи таълимни амалга оширишга қаратилмайди. Сиз ҳар бир манба билан ҳар хил усулда ишлашингиз мумкин. Масалан, харитадан ўқитувчининг ҳикоясини тасвирлаш, географик объектларнинг жойлашишини кўрсатиш учун фойдаланиш мумкин. Талабаларнинг фаоллиги харитани идрок этиш ва предметларнинг фазовий жойлашишини ёдлашгача камаяди. Талабаларнинг билиш фаолиятининг табиати ҳам худди шундай ва ўқитувчи уларни харитадан географик объектларни топишга ва уларни контур харитага туширишга таклиф қилганда. Фаолиятнинг бошқа табиати, мустақил равишда харитада географик объектлар ва ҳудудларнинг тавсифини, тавсифини тузишингиз керак бўлганда. Бундай ҳолда, харита мустақил билим манбаи ҳисобланади. Ушбу асарларни ижро этиш талабаларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришга ёрдам беради. Таълимни ривожлантириш ғояси асосида талабаларнинг билим фаолияти ва ўқув жараёнидаги иш-



тироки хусусиятига қараб ўқитиш усулларининг таснифи ишлаб чиқилди. Ушбу параметрларга кўра ўқитишнинг қуйидаги усуллари ажратилган: тушунтириш ва тасвирий, репродуктив, муаммони тақдим этиш усули, қисман излаш, тадқиқот.



Тушунтириш ва тушунтириш усули. Усулнинг мақсади талаба томонидан тугалланган шаклда берилган билимларни ўзлаштиришни ташкил этиш. Ўқитувчи географик хариталар, турли кўр-газмали қуроллардан фойдаланган ҳолда ўқув материални тақдим этади. Асосий эътибор асосий материалга қаратилади, иккиламчи маълумотларнинг ҳаддан ташқари юкланиши чиқариб ташланади. Талабанинг вазифаси – янги маълумотларни идрок этиш, тушуниш, эслаш ва кўпайтириш. Ушбу услуб нафақат ўқитувчи томонидан тақдим этилган материални тақдим этишни, балки ўқувчининг у ёки бу маълумот манбасида бевосита акс этган маълумотни олиш, тушуниш ва ёдлаш билан чекланганлиги (матрни қайта тузилмасдан ўқиш ва қайта ҳикоя қилиш, харитада керакли объектни топиш, рақамли кўрсаткичларни ўқиш жадвалларда, графикаларда, диаграммаларда ва ҳоказо). Қандай бўлмасин, талабалар билимларни тугалланган шаклда оладилар, вазифалар руҳий жиҳатдан катта қийинчиликларга олиб келмайди.

Репродуктив усул. Унинг мақсади талабани таниқли модель бўйича таниқли вазиятда билим ва кўникмаларни қўллашга ўргатишдир. Ўқитувчи талабаларнинг мустақил ишларини ташкил қилади, уларга стандарт топшириқлар беради, яъни. худди шу режа асосида бажарилган вазифалар, талабаларни ушбу вазифаларни бажариш режаси билан таништиради, бажарилиш намунасини кўрсатади. Талабалар ўқитувчилар раҳбарлигида гуруҳ топшириқларини бажарадилар. Кейин шунга ўхшаш топшириқлар мустақил ишлаш учун берилади. Бундай ишларнинг асосий тури бу географик хариталарда намунавий режалар бўйича тавсифлар. Одатда, режалар уларнинг ақлий ва амалий ҳаракатларини бошқаради, ҳаракатлар тартибини, кетма-кетлигини белгилайди. Стандарт режалардан ташқари, сиз нафақат харита билан ишлаш, балки бошқа маълумот манбалари (кўр-газмали қуроллар, жадваллар, графикалар ва бошқалар) билан ишлаш учун ҳам эслатмалар, кўрсатмалар беришингиз мумкин. Шунингдек, сабаб-оқибат муносабатларини аниқлаш, таққослаш учун топшириқлар берилган. Қандай бўлмасин, талабаларнинг фаолияти билим ва кўникмаларни мо-

дель бўйича қўллаш ҳисобланади. Талаба вазифаларни бажариш усулини билади. Талабалар янги иш услубини изламайдилар. Шунинг учун уларнинг фаолияти репродуктивдир, яъни уларнинг фикрлаш мантиғи одатдаги режа, кўрсатмалар билан белгиланади.

Муаммони ҳал қилиш усули. Унинг мақсади талабаларга муаммони ечиш моделини кўрса-тиш, уларга ҳақиқат сари ҳаракатланишнинг қийин йўлини очиб бериш ҳисобланади. Ўқитувчининг ўзи муаммони шакллантиради, уни далиллар ва мисоллар асосида ҳал қилади. Талабаларнинг фаолияти шундан иборатки, улар материални идрок этиши, исбот мантиғига амал қилиши, муаммони ечиш босқичларини ўрганиши керак.

Қисман қидириш усули. Унинг мақсади талабани ижодий фаолият билан босқичма-босқич таништиришдир. Бунга муаммоли вазифаларни ҳал қилиш орқали эришилади. Талабалар ушбу вазифалар қандай бажарилганлигини билишмайди. Бу муаммоли ва одатдаги вазифалар ўртасидаги фарқ. Муаммоли вазифалар бошқача тарзда ижодий деб номланади. Қисман қидириш усули билан ўқитувчи муаммоли саволни кўтаради ва уни бир нечта кичик саволларга ажратади, кичик саволларга жавоблар асосий муаммоли саволга жавоб беради. Шу билан бирга, талабалар қидирув фаолиятини амалга оширадидилар, аммо мустақил равишда эмас, чунки уларнинг ҳар бир босқичи ўқитувчи томонидан кичик саволлар орқали бошқарилади. Қисман қидириш усулининг кенг тарқалган шакли бу эвристик суҳбат бўлиб, унинг давомида талабалар янги билимларга эга бўладилар. Бу маълумотли, тушунтиришли суҳбат бўлиб, уни креатив суҳбатдан ажратиш керак. Креатив суҳбат давомида илгари олинган билимлар такрорланади ёки талабалар саволларга жавоб берадилар, жавоблари ахборот манбаларида кўрсатилади.

Тадқиқот усули. Унинг мақсади талабани мустақил ижодий фаолият билан таништиришдир. Агар қисман қидириш усули билан талабалар ўқитувчи раҳбарлиги ва ёрдами билан муаммоли саволга жавоб излаётган бўлса, тадқиқот усули билан талабалар мустақил равишда муаммоли вазифаларни бажарадилар. Улар қидирув фаолиятини олиб борадилар (ўзлари йўл излайдилар, муаммони ҳал қиладилар). Дарсда алоҳида муаммоли саволлар тўғридан-тўғри кўтарилади. Муаммоли саволлар ва топшириқларни узоқроқ вақт давомида ҳисоблаш мумкин. Бу асосан ўлкашунослик ишлари учун вазифалар.

Талабалар фактик материалларни тўплайдилар, қайта ишлайдилар, тартибга соладилар, таҳлил қиладилар, хулосалар чиқарадилар, уларни асослайдилар. Бундай топшириқларни бажариш талабаларни илмий билим усуллари билан таништиришга имкон беради. Натижада талабалар янги билимларга эга бўладилар. Муаммони ўрганиш муаммони баён қилиш, қисман излаш ва тадқиқ қилиш усули ёрдамида амалга оширилади. Репродуктив, қисман излаш ва тадқиқ қилиш усуллари билан талабалар одатдаги ва ижодий турли хил мустақил ишларни бажарадилар.

Ўқитиш усулларида фойдаланиш географик билимларнинг турли манбалари билан ишлашни ўз ичига олади. Ушбу манбалар билан ишлаш у ёки бу усулнинг бир қисми сифатида ўқитиш техникасини шакллантиради. Ўқитиш услубларига кўра, талабалар томонидан билимларни ўзлаштиришнинг қуйидаги даражалари ажратиб кўрсатилади.

1-даража – талабалар тайёр шаклда берилган маълумотларни ўзлаштирадидилар ва кўпайтирадидилар; бу тушунтириш-иллюстратив усулга амал қилади.

2-даража – талабалар мавжуд бўлган билимларни таниш моделда, таниш ўқув шароитида қўллайдилар. У репродуктив усулга мос келади.

3-даража – талабалар янги ўқув шароитида билимларни ижодий қўллайдилар. У қисман қидириш усулларига мос келади.

Ушбу даражалар ва уларга мос келадиган усулларни ўқув жараёнининг барча босқичларида фарқлаш керак: янги материални ўрганишда, билимларни мустаҳкамлашда, умумлаштириш ва тизимлаштиришда, баҳолашда. Агар билимларни текширишда талабалар фақат дарсликдаги материалларни кўпайтирсалар, унда бундай тест тушунтириш-иллюстратив усул ёрдамида амалга оширилади ва 1-даражага тўғри келади. Агар талабалар ижодий топшириқларни бажарсалар, бу материални энг юқори даражада ўзлаштирилишини баҳолашга имкон беради.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, ўқув жараёнини ташкил этишда инновацион технологиялардан фойдаланишда ўқитувчи, биринчи навбатда, ўқитишни замонавий тартибга солади, талаба дарс давомида берилган маълумотларни таҳлил қилади, хулосалар чиқаради, уларни асослайдилар. Инновацион топшириқларни бажариш орқали талабаларни илмий билим усуллари билан таништиришга имкон беради. Натижада талабалар янги билимларга эга бўладилар. Муаммони ўрганиш муаммони баён қилиш, қисман излаш ва тадқиқ қилиш усули ёрдамида амалга оширилади.

ди. Репродуктив, қисман излаш ва тадқиқ қилиш усуллари билан талабалар одатдаги ва ижодий турли хил мустақил ишларни бажарадилар ҳамда уларда касбий компетенликни ривожланишига асос бўлади.

**Xoldorova Shohista Azamjon qizi (Jizzax davlat Pedagogika instituti o‘zbek tili o‘qitish metodikasi kafedrası o‘qituvchisi; [Xoldorovashohista@gmail.com](mailto:Xoldorovashohista@gmail.com))**

### **ELEKTRON MULOQOT – ZAMONAVIY DUNYONING YANGI ALOQA TURI**

**Annotatsiya.** Virtual ijtimoiy aloqaning ommalashib borishi tufayli muloqotning yangi shakli elektron muloqot jarayoni paydo bo‘ldi va u ilmiy asosda o‘rganishni taqozo qilmoqda. Internet muloqot insonlar o‘rtasidagi muloqotning yangicha o‘lchamini ochib berdi. Ushbu maqolada elektron muloqot va uning o‘ziga xos tomonlari haqida so‘z boradi.

**Аннотация.** В связи с популярностью виртуального социального общения возникла новая форма общения – процесс электронной коммуникации, который требует своего изучения на научной основе. Интернет-общение открыло совершенно новый мир человеческого общения. В данной статье рассматривается электронная коммуникация и ее специфические аспекты.

**Annotation.** Due to the popularity of virtual social communication, a new form of communication – the process of electronic communication – has emerged and requires its study on a scientific basis. Internet communication has opened up a new dimension of communication between people. This article discusses electronic communication and its specific aspects.

**Kalit so‘zlar:** virtual muloqot, forum, chat, sinxron, anonimlik, norasmiylik, gipermatn, multimedia, onlayn, adresat, polilog.

**Ключевые слова:** виртуальное общение форум, чат, синхронная анонимность, информативность, гипертекст, мультимедиа, онлайн, адресат, полилог.

**Key words:** virtual communication, forum, chat, synchronous anonymity, informality, hypertext, multimedia, online, addressee, polylogist.

Insonning rivojlanib borishini, ijtimoiylashuvini, individning shaxs bo‘lib shakllanishini, uning jamiyat bilan bo‘lgan aloqasini muloqotsiz, aslo, tasavvur etib bo‘lmaydi. Insonlarga ozuqa qanchalik zarur bo‘lsa, muloqot ham shu kabi ehtiyojdir.

Muloqot – odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojining ko‘p qirrali jarayoni. Muloqot birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlashni o‘z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda, avvalo, tilga murojaat qiladilar. O‘zbek tilining izohli lug‘atida muloqot “uchrashish, ko‘rishish, qabul qilish” degan ma‘nolarni ifodalagan.<sup>1</sup> Ya‘ni, insonlarning diydor uchrashuvi, ularning bir-birlari bilan ko‘rishishlari natijasida muloqot jarayoni yuzaga keladi.

Bugungi kunda fan va texnika rivojlanayotgan bir davrda ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati va undan foydalanuvchilar soni ham kun sayin ortib bormoqda. Natijada insonlar o‘rtasidagi fikr almashish jarayoni, ya‘ni muloqotning yangi shakli – elektron muloqot aloqasi yuzaga kelmoqda.

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarining ulkan ijtimoiy ahamiyatini inkor etib bo‘lmaydi. Internet taqdim etayotgan imkoniyatlari bilan har bir inson hamda butun jamiyatni o‘zi bilan chambarchas bog‘lamoqda. Bugungi kunda internetning rivojlanishi tufayli, dars mashg‘ulotlari, biznes hamkorliklar, savdo-sotiq, o‘zaro muloqot jarayonlari, turli xil o‘yinlar va boshqalar ham onlayn shaklda amalga oshib kelmoqda. Ayniqsa, yangiliklarning shiddat bilan tarqalishini inkor etmasak ham bo‘ladi. Bularning bar-chasida internet katta ahamiyat kasb etadi. Natijada esa insonlarga bir qator qulayliklar yuzaga keldi.

Virtual ijtimoiy aloqaning ommalashib borishi tufayli muloqotning yangi shakli elektron muloqot jarayoni paydo bo‘ldi va uni ilmiy asosda o‘rganishni taqozo qilmoqda. Internet muloqot insonlar o‘rtasidagi muloqotning yangicha o‘lchamini ochib berdi.

U katta hajmdagi axborotlarni saqlash va tez uzatish, audio va videoaloqa kanallaridan foydalanish va onlayn rejimida muloqot qilish imkonini yaratib beradi.<sup>2</sup> Shuning uchun ham oddiy muloqot shaklla-

<sup>1</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. Тошкент, 2020, 2-жилд, 635-бет.

<sup>2</sup>Халилова Р. Виртуал-коммуникатив майдон самарали мулоқот воситаси сифатида. “НамДУ илмий ахборот-номаси”, 2021, № 2.

ridan qator qulaylikka egaligi tufayli undan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda. Elektron muloqot vaqt va makon tanlamaydi. Muloqotga kirishuvchilarning uzoq masofada ekanligi aloqa jarayoniga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Aksincha, adresat va adresantni bir-birlari bilan bog'lovchi ko'priki vasifasini o'tagan holda nutqiy munosabatni yuzaga chiqarib beradi.

Virtual muloqot jarayoni ma'lum bir sharoitlarda va ma'lum bir omillar ta'sirida amalga oshadi. Avvalo, muloqot jarayoni doim aniq bir vaziyatda amalga bo'ladi. Me'yordagi muloqot akti kamida ikkita ishtirokchi bo'lishini taqozo etadi: gapiruvchi (yozuvchi) va tinglovchi (yozuvchi). Bunda gapiruvchi va tinglovchi rollari o'zgar olmaydi. Virtual maydondagi muloqot aktida onlayn bo'lishi shart.

Virtual maydondagi muloqot sohasi ma'lum bir umumiy vazifa va vaziyatli shart-sharoitlar bilan birlashgan muloqot aktlar majmuasi bo'lib, kommunikativ hodisa sifatida aktivdir. Bunday muloqot mutlaqo turli xil sohalarida amalga oshishi mumkin: kundalik muloqot sohasi (asosan, shaxslararo), sanoat muloqot sohasi, biznes muloqot sohasi (yoki biznes muloqot), ilmiy, ma'rifiy va siyosiy nutq sohasi, turizm, sport va shou-biznes sohasi, tibbiy nutq sohasi, xalqaro aloqa va h.k.<sup>1</sup>

Elektron aloqa turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: elektron kundaliklar, forumlar, chatlar, elektron pochta, bloglar ko'rinishida. Internetdagi bu kabi aloqa shakllari jonli tarzda muloqot shakllarining yozma ko'rinishdagi aksi hisoblanib, bir qator afzalliklarga egaligi bilan undan birmuncha yuqori pog'onada ham turadi.

Amerikalik tilshunos va aloqa mutaxassisi S.Herring internet vositachiligidagi elektron muloqotga quyidagi ta'rifni beradi: "Bu, asosan, matn shaklida amalga oshiriladigan, tarmoqqa ulangan kompyuterlar yoki mobil telefon orqali amalga oshiriladigan shaxslar o'rtasidagi muloqotdir".<sup>2</sup>

Kompyuter vositasida aloqa qilish jarayonida matnni ishlab chiqaruvchining ham, ushbu matnni idrok etuvchining ham faoliyati amalga oshiriladi. Shu bilan birga, idrok etuvchi tomonning faoliyati nafaqat hissiy va intellektual, balki amaliy harakatlar ko'rinishida ham bo'lishi mumkin: qabul qiluvchi shaxsiy xabarlar funksiyasidan foydalangan holda, javob berish yoki sharh qoldirish imkoniyatiga ega. Shunday qilib, ikki xil foydalanuvchilar guruhidagi "muallif" va "o'quvchi" turli rollarni o'ynaydigan foydalanuvchilar guruhiga aylanadi. Ushbu foydalanuvchilar vaqti-vaqti bilan rollarni o'zgartiradilar.<sup>3</sup>

Internet vositachiligidagi elektron muloqot shakllari o'ziga xos qator belgilarga ega bo'lib, quyida ularni keltirib o'tamiz:

**1. Gipermatnlilik belgisi**, ya'ni, axborotni va unga qo'shilgan matnni giperhavolalar bilan taqdim etishning chiziqli bo'lmagan usuli.

**2. Multimedialilik xususiyati.** Bu xususiyat matnga grafik, audio va videoelementlarni birlashtirish qobiliyati, ya'ni, bitta matnda turli xil usullarda kodlangan ma'lumotlarning kombinatsiyasi sifatida tushuniladi.

**3. Muloqotning sinxron yoki asinxron xarakteri**, ya'ni, kommunikantlarning bir vaqtning o'zida tarmoqda bo'lishi va xabarlarga darhol javob berish yoki javob bermaslik qobiliyatiga ega bo'lgan vaziyat. Internet vositachiligidagi muloqotning yana bir muhim xususiyati sinxronlik yoki asinxronlik belgilari kommunikantlarning bir vaqt mobaynida tarmoqqa ulanishi bilan bog'liq. Sinxron aloqa vaqtida barcha ishtirokchilar onlayn bo'lib, darhol munosabat bildirish imkoniyatiga ega (masalan, chatda). Asinxron aloqada esa ishtirokchilar istalgan qulay vaqtda qabul qilingan xabarlarni o'qishlari va uni tahrirlash orqali javoblarini o'ylab ko'rishlari mumkin (masalan, elektron pochta xabarlari, bloglar, forumlar).

**4. Ixtiyoriylik.** Foydalanuvchilar, o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, istalgan vaqtda xohishiga ko'ra aloqa o'rnatishi yoki uzishi mumkin.

**5. Norasmiylik.** Muloqot shaxsiy yozishmalar doirasida nisbatan erkin bo'lib, ular rasmiy xususiyatga ega bo'lmaydi. Shuning uchun senzura va tuzatishga duchor bo'lmaydi. Shaxsiy muloqot matnlarida, ko'p hollarda, og'zaki nutqning elementlari mavjud bo'ladi. Ammo shuni ta'kidlash ham kerakki, ayrim o'rinlarda elektron aloqa rasmiy xarakterga ega bo'lishi ham mumkin.

**6. Virtuallik.** Kommunikantlar to'g'ridan to'g'ri aloqaga kirishmaydi, ular bir-birlarini shaxsan tanimasliklari va real hayotda hech qachon uchrashmasliklari mumkin. Ular lingvistik va ekstralingvistik vositalardan foydalangan holda virtual muhitda aloqaga kirishadilar.

<sup>1</sup> Shu manba. 454-bet.

<sup>2</sup> Herring S.C. Computer-Mediated Communication: linguistic, social and cross-cultural perspectives. Amsterdam, Benjamins, 1996, p. 324.

<sup>3</sup> Мечковская. Горизонты современной лингвистики. Традиции и новаторство. Сб. в честь Е.С.Кубряковой. М., "Языки славянских культур", 2009, с. 322.

**7. Ishlov berish.** Foydalanuvchi har doim o'z fikrini o'ylab yozishi va tahrirlash, hatto o'chirish va qayta yozish imkoniyatiga egadir.

**8. Anonimlik.** Kundalik saytlarda foydalanuvchi profilini ko'rish mumkin bo'lsa-da, ma'lumotlarning haqiqiylikiga kafolat berilmaydi. Ba'zan profildagi nom va taxalluslar ham haqiqiy bo'lmasligi mumkin.

**9. Masofa.** Har qanday virtual muloqotga masofaning uzoqligi ta'sir o'tkaza olmaydi. Dunyoning ikki burchagidagi insonlarning munosabatlarini ham aynan virtual aloqa ta'minlay oladi va suhbatdoshlarni makon va vaqt ajratib turmaydi.

**10. Yozma shakl belgisi.** Elektron muloqot jarayoni deyarli yozma nutq doirasida amalga oshadi. Muallif sodda ko'rinishda yoki murakkabroq lingvistik vositalardan, ya'ni, iboralar, tasviriy vositalardan foydalangan holda, axborot uzatishi mumkin. Lekin bu shakl belgisini doimiy birlamchiga chiqarib bo'lmaydi, ayrim hollarda, muloqot ovozli chat, videomuloqot ko'rinishida ham amalga oshishi mumkin hisoblanadi.

**11. Dialogik shakl.** Muloqot jarayoni aksariyat tarzda ikki tomonlama, ya'ni, dialogik shaklda namoyon bo'ladi. Ayrim o'rinlarda guruh doirasida ommaviy suhbat vaqtida endi u polilogga, ya'ni ko'pchilikning muloqotiga aylanadi.

**12. Axborotning bevosita va bilvosita uzatilishi.** Muloqot jarayonida xabar lisoniy vosita bilan birga nolisoniy birliklar yordamida ham uzatilishi mumkin bo'ladi. Nosiloniy vositalarga so'zlovchining hissiy holatini ifodalovchi turli xil ko'rinishdagi kulgichlar (smayliklar), emojilar va memlar kirishi mumkin. Ular ham ma'lum ma'noda kommunikatsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Internet vositachiligidagi muloqot jarayonini ishtirokchilar soniga ko'ra, quyidagi uchta turga ajratish mumkin.

1. Shaxsiy muloqot, ya'ni, "birga bir", bu elektron pochta, shaxsiy chat, ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy xabarlar tizimi va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bunday muloqot ham monolog, ham dialogik shaklda bo'lishi mumkin.<sup>1</sup>

2. Ommaviy aloqa, ya'ni, "birdan ko'pga" elektron pochta orqali ro'yxatlar, ijtimoiy tarmoq kanallari, veb-sayt va boshqalar. Bunday holda, adresat aniq emas, u umumlashtirilgan va bashorat qilindigan, shuning uchun bayonotlar manzilsizdir. Bu tashkilotlarning veb-saytlari, internet nashrlari, siyosiy partiyalar, ta'lim muassasalari va boshqalarga xosdir.

3. Guruh muloqoti, ya'ni "ko'pdan – ko'pchilikka". Muloqotning bu turi polilogni nazarda tutadi va uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, muloqotning bir nechta ishtirokchilari bir vaqtning o'zida ma'ruzachi bo'lishga da'vo qiladilar.<sup>2</sup>

Shunday qilib, biz kompyuter vositachiligidagi aloqa shaxsga yo'naltirilgan va institutsional aloqani amalga oshirishga imkon beradi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Muloqot turi bir janr doirasida o'zgarishi mumkinligiga e'tibor qarataylik. Elektron pochta ham shaxslararo, ham ommaviy muloqotni amalga oshirishga imkon beradi, chatlar va shunga o'xshash dasturlar shaxslararo va guruhli aloqa funksiyalariga ega.

Elektron aloqa uchun qulaylik va tezlik muhim, shuning uchun jo'natuvchi va qabul qiluvchining muloqot jarayonida so'zlarni qisqartirish muhimdir. Shu munosabat bilan, qisqartma hodisasini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Elektron muloqotda tilda allaqachon mavjud bo'lgan qisqartmalardan ham, faqat ushbu muhitga xos bo'lgan aloqa jarayonida yaratilgan qisqartmalardan ham foydalanish mumkin. Muloqotda qisqartmalardan foydalanish tavsiya etiladi, chunki u nutqiy xabarni optimallashtirishga xizmat qiladi va tilning moddiy elementlarini tejaydi. Bundan tashqari, bu yangi tushunchalarni nomlash zarurati bilan ham bog'liq. Vaqt o'tishi bilan qisqartmalar tilning mustaqil leksik birliklariga aylanib boradi.

Bundan tashqari, mualliflar xabarning eng muhim qismini ajratib ko'rsatish maqsadida matnning bir qismini bosh harflar bilan yozishi mumkin yoki bitta grafemaning bir necha marta takrorlab yozish texnikasidan ham foydalanadilar. Tinish belgilari yordamida nutq tempini ajratish mumkin: nuqtalarning davomiy qo'yilishi fikrning tugal emasligini ifodalasa, takror so'roqlar jumlaning noaniq ekanligi va savol alomati mavjudligini ifodalashga xizmat qiladi. Vergullarning ko'pligi esa tezlashtirilgan tempni bildiradi.

<sup>1</sup>Формановская Н.И. Речевое взаимодействие: коммуникация и прагматика (текст). М., "Икар", 2007, с. 478.

<sup>2</sup>Филиппов К.А. Лингвистика текста. Курс лекций. 2-е изд., испр. и доп. (текст). СПб., изд-во СПбГУ, 2007, с. 331.

Elektron muloqot tilini o'rganish jarayonida ko'rish mumkinki, bir tomondan, kommunikantlar og'zaki muloqotga taqlid qilsalar, ikkinchi tomondan, virtual olamdagi elektron muloqot, ko'pincha, real dunyodagi og'zaki muloqot o'rnini egallaydi.

Elektron matn og'zaki va yozma nutqni birlashtiradi. Elektron muloqot nutqning yozma shaklida bo'lishiga qaramay, ko'p sonli og'zaki, so'zlashuv iboralari bilan birga qo'llaniladi. Virtual muloqotni "yozma nutq va og'zaki nutq o'rtasidagi ko'priq" deb hisoblash mumkin. E.I.Litnevskaya yuqoridagi fikrlar asosida "yozma og'zaki til" tushunchasini,<sup>1</sup> G.N.Trofimova esa "yozma talaffuz" atamasini fan dunyosiga olib kiradi.<sup>2</sup>

Yuqoridagi tilshunos olimlarning fikrlardan kelib chiqqan holda, quyidagicha xulosa yasash mumkin: elektron muloqot gibrid shaklda, og'zaki va yozma xarakterga ega bo'lib, har ikkala shaklning xususiyatlarini o'zida mujassam eta oladi.

Bugungi kunda ko'pchilik insonlarning hayot tarzida internet vositachiligidagi muloqot axborot almashinuvining asosiy shakliga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham elektron matnlar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini lingvistik aspektida o'rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

**Samandarova Lola Sultanovna (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Toshkent Tibbiyot akademiyasi dotsenti)**

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA MAQOL VA TOPISHMOQ JANRLARINI O'RGATISH USULLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarida maqol va topishmoq janrlarini o'rgatish usullari hamda topishmoqlarning anchasi maqol, maqollarning ko'pi topishmoq degan fikrlar bor bo'lganligi sababli, bu darajada umumlashtirishga yetarli darajada asos yo'qligidan kelib chiqib, shu mavzuda tadqiqot ishlari olib borildi. Maqol va topishmoqlar bolalarning eng sevimli janrlaridan hisoblanadi. Shu sababli boshlang'ich sinflardagi o'quvchilarga bu janrlarni qanday qilib samarali va qiziqarli o'rgatish, o'quvchilarda maqol va topishmoqlarni tezroq yodlash ko'nikmalarini oshirish yo'lida turli usullardan foydalanish kabi mavzular atroflicha yoritilgan.*

***Аннотация.** В данной статье идёт речь о методах обучения учащихся начальных классов пословицам и поговоркам, о причинах возникновения мнений, что большинство загадок состоит из пословиц, а пословицы в основном состоят из загадок, не имеет смысла обобщать эти понятия в такой степени. Пословицы и загадки считаются одним из любимейших жанров детей. На основании этого освещены проблемы: как учить этому жанру учеников начальных классов продуктивно и интересно, как повысить способности запоминания пословиц и загадок у учеников, используя различные методы.*

***Annotation.** In this article, research has been conducted on the subject, as there are methods of teaching the genres of proverbs and riddles in primary school and there is no sufficient basis for generalization at this level, as many of the riddles are proverbs, most of the proverbs are riddles. Proverbs and riddles are one of the favourite genres of children. Therefore, topics how to teach these genres effectively and interestingly to primary school students, and the use of various methods to improve students' ability to memorize proverbs and riddles more quickly are covered.*

***Kalit so'zlar:** maqollar, matal, topishmoq, janr, metafora, frazema, shakl, o'xshashlik, usul va metodlar,*

***Ключевые слова:** пословицы, поговорки, загадки, жанр, метафора, фразема, форма, схожесть, приёмы и методы.*

***Key words:** proverbs, sayings, riddles, genre, metaphor, phraseme, form, similarity, tricks and methods.*

Maqol va topishmoqlar xalq tajribasining ko'p asrlik kuzatishlarining yakuni sifatida yuzaga kelgan. Ularning yuzaga kelishidagi asosiy omillari, ularning vazifalari bir-biridan farq qiladi. Ammo topishmoqlarning anchasi maqol, maqollarning ko'pi topishmoq degan fikrlar borki, bu darajada umumlashti-

<sup>1</sup>Литневская Е.И., Бакланова А.П. Психолингвистические особенности интернета и некоторые особенности чата как исконного сетевого жанра (текст). "Вестник МГУ", серия 9, "Филология", 2006, № 6, с. 46.

<sup>2</sup> Трофимова Г.Н. Языковой вкус интернет-эпохи в России (функционирование русского языка в интернете: концептуально-сущностные доминанты). Монография, М., изд-во РУДН, 2009, с. 300, 2-е издание, исправленное и дополненное.

rishga yetarli darajada asos yo‘q. Shuning uchun ham xalq orasida bir-biriga aynan o‘xshash maqol yoki topishmoqlar miqdorni qancha ekanligini aniqlash uchun tadqiqot olib borish zarur.

E’tirof qilish kerakki, ayrim maqollar, ayni paytda, topishmoq tarzida ham ishlatiladi:

*Hammaga to‘n tikaman, o‘zim yalang‘och.*

Ushbu iborani topishmoq tarzida qaralsa, ignani jumboqlash ko‘zga tashlanadi. Iboraga ma’juziy nuqtayi nazardan qaralsa, maqol janriga mansub bo‘lib chiqadi.

O‘zbek xalq topishmoqlarida maqolning topishmoq, topishmoqning maqol o‘rnida kelishi juda kam uchraydigan hodisadir. Yuqorida keltirilgan misolning umumiy soni maqol va topishmoqlarning umumiy soniga nisbatan shunchalik ozki, ularni ayrim hodisalar deyishga to‘g‘ri keladi. Demak, ko‘pchilik topishmoqlar ayni zamonda maqol va topishmoq bo‘lmasdan, balki ularning ayrimlarigina shunday xususiyatga egadir. Shu sababli maqol va topishmoqlarni o‘quvchilarga o‘rgatganda bunday nozik jihatlarga alohida e’tibor berish kerak.

Maqollar va topishmoqlarni boshlang‘ich sinflarda o‘rgatish usullari xususida tadqiqotlar juda kam. Bu sohada B.To‘xliyev, T.Ziyodova, S.Ro‘zimboyev, D.Rahimboyeva, G.Ro‘ziyeva, Z.Qorayev va boshqalarning ayrim ishlari e‘lon qilingan.<sup>1</sup>

Maqol va topishmoqlar bolalarning eng sevimli janrlaridan hisoblanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarning barcha bosqichlaridagi “Ona tili” va “O‘qish kitobi” darsliklarida ularga keng o‘rin ajratilgan. Masalan, 1-sinfning “O‘qish kitobi”da 22 ta maqol va 42 ta topishmoq berilgan. Ona tili darsligidan esa 3 maqol, 12 ta topishmoq o‘rin olgan. 2–4-sinflar darsliklarida ham bu janrlarga keng o‘rin ajratilgan.

Maqol va topishmoqlar shaklan bir-biriga o‘xshash keladi. Bu haqida yuqorida ham aytib o‘tdik. Ana shu holatdan kelib chiqqan holda, bolalarga bu ikki janrning o‘xshash va farqli tomonlarini yaxshilab tushuntirish kerak bo‘ladi.

Maqol bilan topishmoqning eng asosiy farqi ularning mazmuni bilan bog‘lanadi. Maqolada hukm-xulosa ifodalansa, topishmoqda biror bir narsaning mohiyati jumboqlanadi. Buni tushuntirish uchun bolalarga maqollardan va topishmoqlardan namunalar keltiriladi. Darsliklarda maqollar va topishmoqlarni joylashtirishda tasodifiylik yo‘q. Bu janrlarning har biri kitoblardagi mavzular xarakteriga mos ravishda tanlangan. Bu tamoyil kitobdagi turli badiiy matnlar mazmunini ochishda katta yordam beradi. Masalan, 2-sinfning “O‘qish kitobi”da Toshkent metrosi haqida matn berilib, undan keyin metro haqida jumboqlangan topishmoq berilgan.

*Yo‘lga qo‘yilgan narvon,*

*Undan o‘tar uy-karvon,*

O‘z navbatida, ushbu kitobning debochasida quyidagi maqollar berilgan:

*Bulbul chamanni sevar,*

*Odam – vatanni.*

*Vatan – ona,*

*Ostonasi oltin.*

Ushbu maqollardan so‘ng ona-Vatan haqida ma’lumot beruvchi matnlar, she‘rlar tizimi davom ettirilgan. O‘zbekiston va uning poytaxti Toshkent haqida turli lavhalar keltirilgan. O‘z navbatida, topishmoqlardan namunalar ham ilova qilingan. Yuqorida keltirganimiz metro haqidagi topishmoq darslikning o‘sha joyida tasodifan keltirilmagan. Chunki uning javobi metro va uning poezdi bo‘lib, bu narsa mamlakatimizda faqat Toshkent shahridagina mavjud.

Darslikdagi mana shu tamoyildan kelib chiqib, o‘qituvchi ona-Vatan haqida tushuncha berar ekan, albatta uni tushuntirishda o‘rni bilan maqol va topishmoqlarga murojaat qilsa, ularni bir-biriga qiyoslab, o‘quvchilar oldiga savollar qo‘ysa, mamlakatimiz va poytaxtimiz haqida o‘quvchilarda to‘la tasavvur hosil bo‘ladi.

Bu bo‘limning yakunida o‘quvchilarga quyidagi savollarni bergan ma’qul:

1. Vatanimiz qanday nom bilan ataladi?
2. Poytaxtimizning nomi qanday?
3. Metro qanday bo‘ladi?

<sup>1</sup> To‘xliyev B. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. T., TDPU nashriyoti, 2008; Ziyodova T. Tilsim topishmoqlar nutqiy faoliyatni shakllantirish omili (ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma). T., “O‘qituvchi”, 1998; S. Ro‘zimboyev va D.Rahimboyeva maqol, matal va ularning o‘zaro farqlari. “Ma’rifat yog‘dusi”, Urganch, 1998, №2. 39–43-betlar; S.Ro‘zimboyev. Turkiy xalqlar topishmoqlari tipologiyasi. Saylanma, Urganch, “Xorazm”, 2012, 77–102-betlar; D.Ro‘ziyeva va Z.Qorayev. Folklordan foydalanish. “Boshlang‘ich ta’lim”, 2009, 3-son, 6-bet.

4. Ona-Vatan haqida qanday maqollarni bilasiz?

5. Metroga qaysi topishmoq bag'ishlangan?

Ushbu savollarga javob berish jarayonida o'quvchilar mamlakatimiz, uning poytaxti haqida ma'lumotga ega bo'lish bilan birga ushbu mavzularga tegishli maqol va topishmoqlar bilan ham oshno bo'lishadi.

Maqollarni aytish jarayonida ona-Vatanning muqaddasligi haqida bildirilgan hukm va xulosalar ularning yodida mustahkam saqlanib qoladi. Topishmoqni yechish jarayonida esa ular metroning mohiyatini anglab yetadilar. Shu tariqa, Toshkent haqidagi tasavvurlari yanada kengayadi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida har bir bo'lim bilan aloqador mavzular orasida maqol va topishmoqlardan namunalari berish asosiy tamoyil qilib olingan.

2-sinfning o'qish kitobi"dagi "Oltin kuz – hosiling yuz" bo'limida ham kuz bilan bog'liq qator she'rlar, lavhalar orasida kuz va unga aloqador mavzudagi bir qancha maqol va topishmoqlar berilgan. Masalan:

*Yer haydasang kuz hayda,*

*Kuz haydamasang yuz hayda.*

Maqol debocha sifatida olinib, undan keyin "Kuz", "Kuz tabiati" kabi lavhalar, "Olma", "Gilos" kabi she'rlar keltirilgan. Keyin esa quyidagi topishmoqlar keltirilgan:

*Qavat-qavat ko'ylagi bor,*

*Tugmasi yo'q.*

*Ko'k beqasam to'nim bor,*

*Chetim baxmal, lolazor,*

*Mazam shirin, go'yo qand.*

*Meni yegan topmas dard.*

Demak, ushbu bo'limda ham kuz faslining asl mohiyatini ochib berishda maqol va topishmoqlar yordamchi vositalar sifatida tanlangan. Bu keltirilgan yuqoridagi maqol, kuzgi dehqonchilik ishlarini ertaroq saranjomlashtirishga da'vat etuvchi hukm-xulosa bo'lib, mehnat qilish mo'l-ko'lchilikning asosidir, degan masala atrofida mujassamlashadi.

Topishmoqlar esa kuz ne'matlari bo'lmish karam va tarvuzlarni esga soladi. Ushbu topishmoq va maqollarni muallim muayyan maqsadga bo'ysundirgan holda, o'quvchilarga qiyosiy usulda tushuntirishi kerak. Avvalo, maqol mazmunidan kelib chiqib, kuzda hosilning yig'ilishi, o'z navbatida, yangi hosilga tayyorgarlik ko'rilishi haqida tushuntirish berish zarur.

Topishmoqlar ham bevosita kuz fasli bilan aloqador bo'lib, ular mazkur faslda yetilib pishadigan ne'matlar ekanligi haqida so'z yuritilib, maqol va topishmoqlardagi asosiy mavzu mehnat va undan kelib chiqadigan ne'matlar ekanligini uyg'unlashtirish lozim. Bu tahlil ham qator savollar orqali amalga oshirilsa, yanada ish maromiga yetadi.

Savollar, taxminan, quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Kuz faslida qanday ishlar amalga oshiriladi?

2. Kuzda siz dalada bo'lganmisiz?

3. Poliz ekinlaridan qaysilari kuzda yetiladi?

4. Tarvuz va karam yig'ishda qatnashganmisiz?

5. Kuz fasli haqida qanday maqollarni bilasiz?

6. Kuzda yeyiladigan qaysi ne'matlar haqida topishmoqlarni bilasiz?

Bolalar ushbu savollarga javob berish davomida kuz faslining o'ziga xos jihatlari haqida bir qancha ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Shu tariqa, ko'pgina maqol va topshiriqlarni ham aytib berishadi.

O'qituvchi dars davomida maqol va topshiriqlarga oid bir qancha namunalarni yozib kelgan bo'lsa, ish yanada ijobiy hal bo'ladi.

"O'qish kitobi"ning navbatdagi maktab va kitobga bag'ishlangan bobida ham maqol va topishmoqlar materiallarga uyg'un holda berilgan:

*Maktab – muqaddas dargoh.*

*Kitob – xazina,*

*Bilim – boylik,*

*Bilimdan ortiq boylik yo'q.*

Xuddi ushbu tushunchalarga mos bir qator topishmoqlar ham bo'limdan o'rin olgan:

*O'zi bir kichkina narsa,*



*Kerak bo'lar har darsda.  
Chizib qo'ysang noto'g'ri  
Yo'q qiladi bir pasda,*

*Sirti tayoq,  
Ichi bo'yoq.*

O'quv qurollaridan bo'lgan o'chirg'ich va qalamning jumboqqa aylangani-ushbu topishmoqlar bo'limidagi asosiy maqsadni o'quvchilarga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Buning sababi shuki, maktab va kitobni maqollar ulug'lab hukm-xulosa yasasa, topishmoqlar maktab va bilim olishda asosiy vositalar bo'lgan o'chirg'ich va qalamni o'ziga xos jumboqlashtirib, o'quvchilarning xotirasiga muhrlab qo'yadi. Shu boisdan o'qituvchi ushbu janrlardagi asosiy xususiyatlarga e'tiborni qaratib, mavzularni tushuntirishda ulardan unumli foydalanishi lozim.

Maqol va topishmoqlardan parallel ravishda foydalanish tamoyiliga 3-sinfning "O'qish kitobi"da ham amal qilingan. Masalan, uning bahor fasliga bag'ishlangan bo'limida ko'plab she'rlar, lavhalar bilan birga anchagina maqol va topishmoqlar ham o'sha materiallarni o'zlashtirishga yordam beruvchi vositalar sifatida keltirilgan:

*Bahorgi harakat – kuzgi barakat.*

*Bir yil tut ekan kishi  
Yuz yil gavhar teradi.  
Birni kessang, o'nni ek.*

*Bir tup tok eksang,  
Bir tup tol ek.*

Ushbu maqollarda bahor fasli bilan bog'liq ekishga taraddud ko'rish, ko'chat ekish kabi masalalar ifodalangan bo'lsa, quyidagi topishmoqlarda bahor manzaralari bilan bog'liq masalalar jumboqlanadi:

*Meni so'rashadi  
Ko'rinsam qochishadi.*

*Chopsang chopilmaydi,  
Ko'msang ko'milmaydi.*

*Tilla sandiq ochildi,  
Ichidan zar sochildi.*

Ushbu topishmoqlarning ham bahor bilan aloqador she'r va lavhalarga bilvosita aloqasi bor. Negaki, birinchi topishmoqdagi jumboq yomg'ir bo'lib, u asosan bahorda ko'proq bo'ladi. Keyingi quyosh va soyani jumboqlagan topishmoqlarda ham o'sha bahor manzarasi aks etadi. Chunki, oftobning zar sochib chiqishi ham bahordan boshlanadi. Soya esa oftob bilan uzviy bog'liqdir.

Bu maqol va topishmoqlarni bir-biriga uzviy bog'lash, keyinchalik esa ularni bo'limdagi materiallarga bog'lash; asosiy maqsad bo'lgan bahorga xos xususiyatlarni ochib berish o'qituvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Dars o'tish jarayonida o'qituvchi anchagina maqol va topishmoqlarni yozib, keltirib qo'yishi zarur. Darsda ko'rgazmali qurollar, texnik vositalardan foydalanish esa yanada yaxshi samara beradi.

Maqol va topshiriqlarni qiyoslab mavzularga bog'laganda ularning mazmuniga asosiy e'tiborni qaratish zarur. Masalan, Cho'lponning "Ko'klam yomg'iri" she'ri, A.Azizxo'jayevning "Do'l" lavhasi, I. Muslimning "Lola" she'ri bevosita bahorga bag'ishlangan bo'lib, ularni maqol va topishmoqlar vositasida yoritib berish mumkin.

Buning uchun bahorga aloqador maqollarni bolalardan so'rab olish, o'z navbatida, muallim ulardan ayrim namunalarni keltirishi zarur:

*Bahor kelsa, suv toshar,  
Mehnat ham haddan oshar.  
Bahorgi beg'amlik – kuzgi pushaymonlik,  
Yer xazina – suv oltin.  
Yomg'ir bilan yer ko'karar,  
Mehnat bilan yer ko'karar.*

*Yomg'ir ekinning joni.*

*Ko'klam mehnat bilan ko'rkam,*

Shu tariqa, bahor bilan aloqador topishmoqlardan ham misollar keltirish lozim:

*Osmonda uchar,*

*Qanoti yo'q. (bulut)*

*Yorug'i bor, dovrug'i bor,*

*O'zi yo'q, ovozi bor, (yashin, momaqaldiraq)*

*Shatur-shutur etadi,*

*Yerni cho'qib ketadi (yomg'ir)*

*Biri sepadi biri ichadi,*

*Biri o'sadi. (yomg'ir, yer, o'simlik)*

*Oppoq-oppoq, oppog'im,*

*Oppoqqina bodrog'im. (do'l)*

*Bir kosa sut,*

*Olamga dud. (tuman)*

*Ismi bor, jismi yo'q. (shamol)*

Ushbu xarakterdagi topishmoqlardan bir qanchasini o'quvchilar e'tiboriga havola qilish ularning faolligini oshiradi. Avvalo, maqollarni, keyin topishmoqlarni darslikdagi bahor mavzusiga aloqador she'rlar, lavhalarga bog'langan holda o'rgatish darsning samaradorligini oshiradi, eng asosiysi, bolalar zerikmaydi. Aksincha, ularning o'zlari ham ko'plab maqol, ayniqsa, topishmoqlarni yoddan aytib, o'quvchiga yordam beradilar. Shu tariqa, bahordagi dehqonchilik ishlari, obodonlashtirish maqsadidagi hasharlar, Navro'z bayrami bilan aloqador tadbirlar bolalarning ong-ongiga yetib boradi. Ular mehnat qilishni, otionalarga yordam berishni o'rganadilar. Mehnatdan keladigan boylarning nima ekanini anglay boshlaydilar.

Bu jarayonda maqol va topishmoqlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati yanada kuchliroq namoyon bo'la boradi. Ulardan qanchalik samarali foydalanish o'qituvchining mehnatiga bog'liqdir. 3-sinfning "O'qish kitobi"ning bir bo'limi to'la xalq og'zaki ijodi namunalariga bag'ishlangan. Unda ko'pgina ertak va dostonlardan parchalar bilan birga, anchagina maqol va topishmoqlar ham berilgan.

Ana shu materiallardan dars mashg'ulotlari jarayonida keng foydalanish mumkin. Buning uchun avvalo maqollar mazmuniga hamohang keluvchi topishmoqlarni tanlab olish lozim. Masalan, maqollar orasida kitob va bilim olish to'g'risida shundaylari bor:

*Ko'p o'qigan ko'p bilar,*

*Bilagi zo'r birni yiqar,*

*Bilimi zo'r mingni.*

*Bilim olish, yozuv haqida ham ancha topishmoqlar mavjud:*

*Olsang o'ng qo'lga,*

*Tushadi oq yo'lga. (qalam)*

Bu toifadagi mazmunan umumiylik kasb etuvchi maqol va topishmoqlarni bir-biriga mos holda qiyosiy o'rganish bilimni mustahkamlashda, bo'limdagi boshqa materiallarni o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu narsani esda tutish kerakki, darsliklarda maqollar va topishmoqlarning salmog'i deyarlik teng miqdorda berilgan. Bundan tashqari, ularning mavzu doirasi ham har bir bo'limda bir-biriga mos keladi. Bo'limga kiritilgan boshqa she'rlar, hikoyalar va xalq og'zaki ijodiyotining boshqa janrlari ham bir mavzu atrofida bahs yuritadi. Bu narsa har bir mavzuni tahlil qilganda, uni qiyosiy tartibda olib borishni taqozo qiladi. Bu usul har bir berilgan matn mohiyatini o'quvchilarga to'laqonli yetkazishda juda katta yordam beradi, o'quvchilarning faolligini oshiradi.

**Xamidova Nargiza Mirvaxidovna (Senior Teacher Uzbekistan State World Languages University  
Department of Japanese language theory and practice)  
DIGITAL MULTIMODAL WRITING**

***Annotatsiya.** Maqolada multimodal yozish, raqamli savodxonlik va shaxsiy tajriba batafsil bayon etilgan. Muallif raqamli savodxonlik va uning o'qitish, baholash va talabalarni jalb qilishdagi muhim rolini tushuntiradi. Bundan tashqari, o'quvchilar yozishni o'rganish bo'yicha foydali ma'lumotlarni va o'rganishlarini yanada qiziqarli va jozibali qilish usullarini o'rganishlari mumkin bo'ladi.*

***Аннотация.** В статье подробно рассказывается о мультимодальном письме, цифровой грамотности и личном опыте. Автор объясняет цифровую грамотность и ее первостепенную роль в обучении, оценке и вовлечении учащихся. Кроме того, читатели могут найти полезную информацию об обучении письму и способах сделать свое обучение более увлекательным и убедительным.*

***Annotation.** The article details multimodal writing, digital literacy and personal experience. The author explains digital literacy and its paramount role in teaching, assessment and student engagement. In addition, readers can find useful information on learning writing, and the ways to make their learning more engaging and compelling.*

***Kalit so'zlar:** raqamli multimodal yozma nutq, ijtimoiy tarmoq, yozuv, raqamli savodxonlik.*

***Ключевые слова:** цифровая мультимодальная композиция, социальные сети, письмо, цифровая грамотность.*

***Key words:** digital multimodal composition, social media, writing, digital literacy.*

**Introduction.** In this digital age, people face many changes in every sector of life. Globalization has had a huge impact on education, culture and social life. Interestingly, now people have easy access to any information through the net, enabling students tremendous opportunities to study in any part of the world remotely. In this way, people exchange their cultural and social values online. Social networking media have brought this trend to a new boost in communication among different representatives of cultures. All considered, there is a need for digital literacy – to be aware of the latest technology, information, and the happenings around us.





























There is no way for traditional communication as a substitute for digital breakthroughs. With easy access to electronic versions of texts, printed texts are no longer in use among the youth, or their use is disappearing. The demand for digitalizing is a trend in writing because this format is considered easy, quick and comfortable.

Sowell (2022) noticed that the input from the teachers is different from what students outside the class do, meaning that beyond regular classroom, the activities students are engaged with are often times technology related. In traditional classrooms, the use of technology is not practiced due to factors, like student and teacher digital illiteracy, no access to the internet; students who do not afford to possess high tech, etc. In most developing countries, conventional print-based materials are preferred.

In terms of assessment, writing teachers prefer to evaluate students' work – paper based in the way they did usually – read and mark out of 10 points. In my experience, students use double paper from a copybook to write different writing aspects, essay, report, online review, etc. Because they lack digital literacy skills – working on Microsoft word, google doc, etc., teachers prefer conventional testing forms of assessment. A majority of teachers show unwillingness to change paper testing to computer format since it takes to learn and add instructional materials.

Digital literacy (henceforth DL) – the ability to use devices to read materials and write on the internet. Examples of digital literacy include blogs, digital posters, infographics, social media sites, websites, podcasts. These play a crucial part in communication, but they are not taken as seriously as they must. It is necessary to involve English learners in writing on digital platforms to align them with real world context writing right in the classroom. One of the components of digital literacy is being able to create multimodal composition (Sowell, 20022).

DL is a skill people need to live, work, and study. In this digital technology era, there is a strong bond between digital literacy and digital technologies, for example, mobile devices, internet platforms, and social networking media (Western Sydney University) because if we want to communicate and have access to information, we must acquire this skill.

Faculty	DWP (%)							
Business								
	58	17						
Science								
	27	23	15					
Social Science								
	32	27	19	17				
ETM								
	45	30	20	15	15			
Humanities								
	30	25	25	23	23	20		
Fine Arts								
	52	38	29	29	24	24	24	19


Picture 1. Types of digital writing projects in different subject areas. Adopted from Bell, S., & Hotson, B. (2021)

As writing instructors state, writing is one of the most challenging aspects in English as a second/foreign language context; therefore, researchers are working hard to find new ways to teach it in an interesting and easy way, for example, implementing Digital multimodal projects. They (see Picture 1) include a variety of writing modes, for example, in Business module – presentation, video; science – video, presentation, infographic; social science – video, website, blog, social media; ETM – video, presentation, blog, social media website; Humanities – video, blog, social media, podcast, presentation, wiki; Fine Arts – video, other, digital annotation, presentation, blog, podcast, website, social media. We can see video used in all modules. Presentation is also a very popular means of digital mode that teachers use in almost all lessons. Rare digital projects include wiki, digital annotation, and podcast. It can be observed that traditional genres of writing assignments such as essays, letters, translations, reports are not being replaced by digital writing projects.

Sowell (2022) in the article, explains a mode which is a system that uses different formats like visuals, sound, etc. The prefix *multi* confuses readers with its original meaning “many”, but in teaching, multimodal means using in fact two modes. For example, a blog with pictures and a text is multimodal; a poster with graphs is multimodal; a podcast with words and pictures is multimodal. Thus, multimodal composition contains a writing assignment aligned with visuals, sound and other modes. Plus, it is communicated digitally. A digitally multimodal composition can be academic or nonacademic. Traditionally, students hand in academic papers either handwritten version or electronic and it is not multimodal. To be DMC, a student just adds a picture to the text and it becomes DMC (p.16).

In my writing course, students learn to write online reviews and opinion articles. These assignments can be handed in either in typed, paper versions or can be shown digitally. They are multimodal writing tasks because they contain not only text but also pictures, and other modes of information they find suitable. It is a must to do it. For online review, they write a travel blog (see Picture 2) in which they describe their trip destination and provide some pictures. Students are given a choice whether to submit

work in their copybook or electronically. A majority chose to type in Microsoft word and submitted via telegram social media platform where the teacher leads the group with fifteen students.



**Picture 2. An online review from one of the student's portfolio.**

In Uzbekistan, there has not been carried out research on DMC so far, but research on similar topics were conducted. In fact, the theme is new and research conducted in certain parts of the world cannot be generalized to the whole population as the context is specific. Our country is relatively new in this area because new technology when introduced start from developed regions so we usually get updated on any cutting-edge technology lastly. However, the globalization makes our job much easier and accessible though we live far from technological advances.

**Conclusion.** In conclusion, writing is a challenging and time-consuming process. To make it compelling for learner, we can incorporate a variety of modes into our writing. In this way, we can increase students' enthusiasm to learn more actively. Thus, digital multimodal projects should be implemented into our classroom to have more variety. We should give more chances for our students to decide what to modes of information they would like to include in their writing. For this, they should be introduced to a variety of modes of writing aspect. It is said, it is mainly it is us who make classroom and teaching materials more or less digital. We should work hard on ourselves, on our professional development and personal development.

#### **Reference:**

1. Sowell J. (2022). Digital multimodal composition in the second-language classroom. *English Teaching Forum*, 60 (1), p. 15 – 25.
2. Bell S., Hotson B. (2021). Where is the support? Learning support for multimodal digital writing assignments by writing centres in Canadian higher education. *The Canadian Journal for the Scholarship of Teaching and Learning*, (12)1. <https://doi.org/10.5206/cjsotl-rcacea.2021.1.10780>.
3. Western Sydney University. (2020, November 27). What is digital literacy. [https://www.westernsydney.edu.au/studysmart/home/study\\_skills\\_guides/digital\\_literacy/what\\_is\\_digital\\_literacy](https://www.westernsydney.edu.au/studysmart/home/study_skills_guides/digital_literacy/what_is_digital_literacy)

**Raximova Xumora (Senior Teacher Department of Japanese language theory and practice  
Uzbekistan State World Languages University)**

#### **VIRTUAL TEACHING AND LEARNING FOR THE BENEFIT OR NOT**

*Annotatsiya. Maqolada masofaviy ta'lim, telegram xabar almashish ilovasi va uning pandemiya davrida qo'llanilishi haqida so'z boradi. Muallif telegramdan o'qitish, baholash va talabalarni jalb qilishda foydalanishni ta'kidlaydi. Bundan tashqari, o'quvchilar muallifning virtual o'quv platformalari*

(Moodle va Zoom) bilan kechgan shaxsiy tajribasi, shuningdek, talaba o'rganishini yanada foydali bo'lishi maqsadida muallif o'z shaxsiy xulosalari bilan o'rtoqlashadi.

**Аннотация.** В статье рассказывается о дистанционном обучении, приложении для обмена сообщениями Telegram и его применении во время пандемии. Автор приводит доводы в пользу использования Telegram в обучении, оценивании и вовлечении студентов в учебный процесс. Кроме того, читатели могут найти полезную информацию о личном опыте автора с виртуальными обучающими платформами (Moodle и Zoom), а также размышления, сделанные для того, чтобы сделать их обучение более увлекательным и убедительным.

**Annotation.** The article explains remote learning, telegram messaging app and its application during the pandemic. The author gives reasons for using telegram in teaching, assessment and student engagement. In addition, readers can find useful information on the author's personal experience of virtual learning platforms (Moodle and Zoom), and reflections made to make their learning more engaging and compelling.

**Kalit so'zlar:** telegram, masofaviy ta'lim, Zoom, Moodle.

**Ключевые слова:** телеграм, онлайн-преподавание и обучение, Zoom, Moodle.

**Key words:** telegram, online teaching and learning, Zoom, Moodle.

**Introduction.** Until the outbreak of Covid-19, online teaching was not a hot topic. Its popularity has become wide spread when academics understood that the quarantine is inevitable around the world. Countries have had varying levels of difficulties with remote teaching. Unfortunately, in Uzbekistan – remote learning is not well organized in the country. It is becoming more popular as the government demands educational institutions to create virtual classrooms, and develop materials. In fact, the country is not behind the developed countries in terms of online teaching, and there have been implemented many projects on the development and enhancement of virtual teaching. In this article, we will talk about platforms where teaching took place during the pandemic and share some experience with teachers so that they could incorporate useful ideas we put forward henceforth.

Obviously telegram messaging app is used throughout the country. There are interesting facts: teachers do not possess email accounts in remote regions but they have telegram account due to the fact that most teachers' access to digital devices is limited; lack of digital illiteracy among teachers and learners; not being ready for digital equipment in educational institutions; unwillingness from administration and teachers.

Before the pandemic, the situation with educators' awareness of digital technology was very lower; however, recently a big boost in the awareness of digital knowledge has been noticed in all spheres of life; medicine; education; economics, etc.

The transition from traditional to online teaching space taught us more about teaching virtually – before we did not use internet and digital devices often, so we had to adjust our teaching to new environment. This made teachers spend a mountain of hours on understanding technology, how to use them in their new teaching space, etc. This has been a chance for teachers of developing countries since this trend has already been in practice in most developed countries such as the USA, the UK, Japan and Germany. However, for countries like Uzbekistan it was challenging to adapt.

Telegram messaging app has been widely used in the country and still in use widely by all people regardless of their age and social status. It is used to create a group and students join the group to communicate and stay in touch with each other and some class announcements can be sent. As the pandemic began to get more worse, telegram was the most often used method of communication between teachers and students. It was used for different purposes such as course discussions, voice messages, and file sharing. It is believed that it is the quickest and most comfortable method to reach students and teachers. These days, almost 99 percent of students in higher education possess a mobile device capable of storing telegram app. Through telegram teachers can upload course materials, home assignments, videos and other files. During the pandemic it served as a bridge between online educational platforms such as zoom, google doc, moodle and a teacher. Teachers could control and lead their classroom with the help of telegram messaging app as it made their work easy and accessible quickly. According to Heidi Faust, telegram “created opportunities for authentic interaction in English and a digital community that lasted well beyond the course where content could be shared quickly and easily without taking up space on teachers' phones” (Faust, 2022).

In other words, the app benefited teachers with a chance to interact authentically, create a digital community which enabled both teachers and students to learn from each other, share information, and socialize beyond the classroom and it saved much time of teachers than the traditional mode. I believe digital innovation like telegram has been having a huge positive impact on teaching and learning in the country.




Figure 1. A screenshot of a telegram messaging in academic writing group.

As Meyer (2022) notes that teachers who attempt to adapt to remote to change in remote learning, they need to be creative and innovative. Virtual platforms possess necessary functions to allow educators to be creative and make lessons more engaging. For instance, through telegram a teacher creates a group and enrolls students in the group. They can send future announcements about lesson schedule, changes, share important news and invite them to other online systems like Zoom, Moodle by sending links (see Figure 1).

It is important to highlight that virtual learning distinguishes from remote learning. In virtual learning the classroom is not changed, for example, from traditional face to face class to online Zoom or Moodle platform, which is called remote learning. In remote learning, we do change the location of schooling, which is not changed in virtual classroom.




Figure 2. a screenshot of a zoom session in academic writing class.

It may seem like when we return to traditional classroom, what the pandemic has made us do in teaching and learning will be forgotten. If we do forget all about remote teaching and just continue what we had done before the pandemic in schools and universities it is really bad. As Meyer (2022) advocates, we must work much harder to enhance our online teaching awareness.

What digital platforms were handy for English teachers during the pandemic?

Zoom – a videotelephony software program. It was not a primary platform to teach university courses. But we were not recommended highly from the administration we had to use it as the learning platform that our university obliged us to use was not really practical.

Zoom was really useful virtual platform (see Figure 2) for teachers and students. Teacher could easily manage with resourcing students with course materials just clicking on share function. Students can see them on a big screen and access can be granted to students to share their own presentations, as well. There are many other functions in zoom such as creating groups, chatting privately or public, you can mute your voice not to be heard or disturb; turn cameras on and off, etc.




Figure 3. a screenshot of Academic writing module in Moodle platform.

Though Zoom was not a primary virtual teaching space, teachers and students were recommended as an alternative platform because Moodle did not work productively during heavy workload usually in the morning when all students have lessons and almost all teachers conduct lessons. In this peak time, Moodle was quite slow and there was a disruption in internet connection which led to students being unable to join Moodle. A majority of teachers made use of Zoom as it first was more convenient, less time consuming, students preferred it, and made their teaching more compelling.

To sum up, the pandemic taught us much about new way of teaching foreign languages. It worked solely for the benefit of teachers and students. Though we all thought that it would be hard to overcome it, unconsciously learnt so much. I am advocating for more support from the authorities of educational institutions to enhance teachers' knowledge of technology and acquire skills in remote and virtual platforms.

#### Reference:

1. Meyer D. (2022). Virtual learning is the way forward for educators. <https://www.elmhurst.edu/blog/virtuallearning/#:~:text=Virtual%20learning%20is%20designed%20to,have%20been%20for%20a%20while.>
2. Faust H. (2022, March 8). Scaffolding PD in Uzbekistan: Contextualizing course design. <http://blog.tesol.org/scaffolding-pd-in-uzbekistan-contextualizing-course-design/#>



Atamuratova Mirjaxan Jumanazarovna (Nukus davlat Pedagogika instituti  
tayanch doktoranti; atamuratova75@mail.ru)

**TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING QORAQALPOG'ISTON HUDUDIGA TARQALISHINI  
TADQIQ ETISHNING NAZARIY-FALSAFIY ASOSLARI**

*Аннотация.* Мақоллада tasavvuf ta'limotining mohiyati, kelib chiqishi, O'rta Osiyoda tarqalishi, Qoraqalpog'istonga kirib borishi, yassaviy va naqshbandiya tariqatining qoraqalpog' xalqining ijtimoiy, ma'naviy va moddiy hayotiga ta'siri falsafiy tahlil qilinadi.

*Аннотация.* В статье проводится философский анализ сущности мистицизма, его зарождение, распространение в Средней Азии, проникновение в Каракалпакстан, влияние сект Яссавия и Накибанди на социальную, духовную и материальную жизнь каракалпакского народа.

*Annotation.* The article provides a philosophical analysis of the essence of mysticism, its origin, spread in Central Asia, penetration into Karakalpakstan, the influence of the Yassavi and Nakshbandi sects on the social, spiritual and material life of the Karakalpak people.

**Калит сўзлар:** islom, tasavvuf, eshon, murid, tariqat, ma'naviy hayot, xonaqoh.

**Ключевые слова:** ислам, суфизм, эшан, мюрид, тарикат, духовная жизнь, хонако.

**Key words:** islam, sufism, ishan, murid, tarikat, spiritual life, khonakoh.

Tasavvuf islom dinining sunniylik yunalishida VIII–IX asrlarda vujudga kelgan diniy-falsafiy ta'limot hisoblanib, dastlab, Eron, Iroq va Arabiston yarim oroli hududlarida zuhd – tarkidunyochilik shaklida paydo bo'lgan.

Amaliyot bilan boshlanib, nazariyot bilan qayta mustahkamlangan tasavvuf ta'limoti IX–XV asrlar davomida jamiyatning turli qatlamlariga kirib bordi, o'ziga xos ijtimoiy va g'oyaviy institut, diniy-falsafiy ta'limot sifatida mintaqa xalqlarining ma'naviy hayotida faol qatnashdi. Tasavvuf ta'limoti islomda ruhiy ta'limot sifatida musulmon olamida axloq, estetika, adabiyot, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa san'atining rivojlanishida katta rol uynadi.

Tasavvuf ta'limoti IX–X asrlar davomida o'zining ilk taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Salkam ikki yuz yillik davr ichida bu ijtimoiy-diniy xarakterga ega bo'lgan jarayon avvaliga asketizmga asoslangan zohidlik va obidlik davrlarini boshidan kechirib, oshiqlik va oriflik taraqqiyot bosqichiga yetdi.<sup>1</sup>

Tasavvuf ta'limotining Qoraqalpog'istonda tarqalishi kam o'rganilgan mavzu hisoblanadi, Tarixchilar P.Ivanov, S.Kamolov, G.Xo'janioyozov, M.Tlevmuratov, O.Yusupov, J.Hakimniyozov va boshqalar Qoraqalpog'istonning qadimgi, o'rta asr va yangi davrdagi tarixini, muqaddas qadamjolar haqida, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy turmushi haqida ma'lumotlar bergan. XX asrning o'rtalaridan boshlab Ajinyoz, Berdaq kabi shoirlarning ijtimoiy-falsafiy, tasavvufiy qarashlari o'rganila boshladi. Ulardan N.Davqorayev, I.Sag'itov, Q.Ayimbetov, M.Nurmuhammedov, K.Xudoybergenov, Q.Maqsatov, J.Bozorboyev, H.Hamidov, O'.Alevov va boshqalar ulug' shoirlarning tasavvufiy falsafiy qarashlarini o'rgangan.

Musulmon mualliflari "tasavvuf" (arabchada "at-tasavvuf") atamasining kelib chiqishini "pok, beg'ubor" so'zlar ildizidan izlaydilar. Biroq, zamonaviy islom olimlari orasida "at-tasavvuf" arabcha "suf" ("jun")dan kelib chiqqan, degan nuqtayi nazar ustunlik qiladi, chunki qop, qo'pol jun kiyim musulmon zohidining umumiy atributi hisoblangan.

Islom ensiklopedik lug'atida tasavvufni islomdagi ruhiy ta'limot va amaliyot sifatida belgilaydi. "Tasavvuf musulmonlar ruhiy izlanishlarining mantiqiy yakuni, mantiqsiz bilim va zohidlik yo'lidir. Tasavvufdan ko'zlangan maqsad dunyoviy g'ala-g'ovurlardan xoli, o'z tabiatidagi salbiy sifatlardan yuqori ko'tarila olgan komil insonni tarbiyalashdan iboratdir".<sup>2</sup>

Ingliz olimi Dj.S.Trimingem tasavvufni quyidagi tarzda aniqlashga harakat qiladi. "Tasavvuf islom dini doirasidagi maxsus diniy-falsafiy dunyoqarash bo'lib, uning vakillari shaxsiy psixologik tajriba orqali inson va xudo o'rtasida bevosita ruhiy aloqada bo'lishni mumkin, deb hisoblaydilar. Bunga dilida Allohga muhabbati bilan, ilohiy yo'lda boradigan kishi ekstaz yoki ichki ma'rifat orqali erishiladi".<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Холмо'минov J. Qiyosiy tasavvufshunoslik (monografiya). T., 2021, 280-bet.

<sup>2</sup> Исламский энциклопедический словарь. Издательство "Ансар", 2007, с. 920.

<sup>3</sup> Тримингэм Дж. С. Суфийские ордены в исламе. Пер. с англ. А.А.Ставиской, под редакцией и с предисл. О.Ф.Акимускина. М., "Наука", 1989, с. 4.

M.A.Mamatov tasavvufning kelib chiqishi to'g'risidagi eng aniq fikrni akademik B.G'.G'ofurov bergan dep hisoblagan: "Tasavvuf islom zamirida to'g'ilib o'sdi, Qur'ondan, hadislardan va islomning boshqa elementlaridan keng foydalandi, ayniqsa, ilk bosqichlarida islom elementlari o'ziga xos tarzda talqin qilingani uchun u ortodoksal islomga muxolifat timsol bo'ldi".<sup>1</sup>

Tasavvuf ta'limotining maqsadi dunyoviy g'ala-g'ovurlardan xoli bo'lgan, o'z tabiatidagi salbiy sifatlardan yuqoriga ko'tarila olgan "komil inson"ni tarbiyalashdir. Tasavvufning asosiy mohiyati inson va uning Xudoga munosabatidir, ya'ni, solihning Xudo vasliga yetishidir. Xudo vasligi yetishish sufiyning ruhiy kamolotga erishishi bilan bog'liq bo'lgan. Tasavvuf tarixi tadqiqotchilarining fikricha, so'fiylik IX – X asrlarda Yaqin Sharq va Shimoli-G'arbiy Afrikada keng tarqalgan. Markaziy Osiyoga tasavvufning tarqala boshlanishini XII–XVII asrlarga to'g'ri keladi deyish mumkin.

O'rta Osiyoga tasavvufning tarqalishi Yusuf Hamadoniy nomi bilan bog'liq. Hamadoniy ta'limotidan Markaziy Osiyoda ikki tasavvuf maktabi Yassaviy va Xojagon (naqshbandiya) kelib chiqdi.

So'fiylik qarashlarining Qoraqalpog'iston hududiga kirib kelishi va tarqalishining boshlanishi an'anaviy ravishda O'rta Osiyo tasavvufchisi Xoja Ahmad Yassaviy faoliyati bilan bog'liq. Tasavvufdagi mashhur tariqatlardan biri Yassaviya tariqatiga Ahmad Yassaviy asos solgan va u islom olamida e'tirof etilib, so'fiylikning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Bu tariqat turkiy qabilalarni islom diniga kiritishda, islomning ko'chmanchi turklar orasiga yoyilishida katta rol o'ynadi. Ahmad Yassaviyning "Devonu hikmat" nomi bilan bizgacha yetib kelgan kitobida ilohiy ishq g'oyasi va ma'rifiy mohiyat ustuvorlik qiladi.

Rivoyatlarga ko'ra, A.Yassaviy o'zining 990 nafar sodiq shogirdlarini ko'plab butparast turkiy qabilalarga ham muallim faqihi, ham so'fiy sifatida yuborgan. XIV asrda vujudga kelgan Naqshbandiya tariqatining kelib chiqishi xojagoniylar ta'limoti bilan bog'liq. Naqshbandiya tariqati xojagoniylar sufiylik an'anelarini yanada takomillashtirib, islom olamida keng tarqalishi va rivojlanishida muhim rol o'ynagan.

Bu tariqat boshqalarning mehnati bilan kun kechirishni, odamlarga zulm yetkezishlikni qat'iy ravishda taqiqlaydi. Naqshbandiylar savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik, badiiy adabiyot, ilm ma'rifat, kashtachilik, qurilish kabi barcha foydali va xayrli ishlar bilan shug'ullanishga chaqirgan. Shuning uchun ham o'z davridagi ilm, ma'rifatning, adabiyotning ko'zga ko'ringan vakillari Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Maxtumquli Firog'iy va boshqa mutafakkir, olim, shoirlar naqshbandiya yo'lida bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Tarix, arxeologiya va etnografiya institutining ilmiy xodimlari bir qancha yillardan beri Janubiy Orol bo'yi tarixi va madaniyatning tarixi bo'yicha Sharq tillardagi yozma qo'lyozmalarni o'rganish borasida Qoraqalpog'istondagi tasavvuf tarixi bo'yicha oz bo'lsa ham, ma'lumot beruvchi ikkita qo'lyozma topgan edi. Birinchisi «Nisbatnamaiy xojagan-naqshbandiya» deb atalib, bu xojagan-naqshbandiya tasavvuf tariqati vakillarining zanjirlik kashtasi. Qo'lyozmada 31 tasavvufning naqshbandiya vakillarining nomlari keltirilgan va XVIII–XIX asrlarda Xorazm va Qoraqalpog'iston hududiga tarqalishida xizmat qilgan tasavvuf vakillari haqida ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Bular hazrat Niyazquli, Muhammedsharip Bulg'ariy-Xorazmiy, Qutlug' Xo'ja Xorazmiy, Sirojiddin, Uays Xorazmiylar.<sup>2</sup>

Qoraqalpoq ulamolarining barchasi naqshbandiya tariqatida bo'lgan. Ular Imom eshon, Qoraqum eshon, Qurbannazar oxun, Jontemir eshon, Suyin eshon, Xaliylulloh eshon, No'g'oy eshon va boshqa. Shuningdek, keyingi ulamolardan Idris eshon, Najim eshon, Muslihiddin eshon, Uvays eshon, Salom eshon va boshqa ulamolar ushbu tariqatda bo'lgan. Yaqin o'tgan yillarda ulamolar ushbu tariqat asosida hayotini o'tkazgan va o'zidan keyingi avlodga ham shunday yashash asoslarini o'rgatgan.

Buxoro, Xiva, Eron, Yaqin Sharq madrasalarida o'qib, chuqur bilim olib kelgan qoraqalpoq ulamolari musulmon ilmiga asoslangan o'zlarining maktablarini, madrasalarini qurdi. XIX asrda hozirgi Qoraqalpog'iston hududida 15 ta madrasa ishlab turgan.<sup>3</sup> Ularning ichida Chimboy hududidagi Qoraqum eshon, Ayimbet eshon, Xalqobodagi Qumo'zak eshon (Eshon qal'a), Qo'ng'irotdagi Asamatdin eshon madrasalari tolibi ilm mullalari, pir darajasiga yetgan eshonlari, haq yo'lga boshini tikkan muridlari (so'filari) bilan mashhur diniy va ta'lim markazlari bo'ldi.

Tasavvuf qoraqalpoqlarning ma'naviy turmushiga, ayniqsa, she'riyat sohasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu so'fi shoir Ahmad Yassaviy va uning shogirdi Sulaymon Baqirg'oniy asarlarining qoraqalpoqlar

<sup>1</sup> Маматов М.А. Сущность суфизма. Уфа, изд-во БГПУ, 2011, с. 168.

<sup>2</sup> Idrisov A. Qaraqalpaqstandagi sufizm tarixi boyinsha eki derek haqqinda. O'zbekstan Respublikasi Ilimler akademiyasi Qaraqalpaqstan bo'liminin' Xabarshisi. 2000, №5, 57-bet.

<sup>3</sup> Хожаниязов Ф., Юсупов О. Қарақалпақстандағы муқәддес орынлар. Н., 1994, 47-bet.

orasida keng tarqalganligi bilan bog‘liq. Islom falsafasining ko‘rinishi bo‘lgan tasavvuf ta‘limoti ta‘sirini qoraqalpoq klassik adabiyotining yirik namoyandalari Ajiniyoz, Berdaq va boshqa shoirlarning asarlaridan ham ko‘rishimiz mumkin.

O‘z zamonining iste‘dodli, bilimli shoiri va mutafakkiri Berdaqqa ham so‘fiylikning ta‘siri bo‘lgan. U umrining so‘ngi davrida so‘fiylikni qabul qilgan. U “Izlar edim” va bir qator boshqa asarlarida ulug‘ so‘fi shoirlarning nomlarini aytib, ulardan savod ochganini yozadi. Berdaq so‘fiylik ta‘limotini Qoraqum eshon madrasasi va ulamolaridan yetuk o‘zlashtirgan.<sup>1</sup>

Berdag shoir asarlarining ma‘no-mazmuniga qaraganda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan so‘fiylikning yassaviya, naqshbandiya, kubraviya tariqatlari bilan tanish bo‘lgani, ularning falsafiy ta‘limotlari ulug‘ mutafakkirlarning g‘oyalari dunyosidan keng joy olganini ko‘ramiz.

Berdagning ko‘p asarlaridagi she‘r qatorlarining ma‘nosi Xo‘ja Ahmad Yassaviy hikmatlariga o‘xshab ketadi. Masalan, Berdaqning “Izlar edim” she‘rida birlamchi yaratuvchi Xudo deb hisoblaydi. Dunyodagi barcha narsani – Yerni, butun cheksiz olamni, osmonni, kengliklarni Xudo taolo yaratgan. Bu haqda Berdaq “yerni, ko‘kni xalq aylagan Xudoyim”, deydi. “Yer, ko‘k” termini Yassaviy asarlarida ham ushbu ma‘noda uchraydi. Insonning yaratilishi to‘g‘risida Berdaq “Xorazm” dostonida «tuproqdan yaratdi inson, an‘a berdi jism ila jon» deb ta‘kidlaydi. Ushbu fikrlar tasavvuf falsafasiga to‘g‘ri keladi.

Ahmad Yassaviy “Boshim tuproq, o‘zim tuproq, jismim tuproq” deganda, Berdaq “tuproqdan yaratdi inson” deb yozadi, bu ularning insonning Allohning nuridan yaratilganini, Allohning bo‘lakchasi ekanligini, demak, insonning olamdagi barcha narsadan ulug‘ligini, butun olamning o‘zi inson yaratilganligini, shuning uchun har bir inson komillikka erishishi, xudolik ma‘noga loyiq bo‘lib yashashi kerakligini yana bir marotaba tasdiqlashi bo‘ladi.

Berdag o‘zining barcha asarlarida markaziy o‘rinni Allohning farzandi bo‘lgan inson, uning hayoti, qadr-qimmat, o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi muammosiga bag‘ishlaydi. Berdaq bobomiz asarlarida oddiy mehnatkash insonning ardoqlanishida Ahmad Yassaviynig shogirdi, xalqimizning ma‘naviy piri, ulug‘ so‘fi Hakim ota Sulaymon Baqirg‘oniyning “Har kim ko‘rsang, Xizr bil, har tun ko‘rsang, Qodir bil” ko‘rsatmasini asos qilib olganligi ko‘rinib turadi.

Berdag ba‘zi so‘fi shoirlarga o‘qshab tarkidunyochilik, ya‘ni, bu dunyoning muammolaridan butunlay bezib, o‘zingni faqat u dunyoga butunlay bag‘ishlash kerakligi g‘oyasi hamda amaliyotiga berilmaydi. Berdaq dunyoning o‘tkinchi ekanligini aytishi bilan birga, u naqshbandiya tariqatidan Bahouddin Naqshbandiyning “ko‘ngling allohda, qo‘ling, mehnatda bo‘lsin” omilini o‘zi uchun bosh qoida sifatida qabul qilgan. Kubraviya tariqati yaratuvchi Najmiddin Kubroning insonning komillikka erishishi zarurligi, pok hamda go‘zal sezimlarga ega bo‘lishi kerakligi, ma‘naviy paslikdan, nafs balosidan yiroq turishi kerakligi haqida fikrlarini boshchilikka olganligi ham uning she‘rlarida yaqqol ko‘rinib turadi.

Qoraqalpoq xalqining ulug‘ shoir mutafakkiri Ajiniyoz Qosiboy o‘g‘li ijodiga ham tasavvuf ta‘limotining ta‘siri bo‘lgan. U o‘z asarlarida shariat tartiblarini, musulmonchilikning farzlarini, vijdon, or nomus, ma‘naviy poklik masalalariga bog‘lab ta‘riflaydi. Ajiniyoz shoir o‘z asarlarida pok vijdonli iymonga boy komil inson g‘oyasini asosiy o‘ringa qo‘yadi. Komil inson darajasiga faqatgina sodiq muhabbat yo‘li bilan erishish mumkin, ya‘ni, poklikka, halollikka, sodiqlikka ma‘naviy boylikka intilishgina insonni yetuklashtiradi haq diydoriga yaqinlashtiradi. Shoirning “Bir janon”, “Ey nozalimlar”, “Bir pariy”, “Savdigim” va boshqa qator oshiqlik she‘rlarini so‘fiylik ta‘limotining asosiy yo‘nalishlarini, tasavvuf she‘riyatining badiiy an‘anasini hisobga olib yozganligini ko‘ramiz.<sup>2</sup> She‘rda dunyoviy ishq emas, balki ilohiy ishq ta‘kidlanadi.

Tasavvuf ta‘limoti qoraqalpoqlarning ijtimoiy-ma‘naviy hayotiga kirib kelishi bilan moddiy madaniyatda ham o‘z ko‘rinishini topdi. Markaziy Osiyoda so‘fiylikning shakllanib, rivojlanishi bilan bog‘liq tiklangan qurilishlarga xanoqohlar kiradi. Ularni xalq orasida “qalandarxona” deb ham atashadi.

Xanoqoh fors-tojikcha so‘z bo‘lib, ilk bor so‘fiy (tasavvufchi)larning turor joyi, boshponasi ma‘nosini anglatgan, keyinchalik, darveshlar, qalandarlar, g‘ariblar istiqomat qiluvchi uylar ma‘nosini anglatgan. Xanoqohlar O‘rta Osiyoda maxsus bino tarzida X asrda vujudga kelib, ommaviylashib boshlagan.<sup>3</sup>

So‘fiylar xanoqohlarda yashash, o‘z tariqatini aholiga tarqatish bilan birga, ustozlik xizmati bilan ham shug‘ullangan. Ustoz shayx o‘limidan so‘ng ular o‘zlari yashab xizmat qilgan xanoqohlarga dafn qi-

<sup>1</sup> Berdaq. Tanlangan asarlar. N., “Qoraqalpoqston”, 1997, 220-bet.

<sup>2</sup> Ajiniyoz. Tanlangan asarlar. N., “Qoraqalpoqston”, 1994, 113-bet.

<sup>3</sup> Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX и начало XX в). Т., 1980, с. 112.

lingan. Shunday qilib, pir ustoz, ulugʻ shayx va xoʻjalarning qabrlari atrofida muqaddas joylar, ziyorat qilish joylari paydo boʻlgan.

Ana shunday xonaqohlar Qoraqalpogʻistonda Xoʻjaylidagi Mizdakxon kompleksidan ham topilgan, XII–XIII asrlarda u xonaqoh sifatida qurilgan, keyin XIV asrga kelganda, uning xonasiga marhum dafn etilib, maqbaraga aylantirilgan.<sup>1</sup>

XI–XIII asrlarda islom dunyosida tasavvufning barqarorlashuvi, XII asrdan boshlab Oʻrto Osiyoda soʻfiylik tariqatlarning vujudga kelishi natijasida xonaqoh binolarining tomlari gumbazlar bilan yopilgan. Bu davrlarda Qoraqalpogʻiston hududagi muqaddas joylar boʻlgan Sulton Uvays Bobo (Beruniy), Shibliy shayx (Kegeyli), Hokim ota Sulaymon Baqirgʻoniy (Qoʻngʻirot) qabrlari ustida shunday qurilishlar tiklanadi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf taʼlimoti XVIII–XIX asrlarda Qoraqalpogʻiston hududiga tarqalib, xalqimizning ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-madaniy hayotiga juda katta taʼsir koʻrsatdi va sheʼriyat, adabiyot, arxitektura, tasviriy sanʼatning rivojlanishida katta rol oʻynadi.

**Komilov Roʻzi (Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti)**  
**NIKOH DAN TASHQARI MUNOSABATLARNING GʻAYRIAXLOQIY SABAB VA**  
**OQIBATLARI**

***Annotatsiya.** Nikohdan tashqari munosabatlar amoralizm holatlarni keltirib chiqarib, ijtimoiy meʼyorlardan ogʻishga, etnoetik tizimlarni izdan chiqishiga va milliy-diniy qadriyatlar progressiga oʻzining salbiy tasirini koʻrsatadi. Maqolada bunday gʻayriaxloqiy xatti-harakatlarning yuzaga kelish sabablari, zararli oqibatlari va oldini olish mexanizmlari haqida falsafiy fikrlar keltirilgan.*

***Аннотация.** Внебрачные отношения приводят к возникновению аморализма в обществе, отклонению от социально-этических норм, разрушению этноэтической системы и отрицательно воздействуют на развитие национально-религиозных ценностей. В статье идет речь о таких негативных проявлениях, причинах их возникновения, вредных последствиях и механизме их профилактики.*

***Annotation.** Relations aside the marriage causes amoralistic situations and negatively effects the escape of social norms, destroying ethnoetic systems and progress of national-religious values. In the article, it is spoken about the reasons causing such unspiritual acts, negative results and profilactics.*

***Kalit soʻzlar:** nikoh, oila, axloq, xiyonat, muhabbat, yovuzlik, zerikarli, burch, sadoqat.*

***Ключевые слова:** бракосочетание, семья, нравственность, измена, любовь, злодейство, скучно, долг, верность.*

***Key words:** marriage, family, unfaithfulness, love, evil deed, boring, duty, faithfulness.*

Nikohdan tashqari munosabatlar diniy yoki huquqiy jihatdan belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtib, birga yashab kelayotgan er-xotinning begona shaxs bilan jinsiy-emotsional aloqada boʻlishi yoki xiyonat qilishi tushuniladi. Nikohdan tashqari munosabatlar tarixan mavjud boʻlib, oilaviy qadriyatlarni yoʻqqa chiqaradigan gʻayriaxloqiy xatti-harakatdir. Insoniyat tarixidan xabar buruvchi mifologik, diniy, falsafiy manbalarni tahlil qilsak, nikohdan tashqari munosabatlar barcha davrlarda mavjud boʻlganligini, hatto baʼzi taʼlimotdar ularni qoʻllab-quvvatlaganining guvohi boʻlamiz. Lekin insoniyat kelajagi haqida qaygʻuradigan jamiyat bunday gʻayriaxloqiy munosabatlardan jirkanib, unga qarshi kurashib kelmoqda.

Ilmiy izlanishlarimiz davomida nikohdan tashqari munosabatlarning bir nechta sabablarini keltirib tahlili qilishga harakat qildik.

◆Buning asosiy sabablaridan biri voyaga yetmagan yoshlar oʻrtasida tuziladigan nikoh boʻlib, buning natijasida insonlar oila, oilaviy munosabatlar va turmush oʻrtogʻidan tez toʻyinadi hamda ularda nikohdan tashqari munosabatlarga moyil deviant xulq shakllanadi.

◆Ikkinchidan, nikohlanaotgan kelin-kuyov bir-birlarini yaxshi bilmasdan, tanimasdan nikohdan oʻtadilar. Ularning nikohdan oldingi oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlari nikohdan keyingi real hayot bilan mos kelmaydi.

◆Uchinchidan, insoniyat hayotida boʻlayotgan turli xil oʻzgarishlar, ijobiy va salbiy taʼsirlar, ruhiy, moliyaviy, maʼnaviy depressiyalar, mansab pillapoyasidan oʻsish yoki tushish, yaqin insonlarni yoʻqotish yoki turli xastaliklar stres yoki joʻshqin kayfiyatni paydo qiladi. Bunday holatga tushgan inson uni haqi-

<sup>1</sup> Хожаниязов Ф., Юсупов О. Қарақалпақстандағы муқәддес орынлар. N., 1994, 47-бет.

qatda tinglay oladigan, dard-u hasratlariga tushunadigan, qiynalganida ko‘mak beradigan sherik izlaydi. Turmush o‘rtog‘iga doimiy muammolarni aytish ham oilaviy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababdan ushbu holatlardan tashqarida bo‘lgan juft izlab topadi;

◆To‘rtinchidan, oilada farzandlarning dunyoga kelishi natijasida kelin-kuyovning asosiy e‘tibori va mehri bolaga qaratiladi. Natijada bu juftlik bir-biriga kamroq vaqt ajratadi hamda oraga sovuqchilik tushadi. To‘ldirilmagan mehr nikohdan tashqari munosabatlardan izlanadi.

◆Beshinchidan, yer yoki ayolning jismoniy yoki aqliy mehnatga chuqur sho‘ng‘ib ketishi oqibati-da oilaviy juftiga kamroq vaqt ajratadi. U bilan gaplashishga, kulishishga, shodlik lahzalarini tuyishga, qayg‘uli va quvonchli hissiyotlariga sherik bo‘lishga, umuman, vatq topmaydi. Natijada ular orasida hissiy ajralish sodir bo‘ladi va ikkinchi tomon o‘ziga boshqa “g‘amxo‘r” axtaradi.

◆Oltinchidan, hayotning turli sinovlari davomida inson shaxsiy axloqiy-estetik ideali va qadriyat-lari asosida qarorlar qabul qiladi. Bu qarorlar, tabiiyki, turmush o‘rtog‘ining ideallariga mos tushmaydi. Ke-lib chiqqan nizolar natijasida asta-sekin oraga sovuqchilik tushib, amoralizm hodisasi sodir bo‘ladi. “An-cha keng tarqalgan, ko‘pincha, “buyuk muhabbat” sifatida talqin (kinofilmlar va romanlarda yana ham ko‘proq vasf) qilinadigan soxta muhabbat shakllaridan biri – ma‘budaparastlik muhabbati. Agar odam ka-moloti davomida kuch-qudrati, fahm-farosati, aql-idroki samarali kamol topishiga tayanuvchi o‘zligini, individualligini anglaydigan, idrok qila oladigan darajaga yuksala olmasa, sevgan kishisini “ilohiylashti-rishga”, undan ma‘buda yasashga moyil bo‘ladi. U kuch-quvvati, imkoniyatidan yiroqlashib, ularni sev-gan kishisiga saodat manbai nisbatini berib, unga har qanday muhabbat tajassumi, har qanday ro‘shno-lik, har qanday rohat-farog‘at timsoli sifatida topinadi. Shu asno, o‘z imkoniyatlarini his etishdan mahrum bo‘ladi, o‘zligiga ega bo‘lish o‘rniga, uni sevgan kishisi timsolida boy beradi. O‘ziga sig‘inuvchi kimsa-ning umidlarini uzoq muddat qondirish, odatda, hech kimning qo‘lidan kelmagani uchun, ertami-kechmi bunday “oshiq”ning ixlosi qaytadi va dardiga taskin axtarib, yangi ma‘buda qidira boshlaydi, bunday qi-dirish ba‘zan uzluksiz davom etaveradi”.<sup>1</sup>

◆Yettinchidan, uylanish yoshiga yetguncha mustaqil bo‘la olmagan, mustaqil qarorlar qabul qilib, mustaqil faoliyat olib bora olmagan nikohlanuvchi to‘ydan keyin turmush o‘rtog‘iga suyanishni xohlaydi. Lekin hayotga yengil-yelpi qaragan, oilaviy qadriyatlarni tushunib anglab yetmagan yoshlarning birgalik-da yashashlari qiyinlashadi. O‘z navbatida, bu nikohdan tashqari munosabatlarga motiv bo‘ladi, tashqari-dan suyanchiq izlanadi.

◆Sakkizinchidan, birga yashayotgan kelin-kuyovning umumiy qiziqish va manfaatlarining yo‘qligi ularni bir-biridan zeriktiradi. Umumiy qiziqishning yo‘qligi va manfaatlar uyg‘unlashmaganligi bir-biri-ning estetik kechinmalarini hayajonli hissiyotlarini tushunmaslikka olib keladi. Uzoq vaqt birga shodlik lahzalarini tuymaslik begonalik kayfiyatini shakllantiradi va nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaradi.

◆To‘qqizinchidan, hayot qiyinchiliklarini tuymagan, oila va inson qadriga yetmagan, “ommaviy madaniyat” ta‘siriga tushib, umrini havaslar og‘ushida o‘tkazgan yosh nikohdan keyingi oilaviy qiyinchi-liklarga chiday olmaydi. Ba‘zan oiladagi tashvishlar va farzand tarbiyasiyu, turmush o‘rtog‘i bilan muno-sabatni bir xil deb hisoblaydi hamda bunday hayotdan unda zerikarlilik hissiyoti shakllanadi. Yoshlikdagi o‘yin-kulgularni xohlab qoladi va sarguzashtlar izlay boshlaydi. Bu yovuzlik, “...insoniylik holatidan ort-ga qaytish, insonga xos aql, muhabbat, erk xususiyatlarini yo‘q qilishga bo‘lgan intilish, ayni paytda, u fojiviy holatdir. Chunki inson, hayvoniy darajaga qaytsa-da, u biror-bir soniya odam ekanini unutmay-di, demak, yovuzlik masalani hal qilishning yo‘li sifatida uni hech qachon qoniqtirmaydi. Insonning yo-vuzlik holati – o‘zini ezib turgan insoniy turmushi og‘irligidan ozod bo‘lishga fojiviy urinishi tufayli ro‘y beradi, u o‘zini yo‘qotishdan iborat”.<sup>2</sup>

Jamiyat va davlat barqaror taraqqiyoti, har doim ta‘kidlanganidek, oila mustahkamligi va farzand-lar barkamolligiga bog‘liq. Tinch oilada axloqiy-ruhiy zo‘riqishlarsiz ulg‘aygan yoshlar nikoh va oila mu-nosabatlarini to‘g‘ri anglab milliy hamda diniy qadriyatlarga mos holda hayot kechiradilar. Biz yoshlari-mizda nikoh yoshiga yetgunlariga qadar axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz bilan birgalikda, jinsiy tarbiya haqida ham gapirishimiz lozim. Oilaning asosi va insonning biologik eh-tiyoji hisoblanmish jinsiy madaniyat haqida ota-ona, umuman, tushuntirishmaydi. Ota-onaning ulg‘ayib nikohlanishga tayyor bo‘layotgan farzandlariga bu mavzuda gapirishiga muntalitetimiz, milliy va diniy qadriyatlarimiz yo‘l qo‘ymaydi. Vaholangki, yoshlar nikohdan keyin ushbu jarayonlarga yuzma-yuz ke-

<sup>1</sup> Блез Паскал, Хосе Ортега Де Гассет, Эрих Фром. Севги санъати. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2011, 211-бет.

<sup>2</sup> A.Sher. Axloqshunoslik. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, Toshkent, 2010, 166 – 167-betlar.

ladi. Jinsiy madaniyat haqida ota-ona, yoshi kattalar indamasa, OAVda gapirilmasa, ta'lim tizimida bu haqda, umuman, ma'lumot bo'lmasa, yosh kelin-kuyov nikohga qanday tayyor bo'lsin?

“Yosh bolalardagi hirsiy hissiyot ota-ona tomonidan taqiqlanadi, natijada bolalarda nervoz holati paydo bo'ladi. Axloqiy normalar hirsiy hissiyotlarni taqiqlaydi. Natajada hissiyotlar inson ongida boshqa o'zgarishga uchraydi. Bu o'ziga xos psixik energiyadir. Bu energiya har xil nervoz kasalliklari orqali yuzaga chiqadi. Hirsiy hissiyotlar tug'dirgan nervozlarni Freyd psixik rivojlanishning notabiiy, zaruriy bosqichi deb ataydi. Agar inson taqiqlangan hirsiy tuyg'ularni ongli ravishda anglasa, u tuzalishi mumkin”.<sup>1</sup>

Bunday mas'uliyatli vazifani, albatta, ota-onalar bajarishlari, nikoh tuzish ostonasida turgan yoshlarga ro'zg'or tutish odoblari bilan birgalikda oilaviy jinsiy madaniyatning nozik tomonlarini, nikohdan tashqari munosabatlarning g'ayriaxloqiy sabablari va fojiali oqibatlarini haqida tushunchalarni shakllantirishlari lozim.

Nikohdan so'ng yoshlarni oilaviy qadriyatlar asosida bir-birini tushunishi, go'zal xulq asosidagi o'zaro hurmat, hayajonli hissiyotlar, emotsional yaqinlik jinsiy muhabbatni shakllantiruvchi motivlardan hisoblanadi. Bu oila mustahkamligi va farovonligi asosi. “Shu bois birga, yashashning tizimini o'zgartirishga, ya'ni, ko'pxotinlilik, jazmanbozlik, jamoaviy jinsiy aloqa va hokazolarga intilish – bor-yo'g'i haqiqiy muhabbat qiyinchiliklarini yengib o'tish uchun yo'l qidirish. Agar inson o'z “yarmini” topish va sevisht baxtiga erishsa, u boshqa juft izlashga hech qachon intilmaydi, butun borlig'ini o'z seviklisiga bo'lgan muhabbatga bag'ishlaydi”.<sup>2</sup>

Nikohdan so'ng yoshlar dunyoqarashida shakllangan oilaga va turmush o'rtog'iga nisbatan hurmatsizlik natijasida sodir bo'lgan nikohdan tashqari munosabatlar natijasida bir qator zararli oqibatlar yuzaga keladi. Birinchidan, oila institutining zaiflashuvi yoki ajrimlar natijasida bolalarning yetim qolishi, ota-ona janjallari oqibatida ularning ma'naviy kamolotiga zarar yetishi, nosog'lom muhit natijasida axloqiy tarbiyaning zavol topishiga olib keladi, ikkinchidan, pala-partish va himoyalanmagan nikohdan tashqari munosabatlar natijasida OITS va OIV kabi tanosil kasalliklarning avj olishi hamda oila, jamiyat salomatligiga katta xavf tug'dirishi, uchinchidan, aldanishlar, xiyonat va nikohdan tashqari munosabatlar natijasida tomonlarda kuzatiladigan ruhiy zo'riqish, stress, tushkunlik holatlari inson salomatligiga katta xavf tug'diradi. Avvalo, ularning ishchanlik qobiliyatigi zarar yetkazsa, keyin ruhiy va jismoniy sog'liq me'yorlari buziladi. Germaniyalik kardiolog shifokor aytganidek, agar erkaklar nikohdan tashqari munosabatga kirishmasalar, yurak xastaligi bilan og'rikan bemorlar soni yarmiga qisqarardi.

**Юлдашова Нилуфар Мухитдиновна (Ўзбекистон Журналистика ва оммавий коммуникациялар университети Хорижий тиллар кафедраси катта ўқитувчиси; [yuldashova-n@mail.ru](mailto:yuldashova-n@mail.ru))**

**ЎЗМА ЧЕТ ТИЛИ МУЛОҚОТИ ВА УНИНГ ИШЛАШИНИ БЕЛГИЛОВЧИ ОМИЛЛАР**

***Аннотация.** Мазкур мақола инсон ҳаётида чет тили ёзма мулоқотининг ишлашини белгилайдиган ва унинг маҳсули сифатида ёзма дискурда акс этадиган омилларни ажратиб кўрсатиши учун олимларнинг турли фикр ва қарашлари тадқиқига қаратилган.*

***Аннотация.** Данная статья посвящена исследованию различных взглядов ученых с целью выделения факторов, которые определяют эффективность письменного общения на иностранном языке в жизни человека и отражается в письменном дискурсе как его продукт.*

***Annotation.** This article is dedicated to the study of various views of scholars in order to highlight the factors that determine the effectiveness of written communication in a foreign language in a person's life and reflects in written discourse as its product.*

***Калим сўзлар:** ёзма дискурс, индивидуал, субъектив ва шахсий хусусиятлар, коммуникатив вазифа, тушуниш механизми, мнемоник ташкил этиш механизми, нутқ хотираси механизми.*

***Ключевые слова:** письменный дискурс, индивидуальные, субъективные и личностные особенности, коммуникативная задача, механизм понимания, механизм мнемической организации, механизм речевой памяти.*

***Key words:** written discourse, individual, subjective and personal characteristics, communicative task, mechanism of understanding, mechanism of mnemonic organization, mechanism of speech memory.*

<sup>1</sup> О.Тўхлиев. Европа фалсафаси. “Тафаккур”, Тошкент, 2016, 800 – 801-бетлар.

<sup>2</sup> A.Sher. Shu manba. 169-бет.

Биз бу мақолада инсон ҳаётида чет тили ёзма мулоқотининг ишлашини белгилайдиган ва унинг маҳсули сифатида ёзма дискурсада акс этадиган омилларни ажратиб кўрсатиш учун уни (чет тили ёзма мулоқоти) ўрганиш вазифасини қўйдик. Бу вазифани амалга ошириш учун баъзи психологлар, психоллингвистларнинг ёзма мулоқотни ўрганиш учун бағишланган ишларига ва бошқаларнинг тадқиқотларида уларнинг услубий талқинига мурожаат қиламиз.

Келтирилган масалани кўриб чиқишни билвосита алоқа тури сифатида ёзма чет тилидаги мулоқотнинг хусусиятлари билан бошлаймиз. Шу мақсадда биз М.С.Каган томонидан фалсафада таклиф қилинган мулоқот тушунчасидан фойдаланамиз. У ўз изланишларида мулоқотни «субъектлараро ўзаро таъсир ўтказиш» жараёни сифатида талқин қилади ва унинг таркибида биринчи навбатда «индивидуал шахслар... ўзига хос ижтимоий организмлар» бўлган ўзларининг мотив ва мақсадларига эга бўлган ва баъзи бир ижтимоий ва шахсий нарсаларда бир бирлари билан муносабатда бўлиб ўзаро таъсир қилувчи субъектларни ажратиб кўради. Мулоқотнинг иккинчи компоненти бу унинг ишлаши учун зарур бўлган воситалар бўлиб, улар тиллар, амалга ошириш механизмлари ва усуллари ҳисобланади. Бундай воситалар ёрдамида субъектлар учинчи таркибий қисми сифатида маълум бир ижтимоий-маданий муҳитда ўзаро алоқада бўлиб мулоқот ўрнатадилар ва бу мулоқот моҳиятини, йўналишини, мазмунини ва шакллари белгилайди.<sup>1</sup>

Ёзма чет тилидаги мулоқотнинг ўзаро алоқадор субъектлари турли маданият вакиллар, турли жамият аъзолари, ўз мамлакатлари маданиятига хос бўлган меъёрлар, анъаналар ва қадриятларининг ташувчилари ҳисобланади. Улар ўзларининг индивидуаллигини ривожланиш даражасини ифода этадиган маълум индивидуал, субъектив ва шахсий хусусиятлар тўпламига эга (Б.Г.Ананьев, А.Г.Асмолов, А.А.Бодалев, В.П.Кузовлев, С.С.Куклина, В.С.Мерлин, Е.И.Пассов, И.И.Резвицкий ва бошқалар). Индивидуал хусусиятлар гуруҳига эътиборнинг ёш-жинс хусусиятлари, идрок, хотира, тасаввур ва фикрлаш қиради. Субъект хусусиятлари унинг фаолияти, мустақиллиги, фаолият тажрибаси, фаолиятни амалга ошириш усуллари ва воситаларига эгаллиги, ҳолати, роль ва мавқеи билан намоён бўлади. Шахсий хусусиятлар эса дунёқарашни, менталитетни, ҳиссиёт ва ҳис-туйғу соҳани, қизиқишларни, истакларни, мойиллик ва бошқаларни акс эттиради.

Бундай ҳолда ўзаро таъсир қилувчи субъектлардан бири ёзувчи ролини ўйнайди, яъни мулоқот ташаббускори. Унинг мақсади-маълум бир тилнинг кодидан фойдаланган ҳолда (бизнинг ҳолда хорижий тил) маълум маълумотларни тўлиқ ёзиб олиш учун ёзма ишни бошлаш, лойиҳалаштириш ва бошқариш, шунингдек у билан боғлиқ бўлган фикр ва ҳиссиётларни ҳаёлий субъект (қабул қилувчига) етказиш. Бу билан ёзма ёки оғзаки жавоб, ҳаракатлар ёки амаллар шаклида керакли натижани олиш кутилади.

Ўзаро таъсир ўтказиш самарадорлиги, биринчи навбатда, ёзувчининг яратилаётган ёзма ишда акс этадиган ёзма чет тили мулоқотининг фаол субъекти сифатида индивидуал, субъектив ва шахсий хусусиятларига, иккинчидан, ёзма ишни қабул қилиб олувчининг индивидуаллиги ҳақидаги хабардорлигига боғлиқ. Ёзувчи ва бўлажак қабул қилувчининг кўрсатилган хусусиятлари орасида уларнинг дунёқарашни, қизиқишлари, қобилиятлари, ижтимоий тажрибаси, ижтимоий мавқеи, ўйнаган роллари ва бошқалар муҳим аҳамиятга эга. Ўзаро мулоқотда бўлган субъектларнинг санаб ўтилган хусусиятлари тўплами ёзма чет тили мулоқотининг ишлашини белгилайдиган биринчи омил бўлиб хизмат қилади ва тайёр ёзма маҳсулотда акс этади.

Субъектларнинг ўзаро алоқалари ижтимоий ва маданий муҳитда содир бўлади, бу шахс ва ташқи дунё ўртасидаги муносабатлар, уларнинг бевосита муҳити тизимини ўз ичига олади. Ушбу тизим инсонда бутун ҳаёти давомида когнитив, ўзгарувчан ва қийматга йўналтирилган фаолият жараёнида шаклландиган субъект-объект ва субъект-субъектнинг ижтимоий ва шахсий муносабатларидир. Мулоқотнинг ҳар бир индивидуал ҳаракатида муҳит ёзма мулоқот иштирокчиларининг ўзига хос субъект-субъект ва унинг асосида ётувчи субъект-объект муносабатларида ўзини намоён қиладиган, мулоқот субъектлари ҳаракат қиладиган, ижтимоий-маданий вазият билан ифодланади.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Каган, М.С. Мир общения: Проблема межсубъектных отношений / М.С.Каган. – М.: Политиздат, 1988. – 255 с.

<sup>2</sup> Куклина С.С. Система организационных форм коллективной учебной деятельности в группе для овладения учащимися иноязычным общением. Монография, Киров, изд-во ВятГГУ, 2007, с. 32.

А.А.Леонтьев бу вазиятни «нутқий ҳаракатни амалга ошириш учун зарур ва етарли нутқ ва нутқдан ташқари шартлар мажмуи» деб ҳисоблайди.<sup>1</sup> В.А.Аврорин уни мураккаб бир бутун сифатида, шу жумладан, маълумот жўнатувчи ва маълумотни қабул қилиб олувчининг ўзига хос ижтимоий-демографик хусусиятлари, ўзаро муносабатлари, мулоқот содир бўладиган муҳит, нутқнинг мавзуси ва лингвистик алоқаси билан изоҳлайди.<sup>2</sup> В.Л.Скалкин вазиятни «шахсни лингвистик мулоқотга жалб қиладиган ва унинг бир алоқа акти доирасида нутқ хулқ-атворини аниқлайдиган ўзига хос экстралингвистик информатив омиллар тўплами» деб таърифлайди.<sup>3</sup> Е.И.Пассов уни турли хил нутқий бўлмаган шароитлар асосида вужудга келадиган чет тили мулоқоти субъектларининг ижтимоий мавқеи, роли, фаолияти ва ахлоқий муносабатларининг интеграл динамик тизими сифатида тушунади.<sup>4</sup>

Юқоридаги таърифларни асос қилиб олиб, биз ёзма чет тили мулоқотининг ижтимоий-маданий ҳолати мураккаб бутунлиги ва у ўз ичига алоқа субъектларининг ўзаро таъсирини ташкил этадиган нутқсиз ва нутқий шарт-шароитлар мажмуасини олиши ҳақида гаплашамиз.

Бу ерда нутқга оид бўлмаган ҳолатлар деганда биз а) чет тили ёзма мулоқотининг мақсади; б) мулоқот мавзуси (воқеа, ҳаракат, баҳсли субъектив баёнот ва ҳ.к); в) субъектларнинг ўзаро муносабатлари; ва нутқга оид ҳолатларга эса -ёзувчи ва қабул қилувчининг чет тилидаги нутқ тажрибасида мавжуд бўлган керакли ва етарли даражада тил ва нутқ материалининг мавжудлиги.

Чет тилидаги ёзма мулоқот субъектлари ўртасидаги муносабатларга келсак, бизнинг эътиборимиз улардаги ижтимоий мавқеи, роли ва улардаги бевосита мавжуд фаолият ва ахлоқий муносабатларга боғлиқ бўлади. Ижтимоий-мақом муносабатлари турли хил профессионал (ўқитувчи, шарҳловчи, журналист, адабиётшунос ва бошқалар), ёш гуруҳлари (мактаб ўқитувчиси, талаба, катталар ва бошқалар), этник (миллат вакили, миллати ва бошқалар) ва ҳудудий (ватандошлар, қўшнилар) сифатида ишлайдиган мулоқот субъектлари томонидан амалга оширилади. Роль муносабатлари эса улар расмий ва норасмий ёзма чет тилидаги мулоқот жараёнида муайян ролларни бажарганда пайдо бўлади. Ҳар иккала ҳолатда ҳам ёзма мулоқот субъектлари унинг иштирокчилари бўлиб, улар инсонпарварлик, бағрикенглик, адолатлилик, одоб-ахлоқ, масъулият каби ахлоқий позициялардан ҳаракат қилишади.<sup>5</sup>

Бундай ижтимоий-маданий вазият ёзма мулоқот субъектлари ўзаро алоқада бўлган мулоқотнинг белгилари, йўналиши, шакли ва мазмунини белгилайди ва ёзма чет тили мулоқотининг муваффақиятини белгилайдиган иккинчи омил ҳисобланади.

Ёзма чет тили мулоқотининг мақсади унинг ҳар бир ҳаракатида коммуникатив вазифа ёрдамида амалга оширилади ва биз буни маълум бир ижтимоий-маданий вазиятда алоқа субъектининг нутқ хатти-ҳаракатларини бошқариш воситаси ва унинг ёзма ижоди учун рағбатлантирувчи восита сифатида тушунамиз. Бу ёзувчи учун кутилаётган тезкор натижа кўринишида пайдо бўлади ва ёзма чет тилидаги мулоқот натижасига эришгунча унинг хаёлида қолади.<sup>6</sup> Коммуникатив вазифа, масалан, қандай қилиб мулоқот қилиш, тушунтириш, маъқуллаш, танқид қилиш, ишонтириш ва ҳ.к. Ёзувчини мавжуд ижтимоий-маданий вазиятда йўналтиради ва чет тилидаги ёзма мулоқотни яратиш учун зарур бўлган ўзига хос ёзма мулоқот воситаларини танлашга туртки беради ва бу ёзма мулоқот фаолияти самарадорлигини белгилайдиган учинчи омил вазифасини бажаради.<sup>7</sup>

Ёзма чет тилидаги алоқа воситалари, авваламбор, тегишли тил (ёзув белгилари) ва унинг фаолияти асосида ётадиган умумий функционал ва нутқ механизмлари хизмат қиладиган уни амалга ошириш усуллари тушунилади. Ёзма нутқ фаолиятининг умумий функционал механизмлари, Н.И. Жинкиннинг фикрига кўра, тушуниш механизми, мнемоник ташкил этиш механизми ёки нутқ хотираси механизми ва «огоҳлантириш синтези» механизмини ўз ичига олади.<sup>8</sup>

<sup>1</sup> Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. М., «Просвещение», 1969; М., изд-во ЛКИ, 2008, с. 85.

<sup>2</sup> Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка. Л., «Наука», 1975, с. 116.

<sup>3</sup> Скалкин В.Л. Типичная коммуникативная ситуация как структурно-тематическая основа обучения устной иноязычной речи. «Русский язык за рубежом», 1979, № 5, с. 56 – 62.

<sup>4</sup> Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. 2-е изд. М., «Просвещение», 1991, с. 223.

<sup>5</sup> Пассов Е.И. Урок иностранного языка. Ростов н-Д, «Феникс» М., «Глосса-Пресс», 2010, с. 640.

<sup>6</sup> Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. М., «Просвещение», 1969; М., изд-во ЛКИ, 2008, с. 85.

<sup>7</sup> Царькова В.Б. Речевые упражнения на немецком языке. Пособие для учителей ст. классов сред. школы, М., «Просвещение», 1980, с. 144.

<sup>8</sup> Жинкин Н.И. Механизмы речи. М., изд-во АПН РСФСР, 1958, с. 372.



Ушбу механизмларнинг энг муҳими, тушуниш механизмидир, чунки ёзма нутқ фаолиятининг мазмунини ақлий таҳлил қилиш, унинг таркибий тузилиши ва лингвистик тузилиши унинг ишига боғлиқ. Ушбу механизм ёрдамида ижтимоий-маданий вазиятни таҳлил қилиш, ёзма нутқнинг коммуникатив вазифаси, мақсадини англаш, шунингдек, ёзма ишни (дискурс) режалаштириш, дастурлаш ва ёзма нутқ фаолияти натижасини бошқариш, яъни, ёзма чет тили мулоқоти содир бўладиган нутқий бўлмаган ҳолатларни тушунамиз. Улар ёзма мулоқотнинг керакли натижасига эришиш учун энг мақбул бўлган чет тилининг тегишли нутқ бирликларини танлаш ва улардан фойдаланишни белгилайдилар.

Ёзма ишни яратиш жараёнида узоқ муддатли ва қисқа муддатли хотира механизмлари билан ифодаланадиган мнематик ташкил қилиш механизми алоҳида роль ўйнайди. Хотира деганда биз ёзувчининг чет тилидаги нутқ тажрибасида мавжуд бўлган материални ёдда тутиш, сақлаш ва ёзувчининг, кейинчалик, ёзма нутқ фаолиятида фойдаланиши учун чет тилида ёзиш тажрибасида мавжуд материалдан фойдаланишини тушунамиз.<sup>1</sup>

Узоқ муддатли хотира механизми мавжуд ижтимоий-маданий вазиятда воқелик объекти ва ёзма нутқ фаолиятини амалга ошириш усуллари, шунингдек чет тилининг ишора тизими тўғрисида муҳим бўлган билим ва ғояларни амалга оширилишини таъминлайди. Ушбу тизим тили ўрганилаётган мамлакат учун хос бўлган ёзма мулоқотнинг ижтимоий-маданий меъёрлари, анъанавий равишда чет тилида қабул қилинган ёзма маълумотларни расмийлаштириш қоидаларини (орфоэпик, график, имло, грамматик, лексик, услубий ва бошқалар) акс эттиради.<sup>2</sup>

Ёзма дискурс (ёзма иш)ни яратиш жараёнида ёзувчи, биринчидан, ёзма чет тили мулоқотининг маълум ижтимоий-маданий ҳолатига хос бўлган барча нутқий бўлмаган ҳолатларни қисқа муддатли хотирада сақлайди. Иккинчидан, у тақдим этилган ижтимоий-маданий вазият доирасида ва тегишли хорижий тил меъёрлари доирасида ва ёзма ишни қабул қилиб олувчига мос равишда ўзининг коммуникатив вазифасини бажариш учун энг мос бўлган нутқ воситаларини узоқ муддатли хотирадан қисқа муддатли хотирага ўтказди.

Умумий функционал механизмларга сўзларни танлаш, аниқловчи таърифларни, қўшимчаларни, ҳолатлар ва бошқаларни танлашни тартибга солувчи «огоҳлантириш синтези» механизми ҳам киради. И.А.Зимняя фикрига кўра, бу механизм учта йўналишда кечади: а) оғзаки (оғзаки артикуляция) стереотиплаш чизиғи бўйлаб; б) тил мажбуриятлари орқали; в) мақсадни ошқор қилиш учун семантик мажбуриятлар чизиғи бўйлаб. Биз ёзма мулоқот тўғрисида сўз юритаётганлигимизни ҳисобга олсак, сўнгги икки йўналиш биз учун алоҳида қизиқиш уйғотади.<sup>3</sup>

Улардан биринчиси, ички нутқнинг махсус кодида жойлашган келажакдаги ёзма ишнинг мотиви ва нияти билан шартланган семантик мажбуриятлар доирасидаги огоҳлантириш ҳисобланади. Ушбу мажбуриятлар сўзларнинг субъектив маъноларининг пайдо бўлиши ва фақат ижтимоий-маданий ҳолат ва ёзувчининг коммуникатив вазифасини акс эттирувчи хусусиятларни ажратиш имкониятини белгилайди.

Ушбу субъектив маъноларни ёзувчи учун ҳам, қабул қилувчига ҳам тушунарли бўлган объектив кенгайтирилган маъноларга айлантириш учун тил мажбуриятлари линияси бўйича огоҳлантириш механизми қўлланилади. Бу сўзларнинг комбинациясининг лингвистик эҳтимоллигини ёки уларнинг валентлигини акс эттиради ва ёзма мулоқотда грамматик қоидалар очилишини амалга оширади. Танланган сўзлар ва иборалар ёзувчининг нияти ва коммуникатив вазифаси билан таққосланади. Агар барча параметрлар мос келса, ёзма мулоқотни амалга ошириш давом этади. Акс ҳолда, ёзма мулоқот учун яна-да муваффақиятли тил ифодалари, ҳатто янги программа қидириш амалга оширилади.

Умумий функционал механизмлар ёзма асарнинг ички тузилиши ёки лексик-грамматик жойлашуви ва ташқи тузилиши билан ифодаланган нутқ механизмларининг ишлашини таъминлайди. Бу ёзма мулоқот муваффақиятини белгилайдиган яна бир омилга олиб келади, яъни, ўзларининг микро ва макрооперацияларига асосланган ёзма чет тили мулоқоти воситаларига эга бўлиш. Агар микрооперациялар ҳар қандай тилда ёзма нутқ учун универсал бўлса, макрооперациялар маълум бир тилда ёзма нутқ фаолияти учун хосдир. Бизининг вазиятда бу ўрганилаётган тил, яъни инглиз

<sup>1</sup> Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. М., "Просвещение", 1991, с. 222.

<sup>2</sup> Глухов В.П. Психоллингвистика. Теория речевой деятельности. М., изд-во АСТ, 2007, с. 318.

<sup>3</sup> Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. М., Московский Психолого-социальный институт, Воронеж, НПО «МОДЭК», 2001, с. 432.

тили. Ёзма чет тилидаги мулоқот воситаларини тавсифлашда биз ёзувчининг ўрганилаётган чет тилига хос бўлган макрооперацияларни керакли даражада билишидан келиб чиқамиз.

Чет тили ва унинг фаолияти асосидаги умумий функционал ва нутқ механизмлари ёзма нутқ билан биргаликда ёзма чет тили мулоқотини амалга ошириш усули сифатида хизмат қилади. Бу ташқи оғзаки нутқдан фикрнинг шаклланиши ва оқими, психологик мазмуни ва ёзма мулоқоти жараёнида бажарадиган вазифалари билан сезиларли даражада фарқ қилувчи ўзига хос таълимдир.

А.Р.Луриянинг фикрига кўра, ёзма нутқнинг ўзига хос хусусияти шундаки, у суҳбатдош йўқлигида ишлайди ва унинг мотиви ва тузилиши фақат субъектнинг, яъни ёзувчининг ўзи томонидан белгиланади.<sup>1</sup> Шу билан бирга, Н.А.Пронина таъкидлаганидек, вазият контекстни тўлдириши мумкин эмас, яъни ёзувчининг ўзи қабул қилувчининг аралашуви ва таъсирисиз ақлан хаёл қилган ижтимоий-маданий вазиятни яратади.<sup>2</sup> Бинобарин, ёзма дискурсада (ўқувчига жунатилган ёзма ишда) қабул қилувчининг унинг маъносини тўлиқ англаши учун зарур бўлган барча маълумотлар бўлиши керак. Бундан ташқари, ёзма мулоқотни назорат қилишнинг бутун жараёни ёзувчининг интеллектуал фаолияти ичида бўлиб, хаёлий қабул қилувчи томонидан тузатилмайди.

Шундай қилиб, ижтимоий-маданий вазият ва тегишли коммуникатив вазифа, ёзувчи ва қабул қилувчининг индивидуаллиги хусусиятлари ва уларнинг чет тилидаги нутқ тажрибаси ёзма чет тили мулоқоти ва унинг маҳсули ёзма дискурсни белгилайдиган омиллар бўлиб хизмат қилади.

**Tayirova Nodira Saparbayevna (Urganch davlat universiteti o'zbek lingvistika yo'nalishi magistranti;  
tayirovanodira1987@gmail.com)**

#### **TO'Y MAROSIMLARI NOMLARI VA ULARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola to'y marosimlari nomlari va ularning lingvomadaniy xususiyatlari haqida bo'lib, bu maqola orqali o'zbek to'y marosimlari nomlarining tarixi, kelib chiqishi, ushbu marosimlardagi an'analar va qadriyatlarining hozirgi kundagi ahamiyati haqida ma'lumot berishdir.*

**Аннотация.** *В статье речь идет о названиях свадебных обрядов и их языковых и культурных особенностях, представлена информация об истории и происхождении названий узбекских свадебных обрядов, традициях и значениях этих обрядов сегодня.*

**Annotation.** *This article is about the names of wedding ceremonies and their linguistic and cultural features and this article provides information about the history and origin of the names of Uzbek wedding ceremonies, the traditions and values of these ceremonies today.*

**Kalit so'zlar:** *lingvokulturalogiya, "To'y" atamasi, "Mikoh to'y", "Beshik to'y".*

**Ключевые слова:** *лингвокультурология, термин «тўй» (свадьба), «никох тўй» (венчание), «бешик тўй» (колыбельная свадьба).*

**Key words:** *Linguoculturalism, the term "wedding", "Marriage wedding", "cradle wedding".*

Tarixiy manbalarda aytilishicha, "to'y" atamasi turkiy tildan olingan bo'lib, "toy" yoki "qurultoy" tarzida chig'atoy va mo'g'ullar davrida ham qo'llanilgan. Movarounnahr tomonlarda sayohat qilgan Ibn Battuta yodnomalarida, asosan, "toy" – bu yilda takror o'tkaziladigan yig'in (qurultoy) bo'lib, unda Chingizxoniyalar, amir-u ulamolalar, turkiy beklar, obro'li ayollar va lashkarboshi ishtirok etishi haqida ma'lumotlar aytib o'tilgan.<sup>3</sup>

Yakunlangan muddati 1864-yil 5-may (hijriy 1280) bo'lgan "Tavorixi Xorazmshohiya" tarixiy asarida uchraydigan ma'lumotlarga ko'ra, vazir Hasanmurod qushbегining o'g'li Muhammad Yusufbek xonning qiziga uylangan bo'lib, ziyofat – toy (to'y) bir necha kun va tun davom etgan.<sup>4</sup>

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da to'y atamasi quyidagicha izohlangan: "To'y – marosimlarning umumiy nomi. 1. Qudalar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, kiyov tomondan qiz tomonga beriladigan pul, sarpo-suruq, masalliq va shu kabilar majmui. 2. Biror voqea-hodisaga bag'ishlab ziyofat va o'yin-kulgi bilan o'tkaziladigan tantanalar".<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Лурия А.Р. Язык и сознание. Под ред. Е.Д.Хомской, 2-е изд, М., изд-во МГУ, 1998, с. 336.

<sup>2</sup> Пронина Н.А. Формирование субъектной позиции у студентов языкового вуза. Дис. ...канд. пед. наук, 13.00.01, 13.00.08. Ижевск, 2005, с. 163.

<sup>3</sup> Бартольд В.В. Сочинения. Том 5, М., "Наука", 1968, с. 162 – 163.

<sup>4</sup> Аскарлов М. Тўй: кеча, бугун, эртага: этнографик таҳлил. 1 minute read uz team. February 13, 2019.

<sup>5</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик, 2-том, М., "Русский язык", 1981, 243 – 244-бетлар.

Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida to'y termini tilga olinmagan. Ammo ushbu asarda tod – (tud-: todundi "to'yindi" todg'urdi "to'yg'izdi"), toz – (tuz-: tozdi "to'ydi", tuzg'urdachi "to'ydiruvchi") kabi o'zaklar asosida yasalgan 18 ta leksema qayd qilingan.<sup>1</sup> Tilshunoslik sohasida to'y mavzusida dastlabki ilmiy ishlar olib borgan tadqiqotchilardan biri A.Jo'raboyev to'y atamasi haqida quyidagicha ma'lumot bergan: "Bu so'z, aslida, "to'ymoq" ma'nosini anglatuvchi tod – toz – doi – doj ning eng so'nggi fonetik variant hisoblanadi. Mahmud Koshg'ariyning "Devon"ida "modundi, mozdi" so'zlarining ma'nosini "to'yindi, to'ydi" tarzida izohlanadi. Agar birinchi so'zdan -un o'zlik darajasining qo'shimchasi, ikkinchi so'zda ham -di aniq o'tgan zamonni hosil qiluvchi affiks olib tashlansa, fe'lining buyruq maylidagi mod va moz so'zlari qoladi. Binobarin, bu so'zlar hozirgi to'y so'zining dastlabki formasi ekanligiga hech shubha qolmaydi".<sup>2</sup> Sh.Nurillayeva ham o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida to'y so'zining "to'ymoq" fe'lidan olinganligi haqidagi fikrlarga qo'shiladi.<sup>3</sup> Bizning nazarimizda ham mazkur ta'riflar to'y atamasining vujudga kelish tarixi va nimaga asoslanib "to'y" atamasidagi ta'rif berilganligi haqidagi fikrlar aniq va to'g'ri ma'lumotdir. To'y so'zi, aslida, o'zbek tilida faqatgina ijobiy ma'noda qo'llaniladigan leksemdir. To'ylarning barcha turlari, xususan, "beshik to'yi", "sunnat to'yi", "muchal to'yi", "nikoh to'yi", "payg'ambar yoshi to'yi", "hoji to'yi" kabi to'y marosimlari xursandchilik bilan elga osh berib, o'yin-kulgi, to'kin-sochinlik bilan nishonlanadi. Ushbu to'y marosimlarining orasida nikoh to'yi alohida ahamiyatga egadir. Oila muqaddas qo'rg'on va bu qo'rg'onning ilk poydevori nikoh to'yidir. Ushbu to'y marosimini turli xalqlar urf-odatlarini, mentaliteti, qarashlaridan kelib chiqib, turlicha nishonlashadi.

Nikoh so'zi arabiy so'z bo'lib, er-xotinlik rishtasini bog'lamoq, juft bo'lmoq, xotin olmoq, erga tegmoq, er-xotinlik degan ma'nolarni bildiradi.<sup>4</sup> O'zbekistonning ham turli viloyatlarida nikoh to'yi turlicha va rang-barang tarzda nishonlanadi. Ushbu marosim, jumladan, Xorazm viloyatida ham o'ziga xos an'analar bilan o'tkaziladi. Xorazmda nikoh to'ylari ikki kun davom qiladi. O'zbekistonning boshqa viloyatlarida esa nikoh to'yi bir kun nishonlanadi, xolos.

Xorazm to'ylarining yana bir o'ziga xos tomoni, kelin yangi xonadoniga kelgach, xonadon ostonasida o'tkaziladigan "kelin salom" marosimidir. Ushbu marosim kelinning yangi oila a'zolari bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. Xalfalar kelinga xonadon egalarini birma-bir aytib tanishtiradilar. Kelin esa yangi oila a'zolariga juftdan salomlar berib, ta'zimlar qilib, tanishib oladi. Keyin kata to'y marosimi boshlanadi. Boshqa viloyatlarda esa bu jarayon to'yning ertasi kuni o'tkaziladi va bu marosimga "yuz ochar" marosimi deyiladi.

Xorazm nikoh to'ylarida o'tkaziladigan yana bir kichik marosimlardan biri taqa (taxtga) tashash marosimidir. Bu marosim ham O'zbekistonning boshqa viloyatlarida uchramaydigan nikoh marosimlaridan biridir. Ushbu marosim kelin salom marosimidan keyin o'tkaziladigan marosimlardan. Ostonada salom berib, hamma bilan tanishib bo'lgan kelin, ichkariga, kelin va kuyovga atalgan xonaga olib kiriladi. Bu xonada kelin va kuyov uchun oldindan tayyorlab qo'yilgan qavat-qavat to'shaklar bo'ladi va kuyov bola kelinni shu to'shaklar ustiga ko'tarib otishi kerak bo'ladi. Kuyov kelinni qavat-qavat to'shakka otish jarayoniga "taqa tashash" marosimi deyiladi. Bu marosimni o'tkazilishidan maqsad esa kuyov kelinni doim malikalardek avaylab, asrab, uvali-juvali bo'lib, baxtli hayot kechirishlarini tilagan holda, yaxshi niyatlar bilan o'tkazishadi.

Yana bir to'y marosimlaridan biri "beshik to'yi" marosimidir. O'zbek xonadonlarida yangi chaqaloq dunyoga kelsa, uni yaxshi niyatlar bilan beshikka belashadi. Beshik chaqaloq uchun tinch va osuda makondir. "O'zbek tiling izohli lug'at"ida "beshik" so'ziga quyidagicha izoh berib o'tilgan: "Chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun tol yoki tut yog'ochidan yasalgan yo'rg'a oyoqli maxsus moslama; tebratma belanchak".

Ota-bobolarimizdan qolgan ushbu an'ana hozirgi kunda ham ko'plab o'zbek oilalarida saqlanib qolgan holda, yangi tug'ilgan chaqaloq ushbu belanchakka belanadi va bu jarayon to'y marosimi darajasida nishonlanadi. Harqanday to'y marosimi katta bir jarayon bo'lsa, ushbu jarayonlar ham kichik-kichik marosimlardan tashkil topgan bo'ladi. Shu jumladan, "beshik to'yi" marosimi ham kichik-kichik marosimlardan iboratdir.

<sup>1</sup> Кошғарий Махмуд. Девону луғотит турк. 3 томлик, Тошкент, "Фан", 1960, 63, 30-бетлар.

<sup>2</sup> Жўрабоев А. Ўзбек тилида тўй-маросим номлари (Андижон группа шевалари материаллари асосида). Филология фанлари номзоди дисс., Тошкент, 1971, 29, 31-бетлар.

<sup>3</sup> Нуриллаева Ш. Кўрсатилган манба. 36-бет.

<sup>4</sup> Ҳасан Амид. Фарханги форсии Амид. Техрон, "Интешороте жовидон", 1971, с. 284.

Chaqaloqni yuvintirish marosimi, yoshi ulug' momolarimizning chaqaloqni beshikka belash marosimlari va ushbu kichik marosimlardan keyin "beshik to'y" marosimi nishonlaniladi. O'zbek oilalarida, jumladan, Xorazmda chaqaloqni beshikka solish jarayoni faqatgina to'ng'ich farzand dunyoga kelganda to'y darajasida, katta marosim shaklida nishonlanadi. Keyingi farzandlar dunyoga kelganda esa aqqa tarzida yoshi ulug' momolarimiz yordamida kichik marosim o'tkaziladi, xolos. Bu aqqa marosimi chaqaloq tug'ruqxonadan kelganidan keyin yettilanchi kuni o'tkaziladi. Chaqaloqning o'ng qulog'iga azon aytilib, unga ism qo'yiladi va dunyoga kelgan jon evaziga jonlik (qo'y) qurbonlikka so'yilib, qo'shnilarga, qarindoshlarga va miskinlarga sadaqa qilib tarqatiladi. Keyingi farzandlarning dunyoga kelishi katta to'y marosimi shaklida emas, yuqorida aytilganidek, kichik aqqa tarzida o'tkaziladi.

To'y marosimlaridan yana biri "Muchal to'y" marosimidir. Muchal, aslida, o'n ikki yilni qamrab oluvchi va har bir yili bir hayvon (sichqon, sigir, yo'lbars, quyon, baliq, ilon, ot, qo'y, maymun, tovuq, it, to'ng'iz)ning nomi bilan ataladigan hamda yil boshi 22-martdan boshlanadigan yil hisobidir. "Muchal to'y" ham inson farzandining o'n ikki yoshga to'lishi munosabati bilan o'tkaziladigan marosimlardan biri. Bu marosim haqida dinda hechqanday ma'lumot keltirilmagan. Uning kelib chiqish ildizi qadim o'tmishga borib taqaladi. O'tmishda ota-bobolarimiz tabiat hodisalaridan qo'rqishi va hayvonlarni ilohiylashtirishi bilan bog'liq voqealarga asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu marosimlar va madaniy meroslarimiz bizning kelajak avlodlarimizga ham o'zining go'zal namunalarini bilan xizmat qilmog'i lozim. Ota-bobolarimizdan qolgan ushbu an'ana va madaniy meroslarimizni kelajak avlodlarga o'rgatish bizning zimmamizdagi mas'uliyatdir.

**Sulaymanova Nilufar Jabbarovna (SamDCHTI, PhD, dotsent)**

#### **OLAM LISONIY MANZARASIDA BAHO KATEGORIYASI VOQELANISHINING DISKURSIV-PRAGMATIK VA LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI**

***Annotatsiya.** Maqola tilshunoslik fanida kognitiv-diskursiv yo'nalishdagi tadqiqotlar doirasida paydo bo'lgan emotsional konsept tushunchasi, emotsiya va uning bilan mustahkam aloqadagi baho kategoriyasi tadqiqiga, emotsiyalarni atovchi lug'aviy birliklarning konnotativ bo'laklari turli lingvomadaniyatlarda turlicha mazmunga ega bo'lishiga bag'ishlangan.*

***Аннотация.** Статья посвящена изучению понятия эмоции, категории оценки эмоции и ее прочной связи с ней. Коннотативные части лексических единиц эмоции имеют разное значение в разных лингвокультурах.*

***Annotation.** The article is dedicated to the study of the concept of emotion, the category of evaluation of emotion and its strong connection with it. The connotative parts of the lexical units of emotions have different meanings in different linguocultures.*

***Kalit so'zlar:** kognitiv-diskursiv, emotsional konsept, leksik-frazeologik, baho mezonlari, lingvomadaniyat, intensivlik va baholash darajasi, metaforik maydon, kommunikativ faoliyat.*

***Ключевые слова:** когнитивный дискурс, эмоциональный концепт, лексико-фразеологический, критерии оценки, лингвокультура, интенсивность и скорость оценки, метафорическое поле, коммуникативная деятельность.*

***Key words:** cognitive-discourse, emotional concept, lexico-phraseological, evaluation criteria, linguistic culture, intensity and rate assessment, metaphorical field, communicative activity.*

Kognitiv-diskursiv yo'nalishdagi tadqiqotlar doirasida paydo bo'lgan emotsional konsept tushunchasi emotsiya va u bilan mustahkam aloqadagi baho kategoriyasi tadqiqida o'ziga xos burilish bo'ldi, desak, xato qilmasak kerak.

Emotsional konsept, N.A.Krasavskiyning ta'rificha, etnik va madaniy jihatdan xoslangan, odatda, leksik-frazeologik voqelangan murakkab mazmuniy-struktura va mental tuzilma bo'lib, u o'z tarkibiga obraz, madaniy qadriyat hamda kommunikatsiya sharoitida insonning alohida munosabatini uyg'otuvchi predmetlarni qamrab oladi.<sup>1</sup>

Oldinroq birlamchi emotsiyalarning universalligini eslatgan edik, shunga binoan, emotsional konseptlarni ham universalialar qatoriga kiritish mumkin, zero, emotsiya turli elatlar vakillariga bir-birini

<sup>1</sup>Красавский Н.А. Эмоциональные концепты в немецкой и русской лингвокультурах. М., "Гнозис", 2008, с. 59.

tushunish imkonini beradi. Biroq emotsional konseptlar milliy-madaniy ko'rsatkichlardan xoli emas va buning sababini har bir madaniyatning o'ziga xos baho mezonlariga ega ekanligidan izlash lozim.<sup>1</sup>

A.Verjbitska "Til. Madaniyat. Bilish" nomli kitobida emotsional konseptlarning odamzot uchun universal xarakterga ega ekanligini turli millat vakillari olamni bir xilda idrok etishi va ularning tafakkur usullari bir xil ekanligi bilan isbotlamoqchi bo'ladi.<sup>2</sup> Ammo voqelik idroki turli madaniyatlarda bir tekisda kechmasligi barchaga ma'lum, bu yerda madaniyatlararo paralellar mavjudligi bilan bir qatorda, tamoman farqli holatlar borligini inkor etib bo'lmaydi. Buni, hatto, emotsiyalarni atovchi lug'aviy birliklarning konnotativ bo'laklari turli lingvomadaniyatlarda turlicha mazmunga ega bo'lishida ham ko'rish mumkin.<sup>3</sup>

Jumladan, individual self "dunyodan kechish, ajralish" emosional tuyg'usi amerikalik fuqaro uchun qanchalik tanish bo'lsa, o'zbek uchun shu qadar tushunarsiz. Shuningdek, family self, spiritual self emotsiyalari ham amerikaliklarga xosdir. Oilaviy ahillik, ota-ona va bolalar o'rtasidagi yaqinlik, o'zaro muhabbat ruhida tarbiya topgan har qanday o'zbek millati vakili ushbu tushunchalarni anglashi yoki qabul qilishi mushkul. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Demak, tushunchalarning millatlararo, madaniyatlararo umumiy xususiyatga ega bo'lishi bilan birgalikda, ularning milliy-madaniy, idioetnik mohiyatini ham yoddan chiqarmaslik lozim. Millat ruhi, uning ongi amaldagi madaniy konseptlarda o'z aksini topadi. V.I.Shaxovskiyning xulosasiga binoan, etnomadaniy bilim kommunikativ qobiliyatni shakllantiruvchi muhim omillardandir. "Inson his tuyg'ulari, madaniyat ko'satkichi sifatida turli lingvomadaniyatlarda vakillarining turli xatti-harakatlari usul va amallarida voqelanadi. O'z va o'zga madaniyatiga xos emotsiyalar o'rtasida farqlarni anglash emotsional shaxs xotirasini shakllantiradi".<sup>4</sup>

Emotsional konseptlar, boshqa turdagi konseptlardan farqli ravishda, hozircha unchalik keng miqyosda o'rganilgan emas. Ushbu tushuncha A.Vejbiskaya, S.G.Vorkachev, E.Y.Balashova, A.P.Babushkin, V.N.Teliya kabi olimlarning ishlarida eslatilib turilishiga qaramasdan, hozircha emotsional konsept ta'limoti yaxlit bir nazariya sifatida shakllanib ulgurgani yo'q. Mazkur hodisa birmuncha batafsilroq N.V. Krasavskiyning monografiyasida yoritilgan bo'lib, unda qo'rquv, xursandchilik, g'azab, qayg'u, emotsional konseptlari rus va nemis lingvomadaniyatlari qiyosida o'rganilgan. Eslatilgan konseptlar lisoniy voqelanishining etimologik-madaniy tahlili lug'atlarda keltirilgan misollar asosida izohlangan. Emotsional konseptlar qisman I.S.Bajenovaning risolasida ham o'rganilgan va bu ishda asosiy e'tibor bir qator birlamchi emotsiyalarning rus badiiy matnida faollashuv xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Mualliflarning fikricha, obrazlar, assotsiatsiyalar, baho va shaxsning ma'lum emotsional konsept haqidagi tasavvuri mazkur konseptning asosiy qismi uning baho bo'lagiga jamlanadi. Konseptning obrazga tegishli qismi millat lisoniy ongidagi mavhumlashuv holatini qo'llab-quvvatlovchi kognitiv metaforani yuzaga keltiradi. Baho bo'lagi konseptning ma'lum lingvomadaniyatda tutgan o'rni bilan belgilanib, ushbu konseptning lisoniy ongidagi bahosi hamda unga yondosh assotsiatsiyalarni aks ettiradi.

V.I.Karsik va I.A.Sterninlar muharrirligida nashr qilingan "Konseptlar antologiyasi" lug'atida ham emotsional konseptlarga sharhlar berilgan. Insonlar lisoniy ongida va kommunikativ faoliyatida aks topadigan "madaniy mazmunlar"ni yorituvchi ushbu lug'at tezaurusda qo'rquv, muhabbat, nafrat, hayratlanish, sog'inch kabi emotsional konseptlar ikki til qiyosida tavsiflangan.

Biz ham quyida hayrat/surprise emotsional konseptning o'zbek va ingliz lingvomadaniyatlarida namoyon bo'ladigan xususiyatlarini tahlil qilib ko'rishga harakat qilamiz. Mazkur konsept ingliz tilida ot turkumiga kiruvchi surprise so'zi bilan nomlanadi va "the feeling caused by an unexpected event (LDCE)" ma'nosini anglatadi. shuningdek, o'zbek tilidagi hayrat oti ham "hayronlik, tong qolish, dovdirab, gangib qolish. Kuchli darajadagi taajjub, hayronlik" ma'nolarini ifodalaydi.<sup>5</sup>

Mazkur konseptni nomlovchilar qatoriga, bundan tashqari, wonder, amazement, astonishment, be surprised, marvelous, be amazed, magic kabilar ham kiradi. O'zbek tilida esa ushbu qatorni hayratlanish, taajublanish, taajjub, hayron qolish, mahliyo bo'lish, tong qolish, sehrgarlik, maftunkorlik, mo'jiza kabilar tashkil qiladi. Ushbu qatordagi hayrat va taajjub birliklarini qiyoslaydigan bo'lsak, ularning ikkalasi

<sup>1</sup> Вержицкая А. Язык. Культура. Познание. М., "Гнозис", 1996.

<sup>2</sup> Там же.

<sup>3</sup> Сокорин Я.А. Межличностное общение и его этнокультурная специфика. Герменевтика и риторика в России: www.hermeneuticonline. 2002, № 1.

<sup>4</sup> Шаховский Н.И. Эмоции : долигвистика. Лингвистика. Лингвокультурология. М., URSS, 2010, с. 95.

<sup>5</sup> O'zbek tili izohli lug'ati. T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2008, 5-jild, 592-bet. LDCE – Longman Dictionary of Contemporary English. L., "Longman", 1996, p. 485.

ham konseptual nominativ maydonning markazida tursa ham, lekin ularning ma'no ifodasi darajasi keskin farqlanishi ma'lum bo'ladi. O'zbek lisoniy ongida hayrat biror narsa-hodisaning notanishligi, kutilmaganligi, favqulotdaligi bilan uyg'onadigan his-hayajon sifatida qabul qilinsa, taajjub esa hayratning yuqori cho'qqisiga ishora qiladi.

Ingliz tilida nominativ maydonning markazidan joy oladigan surprise wonder, amazement, astonishment birliklari ma'no ifodasidagi intensivlik va baholash darajasi bilan farq qiladi. Surprise, asosan, kutilmaganda yuz berayotgan hodisa sifatida tavsiflanib, uning ma'no ifodasi darajasi betaraflikka intiladi, wonder esa tushunmaslik, kutilmaganlik holatida paydo bo'ladigan hayratlanishdir va ushbu hayrat, ko'pincha, obyektning ijobiy sifatiga ishora qiladi.

J.Sh.Jumaboyeva ko'rsatib o'tganidek, "tabiatning fundamental qonunlariga asoslangan holatlar-o'xshashlik va farqlilik hamisha hamda hamma joyda mavjud. Insoniyat taraqqiyoti, xususan, har bir fan rivojlanishi ham ularga bevosita bog'liqligi hammaga ayon. So'z, ibora, frazeologik birlik va gaplardagi mazmun va ma'no o'xshashligi hamda farqli jihatlar matnlarda namoyon bo'ladi".<sup>1</sup> Olima ingliz tilidagi good-looking, beautiful, attractive, pretty, charming, graceful, elegant, lovely, gorgeous hamda o'zbek tilidagi chiroyli, go'zal, sohibjamol, parivash graduonimik qatoridagi birliklar bir-biridan intensivlik darajasiga va ishlatilish ko'lamiga ko'ra farqlanuvchi leksemalar ekanligini qayd etadi.

Rus tadqiqotchisi N.V.Dorofeeva ingliz tilidagi surprise/wonder/amazement/astonishment qatorining rus tilidagi udivlenie/izumlenie leksemalariga nisbatan muqobilligi qisman ekanligi nafaqat lug'atlardagi tavsiflarda, balki matnda ham namoyon bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Bizning kuzatishimizcha, o'zbek lingvomadaniyatidagi hayrat birligi ingliz tilidagi wonder yoki amazement yoki astonishment elementlari bilan moslashadi.

Tahlil qilinayotgan emotsional konsept maydonining sarhadidan hayrat hissiyotini faollashtiruvchi oy, oho, vah, ura, ana xolos, adh, oh, oho, ha-ha kabi undovlarning o'rin olishi, tabiiy.

Fikrimizcha, hayratlanish emotsional konseptning taajjub va amazement leksemalari vositasida voqelanadigan qismi ingliz va o'zbek lingvomadaniyatlar uchun umumiydir. Ushbu birliklar hayratning yuqori darajada sodir bo'layotganiga ishora qiladi.

Emotsional konseptning keyingi guruhdagi nominatorlariga keladigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tilidagi metafora vositalari oldin eslatilgan bevosita nominatorlar zamirida shakllanadi va ularning tuzilishi, mundarijasini takrorlaydi. Metaforik maydon hayrat emotsional konseptini inson vujudida kecha-yotgan holatlarga tenglashtirayotgan birliklar joy oladi. Bular, masalan, gobstruck, to freeze, to freeze, to dumbfound hamda ajablantirmoq, dovdirab qolmoq, esankiratmoq, qotib qolmoq, lol qolmoq kabilardir.

Bundan tashqari, tahlil qilinayotgan emotsional konsept doirasidan qator frazeologik iboralar ham o'rin topadi.

**Qiyoslang:**

To work/do wonders/marvels;

To be out one mind;

What a wonder/marvel/miracle;

**Magic:**

Wonders never cease;

Mo'jiza yaratmoq;

Aqldan ozish mumkin.

Hayrat barmog'ini tishlamoq.

Ushbu emotsional konseptning metaforik maydoni boshqa birliklar hisobidan kengayib boradi:

It hit me like aton of bricks;

It knocked me for a loop/sideways/for six;

Have you been eating soap?

It beets me, it's beyond me;

Out of the blue sky.

Shuningdek, ba'zi aktiv undovlar ham shu maydonda metaforalashadi:

Oh/my god!

Holy Mother!

Virgin!

<sup>1</sup>Jumaboyeva J.Sh. O'zbek va ingliz tillarida leksik hamda stilistik graduonimiya. Filol.fanlari.... dokt. Diss. Avtoreferati. T., 2016, 19-bet.

God fathers!  
Ey xudo!  
Ollohim!  
Yo robbim!

Emotsional konseptlarning qiyosiy tahlili u yoki bu hissiyotning konseptuallashuvi turli obrazlar va ramzlar vositasida kechishidan darak beradi. Tabiiyki, ushbu konseptlarning lisoniy ifodasida ham til tizimining barcha sathlariga oid birliklar jalb qilinadi. Bular barchasining sababi emotsiyalarning voqelik obyektlari bilan turli-tuman assotsiativ aloqalarga egaligi bilan izohlanadi. Bu esa, o'z navbatida, lisoniy ongning ijodkorlik imkoniyatlari tuganmas ekanligidan darak beradi.

Hozirgi kungacha tavsiflangan va tahlil qilingan emotsional konseptlarning soni sezilarli darajada kam bo'lsa-da, lekin ularning mohiyatini inson ichki tuyg'u, kechinmalarning konseptuallashuvi jarayonining mahsuli sifatida shakllanadigan mental strukturalardan izlashning o'ziyoq bo'lg'usi izlanishlar istiqbolini belgilab beradi. Bu borada, ayniqsa, matnlarning konseptual mundarijasidagi emotsional qatlamlar tahlili alohida ahamiyatga ega.

**Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna (Toshkent viloyati Chirchiq davlat Pedagogika instituti  
Biologiya kafedrasida o'qituvchisi; [guzalkhan.abdullayeva@bk.ru](mailto:guzalkhan.abdullayeva@bk.ru))  
OROL ATROFI QANGLIKO'L TUMANIDA YASHOVCHI YOSHLARDA ARTERIAL  
BOSIMNING O'ZGARISHI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Orol atrofida joylashgan Qangliko'l tumanida yashovchi 18 yoshdagi yoshlarning mavsumiy sistolik o'zgarishlari haqida so'z boradi. Hozirgi kunda Orol atrofi hududlarida yashovchi yoshlar orasida qon bosimining oshish holatlari juda ko'p qayd qilinmoqda. Bu esa aholi orasida jiddiy xafv tug'diryapti.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются сезонные систолические изменения у 18-летних, проживающих в Канглыккульском районе Приаралья. В настоящее время в Приаралье много случаев повышенного артериального давления. Это представляет серьезную угрозу для населения.

**Annotation.** This article discusses seasonal systolic changes in 18-year-olds living in the Kanglykul region of the Aral Sea region. Currently, there are many cases of high blood pressure in the Aral Sea region. This poses a serious threat to the population.

**Kalit so'zlar:** ekologik holat, sistologik o'zgarishlar, klimat va gipertoniya.

**Ключевые слова:** экологический статус, систологические изменения, климат и артериальная гипертония.

**Key words:** ecological status, systological changes, climate and arterial hypertension.

Uzoq rivojlanish boshqichlarini boshdan kechirgan odam tabiat bilan munosabatlarda hamisha muvozanatni saqlab keldi, ya'ni biosferaga salbiy ta'sir qilmasdan turmush kechirdi. Lekin XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib, bu muvozanatga putur yetdi, odamning ijtimoiy, iqtisodiy hayotida fan-texnika rivojlanishi natijasida yengillik, ya'ni, qulayliklar yuzaga chiqdi. XXI asrga kelib, odamning yashash sharoitlari katta qadamlar bilan yashnadi, dasturxonlarimiz har xil ne'matlar bilan bezandi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Qulayliklar, yengilliklar bilan birgalikda, zamonaviy odam oldida qator ekologik muammolar ham paydo bo'ldi, bu esa, o'z navbatida, odam salomatligiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Biz bu mo'jaz maqolamizda shu muammolardan biri Orolbo'yi ayrim hududlarida yashovchi o'smir yigit-qizlarning qon bosimi bilan bog'liq o'zgarishlarni tadqiq qilishga harakat qildik.

Dunyo bo'ylab ishlab chiqarish sanoatining yuqori darajada rivojlanishi atrof-muhitda antropogen ta'sirning kuchayishi biosferada katta o'zgarishlar salbiy o'garishlarga olib keldi. So'nggi vaqtlarda ekstremal ekologik holatning keskinlashishi oqibatida nafaqat katta yoshdagi odamlar, balki yosh bolalar va o'smirlar orasida ham har xil kasalliklar tarqalishi kuzatilmoqda. Klimitning o'zgarishi, havoning quruqlashishi, suvning tarkibida pestitsidlar miqdori ko'payib, odam organizmi uchun zararli muhitga aylanib borayapti.

Bu ekologik faktorlar qon kasalliklarinigina paydo qilib qolmasdan, har xil kasalliklarni ham, jumladan, gipertoniya, buyrak, hazm tizimi bilan bog'liq kasalliklar, o'pka va jigar kasalliklarining ko'payishiga sababchi bo'lib, o'limchilikka olib kelmoqda.<sup>1</sup>

Odamlarning iqtisodiy yashash sharoitlari yaxshilandi, lekin havo va suv tarkibining o'zgarishi (neft mahsulotlari, fenollar, og'ir metallar, organik birikmalarning ko'payishi), vitaminlarning, aminokislotalarning, moy kislotasining, shuningdek, mikroelementlarning normadan kamayib ketishi turli kasalliklarni keltirib chiqardi. Orol atrofidagi hududlarning keskinlashgan ekologik holatlar insonlarning, ayniqsa, yoshlarning qon aylanish tizimida qator nuqsonlarni keltirib chiqarmoqda. Mahalliy aholining 80% qon kasalliklaridan biri anemiyaga chalingan.

Arterial qon bosimining regulatsiyasi odam organizmida katta ahamiyatga ega bo'lib, u har xil mexanizmlar orqali boshqarilib boriladi. Ana shu mexanizmlar ma'lum bir faktorlar sababli o'zgarib boradi.<sup>2</sup>

Gipertoniyaning kelib chiqishiga ekologik omillardan biri qon tarkibiga natriy xloridning normadan ko'p kirishi, tomirlar ichida suyuqlikning ko'payishi, hujayrada natriy zaxirasining ortishi, tomirlar tonusining o'zgarishi, qon tomirlarda qon tarkibining o'zgarishi kabilar sabab bo'ladi. Bizning ilmiy izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, sog'lom bolalarda qon bosimining o'zgarishlarida ekologik muvozanatdagi har qanday o'zgarishlar asosiy sababdir. Sabablardan yana birini alohida ta'kidlash joyizki, arterial qon bosimining o'zgarishi marakaziy asab tizimining yuqori qismi, gipotalamus va uning simpatik va parasimpatik asab tolalari hamda xemoreseptorlari orqali boshqarilishidir.

Bu sistemaning ishlashiga yorqin misol qilib organizmda stress paydo bo'lishi bilan arterial qon bosimining ko'tarilishini keltirishimiz mumkin. Bu holatda arterial qon bosimining neyrologik mexanizmi kuchayishi, yurakdan qonning chiqish tezligi ortishiga, pereferik nerv tolalarining qon tomirlarga ta'sirining kuchayishi, bu esa, o'z navbatida, noradrenalin boshqarilishining buzilishiga olib keladi. Undan tashqari, bu jarayon simpatik nerv sistemasining sekretsiyasi kuchayib, miyaning angiotenzin sistemasiga hamda yurak va qon tomirlaridagi natriyuretik garmonining ortib, neyrologik va gemodinamik mexanizmlarning izdan chiqishiga, natijada arterial bosimning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Arterial bosimning kelib chiqishiga asosiy omillardan biri bo'lgan stress odamlarda ma'lum emotsiyalarni uzoq muddat paydo qilib, o'zining patogen ta'sirini ko'rsatadi va psixologik reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Stressning garmonal mexanizmlarini hisobga olib, arterial bosimning o'zgarish mexanizmlarining ayrimlarini to'liq tushintirishimiz mumkin. Stress yoshlarga qaraganda ko'proq kattalarda yuzaga chiqishi qonda katexolaminlarning miqdori ortishi bilan tushuntiriladi. Psixologik stress esa natriyning saqlanib qolishini keltirib chiqaradi.

Tananing o'g'irligi. Har xil mamlakatlarda epidemiologik tekshirish ishlarida regressionik analiz metodidan foydalangan holda, tana vaznining ortishi, bo'yining uzunligi va semizlik darajalari taqqoslanib ko'rilganda, arterial bosimning oshishiga ta'siri bor ekanligi aniqlangan. Amerika olimlarining 20–39 yosh oralig'idagi bir million ko'ngilli tekshiruvdan o'tkazilganda, tana vaznining oshishi bu kasallikning 3 barobar ko'payishiga olib kelishini aniqlangan.

Tamaki mahsulotlarini muntazam ravishda iste'mol qilish ham, ularning tarkibidagi nikotin va shu kabi boshqa moddalar o'pkadan qon orqali, yurak qon tomirlarga ta'sir qilib, qon tomirlarining torayishiga va tromblar paydo bo'lishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, qon bosimining ko'tarilishiga olib keladi.

Erkak va ayollarda yoshga xos ravishda arterial bosim oshib boradi. Tadqiqotlarda kichik yoshdagi bolalarda va qizlarda arterial bosimning farqi yo'q ekanligini aniqlangan. Bolalarda arterial bosimning maksimal ortishi 12–17 yoshda, qizlarda esa 14–15 yoshlarda yuqori bo'ladi. Olimlar arterial bosimning ekaklardan ko'ra ayollarda kamroq bo'lishini ta'kidlahsadi. Masalan: 25–34 yoshdagi erkak kishilarda 10,2%, ayollarda 3,9%, 35–44 yoshdagi erkak kishilarda 14% bo'lsa, ayollarda 8,5%ga, 45–44 yoshdagi erkak kishilarda 21%, ayollarda esa 18% kam uchrashishi aniqlagan.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori fizik va jismoniy harakat qondagi lipoproteyin xolestirin miqdorini kamaytirib, insulin miqdorini tartibga solishda va metabolizm jarayonini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Yoshi 70–80 dan oshgan odamlar to'g'ri ovqat ratsioniga amal qilib, o'z-

<sup>1</sup> Абдиров Ч.А. Агаджанян Н.А., Северин А.Е. Экология и здоровье человека. Нукус, 1993, с. 184; Атаниёзова О.А. Аральский кризис и медико-социальные проблемы Каракалпакстана. Взгляд с места происшествия, "Знание", 2002, с. 116.

<sup>2</sup> Алмазов В.А., Шляхто Е.В., Соколова Л.А. Пограничная артериальная гипертензия. Санкт-Петербург, «Гиппократ», 1992.



lariga mos bo'lgan mashqlarni bajarsa, 3–4 haftadan keyin arterial bosimi ancha pasayib, normaga kelganligi aniqlangan.

Arterial bosim odamlarda quyidagicha o'lchanadi. Tekshiriluvchi odam stulga o'tkaziladi, o'ng qo'l stol ustiga qo'yilib, tanasini bo'sh tutgan holda chig'anoq arteriyasidan o'lchanadi:



Odamlarda, qon bosimi 16–50 yoshdagi odamlarda bilak arteriyasidagi sistolik bosim 110–125 mm, diastolik bosim 60–80 mm oralig'ida bo'lish kerak. Bolalarda qon bosim kattalarga qaraganda pastroq bo'ladi. Bir yil davomida sog'lom odamlarning gemoglobin miqdorining o'zgarishini Qoraqalpog'iston Respublikasining Qangliko'l, Beruniy, Nukus shaharlarida yashovchi yosh o'smirlarda kuzatdik. Shundan Qangliko'l da yashovchi yigit-qizlarning mavsumiy qon bosimining o'zgarishini ko'rganimizda quyidagicha ko'rsatkichga ega bo'ldi.

18-yoshdagi yigitlarning sistolik bosimi qish mavsumida, yanvar oyida 50 nafar yigitni tekshirganda 122,2±3,6 mm.ga teng bo'ldi. Bahor mavsumida aprel oyida yigitlarning, o'rtacha sistolik bosimi 123,2 ±4,2 mm.ga tengligini ko'rsatdi. Yoz mavsumida eng issiq oyi bo'lgan iyul oyida 121,4±2,2ga teng bo'ldi. Kuz mavsumining oktabr oyidagi tekshirishlarda sistolik bosim miqdori 122±2,27 mm.ga tengligini ko'rsatdi.

Tadqiqot ishlarni shu yoshdagi 50 nafar qizda ham ketma-ket tekshirib bordik. Shunda qish mavsumida, yanvar oyida sistolik bosim 118,4±2,6 mm.ni ko'rsatdi. Bahor mavsumida aprel oyida 119,2± 3,8 ga teng bo'ldi. Yoz mavsumida iyul oyida 117,3±2,8 mm.ga teng bo'ldi. Shunday qilib, Qangliko'l shahrida 18 yoshdagi yosh o'smirlarning sistolik bosimining miqdori yil davomida o'rtacha 122,5±5,2 mm.ga, qizlarning sistolik bosimi 118,6±3,6 mm.ga teng bo'ldi.

Qangliko'l shaharida yashovchi 18 yoshdagi o'smirlarning yil mavsumlari davomida sistolik o'zgarishi ( $M \pm t, p - 50$ )

Mavsumlar	Sistolik bosim	
	Yigitlarda	Qizlarda
Qish	122,2 ±3,6	118,4 ±2,6
Bahor	123,2 ±4,2	119,2 ±3,8
Yoz	121,4 ±2,2	117,3 ±2,8
Kuz	122,0 ±2,2	119,5 ±2,4
Yil davomida	122,5±5,2	118,6±3,6

Xulosa qilib aytganda, Qangliko'l tumanida istiqomat qiladigan yoshlarda gemoglobin miqdori, tana og'irligi bilan bog'liq o'zgarishlar bilan birgalikda qon bosimining me'yordan yuqori ekanligi aniqlandi. Qoraqalpog'iston hududida arterial bosimning oshishiga ekologik faktorlarning ta'siri bilan birgalikda emotsional stress, kamharakatlilik, ovqatlanish ratsioni bilan bog'liq tana a'zolarida ortiqcha yog'ning to'planishi, mavsumiy o'zgarishlar, organizmda vitaminlar va moddalar yetarli miqdorda bo'lmasligi, modda almashish jarayonidagi o'zgarishlar sabab bo'lmoqda, degan xulosaga keldik.

Biosferaning o'zgarishi natijasida tuproq, havo, suv, o'simliklar, hayvonot, qushlar dunyosida ham o'zgarishlar yuz beradi, bu, o'z navbatida, insoniyat kelajagiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun barcha turdagi tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanish, ularni avaylab-asrash davr talablaridan biridir.

Nazarova Dunyogo'zal Baxtiyarovna (Nukus Temurbeklar maktabi harbiy-akademik litseyi o'qituvchisi)  
**O'ZBEK TILI RASMIY ISH YURITISH USLUBINING TASNIFLANISHI VA O'ZARO ICHKI  
TURLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek tili rasmiy ish yuritish uslubining mukammal tasnifi zarurligi ochib berilgan. Tasniflashda yuzaga keluvchi muammo va kamchiliklar aniqlangan. Xorijiy tillar rasmiy uslublari tasniflari chuqur tadqiq etilgan va ularning yutuqlaridan foydalangan holda, milliy til xususiyatlariga asoslanib, o'zbek tili rasmiy ish yuritish uslubining mukammal tasnifi ishlab chiqilgan hamda uning tarmoqlari aniqlangan.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается необходимость совершенствования классификации в употреблении официального стиля узбекского языка, выявляются проблемы и недостатки в классификации. Глубоко изучаются классификации официальных стилей иностранных языков и использование их достижений. Исходя из особенностей национального языка разработана совершенная классификация официального стиля узбекского языка и ее ответвления.

**Annotation.** This article explains the need of a perfect classification of the Uzbek language's official style of conduct. Problems and shortcomings in the classification were identified. The classifications of the official styles of foreign languages have been studied in depth, and used their achievements, based on the characteristics of the national language, an excellent classification of the official style of the Uzbek language has been developed and its branches have been identified.

**Kalit so'zlar:** uslub, rasmiy uslub, o'zbek tili, ish yuritish, tasniflash, diplomatik uslub, harbiy uslub, hujjatli film, tur.

**Ключевые слова:** стиль, деловой стиль, узбекский язык, делопроизводство, классификация, дипломатический стиль, военный стиль, документальный фильм, тур.

**Key words:** style, official style, Uzbek language, office work, classification, diplomatic style, military style, documentary, tour.

Globalashuv davrida axborot almashinuvi jadallashuvi dunyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishiga sababchi bo'lmoqda. Har qanday sohada bugun paydo bo'lgan yangiliklar, ertaga o'zgarib qo'shimchalar qo'shilmoqda. O'zbek tili ish yuritish uslubi ham bundan mustasno emas. Agarda, bugungi o'zgarishlarning mohiyatini anglamasak, ertaga yanada qiyinroq bo'ladi. Axborot texnologiyalarining taraqqiyoti rasmiy ish yuritish uslubini ham tubdan o'zgartirib bormoqda. Bunday holatda yangiliklarni tezda qabul qilib, o'z ona tilimizga moslashtirishimiz zarur. Aks holda, ona tilimizning taraqqiyotiga zomin bo'lamiz.

Rasmiy uslub tayanadigan umumiy tamoyillarni belgilab olsak. Rasmiy uslub – bu rasmiy munosabatlarda aniq maqsadga xizmat qiluvchi o'zaro bog'liq til vositalari tizimi. Shunday qilib, rasmiy uslub xabarni jo'natuvchi tomonidan qo'yilgan muayyan aniq vazifaning mahsuli sifatida qaralishi kerak. Rasmiy uslub asosan tilning adabiy me'yorlari orqali namoyon bo'ladi.

Rasmiy uslub foydalanadigan til formulalari kundalik, maishiy tabiatga ko'ra jonli xalq tilining materialiga qurilgan, ammo muloqotning vaziyatning o'zi aloqaning aniqligi va hissiyotsizligini ta'minlaydigan lingvistik vositalarni tanlashni talab qildi.

O'zbek tili ish yuritish uslubi davlat faoliyatining turli sohalariga xizmat qiladi: qonunchilik, huquqshunoslik, iqtisod, shuningdek, ma'muriy, sud, diplomatik faoliyat va boshqa. Ushbu uslubning asosiy uslubni shakllantiruvchi ekstralingvistik omili jamiyatdagi barcha turdagi rasmiy munosabatlarni tartibga solib turishdir (odamlar, muassasalar, davlatlar, alohida fuqarolar va hokimiyatlar o'rtasidagi). Bu ijtimoiy munosabatlar o'zbek tilida ish yuritish hujjatlarining mazmunini tashkil etadi.

Rasmiy uslub o'zaro bir qancha kichik turlarga bo'linadi. Bular mavhum invariantning navlarini ifodalaydi. Rasmiy uslubning har bir turi umumiy va o'ziga xos asosiy xususiyatlarga ega. Faqatgina bu xilma-xillikka xos xususiyatlardir. Shunday bo'lsa-da, ushbu turlar ba'zi hollarda, o'zgarmasdan shunchalik uzoqlashishi mumkinki, hatto ajralib chiqib alohida uslubga aylanish mumkin. Ba'zi hollarda esa ushbu turlar o'zaro ajralib, mustaqil ikkita turga bo'linishi mumkin. Quyida ushbu jarayonlarni o'zbek tili ish yuritish uslubi misolida ko'rib chiqamiz va alohida ajalishi yoki bo'linishi ehtimoli mavjud turlarga to'xtalamiz.

Til turli ehtiyojlarga xizmat qiladi va bu ehtiyojlar bizning tasnifimiz asos bo'ladigan, o'z navbatida, til vositalarini tanlash va kombinatsiyasini nazarda tutadigan tamoyillarni tug'dirdi.

Jahon tilshunosligida, shu jumladan, rus tilshunosligida ham stilistika tilning mohiyati va vazifalarini chuqur tahlil qilish natijasi o'laroq fan sifatida ajralib chiqdi va rivojlanish yo'liga kirib oldi. Bu esa, o'z navbatida, rasmiy uslubni o'rganish uchun zamin hozirladi. V.Gumboldt, I.A.Boduen de Kurtenne, F.Sossyur, G.O.Vinokur, A.P.Yakubinskiy, Y.Gort, V.V.Vinogradov, N.Y.Shvedova kabilar nutqni o'rganishga katta e'tibor berdilar. Bu izlanishlar natijasida lingvistik stilistika shakllandi. Nutq hodisalari chuqur o'rganila borgan sayin ilmiy tadqiqot obyekti sifatida rasmiy uslub olina boshladi. Rasmiy uslubni tadqiq etishda I.R.Galperin, D.Kristal, I.V.Arnold, M.N.Kojina, U.Lehsalu kabi olimlar jonbozlik ko'rsatishdi.

O'zbek tilshunosligida ham uslubiyatga oid ilmiy ishlar yaratildi, maqolalar yozildi. 1980-yillarga kelib, vazifaviy uslublar bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi hamda qilinmoqda. Masalan, R.Qo'ng'urov, I.Qo'chqortoyev, B.O'rinboyev, M.Mukarramov, E.Qilichev, A.Shomaqsudov va boshqalarning ilmiy maqolalari, monografiya va risolalari o'zbek tili uslubiyatining fan sifatida shakllanishiga hissa bo'lib qo'shildi.

Rasmiy uslub bo'yicha ishlar yutimiz olimlari tomonidan nisbatan kam tadqiq etilgan bo'lsa-da, lekin ishning ko'lamini anchagina. Xususan, M.Аминов, А.Мадвалиев, А.Махкамов, N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo'ldoshev, A.Suyarova, G.S.Keldiyorova, N.A.Ablayeva kabi olimlarimizni rasmiy uslub rivojiga ulkan hissa qo'shganligini ayta olamiz.

Adabiy tilning inson faoliyatining turli sohalarida va turli xil muloqot maqsadlarida ishlashi uning farqlanishiga olib keldi. Bu farqlanish ikki xil omil bilan, ya'ni, til ishlatilayotgan real vaziyat va muloqot maqsadi bilan oldindan belgilanadi. Muloqotning haqiqiy holati ikki xil tilni rivojlantirdi – og'zaki va yozma. Muloqot maqsadining xilma-xilligi adabiy tilning bir qator o'zini o'zi ta'minlaydigan tizimlarga tushishiga olib keldi. Tilning ikki turidan diaxronik ravishda og'zaki so'z birlamchi, yozma esa ikkilamchi darajani hosil qildi. Ushbu navlarning har biri ko'p jihatdan bir-biriga qarama-qarshi deb hisoblanishi mumkin bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar va fazilatlarni ishlab chiqdi.


Tadqiq etayotgan rasmiy uslubimiz ham, avvalo, ikki shaklga bo'linadi. Buni yuqorida ta'kidlab o'tganimiz M.Xalilova ham aytib o'tgan:

- ◆og'zaki tarzda rasmiy ma'ruzalar nutqi (og'zaki nutq);
- ◆rasmiy ish qog'ozlari nutqi (yozma nutq).<sup>1</sup>

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz zarurki, shu vaqtga qadar o'zbek tili ish yuritishiga oid tadqiqotlar va izlanishlarda asosan yozma ish yuritish uslubi, ya'ni hujjatchilik tadqiq etilgan. O'zbek ish yuritish uslubining og'zaki shakli, umuman, o'rganilmagan. Lekin o'zbek ish yuritish uslubining og'zaki shakli rivojlangan xorijiy tillarning rasmiy og'zaki shakli singari salohiyatli va keng imkoniyatga ega. Xususan, sud jarayonlari, diplomatik uchrashuvlar, savdo aloqalari, biznes taqdimotlari, ma'muriy yig'inlar – bularning barchasida rasmiy uslubning og'zaki shaklidan foydalanamiz.

Yurtimiz olimlari tomonidan, asosan, o'zbek ish yuritish uslubining hujjatchilik asoslarini tasniflashgan. Shu bilan birga, bu tasnifning asosi noaniqligicha qolmoqda. Avvalo, rasmiy uslubni to'laqonli turlarga ajratish so'ngra ushbu turlarda ishlatiladigan hujjatlarni muayyan guruhga birlashtirish zarur edi. Aks holda, bir xil hujjatlar, bir vaqtning o'zida, bir nechta tasniflash guruhlariga kiritilishi ham, boshqalari esa tasniflangan turlarning har qaysisiga tegishli bo'lishi mumkin. Shuning uchun, dastlab, rasmiy uslubni umumiy xususiyatlariga ko'ra, birlamchi turlarga ajratsak.

Dastavval, ingliz va rus tilining rasmiy uslublarini o'zaro turlarga ajratilgan tasniflarini keltirib o'tsak. I.R.Galperin ingliz tili rasmiy uslubini quyidagi turlarga ajratadi:<sup>2</sup>




Ba'zi tadqiqotchilar o'zlarining mulohazalarida rasmiy ish yuritishning kichik uslublarga bo'linishini rasmiy munosabatlarining ma'lum bir sohasi va "rasmiy aloqalarining odatiy holatlari" bilan bog'-

<sup>1</sup> M.Xalilova. O'zbek tili stilistikasi asoslari. Farg'ona, 2009, 33-bet.

<sup>2</sup> Galperin I.R. Stylistics. M., 1981.

laydilar.<sup>1</sup> Xususan, B.S.Shvartskopf rasmiy ish uslubni uchta kichik uslubga ajratadi ofis va biznes, yuridik, diplomatik. Ushbu kichik turlarning har biri turli janrdagi hujjatlar shakllaridan foydalanadi.




Ushbu tasniflar rasmiy uslubni to‘liq guruhlarga ajratish uchun yetarli xulosa bera olmaydi. Shu sababli quyida bazi tadqiqotchilar tomonidan rasmiy uslub yuzasidan keltirilgan tasniflarga diqqatimizni qaratib.

G.Y.Solganikning fikricha, rasmiy uslub ikki kichik turga bo‘linadi – rasmiy-hujjatli va kundalik ish hujjatlari. Dastlabki diplomatiya tili (diplomatik aktlar) va qonunlar tilini ifodalasa, ikkinchisi esa rasmiy yozishmalar va kundalik ish hujjatlarini ifodalaydi”.<sup>2</sup>



L.R.Duskaeva rus rasmiy ish yuritish uslubini tasniflashda to‘rtta kichik uslubga ajratadi – qonunchilik, yuridik, ma’muriy, diplomatik.<sup>3</sup>



N.I.Kuznetsova rasmiy matnlardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlariga tayangan holda eng muhim qonunchilik, huquqiy va ma’muriy-boshqaruv kichik turlarini ajratib ko‘rsatgan holda so‘nggi yillarda faol shakllangan tijorat-tadbirkorlik turi faol shakllanganligini qo‘shimcha qiladi. Shu bilan birga, muallifning fikricha, “huquqshunoslik sohasida rasmiy huquqiy nutq va amaliy huquqiy nutqni farqlash kerak”.<sup>4</sup>


<sup>1</sup> Шварцкопф Б.С. Официально-деловой стиль. Русский язык. Энциклопедия. Гл. ред. Ю.Н.Караулов. М., Большая российская энциклопедия, “Дрофа”, 1998, с. 312.

<sup>2</sup> Солганик Г.Я. Стилистика текста. Учеб. пособие, М., “Наука”, 1997, с. 193.

<sup>3</sup> Кожина М.Н., Дускаева Л.Р., Салимовский В.А. Стилистика русского языка. Учебник, М., 2008, с. 330–332.

<sup>4</sup> Кузнецова Н.И. Сфера делового общения. Хорошая речь. О Б.Сиротинина, Н.И.Кузнецова, Е.В.Дзякович и др. Под ред. М.А.Кормилицыной и О.Б.Сиротининой. Саратов, изд-во Сарат. ун-та, 2001, с. 57 – 69.

Kushneruk hujjat ayirboshlash nazariyasi va ish yuritish amaliyotida funksional va maqsadli ahamiyatiga ko'ra, hujjatlarni quyidagi guruhlarga ajratadi: 1) tashkiliy-huquqiy; 2) ma'muriy (direktiv); 3) axborot-ma'lumotnoma; 4) kadrlar bo'yicha hujjatlar; 5) fuqarolik-huquqiy hujjatlar, 6) shaxsiy hujjatlar, 7) rasmiy yozishmalar; 8) moliyaviy va buxgalteriya hujjatlari.<sup>1</sup> Ushbu tasnif rasmiy munosabatlar samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, hujjat matnlarining individual stereotipik birliklari va butun hujjatlarning modellari ro'yxatini aniqlash va ishlab chiqishni o'z ichiga olgan.



**Munozara.** Shunday qilib, barcha tilshunoslar rasmiy uslubning ichki xilma-xilligini ta'kidladilar. Stilistika, shuningdek, ularni turli asoslarga ko'ra, navlarga, sub-uslublarga, guruhlarga birlashtirish imkoniyatini ko'rsatadi. Tegishli va chegaralangan ilmiy sohalar konteksti ham rasmiy matnlarining tipologiyasi haqida aniq tasavvurga ega emas.

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda, o'zbek tili ish yuritish uslubining asosiy o'ziga xos xususiyatlari shakllangan, to'liq ma'lum bir tarmoqqa aylangan quyidagi kichik uslublarni (turlar) ajratdik:



Ushbu uslublar rasmiy uslubning o'ziga xosligiga ko'ra ajralib turadigan, qo'llanish doirasi aniq bo'lgan, amaliy foydalanish doirasida o'zi ichiki xususiyatlari mavjud bo'lgan muayyan subuslublar to'plamlaridir. Ushbu tasnifda ajratilgan turlar o'zaro yana ichki tarmoqlarga ajralishi mumkin hamda mustaqil tur darajasiga ko'tarilmagan, lekin faol rivojlanib kelayotgan turlar ham bor. Bu esa ushbu tasnifni mukammalroq tashkil etishni talab qiladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ushbu uslublar o'zaro ichki turlarga bo'linishi mumkin. Masalan, diplomatik uslub o'zaro ichki ikki turga bo'linadi:

<sup>1</sup> Kushneruk С.П. Документная лингвистика. Учеб. пособие, М., "Наука", 2008.

## Diplomatik uslub

Davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlar uslubi

Tashkilotlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlar uslubi

**Xulosa.** Ko'rib turganimizdek, o'zbek tili rasmiy ish yuritish uslubiga qanchalik chuqurlashsak, shunchalik keng uslub ekanligiga amin bo'lamiz. Shundan xulosa qiladigan bo'lsak, o'zbek rasmiy ish yuritish uslubi juda keng tarmoq bo'lib, o'rganilish jihatdan, taxminan, 10%lari tadqiq etilgan. Ushbu uslubning tadqiq etilishi nafaqat rasmiy munosabatlarni osonlashtiradi, balki yurtdoshlarimizning rasmiy munosabatlardagi savodxonligining oshishiga zamin yaratadi. Shul sababdan rasmiy uslubni to'liq tasnif etib, ichki uslublarga ajratish hamda alohida turlarni tadqiqot obyekt sifatida o'rganish zarur.

**Sapayev Umidbek Abdullaevich (Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi;  
e-mail: umidbek.sapayev@inbox.ru)**

### **INNOVATSION TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI BILAN ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING INTEGRATSIYASI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalarining integratsiyasi va uning innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishdagi ilmiy ahamiyati tahlil qilingan.

**Аннотация.** В статье анализируются вопросы интеграции технических вузов и производственных предприятий и ее научное значение в формировании инновационной образовательной среды.

**Annotation.** The article analyzes the integration of technical universities and industrial enterprises and its scientific significance in the formation of an innovative educational environment.

**Kalit so'zlar:** innovatsion qobiliyat, innovatsion ta'lim muhiti, integratsiya, innovatsion fikrlash va hamkorlik.

**Ключевые слова:** инновационные способности, инновационная среда обучения, интеграция, инновационное мышление и сотрудничество.

**Key words:** innovative ability, innovative learning environment, integration, innovative thinking and collaboration.

Hozirgi davr mashinasozligi tarmoqlarining jadal rivojlanishi natijasida hamda yuksak darajada iqtisodiy barqarorlikga erishgan davlatlar qatorida bo'lishimiz uchun milliy kadrlarimizdan kuchli bilim, oliy darajadagi malaka, yuqori intellektual salohiyat va innovatsion fikrlash qobiliyatlarining shakllanganligi talab qilinadi. Bunday kadrlarni tayyorlash va dunyo bilan raqobatga kirisha olishimiz uchun ta'lim jarayonlariga ijobiy o'zgarishlarni kiritish talab qilinadi, ya'ni, innovatsion ta'lim muhitini yaratish va shu asosida talabalarining innovatsion faoliyat madaniyatini shakllantirish zarur hisoblanadi. Innovatsion ta'lim muhitida yetishib chiqqan kadrlar, zamonning har qanday o'zgarishlariga tezda moslasholadi va o'zining innovatsion intellektual salohiyati natijasida muammoning innovatsion yechimlarini topa oladi.

Demak, innovatsion faoliyat olib boradigan kadrlarni yetishtirish uchun ta'lim jarayoniga jiddiy o'zgartirishlarni kiritish talab qilinadi. Chunki talabadan to yuksak darajadagi innovatsion fikrlay oladigan kadrgacha olib chiqish jarayoni ko'p faktorli jarayon hisoblanadi. Bunda nafaqat oliy ta'lim muassasalari, balki ishlab chiqarish korxonalari, servis xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, shuningdek, jamiyatning barcha qatlamlarining faol qatnashishi talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Oliy ta'lim muassasalarining tadqiqot va innovatsion faoliyati ko'lamini kengaytirish, ular negizida biznesinkubator va texnoparklarni tashkil etgan holda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish" vazifalari belgilab berilgan. Bu esa texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining innovatsion faoliyat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish va joriy etish yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarimizni asoslaydi.

Shaxslarning innovatsion qobiliyatlari erkin jamiyatda, oilada, ta'lim jarayonida va ish muhitida shakllanadi. Buning uchun esa jamiyatda, ta'lim jarayonida va ish muhitida innovatsion fikrlash va innovatsion faoliyat olib borish uchun yetarli sharoit va imkoniyatlar yaratilgan bo'lishi kerak. Innovatsion yangiliklar shaxsning miyasida paydo bo'ladi. Ammo innovatsion g'oyalarga yetarli darajadagi innovatsion muhitni, o'z navbatida, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar yaratilib berilmas ekan, har qanday innovatsion yangiliklar o'z-o'zidan so'nib, yo'q bo'lib ketishi mumkin. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida va ishlab chiqarish tarmoqlarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish va innovatsiyalarni yaratishga barcha sharoitlar yaratilgan bo'lishi talab etiladi.

Ta'lim muassasalari innovatsion ta'limni, innovatsion yangiliklarni va ilmiy bilimlarni tashuvchisi bo'lib, davlatning rivojlanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, avvalo, bozor talablari va iqtisodiy taraqqiyotga muvofiq, universitetlar innovatsion ta'lim maqsadlarini ishlab chiqadilar, shuningdek, har bir ta'lim muassasasi o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'quv dasturlarini innovatsion rivojlanishning bosqichlariga moslashtiradilar. Bunda, asosan, davlatning uzoq yillik strategik rivojlanish yo'nalishlari hamda tez o'zgaruvchan mehnat bozorining kadrlarga bo'lgan talab va taklif munosabatlari, shuningdek, respublikamiz hududlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, yaratiladigan yangi innovatsion texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan ishlab chiqarishlarning tashkil topishini ko'zda tutub, chuqur ilmiy tahlillar asosida oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini ham shu masalalarni to'laqonli yechimiga qaratilganligi hamda ninnovatsion ta'lim muhitini yaratish bilan amlga oshirish mumkin bo'ladi. Shuningdek, davrning har qanday o'zgarishlariga tez moslashuvchan, innovatsion fikrlay oladigan kadrlarni yetishtirishga imkon beradigan o'quv jarayonlarini innovatsion yondashuvlar asosida rejalashtirilishi ta'limning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun, albatta, ishlab chiqarish bilan ta'limning uzluksiz integratsiyasini ta'minlash zarur hisoblanadi.

Bunda ishlab chiqaruvchi korxonalar mutaxassislarini bevosita texnika oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlariga jalb qilinishi, ular bilan hamkorlikda ve benar darslarning tashkil qilinishi, shuningdek, texnologik ishlab chiqarish jarayonlaridagi mutaxassislar bilan to'g'ridan to'g'ri videokonferensiyalarning tashkil qilinishi hamda talabalarining fan va soha doirasidagi savollariga bevosita mutaxassislarining javob berishlarining tashkil qilinishi, ta'limda yangi innovatsion muhitni yaralishiga imkoniyat yaratilgan bo'lardi. Buning natijasida talabalarining nafaqat fanga, balki o'z mutaxassisliklariga qiziqishlari oshishiga, shuningdek, innovatsion fikrlay oladigan mutaxassislar bo'lib yetishishlariga zamin yaratilgan bo'lar edi.

Yuqori darajadagi innovatsion universitetlar nafaqat texnik ko'nikmalarni va tajribalarni tarbiyalaydi, balki umumiy fikr va hamjihatlik hissini ham rivojlantiradi. Ta'lim jarayonida qatnashuvchi shaxslarning o'zaro iliq munosabatlari, bir-biriga yo'naltirilgan motivatsiyalar, jamoaviy ishlash ruhiyati, mukofot va e'tiroflarni ta'minlash, har bir talabani qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni joriy qilish, talabalarni soha va fanning muammolarini yechishning yangi yo'llarini topishga yo'naltiruvchi ta'lim muhitini yaratish, shuningdek, jamiyatda ta'limni qo'llab-quvvatlovchi innovatsion infratuzilmani shakllantirish natijasida innovatsion ta'lim muhitini va talabalarining innovatsion faoliyat madaniyati shakllantiriladi.

Texnika oliy ta'lim muassasalaridagi innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'nalishlaridan asosiy talabalarni innovatsion faoliyat madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirish bilan baholanadi.

Innovatsion g'oyalar, ko'pincha, yangi bozorlarning paydo bo'lishiga, ishlab chiqarishning yangi turlariga, yangi mahsulotlarning va servis xizmatlarning yaralishiga asos bo'ladi. Ammo innovatsion g'oyalarni shakllantirish uchun, avvalo, muammolarni aniqlash, ma'lumotlarni to'plash, yangi g'oyalarni shakllantirish, g'oyalarni baholash va amalga oshirish bosqichlaridan o'tishi lozim bo'ladi. Bularni amalga oshirish uchun ishlab chiqarish korxonalarini bilan texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini yo'lga qo'yish bilan baholanadi. Bunda, asosan, korxonalar mutaxassislari bilan oliy ta'limning shu soha yo'nalishidagi professor-o'qituvchilari va talabalarining belgilangan grafik asosida o'quv faoliyatini yo'lga qo'yish orqali amalga oshiriladi. Bu o'quv jarayonida korxonalar mutaxassislari tomonidan ishlab chiqarish texnologik jarayoni va unda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan texnologik muammolar to'g'risida talabalarga to'laqonli ma'lumotlar beriladi. Korxonalar mutaxassislari bilan professor-o'qituvchilar hamkorligida talabalarga ishlab chiqarishning texnologik yoki konstruktiv muammolarni yechishning eng samarali yo'nalishlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Talabalar esa muammolarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilishadi va o'zlarining individual yechimlarini taqdim etishadi. Natijada talabalarining individual fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishiga, sohaga va fanga nisbatan qiziqishlarining

yanada oshishiga, mustaqil izlanishlariga va innovatsion faoliyat madaniyatining shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarining muammolarini o'rganish va tahlil qilish asosida oliy ta'limning mos texnika yo'nalishlarining ta'lim jarayoni uchun muammolar bazalari shakllantiriladi. Shakllantirilgan muammolar bazalari asosida talabalarga mustaqil ishlar, amaliy ishlar, kurs ishlari, kurs loyihalari va diplom ishlari mavzulari ko'rinishida topshiriqlar beriladi. Bu esa talabalarining o'quv faoliyatining maqsadli tashkil qilinishiga va kelgusida ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Abishova Gulxan Matjanovna (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
Nemis tili va adabiyoti kafedrası stajor o'qituvchisi; email: [gulkhan.abishova@mail.ru](mailto:gulkhan.abishova@mail.ru))  
NEMIS TILIDAGI AKKUZATIV KELISHIGI BILAN QORAQALPOQ TILIDAGI TABIS  
KELISHIKLARINING QIYOSIY TIPOLOGIYASI**

***Annotatsiya.** Nemis va qoraqalpoq tillarida, ularning turli tillar oilasiga mansub bo'lishiga qaramasdan, otlarda kelishiklarning mavjudligi tipologik qiyoslanayotgan tillar orasidagi o'xshashlik bo'lsa, ularning son jihatidan farqlanishi har birining o'ziga xos bo'lgan xususiyatidan kelib chiqadigan nomutanosiblik hisoblanadi. Ushbu maqolada nemis tilidagi akkuzativ va qoraqalpoq tilidagi tabis kelishiklarining qiyosiy tipologiyasi o'rganilgan. Unda akkuzativ va tabis kelishiklarining o'xshash va o'ziga xos jihatlari solishtirilib, nemis tilidagi misollar qoraqalpoq tilida taqqoslab ko'rsatilgan.*

***Аннотация.** В немецком и каракалпакском языках, несмотря на их принадлежность к разным языковым семьям, является наличие сходства падежей у существительных между типологически сопоставляемыми языками, в то время как их многочисленные различия несоизмеримы в связи с особенностями каждого из них. В данной статье изучается сравнительная типология аккузативного падежа в немецком языке и винительного (табыс) падежа в каракалпакском языке. В ней сравниваются сходства и различия между аккузативным и винительным (табыс) падежами, а примеры из немецкого языка сопоставляются с примерами из каракалпакского языка.*

***Annotation.** In German and Karakalpak, although they belong to different language families, the presence of cases in nouns is a similarity between the languages being typologically compared, while their numerical differences are disproportionate due to the features of each. In this article the comparative typology of accusative case in German and tabis case in Karakalpak language is learned. It compares the similarities and differences between accusative and tabis case, and examples in German are collated with Karakalpak language.*

***Kalit so'zlar:** qardosh va qardosh bo'lmagan tillar, nemis va qoraqalpoq tillari, qiyosiy tipologiya, akkuzativ kelishigi, tabis kelishigi.*

***Ключевые слова:** родственные и неродственные языки, немецкий и каракалпакский языки, сравнительная типология, аккузативный падеж, винительный падеж.*

***Key words:** related and non-related languages, German and Karakalpak languages, comparative typology, accusative case, tabis case.*

Hozirgi davr jamiyatning har bir a'zosi yanada samaraliroq, faollroq harakat va mehnat qilishni talab etmoqda. Boshqa xalqning tilini o'rganish orqali o'zga xalqning hayoti, madaniyati, fan va texnikasining muvaffaqiyatlari haqida yaqindan tanishish imkoni tug'iladi.

Tilshunoslikning barcha sohasi qiyosiy metodga suyanadi va shu asosda o'rganiladi. Aksariyat hollarda, mutaxassislar qiyosiy metodni til o'rganish va til materiallarini tadqiq qilish uchun universal usul deb hisoblaydilar. Haqiqatdan ham, bu fikr isbot talab qilmaydigan aniq isbot ekanligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. Sababi qiyosiy metod faqatgina nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Metodistlar va tarjimonlar uchun uning amaliy ahamiyati beqiyosdir.<sup>1</sup>

Qardosh bo'lmagan tillar tuzilishini bir-biri bilan qiyoslab o'rganishning kengayib borish sabablarini professor R.Y.Barsuk beshta omil bilan bog'lasa,<sup>2</sup> professor J.B.Bo'ronov sakkizta omilini asos qilib

<sup>1</sup> Ивченко П.П. Личностный подход к отбору дополнительного материала при обучении немецкому языку. Т., "Иностранные языки в школе", № 6, 1999, с. 30 – 37.

<sup>2</sup> Барсук Р.Ю. Основные проблемы обучения иностранным языкам в национальной школе. Баку, 1970.



ko'rsatadi.<sup>1</sup> Ushbu omillar fikrlarining o'xshash tomonlari shundaki, ularning ikkalasida ham oxirgi o'rinlarda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganligiga alohida e'tibor beriladi va asosiy omillardan biri deb ko'rsatiladi.

Chet tilini o'rganuvchi (bu yerda g'arb tillari nazarda tutilyapti) ona tiliga xos bo'lmagan til hodi-salariga duch keladi. Bu esa o'rganilayotgan til xususiyatlarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarni yuzaga kel-tirib chiqaradi. Ushbu qiyinchiliklar natijasida yo'l qo'yilishlari mumkin bo'lgan holatlarni bartaraf qilish uchun xorijiy til bilan ona tilning o'xshash yoki noo'xshash tomonlari to'la hisobga olinishi lozim.

Lingvistika sohasida ikki yoki undan ortiq tillarni o'rganishga oid (ingliz va o'zbek, ingliz, o'zbek va rus, ingliz va rus, ingliz va qoraqalpoq, nemis va qoraqalpoq, fransuz, o'zbek va rus hamda boshqalar) ilmiy ishlar mavjud. Har xil oilaga mansub tillarni, shu jumladan, nemis va qoraqalpoq tillarini qiyosiy o'rganishning nazariy ahamiyati: "Qiyoslanayotgan tillar tizimini chuqur anglab yetish, qiyoslanayotgan tillarga oid bilimlarning ortishi hisoblanib, gipotetik universiyalarning to'g'ri ekanligini isbotlashdan ibo-ratdir".<sup>2</sup>

Ma'lumki, nemis tili flektiv tillar oilasiga mansubdir. Qoraqalpoq tili esa nemis tiliga batamom zid bo'lgan agglutinatív, ya'ni, turkiy tillar oilasiga, uning ham qipchoq tillari guruhiga tegishli bo'lib, so'z asosiga aniq grammatik ma'nolarga ega bo'lgan qo'shimchalar qo'shilish orqali yasalishi qoraqalpoq tili-ning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Nemis va qoraqalpoq tillari orasida ma'lum bir mushtaraklik bo'lmasa ham, ularni qiyosiy o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Chunki mazkur tillar ustida qiyosiy-tipologik tadqiqotlar juda kam. Ayniqsa, bu fikr tillarning grammatik qurilishida asosiy o'rinlardan birini egallaydigan ot kate-goriyasiga ham tegishlidir.

Qoraqalpoq tilida kelishiklar kategoriyasi to'g'risida e'tiborga loyiq tadqiqotlar yurgizilgan. Qora-qalpoq tilshunos olimlaridan biri A.Qidirboyev 1944-yili o'zining nomzodlik dissertatsiyasini qoraqalpoq tilida kelishik kategoriyasiga bag'ishlagan. Ilmiy izlanishlarining natijasida olim qoraqalpoq grammati-kasida oltita emas, balki yetti kelishik mavjud ekanligiga ishonirishga harakat qilgan. Yettinchi kelishik-ni yordamchi (kómekles) deb atab, uning grammatik shakllari sifatida *menen, benen, penen (qálem me-nen, at penen, joldas penen)* yordamchi so'zlarini ko'rsatadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, nemis tilidagi instrumentalist, shuningdek, qoraqalpoq tilidagi, A.Qi-dirboyev ko'rsatganidek, ko'makdosh (kompleks) kelishiklari shakli va funksiyalari tomonidan bir-biriga juda o'xshash. Demak, yuqorida aytilganlarga xulosa sifatida shuni aytish joizki, hozirgi zamon ne-mis ti-lida to'rtta, qoraqalpoq tilida esa oltita kelishik mavjud.<sup>3</sup>

#### Ular qu'yidagilar

Nemis tilida	Qoraqalpoq tilida
